

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI
JALOLIDDIN
RUMIY
YUNUS EMRA
AHMADIY
39

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

JALOLIDDIN RUMIY
YUNUS EMRA
AHMADIY

39

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI
Inv. № 5085
AXBOROT RESURS MARKAZI

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5
R 88

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Tohir Qahhor

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-6-3

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

JALOLIDDIN RUMIY

RUHONIYAT SHOIRI

I

Bugungi dunyoda yashayotgan insonlar ikki turli qarashga ega: birlari olamni, odamni tabiat va tasodif mahsuli deydilar; ikkinchilari olamlarni, jamiki maxluqlarni, jumladan, insonni buyuk Tangri yaratgan deb biladilar. Eskidan bashar yaratgan fan, san'at, she'riyat bu ikki yo'nalishda shakllandi. Masalan, adabiyotda, jumladan, she'rda Allohga e'tiqodsiz insonni, uning hayotini yolg'iz moddiy, yuzaki, ko'zga ko'rinuvchi hodisalar orqaligina tasvirladilar. Olamlarni, yer-u ko'klarni, maxluqlarni, eng sharafli maxluq bo'lgan insonni ("Tarixi farishta" kitobida yozilishicha, maxluqlarning eng sharaflisi — inson, eng tubani itdir) bu qadar mukammal-u mumtoz qilib yaratgan butun borliqning egasi — Tangrining qudrati va ilohiy san'atiga ishonuvchilar, odamni badan va ruhdan iborat deb biluvchi, ruhning abadiyligiga ishonuvchilar esa, o'z asarlarida insonning ruhiy olamini tasvirlashga intildilar.

Ota-bobolari asli xorazmlik bo'lgan Jaloliddin Rumiy ana shunday ruhoniyat shoiridir. Bunga uning butun asarlari dalildir. Unga tug'ilishidan, bolaligidanoq ruhiy quvvat berilgani to'g'risida manbalarda, rivoyatlarda bor.

Shoirning hayot tarixiga ko'ra, u hijriy 604-sananing rabiul avval oyining oltinchi kunida (30.09.1207 melodiy) Balxda tug'ilgan. Uning otasi — Muhammad Bahouddin Valad zamonining mashhur so'fiysi, notiq va'zxoni bo'lgan. Muhammad Bahouddin Valad sulton-ul ulamo atalgan, mavqeyi baland bo'lgan. Uning otasi Husayn al-Xatibiy esa, Alouddin Muhammad Xorazmshohning qiziga uylangan. Demak, Jaloliddinning bobosi Husayn Xatibiy, buvisi esa xorazmshohlardan ekan.

Xorazmshohlar tarixidan ma'lumki, 1017-yilda g'aznalik Mahmud Xorazmni o'z imperiyasiga qo'shib olgach, o'zining bosh hojibi (eshik og'asi) Oltintoshni "xorazmshoh" unvoni bilan bu

davlatga hokim etib tayinlaydi. 1043-yilda esa Xorazm Saljuqiylar davlatiga o'tadi. Noib Otsiz Xorazmshoh mustaqil siyosat yurita boshlagach, davlat sarhadlarini kengaytirgan: Eronning sharqiy qismi ham bu ulkan davlatga qaragan. Takashning o'g'li Muhammad Xorazmshoh zamonida esa (1200–1220) Xorazm sharqdagi Fors ko'rfazigacha, Hindiqush tog'laridan Firot daryosigacha cho'zilgan katta imperiyani tashkil etgan.

Jaloliddinning otasi, sulton-ul ulamo Muhammad Bahouddin Valad xuddi ana shu xorazmshohlarning davlati va shavkatining cho'qqiga chiqqan davrida yashadi, Jaloliddin ham shu yillarni ko'rdi. Sulton-ul ulamo va Xorazmshoh munosabati buzilgach (bu turlicha talqin qilinadi), shoh tomonidan uning mamlakatdan chiqib ketish maslahati amr etiladi: so'ngra Bahouddin Valad juma kuni xalqqa va'z o'qiydi va xayrlashadi, uy ichi va uch yuz muridi bilan tuya karvoni vositasida Balxdan Bag'dodga yo'naladi. Makkaga borib, haj qiladi. Damashqda biroz muddat yashaydi. (U zamonlarda Xorazmshoh mamlakati Iroqqacha cho'zilgan edi.)

Mavlono Bahouddin Valad hazrat shayx Najmiddin Kubroning mashhur muridlaridan biri bo'lgani Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ta'kidlangan. Jaloliddin besh yoshida ekan, Bahouddin Valad Balxdan yo'lga chiqib, avval Hijozga, keyin Shomga boradi. Otasining ortidan ketayotgan Jaloliddinga qarab, shayx Muhiddin Arabiy: "Subhon Alloh! Bir bahri muhit (okean) ning dengiz ortidan borishini qarang-a!" degani rivoyat qilinadi. Ular Balxdan yo'lga chiqib, Nishopurdan o'tayotganlarida, ulug' shayxlardan biri, mashhur shoir Farididdin Attor bilan ko'rishadilar. Attor yosh Jaloliddinga o'zining "Asrornoma" kitobini tuhfa etadi. Mavlono Bahouddin Valad Shom yo'lidan bugungi Turkiya yerlariga o'tadi, Arzinjonda, so'ngra Oqshehirda to'xtaydi, madrasalarda to'rt yilcha dars beradi. Jaloliddin otasidan butun ilmlarni o'rganadi. Bahouddin Valad so'ngra Loranda (hozirgi Karaman)ga boradi, u yerning hokimi Amir Musa unga atab maxsus madrasa qurdiradi va uni madrasaning bosh mudarrisi deb sharaflantiradi.

Obiddin Poshoning yozishicha, Jaloliddin Loranda shahrida ilmini kamolga yetkazadi, "...haddi balug'a erishub, Hoja Sharafiddin Lolo Samarqandiyning duxtari pokizasi Gavhar xotunni

iqdi nikohi ila olti yuz yigirma uch tarixinda birinchi maxdumi sulton Valad hazratlari dunyoga kelmushdir". Yana shu kitobda yozilishicha, sulton-ul ulamo, Bahouddin Valadni Turk sultoni Alouddin Kayqubod Qo'nyoga taklif etib, unga maktub yozadi. Mavlono yo'lga otlanganini unga aytishgach, sultonning o'zi unga peshvoz chiqadi, (1228-yil edi o'shanda) tantanali kutib oladi. So'ngra sulton-ul ulamo hazratlari Qo'nyodagi Oltunpo madrasasida istiqomat qiladi, dars va nashr ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Uning o'qigan va'zlari butun Saljuq davlatida, xususan, uning boshkenti Qo'nyoda shuhrat topadi, sulton-ul ulamoning va'zini eshitish uchun amirlar, hatto saljuqlar hukmdori Sulton Alouddin Kayqubodning o'zi ham muttasil kelib turardi. Qo'nyoda masjid va madrasalar juda ko'p edi. Jaloliddin mana shunday ilmiy, ruhoniy bir muhitda ma'naviy tarbiyasini yanada rivojlantirib, kamolga yeta boradi. Sulton-ul ulamo hijriy 628 sanasida, rabi-ul oxirning 18 ida, juma kunida (melodiy 1231-yil 6-fevral) vafot etadi.

Mavlono Jaloliddin otasining o'rniga bosh mudarris etib saylanadi, otasidan olgan bilim va tajribalariga suyanib, va'z va fatvo ishlarini davom ettiradi. Hazrat Bahouddin Valad vafotidan bir yil o'tib, uning muridlaridan biri, Burhoniddin Muhaqqiq (muhaqqiq — haqiqat izlovchi, olim va so'fiy bu insonning taxallusi) Termizdan Qo'nyoga keladi, yosh Jaloliddinning otasi sulton-ul ulamodan olgan aqliy va naqliy bilgilarini taqdirlagan holda, uning his-tuyg'uga tayangan boshqa bir irfonga ham sohibligini ta'kidlab, Jaloliddinni o'z muridlari safiga oladi. Shayxning maslahati bilan Mavlono Jaloliddin 1233-yilda bilimini yanada takomil toptirish uchun Halabga jo'naydi, o'rniga bosh mudarris vazifasida Burhoniddinni qoldiradi.

Halab bu davrda islom olamining katta madaniy markazlaridan biriga aylangandi. Turkiston taraflardan, mo'g'ullar saltanati g'avg'olaridan qochib borgan ilm-u irfon ustunlari ham, uzoq Andalusiyadan kelgan ilm kishilari ham shu yerga to'plangan edi. Bu yerda u to'rt yil qoladi, so'fiylikning buyuk nazariyotchilaridan Muhiddin Ibn al-Arabiy kabi shaxslar bilan tanishadi. Shuhratli Xalaviya madrasasida tahsil ko'radi. Tasavvur va fiqhda bilimini

kamolga yetkaradi. 1240-yilda boshkent Qo'nyoga qaytgach, uni saroyda katta tantana bilan qarshilashadi. Mavlono Jaloliddin fiqhdan dars berishga kirishadi.

1241-yilda Burhoniddin Muhaqqiq vafot etgach, Jaloliddin Rumiy yana bosh mudarris vazifasini bajara boshlaydi. U o'qigan va'zlar shuhrati keng taraladi. O'g'li sulton Valadning yozishiga ko'ra, "uning go'zal ovozi olamni tutti, ruhlarga hayot berdi". Muridlari ham ko'payib bordi. Butun saljuq (hozirgi Anatuli) turklari, atrof davlatlardagi musulmonlar ham Mavlono Jaloliddinning dovrug'ini eshitdi va uning va'zini tinglashga keluvchilar safi dengiz to'lqini kabi doimiylik kasb etdi. Bu ilohiy, ma'naviy to'lqin insonlar ongi — shuurida birlik tuyg'usini yaratdi.

Shu davrda Mavlono Jaloliddin hayotida unutilmas bir uchrashuv bo'ladiki, bu uning yashash tarzini tamoman sokinlik o'zanidan yulib olib, boshqa bir yo'lga yo'naltirib yuboradi. 1244-yilning 29-noyabrida Qo'nyoga so'fiy Shamsiddin degan darvish kirib keladi. Uni Shams Tabriziy ham deyishadi. U Tabrizda, savdogar oilasida tug'ilgan bo'lib, yoshligidan so'fiylik, tasavvuf ilmi sirlarini o'rgangan, ustodlari zamonining mashhur shayx-so'fiylaridan edi. Ilm olish, dunyoni ko'rish, so'fiylar bilan uchrashish uchun u doim sayohat qilardi, shuning uchunmi, "Parranda" laqabini ham olgandi. Sohibdillar uning ma'naviy parvozi kuchli bo'lganidan shunday atashgan. Qo'nyoda o'z talabalari va muridlari bilan ko'chada borayotgan Mavlono u bilan uchrashib qoladi. Shams Tabriziy unga: "Payg'ambar Muhammadmi buyuk va yoki shayx Boyazidmi?" degan mazmunda savol beradi. Mavlono, tabiiyki, hazrat payg'ambarimiz buyukroqdir, degan javobni aytadi. Darvish buni rad qiladi va fikrining isbotini so'zlaydi... Shu bo'yicha ular hamsuhbat, do'st bo'lib qoladilar.

Shamsiddin Ahmad Aflokiyning "Manoqib ul-orifin" (muallif Mavlononing zamondoshi bo'lgan, bu kitobni hijriy 718, melodiy 1318 da yoza boshlagan) asarida ta'kidlanishicha, "se moh tamom (Shams va Mavlaviy) dar hujrayi xilvat... nishastandki, aslo birun naomadand..."[1] Demak, ikki ulug' so'fiy olim uch oy tashqariga

[1] Doktor Nosiriddin Sohibzamoniyning Tehronda 1972-yilda chiqqan forscha "Xatti sevvum" kitobi, 20–21-b.

chiqmay suhbatlashgan. Shamsiddin Muhammad Tabriziy rind, jo'shqin bir so'fiy, talqini go'zal, quvvatli, fe'li qat'iy, aytganini bajartira oladigan ustod bir inson edi. Mavlono bu darvishga tasavvufiy ma'noda oshiq bo'ldi, uning suhbatidan ayrilolmay qoldi. Shams Tabriziy Mavlono Jaloliddin ruhini zohiriy belgilar, tushunchalar doirasidan, zohiriy ibodat dunyosidan uzoqlashtirib, tuyg'u va tushuncha olamlarining keng va asrorli ufqlariga parvoz ettirdi; anglamoqqa sari yetakladi, bir iymon va hayajon olamiga yo'llab, samo zavqini tottirdi.

Mavlono Jaloliddin endi butunlay boshqa — ruhoniy bir dunyo ichida edi. Shamsiddin Tabriziy bilan do'st bo'lgach, butunlay tasavvufga toldi; she'rlar yozdi; turk-islom tasavvuf adabiyotidagi buyuk bir shoir bulog'ining ko'zi ana shunda ochildi. Mavlono darsni, muridlarini, talabalarini, butun moddiy dunyoni unutdi. Ustodlarining bu holidan junbushga kelgan muridlar hech bir chora topolmagach, Shamsning hayotiga tahdid qilishgacha bordilar. Shams 1246-yil 11-martda jonini tahlikadan qutqarmoq uchun Qo'nyodan Shomga qarab qocha ketdi.

Ammo Mavlono Jaloliddin avvalgiday yashay olmasdi. Muridlari ko'rdilarki, ustodlari boshqa bir olamda; u dars o'tish, va'z o'qish holatida emas. Afu tiladilar. Natijada Mavlononing o'g'li Sulton Valad Shomga jo'nab, Shamsiddinni topib keltirdi. Ammo bu qaytish kutilgan natija bermadi: Qo'nyo muhiti bu ikki malaksifat do'stligini, suhbatlarini, ruhoniy yo'ldoshliklarini hazm eta bilmadi. Muridlar takror junbushga mindilar, mojaro shu bilan tugadiki, oromini butunlay yo'qotgan Shams Tabriziy 1247-yilda ko'rinmasdan, bildirmasdan Qo'nyodan g'oyib bo'ldi. Boshqa xabari kelmadi.

Mavlono Jaloliddin yillar o'tib boshqa suhbatdoshlar topdi, ammo Shamsdek buyuk bir ruhdoshga yetisha olmadi. Do'stdan — ma'naviy o'rtog'idan ayrilish tufayli Mavlono juda ko'p g'azallar bitdi. Uning fikriy olami ta'sirida jo'shqin tasavvufiy she'rlar yozdi. Ular jamlangan devon "Devoni Shamsi Tabriziy" deyiladi, unda 54 000 bayt she'r bor.

Mavlono umrining oxirigacha ruhoniy bilgi bilan insonlar ongini yoritdi. U muridlariga, talabalariga tushunchalarni musiqa

va raqs vositasida egallash yo'lini o'rgatdi. Mavlono Jaloliddin zamonidan bu kunlargacha Turkiyada mavlonocha raqsi samo' — bir usuli ibodat kabi davom etib kelmoqda.

Obiddin Poshoning yozishicha, Mavlono Rumiyning eng sevimli muridlaridan Hisomiddin Chalabiy: "Ustoz, Attorning "Mantiq ut-tayr"i kabi bir kitob yozsangiz", deya unga ko'pchilik fikrini iltimos qabilida yetkazadi. Mavlono muridiga bu fikr ancha avval o'zining ham ko'ngliga kelganini, hatto kitobning bir qismi yozilganini aytadi. Shundan so'ng Hisomiddin ustozga yozuv ishlarida yordam berib, xizmat qilib turadi. Nihoyat olti jildli, 25 632 baytdan iborat "Masnaviy"i sharif bitildi. Bu kitob fors tilidagi Qur'on deya ulug'lanadi...

Bu asar haqidagi so'zni shu yerda vaqtincha uzib, nechun o'zi turk bo'la turib, onasi xorazmshohlarga mansub aslzoda bir turkistonlik, Saljuq turklari davlati boshkenti Qo'nyoda yashab turib, fors tilida yozdi, degan savolga javob beraylik. Sho'ro davrida Turkiston va uning asl egalari bo'lgan turk millati, madaniyatiga qarshi siyosat olib borilishi oqibatida, davr majburiyati ostida, fors tilida yozgan ijodkorlar, mutafakkirlar, buyuk shaxslarning ba'zilari haqsiz ravishda milliy mansubiyati noto'g'ri talqin qilindi. Jumladan, Mavlono Jaloliddin ham "tojik"ka chiqarildi: 1975-yilda Dushanbada bosilgan "Gulshani adab"ning birinchi jildida "...zodgohi Jaloliddini Rumiy Vaxshi tojikon ast" deb yozdilar. Mantiqsizlikni qarang: nima, xorazmshohlar "tojik"midi? Tarixdan ma'lumki, arablarning eski Turkiston yerlariga kirib kelishi, eski turklarning davlatlari, dinlari, yozuvlari yo'qotilishi oqibatida bir necha yuz yillar davomida turkistonliklar xalifalik imperiyasi ta'siri ostida qolib, ilmiy-fanniy asarlarni arab tilida, adabiy, tarixiy asarlarni fors tilida yozdilar. Buni Turkistonning mashhur, buyuk kishilar — din ilmida, masalan, Burhoniddin Marg'inoniyni, besh nafar turkistonlik muhandis olimlarimizni, fanda Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolarni, arab tili grammatikasini yozgan Zamaxshariyni eslashimiz mumkin. Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" kitobida ijodlari haqida hikoya qilingan mingdan ortiq turkistonlik arab tilida yozgani uchun arab deyilayotgani yo'q-ku! Yoki bugunda — ya'ni bugungacha — rus tilida yozgan

qirg‘iz turki Chingiz Aytmatov yoki qozoq turki O‘ljas Sulaymonov “rus” deyilayotgani yo‘q-ku?

Jaloliddin Rumiy aslida turkdir, xorazmshohlikdir. U Balxda tug‘ilgan davrda bu shahar Xorazmshohlar mamlakati tasarrufida edi; zotan bugunda Afg‘oniston tuprog‘ida bo‘lgan bu shahar eski zamonlardan beri Turkiston va Turonning o‘nlab mashhur shaharlaridan biri sanalib kelingan. Mavlononing ijodi bugungi dunyoda yashayotgan uch yuz millionli barcha turk dunyosiniki va yuz millionlab fors, dariy, afg‘on tilida so‘zlashuvchi millatlarniki, jumladan, tojiklarniki ham. To‘rt yuz million xalqqa tegishli bir boylikni besh-olti millionli bir xalqning ayrim naqllari “bu bizniki” degan bilan ularniki bo‘lib qolmaydi, haqsiz, mantiqsiz harakat nizo va g‘ulg‘ula tug‘diradi xolos. Holbuki, gap buyuk bir shaxsiyatlar ustida, ular yaratgan, insoniyatga tuhfa va meros kabi qoldirgan ma’naviy, ruhoniy ne’matlar haqida ketyapti.

Demak, ikki dunyo yaxshiligi yo‘lidagi ne’matga biz ham munosib o‘laroq yaxshilik bilan munosabatda bo‘laylik, o‘rganaylik, amal qilaylik.

“Masnaviy”i sharif quyidagi bayt bilan boshladi:

Bishnav az nay chun hikoyat mekunad,
Az judoiho shikoyat mekunad.

Bu bayti sharif juda mashhur bo‘lib, tarjimalari ham, sharhlari ham ko‘p. Masalan, namanganlik ulug‘ tasavvuf shoiri Boborahim Mashrab Mavlono Jaloliddinning “Masnaviy”idan ta’sirlanib bitgan “Mabdai nur” asarida:

Anglag‘il, nay ne hikoyatlar qilur,
Kim judolig‘din shikoyatlar qilur, —

deya tarjimasini keltiradi. “Naynoma”ning bu satrlarini zamondosh shoirimiz Jamol Kamol esa:

Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,
Ayriliqlardan shikoyatlar qilur, —

tarzida bir necha yil avval tarjima qilgan edi.

Mavlono Rumiyning bu asari hijriy 662 sanadan yozila boshlagani Obiddin Poshoning yuqorida aytganimiz asarining birinchi jildida (11-bet) asoslab berilgan.

Bundan tashqari, shoirning “Fih mofih”, “Makotib”, “Majolisi sa’ba” kabi asarlari ham bor.

Jaloliddin Rumiy umrining so‘ngigacha diniy vazifa va ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Mavlaviya maktabiga asos soldi (mavlaviya asosan uning o‘g‘li Sulton Valad yetakchiligida shakllanganini olimlar ta’kidlashadi). Uning vafoti tarixi 1273-yilning 12-dekabri; “Hazrat Jaloliddin Rumiyning ruhi purfutuhlari hijratning 672 sanasi jumodil oxirasining beshinchi kuni oqshoma yaqin dorulnaima parvoz aylamishdir”, deb yozadi Obiddin Posho (12-bet).

Mavlono Jaloliddin turbasi o‘sha davrlardan bugungacha Qo‘nyo shahrining eng birinchi, mo‘tabar ziyoratgohi sanaladi. Turbada ulug‘ sultonlar, shayxlarning ham, Mavlonoga oila jihatdan bog‘liq kishilarning ham hashamatli qabrlari bor. Turba yonida Mavlononing muzeyi bo‘lib, unda shoirning asarlari, unga bog‘liq ashyolar, butun turk dunyosida yetishgan tasavvuf shoirlarining asarlari qo‘lyozmalari mavjud. Turba ziyoratchilarining safi uzilmaydi. Dunyo nasorolari va musulmonlari Turkiyaning Saljuq shahri yaqinida Bulbultog‘dagi hazrat Iso payg‘ambarning onasi Bibi Maryam maqbarasi ziyoratiga oqib borganlari kabi Qo‘nyoga ham tinimsiz safar qilishadi. Turkiyaning barcha yeridan, dunyodan kelgan sayyohlar Mavlononi ziyorat qilib, ulkan marmar qabrtoshning zinalariga qo‘llarini, peshonalarini, yuzlarini surib, tavof etishadi; tik turgancha uzoq-uzoq duo qilishadi.

Nosiriddin Sohibzamoniyning Tehronda chiqqan “Xatti sevvum” kitobida aytilishicha, Mavlono haqida yozilgan eng eski asarlar quyidagilardir: 1. Uning o‘g‘li Bahouddin Sulton Valad (1224–1312)ning “Masnaviyi Valad” yoki “Valadnoma”si; Tehron hijriy 1315-y. nashri bor. 2. Shamsiddin Ahmad Aflokiy (shoirning zamondoshi)ning “Manoqib ul-orifin” asari; 1959-yilda Anqarada tarjimasi chiqqan. 3. Faridun bin Ahmad Sipohsolorning “Risolai dar ahvoli Mavlono” asari (hijriy 719–729, melodiy 1319–1328 da bitilgan), Tehron, 1325 (hijriy) nashri bor.

O‘zbek tilida ruschadan Jamol Kamol tarjima qilgan Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” kitobi mavjud. O‘zbek o‘quvchilari Mavlono Rumiy asarlarini hozirgacha asosan ruschada o‘qib keldilar, mana, endi buyuk mutafakkir shoirning “Masnaviy”i sharifidan parchalar va bir qator ruboiylari ilk bor kitob holida nashr etilmoqda. Atoqli shoirimiz Jamol Kamol she’rlarni forschadan tarjima qilgan, aslidagi mazmun, ishora, san’atlar tarjimada ham ayon ko‘rinib turibdi.

Ma’lumki, “Masnaviy”i sharif fors tilidagi adabiyotga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Shibliy No‘moniyning ta’kidlashicha, bu asar shuhrati bo‘yicha Firdavsiyning “Shohnoma”si, Sa’diyning “Guliston”i, Hofiz Sheroziyning “Devon”i bilan bir qatorda turadi. (Rumi, “Gazeli Pritchi”. Dushanbe, “Adib”, 1988, str. 23). Rasul Hodizodaning shu kitob so‘zboshisida aytishicha, shoirning lirikasi, g‘azallaridagi mavzudan Hofiz, Jomiy, Bedil kabi shuhratli sharq shoirlari ham ta’sirlangan.

Turkiston faxri, oriflar sultoni, ulug‘ bobomiz Ahmad Yassaviy hikmatlari Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini sodda turkchada bayon qilib berilgani uchun to‘qqiz yuz yildirki, nafaqat Turkiston turklariga, balki butun dunyo turklariga ham sevimli bo‘lib kelmoqda. Menimcha, Mavlono Rumiyning “Masnaviy”i sharifi xuddi ana shu vazifani o‘tagani uchun ham fors tilli va turk tilli xalqlarning ma’naviy darsxonasi deya ulug‘lanmoqda. Abul A’lo al-Maarriyning “Al-luzumiyat”i inson qalbining tabiati sirlari haqidagi kitob sanalib, asrimizning yigirmanchi yillarigacha butun turk dunyosidagi madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgani bo‘lsa, Mavlono Rumiyning “Masnaviy”si inson ruhoniy hayotining, o‘tkinchi va abadiy hayotining darsligi sifatida butun sharq, musulmon dunyosida doimo o‘qilgan. Ovrupoda ham, olmonlar ichida ham Mavlononi Aristotel va Platon kabi ruhshunos olimlar, daholar qatorida ixlos bilan o‘rganishgani ma’lum. (Mashhur olmon ruhshunos olimi Gegel o‘z ilmiy qarashlariga Rumiy falsafasini asos qilib olganini eslang.)

Obiddin Poshoning “Tarjuma va sharhi “Masnaviy”i sharif” asarining birinchi jildida berilgan “Ixtorot” (eslatishlar)da ta’kidlanishicha, o‘quvchi “Masnaviy”dagi hikoyaning suratiga emas,

ma’noga, maqsadga diqqat qilishi kerak (13-bet). Ta’kidlanishicha, bu kitob din asoslarining asosidir va Allohning ziyoda porlovchi shar’iy va yana Allohning ziyoda zohir bo‘lgan hujjat-u burhonidir; Tangri nurining misli va sifoti ichkarisida chirog‘ bo‘lgan qandil kabi atrofni nurlantiradi, yoritadi va u tonglarning nuridan ziyoda nurlidir... bu kitob ko‘kslarning shifosi... va Qur’oni azim-ush-shonning kashshofi va rizqlarning kengligi, mo‘lligi va axloqning yaxshiligidir...” (10–15 b.)

Nechun eslatishlarda hikoyadagi tashqi ko‘rinishga, aytilayotgan gapning tashqi — shundoqqina ko‘rinib turgan birinchi ma’nosiga emas, undan chiqadigan ma’no ne, maqsad ne — bunga ko‘ngil ko‘zini qaratish kerak, deyiladi? “Masnaviy”i sharifning sharhlari shunga javob tarzida bitilgan. Masalan, asarning birinchi baytiga yigirma bir bet (qarang: Obiddin Poshoning yuqoridagi asari, 17–37-betlar) sharh berilganki, shu sharhning ayrim o‘rinlarini keltirsak, masala oydinlashadi, deb o‘ylayman.

“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad. Az judoiho shikoyat mekunad” bayti sharifning so‘zma-so‘z tarjimasi bu: eshit, nay qanday hikoyatlarni aytmoqda; firoqlardan shikoyat qilmoqda.

Bu yerda naydan maqsad — orif va oqil bo‘lgan inson, chunki uning og‘zidan doimo oshiqona, laziz va ma’noli so‘zlar chiqadi. Ikkinchi misradagi “judoliklardan shikoyat aylar” deya buyurilishi — orifning jahoni ruhoniyadan ayrilib, bu dunyoga kelishi va xayolot olamiga giriftorligi tufayli shikoyat etishidir. “Masnaviy”i sharifning ilk baytini Jaloliddin Rumiy qaddasa sirrahul islomiy Hazratlari “eshit” amri bilan boshlaganlarida (forschada “bishnav”; arabchadagi samo’, simo’ so‘zining birinchi ma’nosi — eshit, ikkinchi ma’nosi — xonish, kuylash, uchinchi ma’nosi — ruhoniy zavqqa berilish, vajd holati, darvishlarning zikr tushayotganida vajd holati; yana mavlaviyona “raqsi samo’”ga ham ishora bor — *T.Q.*) va bu “eshit” amrining nayning sadosi bilan bog‘liqligi, ya’ni ruhoniy hodisani eshitib-anglashga da’vatida alohida bir maqsad bor.

Boshlang‘ichda nay, kesilmasidan oldin, qamishlikda bo‘lgan holatda, har doim nash’-u namo va toza hayot ichida edi. Kesilishi bilanoq quridi. Orif insonning ruhi ham shunga o‘xshab

boshlang‘ichda olami arvohda nihoyasiz bir go‘zal ma’naviyat ichida edi, g‘addor va xashuk (haromi) dunyoga keldi deguncha tiniq suvday shaffof ruhlar olamidan mahrum bo‘ldi va suvsiz qolganday quridi — bu birinchidan. Ikkinchidan, naydan oshiqona sadolar chiqadi. Orif bo‘lib yetishgan insondan ham oshiqona va orifona so‘zlarni eshitasiz. Uchinchidan, nayning sadosi mastimainning ishqini ziyoda etgani kabi orifning aytgan so‘zlari ham ko‘ngillarni yoritadi, ya’ni ruhlar olamidan so‘zlangan so‘z, bilgi ko‘ngilni ravshan qiladi.

To‘rtinchidan, nayning ovozi va sadosidan bir hikoya, bir mojaroyi ishq his etiladi. Orifning so‘zidan ham ko‘pincha haqiqiy oshiqlar (oshiqi haqlar)ning ahvoli oliyalari va olami lohut (ilohiy, ruhlar dunyosi)ning asrori ulviyasi eshitiladi. Beshinchidan, nayning san’ati, hunari tashqi qismidan emas, balki ichidandir, botiniydir. Orifning ham kamoloti tashidan emas (uning kamoloti ham ovoz ko‘rinmaganday ko‘rinmaydi), balki ichidandir, botiniydir. Oltinchidan, nayning qomati to‘g‘ridir... ruhi to‘g‘rilikdadir va xulqi karimdir. Yettinchidan, nay qamishlikdan kesilib, yashnoq, tiniq hayotdan ayrilgani uchun g‘aribdir. Olami arvohdan ayrilgan orif ham bu moddiy dunyoda g‘aribdir. Sakkizinchidan, nayning ichi har narsadan xolidir, faqat u dam uruvchig‘a, nafasga bog‘liq va nafas tufayli sado beradi, nafas tufayli nayligini namoyon eta oladi. Orif ham har xil g‘ul-u g‘ashdan xolidir, qalbi muhabbat va ishqi rabboniya bilan orastadir. To‘qqizinchidan, nay o‘z-o‘zidan oshiqona ovoz chiqara bilmas, u ustod bir damchi, nafas beruvchi (nafix)ning havosiga muhtojdir. Orif ham muttasilan, doim-u har dam voris bo‘la’ kelgani bir nafixi fayoz ila damsozdir. Zotan “Masnaviy”i sharifda ana shu xislatlar bilan bog‘liq holda hikmati ruhoniyatdan bahs etiladi. Bu hol ilk bayti sharifning sharhidan ham ayon ko‘rinadi. Agarda e’tiqod va udumi e’tiqodga diqqat-la boqilsa, insonlar uch turli ko‘rinadi. Birinchi turdagi odamlar har narsaning, har tiriklikning, maxluqning yaratuvchisi va muhofazachisi janobi vojib-ul vujud ekaniga, (ya’ni boriki maxluqlar — xalq qilinganlarni, yaratilganlarni xoliq — Tangri taolo vujudga keltirganiga), ruhning borligiga va manguligiga, o‘lgandan keyin ham inson uchun jazo va yo mukofot berilishi muqarrar

ekaniga kamoli ishonch bilan imon keltirurlar. Ular bu iymon tufayli va Alloh taologa ibodat va mashru’ ishlar bilan dunyoda doim baxtli yasharlar. Ikkinchi turga mansub munkirlarning o‘ylashicha esa, insonning ruhi bo‘lmaydi, u yolg‘iz jismdan iborat bir hayvondir, o‘lgandan keyin o‘zi ham, u uchun hamma narsa ham tamoman tugaydi. Bu toifa kishilari ruhoniyatni, oxiratni, alvohiyat-u taqdirni inkor etishlari bilan birga o‘zlari kabi ahmoq bo‘lib yetilganlarga ham juda katta zarar qiladilar, jamiyatda jaholatni oshiradilar. Agar ulardan bu borliq va olamning turmushi xususida so‘ralsa, ular bu mavzuni osongina tabiatga bog‘lab qo‘ya qoladilar. Bundaylar jaholati yetuk, ruhoniyatdan, aql-u idrokdan mahrum zarralardan tarkib topgan jismlardir. Bular olamdagi favqulodda va muntazam harakatni nechuk anglasinlar? Olamlardagi buyuk bir intizom, tartib, doimiy harakat butun olamlarning egasi bo‘lgan Tangri taoloning amri bilan emasmi axir?! Yoki munkirlarning fikri kabi tabiat vositasi bilan va yoxud tasodif tufaylimi hosil bo‘ldi? Yaxshi fikr yuritilsa, albatta anglashiladiki, olamda ko‘rilgan, tuyulgan bu hayratbaxsh intizom-u tartib-u harakat-u hayotni tushuntirish uchun “tabiat, tasodif” degan so‘zlar ojiz va ma’nosiz bo‘lib qoladi. Chunki jumla kimyogarlar va hukamo (fiziklar va boshqalar)ning faqat moddiyyatga bog‘langan, jaholatli tushunchalari va tushuntirishlariga teskari o‘laroq, bu yer kurrasidagi, bu samoviyatdagi harakatlanib turgan jismlar aslida harakatsiz edi, harakatsiz bir zarralardan tarkib topgan edi. Ko‘z o‘ngimizdagi tuproq, tosh va boshqa narsalar, agar boshqa birov tegmasa, biror hodisa turtki bermasa, o‘z-o‘zicha harakat qilolmaydi. Insonning badani Alloh tomonidan mumtoz bir mexanizm kabi yaratilgan, faqat shundayin bir mukammal tarkibotdan iborat inson jismi jon bo‘lmasa, harakatga qodir emas. U faqat hayotda ekanida harakatdadir, bu harakat esa yolg‘iz ruh vositasi bilandir. Ruh ketishi bilan tan tinadi (shu o‘rinda tinmoq so‘ziga, uning o‘zagiga boqing: ruh — arabcha, jon — forscha, tin — eski turkchadir — *T.Q.)*, hayotdan to‘xtaydi, badan tarkibi parchalanib, zarralanib, tamom shaklini yo‘qotadi.

Narsalar, moddalar, zarrot o‘z-o‘zicha harakatsizdir, bir harakat beruvchisiz joyidan qimirlashi qat’iyan maholdir.

Dunyodagi quvvayi jozibani, yorug‘likni, harakatni, qorong‘ilikni, yigirma to‘rt soatda bir bor va bir yilda bir bor aylanadigan buyuk samoviy jismlarni bu qadar tartib va intizom-la yaratgan, bundayin olamiy, olamlararo muntazam tartib-u intizomni tutib turuvchi kim? Tabiatmi? Tabiatning o‘zi nima? Anqo kabi bir hayvonmi? U qanday qilib olamiy buyuk tartibdagi harakatni yarata, boshqara, muhofaza eta oladi? Tabiat — tuproq, tosh, suv, dengiz, havo, shamol, bo‘ron, yog‘in va boshqalarning jam’i emasmi? Demak, u holda, tabiat aqlsiz, idroksiz bir jismdir, jismlar majmuidir. Zero, aql-idroksiz bir jism aql-idrokli bir maxluqni vujudga keltirolmaydi. Tabiat ataganimiz bu jismlar, hodisalar umumiy bir quvvat emas; aksincha, ayri-ayri, xususiy bir borliqlardir. Tabiat — mavjudot va mavjudotda ko‘ringan holatning nomi xolos, yana ta’kidlaymizki, bir quvvayi aqliyat va faoliyat emasdir.

Endi ruhning bahosi masalasiga kelaylik. Insoni oqil, insoni odil qadar qaysi maxluq borki, janobi vojib-ul vujudga ibodat va muhabbat qilsin. (Bundan tashqari, inson tavba ham qiladi, Nizomiy Ganjaviy aytganidek, odam gunohga botib, Allohga tavba qilmasa, kim tavba qilardi — *T.Q.*) Afsuski, bu hayotda ko‘rilishicha, atrofimizda yashayotgan odamlar ichida janobi Haqqa mute va ishqi mustaqim bo‘lganlarning ko‘pchiligi faqir va iztirobdadirlar va aksaran ular muhtojlik va iztirob ichida tarki hayot etarlar. Aksincha, munkirlar va mutakabbirlar ortiqcha mol-u mulkka ega holda rohatda yasharlar. Nega bunday?

Qalban va aqlan qabul qilinmayajak bu holga teranroq boqmoq lozim. Inson idroki tuya olmagan, hali-hanuz chegaralarini ongiga sig‘dirolmagan buyuk dunyolarni bu qadar azim tartib va intizom bilan yaratgan va muhofaza etgan rahmli Alloh munkirlarni va itoatsizlarni bunday rohat-farog‘at ichida va o‘ziga itoatli, muhabbatli muhtojlarni kambag‘allik va iztirob iskanjasida qoldirib, qanday qilib oxiri mahv va tor-mor etsin? Nechun unga boshqa olamda mukofot-u ehson buyurmasin? Sabr etish kerak. Bunday yuzaki o‘ylash, bu noma’qul fikrni qabul etmak janobi Xoliqni inkor aylamakdir, bu faqat jinni yo ahmoq, bir oddiy johil odamning vujudiga xos o‘ylashdir. Bu masalada insonni jismoniy va ruhoniy borliq deya qaramoq, uning o‘tkinchi va mangu hayoti mavjudligi

nuqtayi nazaridan fikr yuritmoq kerak. Obiddin Posho “Xususan, ruhi ruhoniya ruhi ma’naviyaning osori, har vajh-la fayzbaxsh va dunyoda dahi ruhoniydir” deya ta’kidlaydi.

Demak, ma’naviy ruh muhimdir, u aql, nutq, ishq bilan insonni boshqa hayvonotdan ayirar va mumtoz aylar; munkirlarning johilona iddaosi esa ma’lumdir, ularning deyishicha, insonda ko‘ringan fayz boshidagi asab va shu kabi a’zolarning intizomi, faoliyati natijasidir. To‘g‘ri, insondagi asab, boshqa a’zolari favqulodda bir mukammal mexanizmdir, faqat bu mexanizm inson ruhi kabi azim va mukarram bir kayfiyati ma’naviyatning muqarrar bo‘lishi uchun olamlarning, falaklarning mexanizmlarini bor aylagan va ijod etgan janobi vojib-ul vujud tarafidan yaratilgandir.

Har bir dimog‘, qalb tobe bo‘ladigan ruhga mos, mutanosib tarzda yaratildi; jon ham egasining ahamiyatiga ko‘radir, u ham sohibiga munosabatan insho etilmishdir. Xuddi odam kabi asabi, a’zoyi badani ham mukammal va muntazam holida ruhning isboti uchun yaratilgan va bu isbotning o‘zi yetarlidir. Tangrining hikmati bilan vujudga kelgan badan, agarda butun olamlarni yaratgan Allohning qudrati bo‘lmasaydi, tabiat yo tasodif deyilgan xayoliy bir narsalar vositasi bilan hech vaqt bundayin komil shaklda vujud bo‘lmasligi munkirlarning jaholati qadar ayon va kun kabi ravshandir.

Badan-ku ilohiy hikmat-la bu qadar mumtoz bir mexanizm kabi yaralibdi, u holda badan nechun jonsiz, ruhsiz ham dunyoda yashay olmas, degan savol tug‘ilishi mumkin va buning javobi bor. Aslida, bizga tuyulganiday jism komil darajada emas, badan aslida nuqsonli va notamom xalq etilgandir, u ruhning vazifasini bajarolmaydi. Ya’ni badan ruhga muhtoj tarzda yaratilgan. Agarda inson tani ruhga ehtiyojsiz yaratilsaydi, u holda ruhning vazifasi qolmas edi, shu uchun ham badan ruhga muhtoj shaklda bor qilingan. Ayni shu uchun ham ruh badanda ustod kabi mavqe tutadi. Dunyoda ruh kabi kuch-quvvatga, qobiliyatga ega boshqa bir ustod yo‘q.

Agarda inson faqat badandan iborat bo‘lsaydi, ba’zilarining tushunchasiga ko‘ra, badan 4–5 yilda bir tadrij va taraqqiyni bosh-

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
Inv. № 5085
AXBOROT RESURS MARKAZI

dan kechiradi, u holda inson ayni o‘sha 4–5 yilda o‘zini unutardi, ismini o‘zgartirardi, boshqa bir inson bo‘lib qolardi.

Zero, insonni inson etgan badan emas, ruhdir. Bir damda kelgan o‘lim badanni yashashdan to‘xtatadi, jasadga aylantiradi, badan o‘zligini, shaxsiyatini yo‘qotadi. Badan foniydir, o‘tkinchi, o‘zgaruvchi, mahv bo‘luvchi shaklda yaratilgandir. Ruhning baqosi, oxiratda davomi ayon haqiqatdir. Buni tushunmagan odam qusurni o‘z farosatidan va bilgisizligidan izlagani to‘g‘ridir.

Munkirlar ruhni ko‘rinmasligi uchun ham inkor etib, uni yo‘q bir narsa xayol qiladilar. Ular faqat moddiy, ko‘zga ko‘rinadigan dunyoni taniganlari va ruhni anglamaganlari, ruhoniyatdan bexabarliklari tufayli ko‘ngil ko‘zlari yo‘qdir, shu sababli ruhoniy olamning borligini anglay bilmaydilar. Ular ko‘rganlariga ishonadilar, ko‘rmaganlarini inkor etadilar. Ammo bu misolga diqqat qilaylik: buyuk bir qo‘mondon qo‘l ostidagi askar uning buyurgani to‘g‘ri yo‘ldan borib zafar qozonadi, holbuki, qo‘mondonning o‘zini ko‘rmaydi.

Yana ruhoniyatga e’tiroz qilguvchilar derki, ne uchun, agarda ruhoniyat va adolat bo‘lsa, zolimlar va yomonlarga qahri ilohiy mavjud bu dunyoda jazo berilmaydi? Bu savolning javobi shu: nechun jazo berilmasin? Aksincha, zolimlarning, yomonlarning yuzdan to‘qsoni va balki undan-da ko‘prog‘i turli jazo va mazallatlarga giriftordirlar; ular jazo va jafodan ikki dunyoda qutulolmaslar. Agarda zolimlar va yomonlar bu dunyoda jazo ko‘rsatayotgan ekan, bilingki, eng baxtsiz zolimlar va yomonlar ulardir. Aynul hikmat (hikmat ko‘zi) bilan qaralsa, anglashiladiki, bu dunyoda jazosini ko‘rmagan zolimlarning yomonlarning gunohi, zolimlig-u yomonliklari tobora ortib boraveradi — jazo u dunyoda olinadi. Ularning bu dunyoda yashash muddatlari esa, vafotlaridan keyin kelajak millionlarcha zamonlar oldida haddanbila ozdir. Zolimlar bu dunyoda bir on jazosiz qolsalar, uqboda ko‘rajak mutlaqo uzun azob-u uqubatdan qutqarilmaslar.

Ana endi o‘ylang, bundan-da og‘ir jazo bo‘larmi?

Zolimlar va yomonlarga nechun tezda jazo berilmaydi, degan savolning javobi budir: birinchidan, zulmchilarga muddat imkoni berilarki, ular o‘zlarini to‘g‘rilasinlar (to‘g‘rilamasalar, jazolari

ko‘payib boraveradi). Ikkinchidan, tezlikda, darhol hukm berishda xayr-u yaxshilik yo‘qdir.

Demakki, munkirlarning va johillarning ruhning borlig‘iga, baqosiga zid xayollari bo‘sh narsadir. Axir ko‘rlar quyosh va nurdan ne foyda olurlar va qay to‘g‘ri yo‘lni ko‘ra bilurlar?

Shuning uchun ham bu yomon, zolim nega jazosini tortmayapti, deya vakil qilinmagan ishga aralashmaslik kerak, chunki jazo udumida azim jazo bordir va jazolantirish odatida o‘ziga xos xufya sir ham mavjud.

Buyuk faylasuf Aflotunning fikriga ko‘ra, ko‘z va ko‘z qorachig‘i juda kichik, ammo katta dunyoni o‘ziga sig‘dira, ko‘ra oladi. Qodir Tangrining qudrati va ilohiy san’ati-la ko‘z bu shaklda yaratildi. Ko‘z quyoshga, nurga muhtoj tarzda ijod etildi. Tabiat va tasodif masalasiga kelsak, ko‘ramizki, biror jism yoki hodisa ko‘z kabi a’zoni bundayin san’at va qudrat vositasisiz yetiltira bilmas. Ruhning quvvati, ruhning baqosi budir.

Tangriga iymoni borlar, ruhning baqosiga ishonuvchilar, moddiy dunyoning o‘tkinchi va o‘zgaruvchiligiga, har ishning jazosi yo mukofoti borligiga inonuvchilar, Qur’oni karimning oyati karimalarini o‘qib olishni istovchilar, xususan, “Qur’onning mag‘zi” deyiladigan shuhratli “Masnaviy”i sharif kabi ma’naviy va ruhoniy bir kitobni doimo diqqat bilan, yuqorida aytilgan nuqtai nazar bilan mutolaa etmoqlari kerak.

Obiddin Poshoning olti jildli “Tarjima va sharhi “Masnaviy”i sharif” kitobining har jildi boshvarag‘iga mavlono Jomiyning Jaloliddin Rumiy haqidagi mashhur qit’asi berilganki, unda, jumladan shu satrlar bor:

...Man chi go‘yam vasfi on olijanob,
Nist payg‘ambar, vale dorad kitob.

Demakki, Mavlono Jaloliddin Rumiy payg‘ambar bo‘lmasa-da, muqaddas bir kitobi bordir. Bu kitobni o‘qishga kirishishdan avval ruhoniy, ma’rifiy hozirligimiz bo‘lishi lozim. Shundagina bu kitobdan naf olamiz, o‘zgalarga ham naf keltiramiz. Inson avvalo ruhoniy ekan, demak, millatimiz borligi, vatanimiz taraqqiysi uchun insonlarimizdagi ruhoniy birlik shartdir. Ruhoniy birlikni

Mavlono Jaloliddinning "Masnaviy" kitobiga o'xshash sharofatli kitoblar vositasida hosil etiladi. Boborahim Mashrabning bu kitobdan ta'sirlanib yozgan "Mabdai nur"ida shunday gap bor:

Bor edi bir so'fiyi tab'i xariy,
O'zi qallob erdi mardi zargariy.
...Botaanni qilur erdi ham sujud,
Zohiri mo'min edi, botin juhud.

Bugungi dunyomizda bu kabi munofiqlar, tashqi ko'rinishi, sifati mavqeyi a'lo-yu ichi balo kimsalar borligidan ham biz bundayin ruhoniy tarbiya o'chog'i bo'lgan asarlarga ehtiyojlimiz: ko'z quyosh nuriga, badan ruhga muhtoj bo'lgani kabi.

14.09.1993

II

Yuqoridagi so'zboshi qariyb o'ttiz yil oldin yozilgandi. Oradan o'tgan davr ichida Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy"si 6 jild holida Jamol Kamol tarjimasida, ikki jild holda sharhi bilan Asqar Mahkam tarjimasida, 2022-yilda 6 jild o'laroq Odil Ikrom tarjimasida nashr etildi. Ulug'bek Hamdam o'girgan "Ichindagi ichindadir" asari ham Mavlono asarlarini o'rganishga yanada kengroq yo'l ochib berdi.

"Turkiy adabiyotlar xazinasi"ning bu jildiga Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"sidan rivoyatlar, shuningdek, Asqar Mahkam, Sirojiddin Sayyid, Alisher Sabriy o'zbekchaga o'girgan g'azallari, Jamol Kamol va Ergash Ochilov tarjima qilgan purma'no ruboiylari ham kiritildi.

Tohir Qahhor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

"MA'NAVIY MASNAVIY"dan hikoyatlar

NAY TARONASI

Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,
Ayriliqlardan shikoyatlar qilur.

Men qamish erdim, kesib keltirdilar,
Sanchilur, deb ta'naga o'ldirdilar.

Pora-pora qildi ko'ksimni firoq,
Baski, so'ylay emdi dard-u ishtiyoq...

Kim yiroq tushsa, yo'qotsa aslini,
Boz istar, boz qo'msar vaslini.

Davralar ko'rdim necha nolon bo'lib,
Jufti badholon-u xush holon bo'lib.

Har kishiki bo'ldi bir dam yor menga,
Bilmadi ne sir-u ne asror menga.

Sirrim ermas nola-ohimdin yiroq,
Garchi nur ermish nigohimdin yiroq.

Tan-la jon, jon birla tan mastur emas,
Kimsa bormu, jon anga dastur emas.

O't erur nay nolasi, u yel emas,
Kimki kirmas o'tga, bosin, el emas.

Nayni yondirgan o'shal ishq otashi,
Mayni yondirgan o'shal ishq otashi.

Nay sasi yordin darak ermish, ne bok,
Pardasi pardamni etmish chok-chok...

Nay kabi bir zahr-u taryok qayda bor?
Nay kabi damsoz-u mushtoq qayda bor?

Nay necha yo‘llarni purxun aylagay,
Ne emish savdoyi Majnun — suylagay...

Bir ajib xushdirki, bilsang, xush erur,
Kimki mahramdir anga, behush erur...

Kunlarim tun qa’riga jo bo‘ldilar,
O‘rtanishlar menga hamroh bo‘ldilar.

Kim baliq ermas, u qondi suvga, chun
Kimga kun yo‘q, kunlari yildek uzun.

Puxtaning holini hech bilgaymu xom,
So‘zni qisqartmoq kerakdir, vassalom.

Bandni yechgil, bo‘lgil ozod, ey o‘g‘il,
Garchi banding siym-u zardir, qo‘ymag‘il.

Ko‘zaga jo bo‘lg‘usi dengiz, bale,
Bir kuning ul ko‘zaga sig‘mas vale.

Kimki ochko‘z, ko‘zida nur bo‘lmag‘ay,
To‘lmaguncha to sadaf, dur bo‘lmag‘ay.

Har kishikim, ko‘ksi ishqdin chok erur,
Har ne illat bo‘lsa, andin pok erur.

Ey omon bo‘l, ishq, ajib savdoyimiz,
Ey tabibi hoziqi donoyimiz...

Har davoyi zohir-u botin o‘zing,
Bizga Jolinus va Aflotun o‘zing.

Ishq ila yer tolibi aflok emish,
Raqs etib tog‘lar, ko‘ring, cholok emish.

Ishq ila oshiq tirikdir, bormu shak,
Mast emish andin Muso mingan eshak.

Lab ochib, sochdim ko‘ngil asrorini,
Nay kabi to‘kdim yurakda borini.

Kimki bo‘lmish hamzabondin benavo,
Bezabondir garchi unda yuz navo...

Chunki gul ketsa, guliston qolmagay,
So‘ngra bulbul birla doston qolmagay.

Jumla ma’shuq ermish, oshiq pardalik,
Zinda — ma’shuq ermish-u, oshiq — o‘lik.

Ishq sari andin na bir parvo emish,
Balki bir qushdek u beparvo emish.

Hush nechuk bo‘lgay, qarorim bo‘lmasa,
Qo‘llaguvchi nuri yorim bo‘lmasa.

Ishq so‘zi istarki, parvoz etsa, bas,
Lek ko‘ngil ko‘zgusi bunga shay emas.

Oyinang bordir, nechun g‘ammoz yo‘q?
Anda zang bo‘lsa, ruhi mumtoz yo‘q.

Tinglangiz, do‘stlar, men aytay doston,
Toki etgaymiz haqiqatni ayon...

PODSHO VA KANIZAK HAQIDA RIVOYAT

Bor edi bir shoh ko‘p yillar burun,
Hukmida shu mulki dunyo, mulki dun.

Bir kuni shoh ot minib, bo‘ldi savor,
Ko‘ngil ochmoq istadi aylab shikor.

Bir kanizak ko‘rdi, yo‘l ustida shoh,
Unga oshiq bo‘ldi, dildan chekdi oh...

Ko‘ksida bir qush kabi talpindi jon,
Mol berib, oldi kanizni shu zamon.

Shoh suyundi, unga qismat yor bo‘lib,
Qiz yiqildi nogahon bemor bo‘lib.

Eshagi bor ersa, to‘qim yo‘q edi,
Topdi to‘qim, eshagin bo‘ri yedi...

Ko‘zi bor erkanda suv yo‘q erdi, bas,
Suv topildi, ko‘zaga yetdi shikast.

Shoh tabiblarni yig‘ib, so‘z qotdi tez:
Ilkingizda birmas, ikki jonimiz...

Menga jon o‘rnida tanho jon o‘sha,
Dardmandirman, faqat darmon o‘sha.

Kim agar etsa davoyi jonmiz,
Ungadir ganj-u dur-u marjonimiz...

Dedilar hoziq hakimlar ham shu tob:
Chorayi tadbirni ko‘rgaymiz shitob...

Har birimiz bir Masihomiz magar,
Ikki olam ichra tanhomiz magar.

Inshoollohki, murod hosil bo‘lur,
Xastaga sog‘liq yana vosil bo‘lur.

Lek necha sa’y etdilar aylab davo,
Bo‘ldi ranj afzun-u hojat noravo.

Ustixon bo‘ldi kanizak sarg‘ayib,
Shoh anga o‘rtandi ko‘z yoshlar quyib...

Shoh chun ko‘rdi — hakimlar notavon,
Turdi, masjidga yugurdi shu zamon.

Bordi-yu mehrobga qo‘ydi boshini,
Sajdagohga to‘kdi ko‘zin yoshini.

Ketdi hushin, bir nafas topdi fano,
So‘ng hushiga keldi-yu aytdi sano:

Ey, o‘zingsan sarvari mulki jahon,
Senga ma’lum har ne paydo-vu nihon.

Ey, hamisha qo‘llaguvchi qo‘limiz,
Sen najot ber, biz yo‘qotdik yo‘limiz.

Siyrating ravshan vale arzim senga,
Suvratingni bir nafas ko‘rsat menga.

Shunchalar oh urdi, andoq chekdi roz,
Marhamat bahriga to‘lqin tushdi boz...

Yig‘lar erkan, uyqusi etdi xuruj,
Uyqusida mo‘ysafidga keldi duch.

Mo‘ysafid dediki, shoh, hojat ravo,
Mushkulingga emdi topgaysen davo.

Ertaga kelgay hakimi hoziqing,
Hoziqing, ya’ni amin-u sodiqing.

Chorasida sehri mutlaqdir, ishon,
Ruhida ul qudrati haqdir, ishon...

Keldi u va’da etilgan kun, mana,
Oftob sharqdin taratdi nur yana.

Yo‘l qarab podsho turardi intizor,
Sirli ul siymoni bir ko‘rmoqqa zor.

Ko‘rdi ul nogoh, kelardi bir kishi,
Chehrasida nuri oftob tobishi...

Ul kelar erdi misoli bir hilol,
Borlig-u yo‘qlik aning oldida lol.

Ul xayoldir, sen uni ko‘rgan zamon,
Shu jahonni bir xayol bil begumon.

Bir xayolkim, anda sehri avliyo,
Aks etar ul nuri bo‘stoni xudo...

Tushda shoh ko‘rgan edi giryon bo‘lib,
Kelmish erdi emdi ul mehmon bo‘lib...

Ul g‘arib mehmonga peshvoz chiqdi shoh,
Bag‘riga bosdi, dedi: — Ey, marhabo!..

Ul emasdir ma’shuqam, sensan faqat,
Ish chiqar ishdan jahonda beadad.

Ey, magar sen Mustafosen, men — Umar,
Xizmatingga emdi bog‘larmen kamar...

Rabbanodin barcha istarmiz adab,
Beadab ko‘rmas jahonda lutfi Rab.

Kimki do‘stiga yomonlik istasa,
Shum qaroqchi, pastkash-u nomard o‘sha.

Nurga to‘lgay, boq, adab birlan falak,
Pok, musaffodir adab birlan malak...

So‘ng tabibning qo‘lidin shoh ushladi,
Ko‘rgizib izzat, haramga boshladi.

So‘yladi bir-bir ko‘ngil asrorini,
So‘ngra ko‘rsatdi o‘shal bemorini.

Xastaga mehr-u muruvvat ko‘rsatib,
Har ne lozim, ko‘rdi, tekshirdi tabib.

Dedi: har ne dori-darmon bob-bob,
Foyda bermay, tanni etmishdir xarob.

Avvalo bilmoq kerak ko‘ngil sirin:
Asta’iz-ullaha mimmo yafturun...

Xastaga ko‘z soldi, sirni angladi,
Lek yashirdi, shohga bir so‘z demadi.

Boisi safro emasdi bus-butun,
Bilsa bo‘lgay: ne o‘tindan — ne tutun...

Ko‘rdiki, bu tan aro zor erdi dil,
Tan salomat, lek giriftor erdi dil.

Keldi oshiqlik ko‘ngilning zoridek,
Yo‘q bemorlik ko‘ngil bemoridek...

O‘zgadir bu xastalik olam aro,
Ishq — usturlobi asrori xudo...

Qancha etmay ishqqa men sharh-u bayon,
Ishq derman, ishq, xijildirman hamon.

Oftob ermish dalili oftob,
Gar daliling bo‘lsa, kel, aytgil shu tob.

Tilga kelgan, vojib o‘lgan nomidir,
Ramzi hol aylash — aning in’omidir.

Shamsdin soya nishona ko‘rsatur,
Shams nur jon-u jahona ko‘rsatur...

Fitna, xunrezlikni orzu etmagil,
Shams Tabriziyni, qo‘y, eslatmagil.

Intiho bilmas bu savdo, ortga qayt,
Ul hikoyat oxiri ne bo‘ldi, ayt...

Dedi: — Ey, sulton, bo‘shatgil xonani,
Ham yiroq tut oshno, begonani.

Qolmasin bir kimsa to dahlizda ham,
Xastadin bir narsani so‘rgum bu dam.

Xona xoli qoldi dar-devor ila,
Ul tabib qoldi faqat bemor ila.

Tilga keltirdi tabib so‘z bolini,
So‘rdi qizning holini, ahvolini.

Shahrini so‘rdi va aytdi: Ey falak,
Har shahar ahliga bir davo kerak.

Ahli shahr ichra ajib, a’losi kim?
Ul qarindoshingmu? — deb so‘rdi hakim.

Tomiriga qo‘l bosib, so‘rdi nuqul —
Shum falakdin ne jafolar chekdi ul?

Ne shaharlar ko‘rdi, ko‘rdi ne makon,
Aytdi bir-bir qiz misoli doston...

So‘ngra qayga bordi, qayga yetmadi —
So‘yladi, lek tomiri qilt etmadi.

Ul kanizak tomiri uyg‘ondi sal,
So‘z Samarqand ustiga yetgan mahal;

Tomiri tark etdi o‘z oromini,
Tilga olgan chog‘da zargar nomini.

So‘rdi qizdan: — Qay mahalla, qay guzar?
Saripul, dedi u, Ko‘yi G‘otfar...

Ul tabib dediki, bildim, chekma g‘am,
Men sening dardingga darmon aylaram...

Bordi, sultonga bayon etdi tamom
Barcha gapni — ne xulosa, ne kalom...

Shoh chopar yo‘llab Samarqand soriga,
Chorladi zargarni o‘z darboriga.

Keldi zargar, unga ta’zim etdi shoh,
Siym-u zarni unga taslim etdi shoh.

Shunda hoziq aytdi: — Shohim, siylagil,
Ul kanizni dog‘i in’om aylagil.

Shoh in’om etdi ul gulyorni,
Intizor yoriga qo‘shdi yorni.

Olti oy o‘tdi arodin xush kom,
Qiz sog‘aydi, bas, sihat topdi tamom.

Shunda payt poylab o‘shal hoziq hakim
Tutdi zargarga ajalning sharbatin.

Garchi qiz sarg‘aydi bu anduh bilan,
Asta-asta taqdiriga berdi tan...

BAQQOL VA UNING TO‘TISI HAQIDA RIVOYAT

Bor edi baqqol, uning bir to‘tisi,
Sabzarang ham so‘zga mohir to‘tisi.

Ul do‘kon ichra nigohboni do‘kon,
So‘z qotardi savdogarlarga ravon.

So‘z qotarkan, o‘ylakim, notiq edi,
To‘tilar ichra ajib hoziq edi.

Boqmayin uchganda so‘l-u sog‘ini,
To‘kdi bir kun ag‘darib gul yog‘ini.

Qaytdi shunda uyga ketgan xo‘jasi,
Xo‘javash o‘ltirdi bir dam xo‘jasi.

Ko‘rdi: yog‘ erdi-yu yog‘ — har yon tugal,
Urdi to‘ti boshiga, ul bo‘ldi kal.

Necha kunlar so‘zlamoqni qildi bas,
Xo‘jasi chekdi nadomatlig‘ nafas.

Der edi soqol yulib: evoh, darig‘,
Ne’matimni men uvol etdim aniq.

Xushzabonim boshiga urguncha to
Qo‘llarim sinsaydi — o‘lmasmi ravo?

Yordami tekkaymu deb bul ishga
Hadyalar berdi necha darvishga.

O‘tdi uch kun, ul yana hayron-u zor,
O‘ltirar erdi do‘konda intizor.

Turfa-turfa narsalarni ko‘rsatib,
Avrar erdi qushni, so‘z qotgaymu deb.

O‘tdi bir darveshki, u javlaqqa xos,
Boshida yo‘q erdi bir tuk, xuddi tos.

Tilga kirdi qush uni ko‘rgan zamon,
Ul boqib darveshga dedi: ey falon.

Ne gunoh qildingki, boshing bo‘ldi kal,
Yoki sen ham yog‘ni to‘kding bemahal?

Eshitib kuldi xaloyiq, ey na xush,
Javlaqiyni o‘ziga o‘xshatdi qush...

O‘zni sen poklarga hech o‘xshatmagil,
Garchi o‘xshashdir yozuvda “sher”-u “shir”.

Ba’zilar taxminlar o‘zni anbiyo,
Ba’zilar o‘ylar o‘zini avliyo.

Der: ular ersa bashar, biz ham bashar,
Biz-da non yermiz, ular non yesalar...

Voh, ular ko‘rdirki, bilmas hech qachon
O‘rtada bordir tafovut onchunon...

Ari ham har xilki, boqsang, har mahal,
Biri zahr yig‘sa, biri to‘plar asal.

Ikki ohu bir giyoh yer, sarhisob:
Biridin — tezak, biridin — mushki nob.

Ul yesa, kelgay hama buxl-u hasad,
Bul yesa, kelgay hama ishqi ahad.

Hissi dunyo — shu jahonga narvon,
Hissi diniy — osmonga narvon...

Ul biriga doru darmondir tabib,
Bul biriga doru darmondir habib...

XALIFA VA LAYLI HAQIDA RIVOYAT

Laylini ko‘rdi Xalifa, dedi: — Hoy,
Senmisan Majnunni yondirgan chiroy?

Lek chiroying o‘zgadin afzun emas...
Qiz dedi: — Bas, chunki sen Majnun emas!..

Kimki bo‘yla uyquda bedor emish,
Uyqusidin bo‘yla bedorlig‘ na xush...

Haq bedor etmaguncha jonimiz,
Bo‘yla bedorlig‘ erur posbonimiz.

Jonni qiynoqlarga solmasmu xayol,
Har kuni andin necha zahm-u zavol.

Qush uchar ko‘klarda — yel hamsoyasi,
Ko‘kdamas, yerlarda uchgay soyasi.

Hansirab sayyodi ablah, boq, bu dam
Qushnimas, quvlaydi soya ortidan.

Bexabar u: qush — moya qaydadir?
Boxabar: aslida soya qaydadir?

O‘q uzar, o‘q soyaga u basma-bas,
Unga o‘qdoni bo‘shalsa, bo‘ldi bas.

O‘q tugandi, soyaga otdi uni,
Soyani quvlab, sovurdi umrini...

Bor, oftobingni top, tutgil shitob
Shams Tabriziy etagini shu tob.

Gar aro yo‘lda qolar bo‘lsang, anga —
Yo‘lni ko‘rsatgay Husomiddin sanga.

Gar jasad ersa hasad uyida, lek
Ul jasadni pok etar Allohi nek.

“Tahharan bayti” bayoni pok erur,
Ganji nurdir, garchi asli xok erur.

Behasadga aylasang makri hasad,
Ko‘p qaroliklar chekar ko‘nglingga sad.

Mardi haq bo‘l, bo‘l hasaddin beg‘ubor,
Bizga o‘xshab sen uni tuproqqa qor...

HUDHUD VA SULAYMON HAQIDA RIVOYAT

Shoh Sulaymon to‘xtadi chodir tikib,
Jumla qushlar keldi unga bosh egib.

O‘zlariga esh-u mahram topdilar,
Hamzabon-u do‘st-u hamdam topdilar.

Jumla qushlar emdi chirq-chirq sayramay,
Turdilar shoh oldida xizmatga shay...

Hamzabonlik dilni dilga band etar,
Oshno-begonani payvand etar.

O‘rtada ul nutqi biyron ne kerak,
Tarjima qilmoqqa qodirdir yurak...

Barcha qushlar barcha kor-u borini,
Har hunar, har san’at-u asrorini

Shoh Sulaymonga namoyish etdilar,
Aytdilar, har neki xohish etdilar...

So‘z gali Hudhudga yetdi oqibat,
San’atini so‘ylamoqqa etdi ahd.

Dedi: — Shohim, bir hunar bor, yaxshidir,
Muxtasar aytsam, hunarlar naqshidir...

Shoh Sulaymon so‘rdi undan: — Ne hunar?
Hudhud aytdi: — Tashlasam ko‘kdin nazar.

Men ko‘rarmen xoh baland, xoh pastida,
Qayda suv ersa agar yer ostida...

Qancha suv bor, menga xud ravshan bo‘lur,
Rangi ne, tuproqmi yo toshdin kelur...

Sen safar chog‘ida lashkargohni
Cho‘lda tiksang, esla men ogohni...

Shoh Sulaymon dedi: — Ey, xushdir so‘zing,
Qaqragan cho‘llarda hamrohim o‘zing...

Shunda zog‘ ko‘ksida qo‘zg‘aldi hasad,
U Sulaymonga dedi: — Bu gap g‘alat.

O‘z-o‘zini shohga ta’riflab kishi,
Yolg‘on aytsa, beadablikdir ishi.

Ko‘z muyassar ersa bu xudkomga,
Yerda tushmas erdi hargiz domga...

Shunda shoh dedi: — Bu gapda jon bor,
Ilk qadahdin chiqdi shundoq bir g‘ubor...

Mastmisan, Hudhud, ki andoq o‘ylading,
Lof urib, qarshimda yolg‘on so‘ylading...

Hudhud aytdi: — So‘zlarim haqdir tugal,
Zog‘ qavmi menga dushmandir azal.

Haq — qazo hukmiga zog‘ munkir o‘zi,
Garchi yuksak aqli bor, kofir o‘zi.

Men yiroqdin domni ko‘rgum bexato,
Gar ko‘zim ko‘r etmasa hukmi qazo...

AZROILDAN QOCHIB QUTULMOQCHI BO‘LGAN NODON HAQIDA RIVOYAT

Bir kishi, savdo tusharkan boshiga,
Hovliqib keldi Sulaymon qoshiga.

Rangi qum o‘chgan, turardi qaltirab,
Holini so‘rdi Sulaymon: “Xo‘sh, ne gap?”

“Eshigimga keldi Azroil bugun,
Bir boqishda bitdi darmonim butun...”.

“Xo‘sh, ne istaysan?” — Sulaymon so‘rdi bot,
Dedi ul sho‘rlik: “Ayo, sohibnajot,

Yelga amr etgil, uchirsin Hind tomon,
Balki jonim unda topgaydir omon...”.

Boq, faqirlikdin hama qo‘rqar emish,
Lek bo‘lurlar hirs-u mansabga yemish...

Shu o‘lim vahmi anga o‘xshab ketar,
Hirs-u mansab — mulki Hindiston magar...

Yelga amr etdi Sulaymon shu zamon,
Eltdi Hindistonga sho‘rlikni hamon...

Ertasi erkan Sulaymon arshida,
Ko‘rdi, Azroil turardi qarshida.

So‘rdi: — Aytgil, haqqi rahmon-u rahim,
Bir musulmonga nechun solding vahim?

Maqsading ne erdi, giryon aylading?
Uyidin quvding va sarson aylading?

Dedi Azroil: — Nechun bu ishtiboh,
Ey, jahonda hech zavolsiz podshoh!

Ummatingni men sira qo‘rqitmadim,
Qo‘rqitib, ovora, sarson etmadim...

Men ko‘rib nogoh uni yo‘l ustida,
Bir zamon qoldim taraddud ostida.

Chunki Haq aytmishdi: bir kun umri bor
Senga Hindistonda jon etgay nisor...

O‘yladim: olisda jon bergay, ajab,
Yuz qanoti bo‘lsa ham mushkul bu gap...

Bo‘yladir ushbu jahonda qil-u qol,
Och ko‘zingni, boq jahonga, ibrat ol.

Sen o‘zingdan-ku qocholmassan, aniq,
Bas, netib Haqdin qocharsan, ey rafiq!

UCH YO‘LOVCHI HAQIDA RIVOYAT

...Borishardi turk, arab, fors-u yunon,
Shunda bir kimsa — anis-u mehribon —

Xayr, deb bir tanga savg‘o ayladi,
Yo‘qki savg‘o, balki g‘avg‘o ayladi.

Fors dedi: “Bozor tushaylik shul zamon,
Aqchaga angur[1] olaylik, do‘sti jon!”

[1] **Angur** — uzum ma’nosini anglatadi.

"Qo'y bu gapni, — deb uni kesdi arab, —
Eynab[1] olsak aqchaga, bo'lgay ajab!"

Turk dedi: "Behuda bu gaplar bari,
Mevalar ichra uzumdir sarvari!"

Shunda yunon ham aroga soldi so'z:
"Hay, xarid etmoqqa stafil[2] durust!"

Bas, ular bitta qarorga keldilar,
Lek tushunmay, bahs-u g'avg'o qildilar.

Barchada xohish uzum erdi faqat,
Barchasi birdek, uzum, derdi faqat.

Lek aroga shum jaholat tushdi, bas,
Tish, qovurg'a lat yedi, topdi shikast.

G'ofil-u g'aflat so'zidin mojaro,
Bizniki — birlik bila sulh-u saloh...

ESHAK VA DARVESHLAR

...Tinglangiz pandi-payomimni mening,
Ogah etuvchi kalomimni mening.

Ko'r-ko'rona kimki taqlid aylagay,
O'zni g'am birlan uyatga shaylagay.

Bir tunab o'tmoqqa azmi xonaqo —
Bo'ldi bir kun bir yo'lovchi benavo.

Eshagin eltib og'ilga boyladi,
Yem-xashak, suv berdi, andak siyladi...

[1] **Eynab** — uzum ma'nosini anglatadi.
[2] **Stafil** — uzum ma'nosini anglatadi.

Xonaqoda o'ltirur erdi qator,
Bir guruh so'fiy gadolar och-nahor.

Anglay oldingmi, ayo sen, to'q kishi,
Ne o'yinlar ko'rsatur ochlik ishi?

Ul guruh sakrab hamono turdilar,
Bir qaror aylab, og'ilg'a yurdilar.

"Ul rasuli xoliq-u xalloq, egam,
Chorasiz qolsang, o'laksa ye, degan!"

Sotdilar eshakni, shay aylab shu choq —
May, taom birla necha bir shamchiroq.

"Oh, bugun bir aysh etarmiz!" — deb chunon,
Ul guruh soldi keyin shovqin-suron.

"G'am-mashaqqat bo'ldi, forig' yotmadik,
Rosa to'rt kun bo'ldi, bir tuz totmadik!

Tobakay bundoq jasorat? Tobakay
Bizni mahkumi malomat aylagay?

Biz magar odam ermasmi? Bizda ham
Bir ajab aysh-u tarab bo'lgay bu dam!"

Borakallo, ul bazmg'a yetdilar,
Sohibi eshakni taklif etdilar.

So'rdilar dil ixtiyorini aning,
Ismi-yu yurti — diyorini aning.

Ko'rguzib lutfi karam, mehri niyoz,
Ul — aziz mehmon, bular — mehmonnavoz.

Siypalar to‘rva-tayog‘in qay biri,
Uqalab-siypar oyog‘in qay biri.

Qay birisi o‘pdi ilkin shu nafas,
Ul esa oqdi erib, so‘z qotdi, bas:

“Bazm etarmiz, bazmimiz andoq bo‘lur,
Gar bugun aysh etmasak, qandoq bo‘lur!”

Yeb-ichib bo‘lgach, sharob no‘sh etdilar,
So‘ng ko‘ngillarni yana xush etdilar.

Turdilar raqsi samoga saf-qator,
Shiftga o‘rlab uchdi shunda chang-g‘ubor.

Raqs tushib, goh o‘zni har yon urdilar,
Shift ila devorga soqol surdilar.

Boq alarga kim, alar so‘fiy emish,
Kim alarni so‘fiyi sofiy demish!

* * *

Oh, qachon men bir hikoyat aylagum,
Bir hikoyat berivoyat aylagum?

Kufri g‘aflat muhrini buzgaymu men,
Chin haqiqat madhini tuzgaymu men?

Boq, ko‘pik o‘ynaydi ko‘prik ustida,
Betinim to‘lqin yashaydi ostida.

Har rivoyatga haqiqat jo bo‘lur,
Gohi pinhon ersa, goh paydo bo‘lur.

Sizni band etmish rivoyat oxiri,
Ne bilan bitgay hikoyat oxiri.

Ko‘cha-ko‘yda bolakaylarni magar,
Qandolatchi bo‘yla avrab, jazb etar.

Tingla, men so‘ylay, ne bo‘ldi oqibat,
Qayda don, qayda somon — ko‘rgil faqat.

* * *

Bittasi andak balandroq o‘ltirib,
Bir tarona boshladi, ohlar urib.

O‘rtanardi, ohiga yo‘q erdi shak,
Xonishi: “Eshshak yo‘qoldi! Voy, eshak!”

Shunda so‘fiylar bari boshlab chapak,
Bo‘ldi jo‘r: “Eshshak yo‘qoldi! Voy, eshak!”

Yo‘lchi ham jo‘r bo‘ldi shunga begumon,
Soldi u: “Eshshak yo‘qoldi!” — deb suron.

Tonggacha xo‘p ayshi rohat surdilar,
So‘ng “Xayr!” deb har tomonga yurdilar.

Qoldi yo‘lchi benavo sal orqaroq,
Horgan erdi yo‘l bosib g‘oyat uzoq.

Yo‘lga tushmoqchi bo‘lib so‘ng turdi ul,
Turdi-yu og‘il tomonga yurdi ul.

Lek eshak yo‘q. “Ha-a, xizmatkor, bali,
Uni eltmishdir magar suv bergali”.

Keldi xizmatkor va lekin, bu ne hol?
Hovliqib: “Eshak qani?” — deb so‘rdi chol.

“Voy ajab... Bu ne balo holingdadir?
Ey, janob, u balki soqolingdadir!”

Shunda mehmon ham tutaqdi: “Qo‘y nari
Sen o‘sha ayyorligingni, puch bari!

Men eshakni senga topshirdim! Senga!
Berganimni qaytarib bergil menga!

O‘z so‘zida ul rasuli haq egam,
“Olganingni qaytarib bergil!” — degan.

Kelmasang insofga, bilgil begumon,
Qoziga sudrab borarman shul zamon!”

Shunda der sho‘rlik mulozim, haqir:
“Eshagingni do‘stlaring sotdi axir!

Men ularning oldida ojiz edim,
Ha, ular ko‘p, men esa yolg‘iz edim.

Kim mushukka bovar etgay go‘sht-u yog‘?
Kimki bovar etsa, ahvoli chatoq!

Ha, ularga eshagingiz bo‘ldi shay,
Yuzta och ko‘ppakka bir mushukchaday!”

So‘fiy aytdi: “Mayli, shundoq bo‘ldi gap,
Ul guruh eltdi eshakni tortqilab.

Sen nechun menga hamono yetmading,
Kirdikorni menga ma’lum etmading?

Qutqarardim men eshakni bir yo‘la,
Ming tadorik, chorayi tadbir ila!”

“Keldim uch karra. Solardingiz hamon:
“Voy, eshak! Eshak yo‘qoldi!” — deb suron.

O‘yladimki, sizga ish ma’lum erur,
Balki, baxsh aylar ajab shavqi surur.

Bo‘yla qismat balki baxsh aylar ziyo,
Bejiz ermas bu, axir siz — avliyo!”

So‘fiy oh chekdi: “So‘qir taqlid ila
Men halok etdim o‘zimni bir yo‘la.

O‘zni o‘ldirdim, alardek may ichib,
Yeb-ichish deb, or-u nomusdan kechib!..”

MUSTAFO SALOVATULLOHU ALAYHNING KOFIRNING QORNI YETTITA, MO‘MINNING QORNI BITTA, DEYISHINING BOISI

Necha kofir kimsa mehmon bo‘ldilar,
Vaqti shom erdi, machitga keldilar.

Dedilar: ey shoh, qabul et, biz qo‘nuq,
Ey huzuringda qo‘nuq — ahli ufuq[1].

Benavomiz, hech vaqomiz yo‘q erur,
Ne bo‘lur boshlarga sochsang fazl-u nur.

Mustafo dedi: yoronlar, marhabo,
Qalbingiz shu lahza biz birlan to‘lo.

[1] **Ahli ufuq** — olam ahli, ma’nosida.

Amri podsho birla lashkar to‘lgusi,
Ul sababdin yovga shamshir urgusi.

Qahri shoh birlan etarsen zaxmi zarb,
Yo‘qsa, qardoshlarga joizmu g‘azab?

Qahri shoh birlan olarsen gurzini,
Begunoh boshlarga urgaysen uni.

Shoh — jon ersa, tamomiy o‘rdu — tan,
Ruh — suv ersa, tamom tanlar — o‘zan.

Podsho ruhi esa nahri zilol,
Bor ariqlarning suvi ham ayni hol.

Shoh ne dinda, raiyat unda, bas,
Bo‘yla amr etmish u sultoni Abas...[1]

Har sahoba bir qo‘nuqni tanladi,
Marhabo, deb uyga taklif ayladi.

Qolgan ul masjidda bir mehmon edi.
Jussador erdi, semiz, shishmon edi.

Boshladi mehmonni uyga Mustafo,
Yetti echki sut berardi xushsafo.

Echkilar qaytmishdi uyga kechki payt,
Sut sog‘ar erdi alardin ahli bayt.

Osh-u nonni yedi mehmon, to‘ymadi,
Yetti echkining sutin ham qo‘ymadi.

Ahli bayt ranjib, g‘azabga keldilar,
Chunki ul sutdan umidvor erdilar.

[1] Qur’oni karimning Abasa surasi nazarda tutilmoqda.

Shishdi mehmon qorni andoqkim dovul,
O‘n sakkiz kimsa taomin yedi ul.

Vaqti xufton hujraga kirdi semiz,
Ustidin yopdi eshikni cho‘ri qiz.

Ranjib erdi, baski qolmishdi ko‘ngil,
Shul sabab zanjirni ham o‘tkazdi ul.

Tun yarim yoki saharda ul qo‘nuq,
Bo‘ldi bezovta, magarkim ichburuq.

Turdi to‘shakdin, edi hojattalab,
Ko‘rdikim eshik qo‘yilmish tambalab.

Chorasin izlab, urindi, bo‘lmadi,
Tambalangan ul eshik ochilmadi.

Hojati qistab, chu bo‘ldi holi tang,
Hujra tor erdi, vale ahvol tang.

Yotdi ul to‘shakka, yumdi ko‘zini,
Eski bir qo‘rg‘onda ko‘rdi o‘zini.

Eski ul vayronakim, uyqusida,
Bo‘ldi zohir shul zamon o‘trusida.

Ko‘rdikim vayrona xoli erdi to,
Hojatin ham etdi bir zumda ado.

Uyg‘onib ko‘rdi ne holda xona ul,
Iztirobdin bo‘ldi chun devona ul.

Bo‘yla rasvolikda erdi ul hamon,
Ko‘ksidin uchdi alamli bir fig‘on.

Dedi: o‘ngimdan yomonroqdir tushim,
Unda yerman, bunda rasvolik ishim.

Xuddi go‘r qa’rida kofirdek nuqul,
Qichqirardi: vo saburo, vo sabur![1]

Ul kutardi tun ado bo‘lgaymu deb,
Bul eshik qarshimda ochilgaymu deb.

O‘q kabi uchmoqqa shay bil holini,
Ko‘rmagay to kimsa bul ahvolini.

Qisqa aytay, endi nelar bo‘lg‘usi,
Bas eshik ochildi, bitdi qayg‘usi.

MUSTAFO ALAYHISSALOM HUJRA ESHIGINI OCHGANI VA MEHMON XIJOLAT CHEKMASIN, DEYA O‘ZINI BIR CHETGA OLGANI

Mustafo ochdi eshikni subhidam,
Toki mehmon tashqari qo‘ysin qadam.

So‘ngra o‘zni oldi chetga Mustafo,
To sharmsor bo‘lmagay ul bedavo.

Tashqariga da’vat aylarkan uni,
Ko‘rmasin, dedi, eshik ochguvchini.

Ul hamono chetga oldi o‘zni to,
Yoki ko‘zlardin nihon etdi Xudo.

Sibg‘atulloh bo‘yla berkitgay gahi,
Ehtiyotlab, pardaga o‘rtgay gahi.

[1] **Vo saburo, vo sabur** — evohki, sabr-u bardoshim yetmadi.

Oldida turganni ko‘rmas yov magar,
Qudrati Yazdon buyukdir shunchalar.

Mustafo bilmishdi, ne erdi sabaq,
Mone erdi unga lek farmoni Haq.

Toki ul nafsi havoga uchmagay,
Toki bir tubsiz quduqqa tushmagay.

Bo‘yla hikmat erdi amri osmon,
Ko‘z ochib to o‘zni ko‘rsin ul chunon.

Ne adovatlarki bor, yorlik emish,
Ne xarobotlarki, me’morlik emish.

Ul najosatli to‘shakni bir fuzul,
Keltirib, dediki, ko‘rgil, ey Rasul.

Bo‘yla bo‘ldi mehmonning himmati,
Kuldi unga ikki olam rahmati.

So‘ng dedi ul, chun bosarkan kulguni:
Bunda keltir, men yuvib qo‘ygim uni...

Hozir o‘lganlar oyoqqa turdilar,
Jon-u tanlar senga qurbon dedilar.

Biz yuvarmiz, yo‘qsa, dil to‘lgaymu hech?
Qo‘l ishi bul, dil ishi bo‘lgaymu hech?

Toleingga shuncha izzat yozdi Haq,
Noib aylab kursiga o‘tqizdi Haq.

Biz hama xizmatdadirmiz sen uchun,
Bizga sen xizmatda bo‘lmog‘ing nechun?

Dedi: lekin bo‘yla bir soat erur,
Kirni yuvmog‘imda bir hikmat erur.

Turdilar barcha shu onda intizor,
Ul ajib asrorni chun ko‘rmoqqa zor.

Jon-u dildan kir yuvardi Mustafo,
Yo‘q edi bu ishda taqlid-u riyo.

MUSTAFO ALAYHISSALOM IFLOS TO‘SHAKNI O‘Z QO‘LI BILAN YUVARKAN, MEHMONNING QAYTIB KELGANI, QATTIQ XIJOLAT CHEKIB, O‘Z HOLIGA YIG‘LAGANI

Bor edi haykalchasikim, yodgor,
Ul yo‘qoldi, bo‘ldi kofir beqaror.

Qayda qolmish, deb kuyindi qanchalar,
Dedikim, ul hujrada qolmish magar.

Garchi kelmoqqa xijolatlig‘ edi,
Lek uyatni hirs — ajdarho yedi.

Hujraga yeldi, yugurdi shul zamon,
Shunda erdi haykali, ko‘rdi hamon.

Ko‘rdi so‘ngra ko‘rpani, shaltog‘ini,
Ki Rasulullo yuvar erdi ani.

Haykali bo‘ldi unut, o‘zdin ketib,
Chekdi faryod ul, yaqosin chok etib.

Nolalar qildi, oqizdi yoshini,
Eshig-u devorga urdi boshini.

Burnidin qonlar oqib, bo‘ldi ravon,
Unga rahm etdi Rasuli mehribon.

Oh urib, xalq boshiga to‘plandi-ku,
Gabr derdi: ayyuhannos, ihzaru,[1]

Boshiga mushtlardi, derdi: beaql,
Ko‘ksiga mushtlardi, derdi: ey baxil.

Sajda aylab derdi: ey kulliy zamin,
Men kabi sharmandani afv aylagin.

Senki Kullsen, Haqqa aylarsen vafo,
Menki juzvmen, qilmishim jabr-u jafo.

Senki Kullsen, Haqni aylarsen tavof,
Menki juzvmen, qilmishim ziddi xilof.

Ko‘kka derdi yuzlanib: ey osmon,
Menda yuz yo‘q, toki boqsam sen tomon.

Bor vujudi titrar erdi o‘t aro,
Bag‘riga bosdi, yupatdi Mustafo.

Berdi taskin, siypadi yuz-ko‘zini,
Ko‘zini ochgach, tanitdi o‘zini.

Gul kularmu yig‘lamas ersa bulut?
Yig‘lamas ersa go‘daklar, qayda sut?

Yosh go‘daklar ham bilur yo‘l-u tariyq,
Yig‘lagaylar, istabon mehr-u shafiq.

Doyalarning doyasi ham ul atay,
Yig‘lamas ersang, senga sut bermagay.

[1] Gabr, ya’ni otashparast: odamlar, menga yaqinlashmang, derdi.

Dedi: yig‘lang tavba aylab, zor-zor,
To muruvvat aylagay Parvardigor[1].

Oftob nuri, bulutning yoshi ul,
Muhtasham olamning ikki toshi ul.

Bo‘lmasaydi yomg‘ir-u oftob, bas,
Oshkor bo‘lgaymidi jism-u araz?

Bo‘lmasaydi bul ikovlon muttasil,
Qayda erdi bul tamanno to‘rt fasl?

Oftob balqib, bulutlar yig‘lashar,
Atr-u anbarga cho‘mib, olam yashar.

Sen-da porlatgil aql oftobini,
Sen-da sochgil ko‘zlaring selobini.

Yaxshidir gar ko‘zlaringda nam bo‘lur,
Ko‘p yema chun ko‘zda yoshing kam bo‘lur.

Non ila yaproq yozar tan yashnabon,
Jon butog‘ing sarg‘ayib, bo‘lgay xazon.

Tanga oziq jonga bo‘lgaymu tirak,
Ul biri deb bul birin kesmoq kerak.

Xayr-u ehson qil, kamaysin bargi tan,
Toki ko‘ngling ichra gul ochsin chaman.

Qil saxovat, luqmayi tanni kamayt,
To ko‘rinsin vajha la ayn-u raat.[2]

[1] Qur’oni karim, Tavba surasi, 82-oyatga ishorat.

[2] *Mazmuni:* xayr-u saxovat qil, toki ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ne’matlar senga muyassar bo‘lsin.

Gar najosatdin tamiz bo‘lgay taning,
Mushk-u gavharlar bila to‘lgay taning.

Chun palidlik o‘rniga poklik kelur,
Yutahhirkim birla tan oshno bo‘lur.[1]

Qo‘rqitur shayton va lekin: shoshma, hay,
Iztirobdin so‘ngra boshing chiqmagay.

Tark etar bo‘lsa havaslarni taning,
G‘am sening, afsus-pushaymonlar sening.

Ol, yegil, bu doru-darmondir senga,
Ich bunikim, foydasi kondir senga.

Tan ulov ermish senga, bilgil shuni,
Neki odat aylamish, bergil uni.

Fe’l-u xo‘ying asragil, o‘zgartma lek,
Dil, dimog‘ingga kelur yuz xastalik.

Bo‘yla tahdidlar etar ul dev-u dun,
Xalqqa aylab necha yuz sehr-u fusun.

Jolinusmen, der magar tanho tabib,
Nafsi bemoringga lek bergay firib.

Dard-u g‘amdin, der, yiroq bo‘l bir yo‘la,
Avramish Odamni chun bug‘doy ila.

Hoy-u huy, ey voh-la bag‘ring dog‘lagay,
Shul yo‘sin og‘zingni mahkam bog‘lagay.

Bog‘lashur ot og‘zini urganda na’l,
Tosh sunib senga degay ul: toza la’l.

[1] **Sizni pok** — musaffo bir holga keltirishni istar. Qur’oni karim, Ahzab surasi, 33-oyatga ishorat.

So‘ng qulog‘ingdin tutib bo‘y-bo‘yiga,
Sudragay hirs-u havolar so‘yiga.

Ishtibohdin senga urgaydir taqa,
Yurgani qo‘ymas seni zaxm-u chaqa.

So‘ng taraddud ichra yurgaysen mudom,
Ikki ishning qay birin qilsam, debon.

Et unikim, etdi muxtori Nabiy,
Etmagil, chun etdi majnun-u sabiy.

Jannat ul ko‘zdin nihon ermish atay,
Chun nihon erkanda ko‘proq yashnagay.

Avragay bir zumda shaytoni balo,
Oldidin chiqsa agarda ajdaho.

Suv esang, bir zumda bog‘laydir, qara,
Aylagay qutbi zamonni masxara.

Aql-u hushni aql-u hushga boylagil,
Amri Sho‘roni o‘qib, fikr aylagil.[1]

MUSTAFO ALAYHISSALOM MEHMONGA MEHRIBONLIK KO‘RSATGANI, XIJOLAT TORTIB, NADOMAT VA UMIDSIZLIK OTASHIDA O‘RTANIB, FARYOD CHEKKAN ARABGA TASKIN, TASALLI BERGANI

Bul suxan poyonsiz ermish, ul arab,
Ko‘rdi shoh lutfini, qoldi dovdirab.

Aql-u hush boshdin uchishga boshladi,
Mustafo lekin qo‘lidin ushladi.

[1] Qur’oni karim, Sho‘ro surasi, 38-oyatga ishorat.

Kel beri, dedi, ajab tebrandi ul,
Intihosiz uyqudin uyg‘ondi ul.

Aql-u hushni boshga yig‘gil, dedi hay,
Bunda sen qilguvchi ishlar bir talay.

Yuziga suv sepdi, tilga kirdi til;
Ey shahidi Haq, shahodat arza qil!

Shohidim bo‘l, dasht-u sahroga ketay,
Bu tiriklikdin to‘yibmen, tark etay.

Biz-da qoziyi qazo dahlizida,
O‘ltiribmiz bir balo orzusida.

Balli, deb aytdik, demak, bul — imtihon,
Fe’l-u so‘z barcha guvohlikdir tamom.

O‘ltiribmiz sahni dahlizda nuqul,
Muddao asli guvohlik erdi ul.

Tobakay dahlizda qolgung, ey guvoh,
Aylagil zikri shahodat jon aro.

Bunda kelmishsen shahodat bergani,
Chorlamishlar chin guvohlikka seni.

O‘ltirarsen o‘zni tashvishga ko‘mib,
Qo‘llaring bog‘lab, labingni chirt yumib.

To guvohlik bermaguncha, anglab ol,
Ushbu dahlizdan qutulmog‘ing mahol.

Bir nafaslik ishga ko‘ngil buzma ko‘p,
Qisqa bir ishdirki, bundoq cho‘zma ko‘p.

Ista yuz yil, istagil bir onda ul,
Bir yo‘la topshir omonatni, qutul.

MUSTAFO ALAYHISSALOM MEHMONGA KALIMAYI SHAHODAT KELTIRISHNI O‘RGATGANI

Bul suxan poyonsiz ermish, Mustafo,
So‘yladi iymon, qabul etdi fato.

Ul shahodatkim ko‘ngilga sochdi ul,
Har nechuk band-u bo‘g‘ovni ochdi ul.

Bo‘ldi mo‘min, dedi unga Mustafo:
Bizga mehmon bo‘lgil endi, marhabo.

Dedi mehmon: qayda bo‘lmay to abad,
Ey Rasulim, senga mehmonmen faqat.

Sen tiriltirdingki, farmoningdamen,
Ul jahon-u bul jahon yoningdamen.

Kimki istar ersa o‘zga sufra, xon.
Bo‘g‘zidin o‘tmay, tiqilsin ustuxon.

O‘zgani gar orzu etsa har kase,
Dev-u shaytondir uning hamkosasi.

Dahr aro kim qo‘shni bo‘lmaydir senga,
Dev-u shayton qo‘shni bo‘lgaydir anga.

Gar kishi sensiz etar bo‘lsa safar,
Dev-u shaytondir kishiga hamsafar.

Kim minib maydonda tulpori sharif,
Oyga hosid ersa, shaytondir radif.

Bo‘yla bir kimsa yetolmas asliga,
Dev-u shaytonlar qo‘shilgay nasliga.

Haq buyurdi: mayli, yur sheriklashib,
Mollari avlodlariga yondashib.[1]

So‘yladi bu so‘zni Payg‘ambar, bali,
Jon qulog‘i unga tikmishdir Ali.

Dedi mehmon: yo Nabiy, lutf aylading,
Bir quyosh yanglig‘ yoritding, siylading.

Onalar ham etmamish bundoq karam,
Etmamish Iso magar Ozarga ham.

Sen ajaldin menga baxsh etding najot,
Gar tirilmish erdi Ozar, o‘ldi bot.

Boz mehmon bo‘ldi oqshom ul arab,
Bir qadar sut ichdi, darhol yumdi lab.

Bas, Rasulullоh uni qistab edi,
Yo‘q, yetar, vallohki, men to‘ydim, dedi.

Bul takallufmas yo ayru bir tugun,
Kechagidin balki to‘qroqmen bugun.

Ahli bayt boqdi arabga dovdirab,
Qatra may qandilni to‘ldirmish, ajab.

Ul abobil qushgakim oziq emish,
Bul bahaybat filga bo‘lgaymu yemish?

Dedilar barcha shivirlab damba-dam:
Pashshadek ovqatga to‘ymish filtan.

Ketdi kofirlik-la hirs ham bir yo‘la,
Ajdaho to‘ydi tariqdek don ila.

[1] Qur’oni karim, Al-Isro surasi, 64-oyatga ishorat.

Ketdi kofirlik-la hirs ochko‘zligi,
Keldi iymon birla husni, o‘zligi.

To‘ldirardi xuddi moldek me’dasin,
Ko‘rdi Maryamdek bihishtning mevasin.

Ko‘rdi jannat mevasini, to‘ydi ul,
Yondi shum nafsi, olovda kuydi ul.

Sen qanoat ayla, bul hikmat senga,
Zoti imondir buyuk ne’mat senga.

BIR TOVUS O‘Z TUMSHUG‘I BILAN PATLARINI YULQIB, O‘ZINI TAQIR VA XUNUK BIR HOLGA SOLGANI, BUNI KO‘RGAN HAKIM HAYRATGA TUSHIB, O‘ZINGGA RAHMING KELMAYDIMI, DEB SO‘RAGANI. TOVUS, O‘ZIMGA RAHMIM KELADI, AMMO JONIM PARIMDAN AZIZROQDIR, PARLARIM — DUSHMANIMDIR, DEB JAVOB BERGANI

Bir hakim sayri chamanga burdi yuz,
Parlarin yulqurdi unda bir tovus.

Ko‘rdi-da, so‘rdi tovusdin shul zamon:
Nega yulqirsen patingni beomon?

Bo‘yla patlarkim, go‘zal, anvo, suchuk,
Sen yulib, tuproqqa otgaysen nechuk?

Parlaring — yorqin, muzayyan, dilrabo,
Jumla hofizlar qo‘yar Mus’haf aro.

Parlaring bersin farog‘at ham sevinch,
Deb go‘zallarga yasarlar yelpug‘ich.

Noshukurlik bul magar, avboshikim,
Bilmagaysenmu uning naqqoshi kim?

Yo bilarsan-da, turarsen noz etib,
Sen ataydan ishva-yu g‘ammoz etib.

Bas, oshirma haddidin, bo‘lgay gunoh,
Sen sari solmas nazarni so‘ngra shoh.

Nozlanish garchi shirin ermish, shakar,
Aylagil kam-kamki, keltirgay zarar.

Eminoboddir magar ruhi niyoz,
Sen niyozni tanla, lek tark ayla noz.

Nozaninlar necha silkib par-u bol,
Oqibat ul nozlari bo‘lmish vubol.

Noz magarkim goh ko‘targaydir seni,
Lek qulochlab yerga urgaydir seni.

Yolvorishlar tanni log‘ar aylagay,[1]
Lekin ul dilni munavvar aylagay.

Murdadin haydar tirik jonlarni bot,
Kimki o‘lgaydir, bilur rohi rashod.[2]

Zindadin ham forig‘ aylar murdani,
Murda birla so‘ngra nafsi zindani.
Murda bo‘l, to maxrajul-hayyus samad,
Zindalik bersin senga, lutfi abad.

Qahraton qish bo‘l, bahorni ko‘zlagil,
Kecha bo‘l, subhi nahorni ko‘zlagil.

[1] **Log‘ar** — oriq.
[2] **Rohi rashod** — to‘g‘ri yo‘l.

Parlaringni yulma ko‘p, irg‘itma ham,
Yuzlaringga urma tirnoq, ey sanam.

Bo‘yla bir yuzdirki ul shamsi zuho,
Bo‘yla ruxsorga yaro solmoq xato.

Urmagil tirnoq, bu kofirlik erur,
Ul qamar yuz hajrida oy yig‘layur.

Yo o‘zing ham ko‘rmagandirsen ani,
Tashla bu fe’l-u lujojandishani.[1]

TOVUSNING SAVOL SO‘RAGUVCHIGA JAVOB BERGANI

Yig‘lamoqdin tindi oxir, dedi: bor,
Senga ul rang-u bo‘yoqdir e’tibor.

Ko‘rmadingmu shu qanotlar uzra to,
Har tarafdin yog‘ilur yuz bir balo.

Ey baso sayyodki har yerda mudom,
Shu qanotlar deb qo‘yarlar menga dom.

Necha tiyrandoz otarlar beomon,
Necha ming o‘qlar ucharlar men tomon.

Zo‘r-u zabtim yo‘q, qochishni eplasam,
Bul qazovu bul baloni chetlasam.

Yaxshidir bo‘lsam o‘zim bebol-u par,
So‘ngra shu ma’voda yursam bexatar.

Bir siloh ermish bu menga, ey fato,
Ki ulug‘larga ulug‘lanmoq — balo.

[1] **Lujojandisha** — o‘jar, sarkash.

UL HAQDAKIM, AQLLI, ZAKOVATLI BO‘LISH VA MOL-U DUNYO — TOVUS QUSHNING PARLARIDEK JONNING DUSHMANIDIR

Bas, hunar ofatga solgay xomni,
Donni ko‘rgay, ko‘rmayin ul domni.

Ixtiyor unga yarashgaydirki, u
O‘z-o‘ziga amr etib, der: ittaqu.[1]

Hifz-u taqvo yo‘q esa, zinhor-u zor,
Tashlagil olatni, tark et ixtiyor.

Jilvagohim — parlarimdir har nafas,
Yulmasam, aylar mening jonimga qasd.

Kimki sobirdir, qanotsizmen, degay,
To qanoti bir baloga solmagay.

Yetmagay unga qanotlardin ziyon,
Uchsa o‘q, qalqonni tutgaydir hamon.

Lek o‘shal zebo qanotlar — dushmanim,
Jilva etmaslikka sabrim yo‘q manim.

Sabr-u hifzim bo‘lsa erdi rohbar,
Ixtiyorimda bo‘lurdi kar-u far.

Chun go‘dakmen yoki mastdirmen qatig‘,
Joiz ermas bersalar ilkimga tig‘.

Aql-u hush bo‘lsaydi, band etgay edi,
Tig‘ zafarlarga meni eltgay edi.

[1] **Ittaqu** — ehtiyot bo‘l.

Aql-u hush bo‘lsin magarkim oftob,
Tig‘ urar bo‘lsa, base bo‘lgay savob.

Menda yo‘q chun aqli tobon-u saloh,
Chohga tushsin bori qalqon-u siloh.

Chohga otgaymen, saxovat yo‘liga,
Yo‘qsa, tushgay dushmanimning qo‘liga.

Na kuchim bor, na tayanchim, ko‘rgay ul,
Bas, olib tig‘imni, menga urgay ul.

Bul qabih nafsimni ko‘rgaymen o‘zim,
Yuzni berkitmaydi, tirnarmen yuzim.

Qolmagay to bu jamol-u bu kamol,
Yuzki yo‘q ersa, kamaygay ul vubol.

Shu niyat-la tirnagaymen o‘zni to,
Chirmasin deb yuzlarim zahmu yaro.

Dilda gar fe’li sitez-u jang edi,
Yuzda lekin yuz safovu rang edi.

Menda na qudrat, na farhang-u saloh,
Dushmanim ko‘rdim-da, sindirdim siloh.

Bermagay to unga shamshirim kamol,
Menga so‘ng keltirmagay zahm-u zalol.

Men qocharmen, qochmagan insonmi, hay?
O‘z-o‘zingdan qochmog‘ing osonmi, hay?

Ulki qochgay o‘zgadin, beixtiyor,
Oqibat bir yerda topgaydir qaror.

Yov o‘zimdirmenki, ul qochguvchi ham,
To qiyomatga qadar qochguvchiman.

Ul necha Hind-u Xo‘tanga chopmagay,
Soyasi quvsa, omonlik topmagay.

XALIL ALAYHISSALOM QUZG‘UNNI O‘LDIRGANI SABABI, BU — MURIDNING QAYSI BIR YOMON SIFATLARDAN QUTULISHI LOZIMLIGIGA ISHORAT EKANLIGI

Bul suxan poyonsiz ermishdirki chun,
Ey Xalil, quzg‘unni o‘ldirding nechun?

Baski, buyruq birla etding korni,
Endi sal ochmoq kerak asrorni.

Boqki, qag‘illaydi quzg‘un boz-boz,
Jismiga istaydi ul umri daroz.

Bo‘ylakim, Haq-Rabbanodin iblis ul,
To qiyomat istamish erdi umr.

So‘rdi umrin to o‘shal Yavmul jazo,
Kosh desaydi: tavba qildim, Rabbano.

Umri betavba base mehnat erur,
Nogahon kelgan o‘lim g‘aflat erur.

Haqqa xushdir ham hayot-u ham mamot,
Tangrisiz otash erur obi hayot.

O‘ylakim, ta’siri la’nat erdi bul,
Bo‘yla bir soatda umrin so‘rdi ul.

Tangridin g‘ayri Xudoni so‘rganing,
Ko‘kka ermas, o‘zni yerga urganing.

Umr istarsen jahonda, kulgulik,
Sher huzurida o‘yin bu, tulkilik.

Kim umr istarki, der olchoq bo‘lay,
Muhlatim surgilki, tubanroq bo‘lay.

Bori la’natga nishona ul emish,
Nokas ermish muncha, la’natjo‘ emish.

Xush umr — qurb ichra jonorastalik,
Qarg‘a umri — go‘ng titib, nokastalik.

Ul degay: umrimni cho‘z, ochdir ko‘zim,
Menga axlat berki, badgavhar o‘zim.

Bo‘lmasaydi bo‘yla, so‘ylab ro‘y-rost,
Qarg‘a-quzg‘unlikdin istardi xalos.

MUNOJOT

Eyki, bundoq aylagan tuproqni zar,
Eyki, tuproqdin yaratgan Bulbashar.

Gar ishing — tabdil-u a’yon-u ato,
Qilmishim — yanglish, unutmoqlik, xato.

Yanglish-u nis’yonim olgil, ber bilim,[1]
Men g‘azabdirmen, bag‘ishla sabr-u hilm.

Ey taxir tuproqni chun non aylagan,
Ey o‘lik nonlarni so‘ng jon aylagan.

[1] **Nis’yon** — unutish.

Eyki, hayron jonni rahbar aylagan,
Eyki, yo‘l bilmasni sarvar aylagan.

Bo‘ylakim, yerdin yaratding osmon,
Yerda yulduzlarni ham etding ayon.

Kimki topgay dahr aro obi hayot,
Ko‘z ochirmay, unga yetgaydir mamot.

Dil ko‘zi-la kim nazarni burgusi,
Har zamon bir turfa savdo ko‘rgusi.

Tan libosikim, bu yanglig‘ sir erur,
Tanni tan etgan o‘shal iksir erur.

Mulki borliq ichra sen qandoq eding,
Otash erding, yel eding, tuproq eding.

Gar shu holat ichra tursayding baqo,
Qayda erdi senga bundoq irtiqo.[1]

Surdi Haq, avvalgi borliq qolmadi,
O‘rniga bir o‘zga borliq joyladi.

Necha minglab kechdi borliqlar, biroq,
Har biri avvalgisidin yaxshiroq.

Ko‘rganing vosita ermish, qo‘y ani,
Vosita to‘sgay ko‘zingdin aslini.

Vosita ko‘p ersa, vasl ermish yiroq,
Vosita kam ersa, ortar ishtiyoq.

Chun sabab birlan kamaygay hayrating,
Hayratingdin vosit o‘lgay hazrating.

[1] **Irtiqo** — yuksalish.

Barcha borliqlar fanodin keldi chun,
Bas, fanodin yuz o‘girgaysen nechun?

Ne ziyon ko‘rding fanolardinki to,
Tirmashib olding baqoga, nofiqo?[1]

So‘nggisi avvalgisining naqshidir,
Sen fano izla, fanoying yaxshidir.

Ko‘rganing shu borliq ermishdir, vujud,
Ko‘rding andin yuz qiyomat, ey anud.

Bexabar, jonsiz jismdin — to nabot,
So‘ngra andin — o‘zga bir so‘yi hayot.

So‘ngra kelding shu aql ma’vosiga,
Emdi ketgaysen fano dunyosiga.

Saqlanur sohilda izlar, chizgilar,
Dengiz ichra lek yo‘qolgaydir ular.

Boq quruqlik ichra sharti ehtiyot —
Necha manzilgoh-u qo‘rg‘on-u rabot.

Ne emish dengizda manzil, damba-dam,
Ursa to‘lqin, sahni qolmas, shifti ham.

Sahni nekim, tomi ham ermas ayon,
Yo‘q alardin o‘ylakim nom-u nishon.

Ul nabototdin — shu joningga qadar,
Necha yuz manzil, qo‘nimgohdir magar.

Yo‘l bosib ham necha borliqlar oshib,
Kelding-u qolding shu tangga tirmashib.

[1] **Nofiq** — kalamush.

Jon berib, ey qarg‘a, sen ham boz bo‘l,[1]
Boq Xudo tabdiliga, jonboz bo‘l.

Eskisin ber, yangisin ol yangidin,
Har yiling uch marta ko‘p avvalgidin.

Gar saxovatsiz esang, isor qil,[2]
Eskini eskiga qo‘sh, ombor qil.

Eski-tuski narsa ne hojat senga,
Tuhfa etgil sen uni nodiydaga.[3]

Eskiga endi xaridor bo‘lmagay,
Haqni der, senga giriftor bo‘lmagay.

Har nechuk qushlarki, nodon, ko‘zi ko‘r,
Senga kelgaylar, ayo selobi sho‘r.[4]

Ko‘zni ko‘rmas aylasa, sho‘r aylagay,
Suvki sho‘rdir, ko‘zni ul ko‘r aylagay.

Ko‘ngli ko‘rdir ahli dunyo ul sabab,
Haqni ko‘rmaslar shu ob-u gil sabab.

Yo‘qsa gar obi hayoting chun zilol,
Sen o‘shal sho‘r suvni ich, ko‘rlikni ol.

Bo‘yla holatda baqo istab to‘la,
Zanjidek shodsen qaro yuzlik bila.

Zanjiga ne ul qarolik, ganjidir,
Chun azaldin ul qarodir, zanjidir,

[1] **Boz** — lochin.
[2] **Isor** — bu yerda, asir qil.
[3] **Nodiyda** — ko‘rimsiz, ochko‘z.
[4] **Selobi sho‘r** — aynigan, sho‘r ko‘lmak.

Ulki ul ko‘rk-u safolik izlagay,
Yuz qaro bo‘lsa, tadorik izlagay.

Gar uchar qush yerda, uchmasdan qolur,
G‘ussavu dard-u alamdin dod solur.

Uy qushi yurgay zaminda yo‘rg‘alab,
Don-u suvni uyda etgaydir talab.

Ul azaldin sohibi parvoz emish,
Bul azaldin sust-u beparvoz emish...

TANGRI TAOLO ODAM ALAYHISSALOM TANINI YARATISH UCHUN JABROIL ALLAYHISSALOMGA, BOR, YERGA TUSHIB, BIR HOVUCH TUPROQ KELTIR, DEB ISHORAT ETGANI. BOSHQA BIR RIVOYATGA KO‘RA ESA, HAR YER-HAR YERDAN HOVUCH-HOVUCHLAB TUPROQ OL, DEB BUYURGANI

Tangri Odamni yaratmoq bo‘ldi chun,
Xayr-u sharr ichra sinov etmoq uchun.

Dedi Jabroilga: tushgil yerga, hov,
Bizga keltir bir hovuch tuproq garov.

Tushdi Jabroil hamon so‘yi zamin,
To bajargay amri Rabbul olamin.

Cho‘zdi ul tuproqqa ilkin, shu mahal,
Titradi yer, tislanib etdi hazar.

Tilga kirdi so‘ngra, faryod ayladi,
Dedi: ey, Parvardigoring hurmati,

Qo‘y mening holimgavu jon ayla baxsh,
Otni bur ortingga, ehson ayla baxsh.

Ko‘p bo‘lur bu ishda taklif-u xatar,
Olma tuproq, solma boshimga kadar.

Haq seni e’zoz etdi, siyladi,
Ilmi lavhiddin xabardor ayladi.

Ki maloyikka muallim ham o‘zing,
Haqqa suhbatdosh, mukallim ham o‘zing.[1]

O‘yla Isrofil qayonda, sen qayon,
Ul hayoti tan esa, sen jonga jon.

Suri Isrofil-la tanlar qo‘zg‘alur,
Sen bila tanlarda jonlar qo‘zg‘alur.

Jon-u tanlar joni — ko‘ngildir o‘shal
Berganing bergonidin ustun magar.

Gar Mikoil bersa tanlar rizqini,
Sen dili ravshanga bergaysen ani.

Ul berar ermish hovuchlab, rizqini, hay,
Sen berar ersang hovuchga sig‘magay.

Qayda Azroilga vazn-u nisbating,
Qayda qahr-u qayda mehr-u shafqating?

Arshni tutmish to‘rt malak, ogohisen.
To‘rt malak sultonidirsen, shohisen.

Tongla Mashharda ko‘targay sakkizi,
Sakkizi ichra o‘zingsen yulduzi...

[1] **Mukallim** — so‘zlashuvchi.

Bo‘ylakim yer oh chekib, yig‘lar edi,
Oqibatni chunki ul anglar edi.

Kon edi sharm-u hayoga Jabroil,
Etgani niyatlari qoldi sabil.

Bo‘ylakim yolbordi tuproq, soldi dod,
Ortga qaytdi, dedi: Ey Rabbul-ibod,

Buyrug‘ing oldida ojizmen magar,
Kechdi ne savdo, o‘zingsen boxabar.

Bo‘yla bir nomni aroga soldi, hay,
Yetti gardun aylanishdin to‘xtagay.

Tushdi noming o‘rtaga, bo‘ldim xijil,
Yo‘qsa, tuproq keltirish mushkulmidir?

Bo‘yla kuch berding malaklarga, Egam,
Parchalaydirmiz magar ko‘klarni ham.

TANGRI TAOLO O‘Z XALIFASI, HAZRAT ABULBASHAR, MALAKLAR SAJDA ETGUVCHI, MALAKLAR XO‘JASI ODAM ALAYHISSALOMNING MUBORAK JISMINI YARATMOQ UCHUN TUPROQ OLIB KELISHGA MIKOIL ALAYHISSALOMNI YUBORGANI

Dedi Haq: borgil, Mikoil, er bo‘lib,
Bir hovuch tuproq qo‘porgil sher bo‘lib.

Chun Mikoil uchdi, yerga yetdi ul,
Bir hovuch tuproq olishga cho‘zdi qo‘l.

Seskanib, yer o‘zni ortga tashladi,
O‘rtanib, so‘ng yig‘lamoqqa boshladi.

O‘tli ohlar chekdi, faryod, nola ham,
Qonli yoshlar to‘kdi ko‘zdin damba-dam.

Dedi: Yazdon haqqi, qo‘yma noumid,
Ki sening yelkangdadir Arshi majid.

Dahr aro rizq-u nasab eltguvchi sen,
Tashnalab dillarga suv tutguvchi sen.

“Kayl” so‘zi bo‘lmish “Mikoil”ga o‘zak,
Ya’ni, u kayel, tarozubon demak.

Ber omonim, qo‘y meni, ozod qil,
Boq siniq holimgavu imdod qil.

Chashmayi rahmi iloh ermish malak,
Dedi: joizmu g‘aribni qiynamak...

Chashmayi qahr-u g‘azab shayton-u dev,
Odamiyning ko‘ksiga solgay g‘irev.

Rahmat ustundir g‘azabdin, ey fato,
Shafqat ermish avvali vasfi Xudo.

Bandalar ham bahramanddir ho‘yidin,
Jomlari lim-lim u rahmat suyidin.

Ul rasuli Haq, qulovuzi suluk,
Dedi: an-nosu alo dinul muluk.[1]

Chun Mikoil boqdi yer ko‘z yoshiga.
Qaytdi bo‘sh qo‘l birla Tangri qoshiga.

[1] Tangri elchisi, haq yo‘l rahnamosi dedikim, insonlar o‘z podsholarining dinidadirlar.

Dedi: ey donoyi sirr-u shohi fard,
Oh-u zori ezdi ko‘nglim beadad.

Qadri bor ko‘z yoshining qarshingda chun,
Beqadr bo‘lgaymidir ul men uchun:

Sen eshitgaysen fig‘on-u nolani,
Men nechuk tinglab, eshitmasmen ani?

Yoshli ko‘z nazdingda topmish chun qadr,
Menda ul ko‘zlarga bardosh qaydadur?

Ul muazzinkim namozga chorlagay,
Bandasi besh karra Haq deb zorlagay.

Ul muazzin qichqirar: hayyul faloh,
Ma’nisi: etgil Xudoga iltijo.

Kimsanikim g‘amga mahkum aylading,
Yig‘lamoqdin bori mahrum aylading.

Yog‘ilur ming bir balodin o‘q anga,
Gar tazarrudin shafoat yo‘q anga.

Haq balolardin agar imdod etar,
Bandasi ohlar chekib, faryod etar.

Haq demishkim, qavmlar bordir chunon,
Uchramish qahr-u g‘azabga beomon.

Gar balolar erdi asru, yetmadi,
Hech biri zor-u tazarru etmadi.[1]

Tosh edi ko‘ngillari, bilmishlari,
Chun ibodat erdi ul qilmishlari.

To nadomatlar ko‘ngilni yoqmagay,
Kimsaning ko‘z yoshi yuzdin oqmagay.

[1] Qur’oni karim, A’nom surasi, 42–45-oyatlarga ishorat.

TANGRI TAOLO ODAM ALAYHISSALOM JISMINI YARATMOQ UCHUN TUPROQ OLIB KELISHNI ISROFIL ALAYHISSALOMGA BUYURGANI

Tangri Isrofilga, qo‘zg‘ol, tur dedi,
Bizga yer tuprog‘idin keltir, dedi.

Tushdi Isrofil zaminga shul zamon,
Yer yana yig‘lab-netib, etdi fig‘on,

Dedi: sur sozandasi, bahrul najot,
Sen bila kelgay o‘liklarga hayot.

Sur chalib, cheksang magar bongi baland,
Bo‘lgay ul mashhar xaloyiq birla band.

Sur chalib, go‘yoki dersan: as-salo,
Qo‘zg‘aling, ey siz, shahidi Karbalo.

Ey halokat birla yotganlar to‘zib,
Qo‘zg‘alingiz endi yaproqlar yozib.

Yog‘ilur rahmat dami noying bila,
Qo‘zg‘alur olam shu eh’yoying[1] bila.

Sen malakdirsen, rahmdil, dilrabo,
Arsh sening yelkangdadir, ey dodxo.

Arsh degan asli adolat koni ul,
To‘rtta daryo ostida to‘lqinlanur.

Sut oqar, sharbat oqar, jonlarga jon,
May oqar, suv-dajlayi obi ravon.

[1] **Eh’yo** — hayot, tiriklik.

Arshdin jannatga tushgaydir ular,
Bul jahonda zarrasi zohir bo‘lar.

Bul jahonda to‘rtta daryo oqadir,
Lek ular zahri fanodin loyqadir.

Qatrasi tomdi qaro tuproqqa to,
Fitna qo‘zg‘oldi magar olam aro.

Qatra erdi aslidan xaslarga ul,
Lek g‘animat bo‘ldi nokaslarga ul.

Har go‘dakka bunchakim qut berdi Haq,
Har xotinning ko‘ksiga sut berdi Haq.

Toki ko‘ngling g‘ussalarga botmagay,
Deb senga chekdi uzumdin boda, may.

Bo‘lmagil deb toki ranjir-u kasal,
Arilardin senga yetkazdi asal.

Suvni berdi, toki ichgaysen qonib,
Toki yurgaysen jahonda poklanib.

Aslidin senga ishorat erdi bul,
Sen yetar bilding bularni, bilfuzul.

Endi kel, yer mojarosi ne edi,
Tingla, Isrofilni qandoq avradi.

Dardini yuz bir shaklda yordi yer
Iltijolar ayladi, yolbordi yer.

Dedi: haqqi zoti pok-u Zuljalol,
Etma bu savdoni menga sen halol.

Bo‘yla bir savdoki ul qoshimdadir,
Badgumonlik o‘ylakim boshimdadir.

Sen malakdirsen, ajab rahmatnamo,
Injitarmu o‘zga qushlarni humo.

Ey shafovu rahmati as’hobi dil,
Chun ular ne qildi, sen ham aylagil.

Qaytdi Isrofil Xudo oldiga to,
So‘yladi, ne bo‘ldi uzr-u mojaro.

Dedi: ol, amrini ko‘rding menga ep,
Aslida ko‘nglimga solding, olma, deb.

Ol, debon yetdi qulog‘im so‘yiga,
Olma, deb aql-u dumog‘im so‘yiga.

Bo‘yla rahmat yengdi, yengildi g‘azab,
Ey o‘zi, a’moli tengsiz Haq-qu Rab.

TANGRI TAOLO ODAM ALAYHISSALOM VUJUDINI YARATMOQ UCHUN TUPROQ OLISHGA MALAKUL AZM VAL-HAZM AZROIL ALAYHISSALOMNI JO‘NATGANI

Haq dedikim, yerga tushgil, Azroil,
Bor-da, ko‘rgil ne balo o‘ylarda ul.

Top o‘shal zolim xotinni, berma payt,
Bir hovuch tuprog‘in ol-da, izga qayt.

Tushdi Azroil, u sarhangi qazo,
Tangrining amrini etmoq-chun ado.

Yer yana ikki ko‘zini yoshladi,
Yig‘lamoqqa, siqtamoqqa boshladi.

Ey g‘ulomi xos, dedi, hammoli Arsh,
Amri Haq birlan makoning Arsh-u farsh.

Ket xudoying haqqi, ul Rahmoni fard,
Qanchalar lutf etdi senga, marhamat.

Undin o‘zga ma’buding ma’bud emas,
Oh-u zoring oldida mardud emas.[1]

Dedi: bu afsun-la ketmog‘im qiyin,
Tangrining amrini ijro etmayin.

Dedi: Haq amr etdi yur deb hilm ila,[2]
Ul birini tanlagil sen ilm ila.

Dedi: ul ta’vil bo‘lgay yo qiyos,
Bunda ta’vil-u qiyosga yo‘q asos.

Yaxshidir fikringni ta’vil aylasang,[3]
Lek buni Haq amridir, deb o‘ylasang.

O‘rtadi ko‘nglimni bundoq nodishing,
Soldi shul jonimga titroq nolishing.

Bo‘ylakim mehr-u muruvvat menda, bas,
O‘zgalardin e’tiborim kam emas.

Tarsaki tortgum yetimga men magar,
O‘zgalar qand birla halvo bersalar.

Tarsakim avlo erur halvosidin,
Aldanib qolmas shirin ishvasidin.

[1] **Mardud** — rad etilgan.
[2] **Hilm** — yumshoqlik.
[3] **Ta’vil** — sharh, izoh.

Garchi hamdardmen, jigarso‘zmen senga,
Tangri o‘zga sheva o‘rgatmish menga.

Lutfi pinhondir g‘azablar ichra to,
Loyda yotgaydir aqiqi bebaho.

Tangrining qahri buzish ermas, tuzish,
Tangridin jon saqlamog‘ing — jon uzish.

Qahriga kelmas barobar ikki kavn,
Ni’mati Rabbul-alaminu ni’mavn.[1]

Shafqati pinhon emishdir qahrida,
Jon olib, joning kiritgay aslida.

Badgumonlik etganing ul ne emish,
Talpinib borgilki, senga, kel, demish.

Kel debon senga taololar berur,[2]
Mastlig-u mahbub-u ashyolar berur.

Amri sunniyni bajargum erta-kech,
Bunda sustkashlik etolmam hech-hech.

Tingladi bir-bir bu so‘zlarni zamin,
Lek gumon erdi qulog‘iga tiqin.

Ul yana oh chekdi, ko‘zni yoshladi,
Ko‘zni yoshlab, yolborishga boshladi.

Dedi Azroil: senga yetmas ziyon,
Bosh-u jonimni garov etgum hamon.

[1] **Kavn** — dunyo. Na go‘zaldir olamlarning Rabbi, na go‘zaldir uning madadi.
[2] **Taolo** — yuksak, yuksaklik.

Qo‘y, bu anduhlarga boshqa bormagil,
Haqdin o‘zga kimsaga yolbormagil.

Amri Haqqa bo‘ysunurmen besh-u kam,
Amri qo‘zg‘atgay magar dengizni ham.

Ul qulog‘im, ko‘z-u boshim Tangrisi,
Ne pisand jonimni xayr-u sharrisi.

Tinglamasmen undan o‘zga kimsani,
Chun bilurmen jonga jonim deb ani.

Kelmamish jondin u, andin keldi jon,
Necha ming jonlarni berdi roygon.[1]

Jon nadir, qarshimda tursa ul karim,
Burgani deb ko‘rpani yoqqaymidim?

Xayr Alloh xayridir jonimga, hov,
O‘zgalarga ko‘r-u kardirmen, soqov.

Kirmagay hargiz qulog‘imga fig‘on,
Men uning ilkida o‘qdirmen, kamon.

BIR MUAZZINNING XUNUK OVOZ-LA KOFIRLAR SHAHRIDA AZON AYTGANI, BIR KOFIRNING UNGA HADYA BERGANI

Bir muazzin bordi, ovozi yomon,
Keldi kofir shahriga, aytdi azon.

Dedilar: qo‘y, sen azon deb chekma un,
Tortgusi bahs-u adovatlar uzun.

[1] **Roygon** — tekinga.

Ko‘nmadi ul, zoe ketdi e’tiroz,
Har kuni urdi necha bongi namoz.

Xalq to‘lib toshganda bul savdo bila,
Chiqdi bir kofir, qo‘lida, to‘n ila.

Sha’m-u halvo bor edi ilkida boz,
Hadya keltirmishdi aylab sarfaroz.

So‘rdikim, ayting, muazzin qayda ul?
Ki ovozi bizga g‘oyat xush erur.

Dedilar: ovozi qursin, qo‘y uni,
Dedikim, butxonadin kelgay uni...

Bir qizim bor, oy xira yog‘dusiga,
Tushdi ul mo‘min bo‘lish orzusiga.

Boshini band etdi savdo, ketmadi,
Pand-o‘gitlar unga ta’sir etmadi.

Chun imon deb o‘zni etmishdi unut,
Ul magar o‘t erdi, men o‘t ichra ud.

Turmushim erdi azob, dard-u alam,
O‘z uyimda g‘urbat erdi damba-dam.

O‘rtanarkan, chorasiz erdim chunon,
Bul muazzin aytdi to‘satdin azon.

Ne ovoz bul, deb hamon so‘rdi qizim,
Ki uning birlan qoraydi yulduzim.

Ne ovozlar tingladim men erta-kech,
Bul ovozdek tuymadim rasvoni hech.

Singlisi dediki, bul-bongi azon,
Ahli mo‘minlarni chorlaydir hamon.

Bovar, etmay, boshqalardin so‘rdi ul,
Boshqalar ham dedilarki, bo‘yladir.

O‘yga toldi, chekdi anduh, chekdi g‘am,
Ko‘ngli qoldi ul musulmonlikdanam.

Ketdilar tashvish, azobim tarqalib,
Shul kecha yotdim magar rohat qilib.

Orzuga yetkazdi ovozi meni,
Hadya keltirdim, muazzin er qani?

Ko‘rdi muazzinni, dedi: marhabo,
Bir yo‘la dardimga etding sen davo.

Muncha ehson bo‘ldi menga etganing.
O‘lgunimcha men madadkoring sening.

Mol-u mulk, davlatga bo‘lsaydim ega,
To‘ldirar erdim dahoning tillaga.

Baski ul iymoningiz makr-u majoz,
Bir qaroqchidir o‘shal bongi namoz.

Lekin ul iymon-u sidqi Boyazid,
Soldi shul jismim aro jonimga o‘t.

Bir xotin eshshak jimosini ko‘rib,
Ne ajab erkak, demishdir oh urib.

Ishni bundoq qoyil etgay er kishi,
Ish emishm-u bizning erkaklar ishi?

Berdi iymon dodini ul Boyazid,
Ki degaysen: ofarin, sheri farid.

Qatra iymoni tushurkan bahr aro,
G‘arq bo‘lur dengiz aningdek dahr aro.

Tushsa uchqun bir butoqqa, netgusi,
O‘t ketib, o‘rmonni abgor etgusi.

Bir xayol surgay chu podshohi sipoh,
Ul xayol so‘ng yovni yanchar jang aro.

Porladi andoq Muhammad yulduzi,
Qaqshadi gabr-u juhudning ildizi.

Kimki iymon topdi, topdi ul omon,
O‘zgalarga qolgani — kufr-u gumon.

So‘ngra kofirlik-da bitdi bir yo‘la,
Yo musulmonlik-la, yo qo‘rquv ila.

Suvga yog‘ qo‘shmoqni etmishdik g‘araz,
Zarracha nurdek bu so‘zdin naf emas.

Zarra bo‘lgaydir haqir-u munjasim,
Zarra bo‘lmas shoriqi loyanqasim[1].

Zarra aytishdan murodim bor nihon,
Dur emas, dengizda ko‘piksen hamon.

Oftobdek porlasa iymoni shayx,
Ne ajab, chun oftobdir joni shayx.

Jumla tubanlar asil bo‘lgay tamom,
Jumla yuksaklar yashil bo‘lgay tamom.

Shul aziz nuri munirdin jon anga,
Shul qaro xoki haqirdin tan anga.

[1] Baytning mazmuni: zarra bir — jismning ushoq parchasidir. Zarra bo‘laklarga bo‘linmaydigan porloq quyosh bo‘lolmas.

Ey ajab, ul bulmidir, bul ulmi yo?
Qoldim andoq qiynalib mushkul aro.

Ey birodar, ulki tuproq ersa chun,
Yetti ko‘k nuriga yo‘g‘rilmish nechun?

Nur esa chun, ne emish tanning siri,
Kim emish ul, ikkisidin qay biri?

Forschadan Jamol Kamol tarjimasi

TIJORATGA BORAYOTGAN CHOG‘IDA TUTQUN TO‘TISI HINDISTON TO‘TILARIGA SALOM YO‘LLAGAN SAVDOGAR QISSASI[1]

Bor edi tojir va dildor to‘tisi,
Tor qafasda tutqun-u zor to‘tisi.

Ko‘rdi savdogar tadorik shul zamon,
Ul safar qilmoqchi bo‘ldi Hind tomon.

Har kaniz, xizmatchisin chorlab shu payt
So‘rdi: “Men ne keltiray senlarga, ayt?”

Barchasi o‘z istagin bildirdi shod,
Va’da berdi barchaga himmatli zot.

To‘tidan so‘rmish: “Gapir, senga bu on,
Keltiray Hind elidan ne armug‘on?”

Dedi: “Nogoh to‘tilar duch kelsa gar,
Ushbu holim tarzidan bergin xabar.

De: falon bir to‘ti sizga intizor,
Bizga taqdir ulni etmish bandi, yor.

[1] Asardagi Qur’oni karimning o‘zbekcha ma’nolari Mirzo Kenjabek tarjimasidagi “Anvorul-Qur’on (Fayzul-Furqon”) kitobidan olindi.

Yo‘llagay sizlarga payg‘om otashin,
Istagay sizdan biror yo‘l chorasin.

Balki do‘st diydoriga mushtog‘-u zor,
Jon berarman bunda men devonavor.

Menga tutqunlik ravodir jilvasiz,
Gullagan bog‘-u chamanzor ichrasiz.

Shulmikan do‘stdan vafolar, oh, nahot?
Men asir, sizlar guliston ichra shod.

Yodda saqlang mendayin zor qushni ham,
Bir sahar bo‘lgach chamanzor ichra jam.

Do‘stini do‘st eslasa, mamnun erur,
Do‘st esa chin — Layli-yu Majnun erur.

Yor quchib, siz unda topgaysiz farah,
Men icharman bunda qonim liq qadah.

Bir qadah may birla bo‘l yodimga yor,
Kelmagay berging agar dodimni zor.

Yoki bir sho‘rlikni yod aylab hazin
Yerga to‘k, ichsang, u jomdan qatrasin.

Voajab, qaylarda ul ahd-u qasam?
Ham shakar lab va’dasi, lutf-u karam?[1]

Farq qani, qul gar yomondir — holi tang,
Gar yomonga sen yomonlik aylasang?

[1] **Ey iymon keltirganlar! Ahdnomalarga vafo qilinglar!** (Allohga bo‘lgan iymon aqdingizni va odamlar bilan kelishilgan ahdlarni bajo keltiringlar.) *(“Moida” surasi, 1-oyat).*

Eyki, qahring kelsa, bersang gar jazo,
Bil, samo', chang bongidan xush ul navo.

Ey jafosi mulk-u moldan yaxshiroq,
Intiqoming jondan afzal do'st, inoq.

Otashing bul bo'lsa, qandoq senda nur?
Motaming bul bo'lsa, qandoq ul surur?

Har jafo-jabring halovat baxsh etar,
Aylasang lutf, ayt, tubingga kim yetar.

Qo'rqaman, menga ishongay, nolisam,
Rahmi kelgach, jabrin aylar deb U kam.

Ayladim Ul qahri-yu rahmin talab,
Ikki zidning oshig'iman, voajab!

Bo'lsa bog', valloh, tikondan so'ng makon,
Shul sabab, bulbuldayin qilgum fig'on.

Bir ajib bulbulki, og'zin ochsa ul,
Luqmadir unga tikonlar birla gul.

Bul ne bulbul? Bul — olovning ajdari,
Unga xushdir ishq ila noxush bari.

Kull o'zi, ham kullga oshiq, beqaror,
O'ziga oshiqdir, o'z ishqiga zor".

SAVDOGARNING SAHRODA HINDISTON TO'TILARINI UCHRATGANI VA O'Z TO'TISIDAN XABAR YETKAZGANI

Yetdi Hindistonga savdogarki to
Ko'rdi bir to'p to'tilarni cho'l aro.

Otini to'xtatdi, chorlab barchasin
So'ylamish qushning omonat gaplarin.

To'pdagi bir to'ti shul dam nogahon,
Qaltirab, holsiz yiqildi, berdi jon.

So'zidan tojir pushaymon, qoldi lol,
Dedi: "Bir qush joniga bo'ldim zavol.

Bul, nahot ul to'ti birlan qoni bir?
Bul, nahot ikki vujud, lek joni bir?

Oh, nechun men unga keltirdim salom?
Xom gapimdan kuydi bu sho'rlik tamom".

Til misoli temir-u toshday erur,
Neki tildan chiqqay, otashday erur.

Tosh-temirni behuda qilma xilof,
So'ylasang goh qissa, goh urganda lof.

Qop-qorong'u, har taraf gar paxtazor,
Paxta ichra uchqun-u o'tga ne bor?

Ulki zolim qavmdir, ko'r ko'zlari,
Kuydirar olamni butkul so'zlari.

Bitta so'z dunyoni vayron aylagay,
Ham o'lik tulkini qoplon aylagay.

Barcha jon Iyso daminda jam erur,
Goh jarohat, gohida malham erur.

Gar hijobdan ayri ersa barcha jon,
Erdi har jon lafzi ham Iysosimon.

Gar shirin so'z istasang shakkarsimon,
Yema hirsing holvasin, sabr aylabon.

Sabr-u toqatdir zakiylar yog‘dusi,
Holvadir barcha go‘daklar orzusi.

Kimda bor sabri agar, ko‘kka yetar,
Kim yegay holva, tubanlikka ketar.

SAVDOGAR O‘Z TO‘TISIGA HINDISTON TO‘TILARI BILAN QANDAY KO‘RISHGANINI SO‘YLAB BERGANI

Qildi savdogar tijoratni tamom,
O‘z uyiga qaytdi so‘ng, eltib payom.

Oldi undan sovg‘asin har bitta qul,
Har kanizga bir matoh keltirdi ul.

To‘ti so‘rmish: “Men uchun hadyang nadir?
Neki ko‘rding, so‘ylading, de birma-bir”.

Dedi: “Men afsus-nadomat aylaram,
Endi barmog‘imni tishlayman bu dam.

Qaydanam eltdim xabar xom, foydasiz,
Bul manim nodonligimdan, shubhasiz”.

Dedi: “Sen behad pushaymon, darg‘azab,
Ayt, axir, qahr-u g‘amingga ne sabab?”

Dedi: “Uchrab to‘tilarga nogahon,
Ayladim bor arz-u zoringni bayon.

G‘amlaring bir to‘ti his etdi chunon
So‘ng o‘ti yorildi, titrab berdi jon.

Dedim attang, ne uchun berdim xabar?
Endi bul pushmonligimdan ne samar?”

Qay kalom uchgay tilingdan nogahon,
O‘q erur, uchgan kamondan begumon.

Ortiga qaytarmi o‘q, o‘g‘lon, tag‘in?
Boshidan to‘smoq kerak sel yo‘llarin.

To‘smasang boshdan, jahon sel ichradir,
Ne ajab, dunyoni bossa birma-bir.

Neki g‘oyibdandir, undan qolgay iz,
Oqibat ro‘y bergay odam hukmisiz.

Neki bor, yolg‘iz yaratmishdir Egam,
Ne yaralmish, bizga daxli bo‘lsa ham.

Zayd Amirga o‘q uzarkan nogahon,
O‘q Amirga soldi chang yo‘lbarssimon.

Dard bir yilda yaralmish, har nafas
Dardni Haq keltirar, odam emas.

Qo‘rqib o‘lsa shunda gar otguvchi Zayd,
Toki o‘lguncha tug‘ilgay unda dard.

Oqibatda o‘ldirar dardi, lekin
Zaydni avval sabab qattol degin.

Unga mansub barcha dard undan erur,
Garchi barcha hodisa Haqdan kelur.

Ham ziroat, ham nafas, dom-u jimo
Bo‘ldi Haqning qudratin tuygach bino.[1]

[1] **Sizlar** (xotinlaringiz bachadoniga) **to‘kadigan maniyga** (uning inson bo‘lmog‘iga) **ne dersiz? Uni** (bir inson qilib) **sizlar yaraturmisiz yoki Biz yaratguvchimizmi?** *(“Voqe’a” surasi, 58-59-oyatlar).*

Avliyo olgay Ilohdan qudratin,
Uchgan o‘qni qaytarar ketga tag‘in.

Bil, sababdan oqibat eshik yopar,
Avliyo Haq ilkidan pushmon agar.

Ochiq eshikdan bayoni o‘sha tob
Bebayon — kuygusi na six, na kabob.

Qaysi dilda bersa ul fikri sado,
O‘sha so‘zni etdi pinhon, bebaqo.

Gar dalil qilsang talab, bergay jilo,
O‘qigin: **“Min ayatin av nunsiho”**.[1]

Angla, **“Ansavkum zikriy”** oyatin,
Bil unuttirmoq kuchin va qudratin.[2]

Goh unuttirgay ular, goh eslatar,
Bor yaralmish qalbini ishg‘ol etar.

Bog‘lagach g‘aflat nigohning yo‘llarin,
Ish qilar kim, bog‘lasang gar qo‘llarin?

[1] **Biz qaysi bir oyatni mansux qilsak yoki uni unuttirsak, undan yaxshi-rog‘ini yoxud unga o‘xshashini keltirurmiz. Alloh hamma narsaga qodir ekanini bilmasmisiz?** *(“Baqara” surasi, 106-oyat).*

“Min ayatin av nunsiha” — “Biror oyatni bekor qilsak yoki uni unuttirsak”.

[2] (Alloh) **aytur: “U erda xor bo‘lib turaveringlar** (ovozingizni o‘chiringlar) **va Menga gapirmanglar! Chunki Mening bandalarimdan bir toifa: “Yo Rabbimiz! Biz iymon keltirdik, bizni mag‘firat qil va bizga rahm qil, Sen rahm qilguvchilarning eng yaxshisisan!” deganlarida sizlar ularni masxara qilar edingizlar. Hatto bu** (ish) **sizlarga Meni yod etishni ham unuttirdi** (hamda ishlaringiz iymonlariga mos yashamoqchi bo‘lganlar bilan shug‘ullanish bo‘ldi) **va sizlar ularning ustidan kulib yurar edingizlar. Bu kun men u** (mo‘min)**larga sabr qilganlarining mukofotini berdim. Shubhasizki, ular ayni najot top**(ib murodga yet)**guvchilardir”** *(“Mu’minun” surasi, 108-111-oyatlar).*

“Ansavkum zikriy” — “Meni yod etishni unuttirdi”.

Ey, mazax qilgich ularni damba-dam,
Sen Kitobdan tingla **“ansavkum”**ni ham.[1]

Kimki mulkka ega, tan sultonidir,
Kimki dilga ega, dil xoqonidir.

Har amal unsa nazardan har nafas,
Baski, odamzod — qarog‘dan o‘zgamas.

Ayta olmam men bu so‘zlar hammasin,
Bunga yo‘l bermaydi aslo Qutbi din.

Ne unutgay xalq-u neni yod etar,
Unga bog‘liq, barcha dodga ul yetar.

Dilda ne yaxshi-yomon bor, begumon
Bo‘shatar har kechada ul nurga kon.

Kunduzi dilni to‘la nur aylagay,
Ul sadafdan eng asl dur aylagay.

Voqif ul o‘tgan va ketgan fikridan,
Ham tanir har to‘g‘ri yo‘lni zikridan.

Ilm-amallar senga bo‘lsin mangu yor,
To sabab eshiklarin ochsin qator.

Bo‘lmagay temirchi zargar hech qachon,
Xulqi soz bo‘lmaydi, munkir bo‘lsa jon.

Har amal, jonlar jihozday, so‘nggi on
Kelgusi o‘z sohibiga begumon.

Uyqudan so‘ng ko‘z ochib bor jon, amal
Qaytadir o‘z sohibi yonga jadal.

[1] **“Ansavkum”** — “Sizlarni unuttirdi”.

O‘y-amallar qaytadir, otganda tong,
Qaytadir, har neki bor yaxshi-yomon.

Xuddi kaptarlar misol, kezgach shahar,
Keltirar yurtiga yozmishdan xabar.

UL TO‘TILARNING HARAKATINI ESHITIB, BU TO‘TINING QAFASDA JON BERGANI VA SAVDOGARNING UNGA NOLA-FARYODI

To‘tining ne qilganin tinglab shu on
Qaltirab, bul to‘ti ham topshirdi jon.

Xoja lol qoldi bu holdan, qo‘zg‘alib
Yerga urdi so‘ng kulohin o‘rtanib.

Xoja bul holdan butun bo‘lmish ado,
Turdi sapchib o‘rnidan, yuldi yaqo.

Dedi: “Oh, biyron qushim, ey benazir,
Senga ne bo‘ldi, nechun holing haqir?!

Vodarig‘, oh, xushnavo, dildosh qushim!
Vodarig‘, oh, hamdamim, sirdosh qushim!

Vodarig‘, xushxon-u armonim manim!
Ruhga yorim, ravza-rayhonim manim!

Bo‘lsa senday qush Sulaymonda u payt,
Boshqa qushga qayrilib boqqaymi, ayt?

Vodarig‘, arzonga topgandim, biroq
To‘ymadim diydoriga, ketmish yiroq!”

Ey tilim, koni zararsan betinim
Hamda go‘yo... senga ne ham der edim?

Ey tilim, otash o‘zing, xirmon o‘zing,
Tokay ul xirmonga o‘t qo‘ygay so‘zing?

Sen sabab jon o‘rtanib, chekkay jafo,
Ne desang de, barchasin aylar bajo.

Ey tilim, poyoni yo‘q ganjim o‘zing!
Ey tilim, darmoni yo‘q ranjim o‘zing!

Gohi qushlarga tuzoq, makkor o‘zing!
Ayriliq dardiga ham gah yor o‘zing!

Goh omonlik keltirib, ey beomon,
Qasd etib, jonimga tortarsan kamon!

Boq, qushim qo‘ldan uchib ketmish bu dam,
Sen sitam sahrosiga don tashla kam!

Ber javobim yoki bergin bir madad,
Shodligimga yo sabab ber beadad.

Vodarig‘, nurim manim tunlar aro,
Vodarig‘, tongim manim kunlar aro!

Vodarig‘, oh, ko‘kka parvoz qilganim,
Oxirimdan avvalimga kelganim!”

G‘amga oshiq o‘lgusi nodon abad,
Angla **“la uqsim”**ni sen to **“fi kabad”**.[1]

Shod edim nurli yuzingning vaslidan,
Pok edim jo‘shguvchi soyin mavjidan.

[1] **Qasamyod qilurman ushbu** (muqaddas Makka) **shahar**(i)**gaki, siz bu shaharda yashagaysiz. Qasam, otaga va o‘g‘ilgaki, darhaqiqat, Biz** (har bir) **insonni** (u hayotida duch keladigan bir qancha) **mashaqqatlar ichra yaratdik** *(“Balad” surasi, 1–4-oyatlar).*

“La uqsim-u” — “Qasamyod qilurmanki”.

“Fi kabad” — “Mehnat, mashaqqatga yaratdik”.

Ohlarim sog‘inch o‘yi, ingroq erur,
O‘z tanimni birma-bir tilmoq erur.

Haqqa chora yo‘q, bu Haqning azmi, bas,
Bormi dil, Haq ishqidan sadporamas?

Rashki shulkim, o‘zgadir Ul hammadan,
Ham baland turfa bayon-u g‘alvadan.

Vodarig‘, ko‘z yoshlarim, daryo eding,
Menga yorimdan ato, savg‘o eding!

Oh, qushim, ziyrakhushim, oh to‘tijon!
Barcha sir-asrorlarimga tarjimon!

Menga kelmish neki ezgu, neki dod,
So‘ylamish avvalda Ulki, ayla yod.

Qaysi bir qush gar vahiy-la bersa un,
Ul vujudi ibtidodan ham burun.[1]

O‘sha to‘ti senda, sen ichra nihon,
Ko‘rding ul-bullarda undan bir nishon.

Shod erursan, shodliging gar eltar ul,
Zulmini in’omday etgaysan qabul.

Eyki, jonni tan uchun yoqding u dam,
Jonni yoqqan dam yoritding tanni ham.

O‘zni yoqdim, kim qalov istar bu dam?
Toki yoqsin men bilan xaslarni ham!

[1] **“Qush”** — Bu yerda “jon” nazarda tutilmoqda.

U o‘z xohish-istagiga ko‘ra so‘zlamas. U(ning so‘zlari-hukmlari ilhomdan va) **bildirilgan vahiydan** (hamda vahiyga muvofaqatdan) **boshqa narsa emas** *(“Najm” surasi, 3–4-oyatlar).*

Gar qalov bo‘lgay alanga birla bir,
Ol qalovni, ul olov eltar, axir!

Vodarig‘-ey, vodarig‘-ey, vodarig‘!
Oy bulut ostinda qolmish noaniq!

Men olay qandoq nafas? Yonmoqda jon,
Beqaror hijron sheri to‘kkanda qon.

Ulki hushyor erdi, mast-u darg‘azab,
Ne bo‘lar, qo‘lga qadah olsa, ajab?

Mast sher sig‘mas bayonga, lim to‘lar,
Ul chaman kengligidan ham keng bo‘lar.

Qofiya haqqinda gar o‘ylay desam,
“O‘yla diydorimni” der Dildor bu dam.[1]

Shod o‘tir, ey qofiya fikrida band,
Qofiya mulki o‘zingsan, dilpisand!

So‘z nadirki, o‘ylaring ul sorida?
So‘z tikondir tokzor devorida.

Harf-u savt-u so‘zga men barham beray,
To uchovsiz sen bilan suhbat quray.

Ayladim bul so‘zni Odamdan nihon,[2]
Senga, ey sir olami, qilgum bayon!

[1] **Allohga taqvo qiling — amrlariga zid borishdan saqlaning** (shar’iy hududlar doirasida aloqa qiling). **Va bilingki, albatta, Unga ro‘baro‘ bo‘lgaysizlar.** (Bu haqda) **mo‘minlarga xushxabar bering!** *(“Baqara” surasi, 223-oyat).*

[2] **Bir zamon Rabbingiz farishtalariga dedi: “Muhaqqaq, Men quruq loydan, surat berilguvchi balchiqdan bir insonni yaratguvchiman”. “Uni** (inson suratida to‘liq) **tiklab — raso qilib, unga** (Mendan boshqa hech kim egalik qila olmaydigan) **O‘z mulkimdagi ruhdan** (jondan) **kiritgan vaqtimda sizlar** (Mening qudratim uchun) **darhol unga sajda qilgan holda yiqilinglar!”** (deb buyurdi) *(“Hijr” surasi, 28-29-oyatlar).*

Demadim bul so‘zni Ibrohimga ham,
Jabrail ham bilmagan g‘amdir bu g‘am.

Shundayin so‘zki, Iso ul so‘zga lab
Ochmadi “mo”siz, Xudo azmi sabab.

“Mo” nadir? Isbot-u inkor erdi, bas,
Zoti yo‘q inkorman-u isbot emas.

Topdim ul kaslikni nokaslikda men,
Almashib kaslikni nokaslikka men”.

Barcha shohlar bandasidir bandasin,
Barcha maxluq murdasidir murdasin.

Pastliklar barcha shohni past etar,
Mastliklar barcha elni mast etar.

O‘ljadir qushlarga sayyod, aslida,
Bir kuni qushlarni ovlash qasdida.

Izlagay bedilni dilbar jon aro,
Bo‘lgay oshiqlarga ma’shuq mubtalo.

Kimki oshiq, bil uni ma’shuq mudom,
Chunki xosdir unga har ikki maqom.[1]

Gar jahondan tashnalar suv axtarar,
Suv ham izlar qayda bor deb tashnalar.

[1] **Ey iymon keltirganlar! Sizlardan kimda-kim dinidan qaytsa, u vaqtda Alloh** (sizlarning o‘rningizga) **bir qavmni keltirurki, Alloh ularni sevar va ular ham Allohni sevarlar, ular mo‘minlarga nisbatan mehribon-xoksor, kofirlarga nisbatan esa qattiq va zabardastdirlar; ular Alloh yo‘lida jang qilurlar, hech bir malomatchining malomatidan qo‘rqmaslar. Bu Allohning fazl-u karamidirki, uni xohlaganiga berur. Alloh lutf-u karami keng Zotdir,** (hamma narsani) **bilguvchidir** *(“Moida” surasi, 54-oyat).*

Oshiq ersa ul agar, jim tur u choq,
Tinglamog‘ing istasa ul, bo‘l quloq.

Yo‘lni to‘s darhol, quturgay sel agar,
Yo‘qsa, ketgay qoldirib vayronalar.

Nega vayronlik aro chekdim fig‘on?
Tubdadir bir saltanat ganji nihon.

Haqqa g‘arq istaydi cho‘ktirmoq o‘zin,
Ostin-ustin mavjidek jon dengizin.

Dengiz usti yoki osti xush mudom?
Dilni aylar o‘qi yo qalqoni rom?

Tilka-pora aylar, ey dil, vasvasang,
Ne surur, nedir balo — farq aylasang!

Gar murodingda shakarning ta’mi bor,
Bemurodlikdan murod topmasmi yor?

Qon to‘kar har yulduzin deb yuz hilol,
Unga olam qonini to‘kmoq halol.

Qadrimiz, qon evazin topguvchimiz,
Jon garov qo‘ymoq sari chopguvchimiz.[1]

Ey o‘lik holda yashovchi ishq aro,
Dil topilmas, bo‘lmasang gar mubtalo!

Ko‘nglin axtardim qilib yuz ishva-noz,
Aylamish menga bahona, e’tiroz.

[1] Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Alloh taolodan naql qilib aytdilarki: “Agar bandam Meni nafsida zikr qilsa, Men ham uni nafsimda zikr qilaman. Agar Meni bir o‘zi zikr qilsa, uni Men ham bir o‘zim zikr qilaman va agar jamoat ichida Meni zikr qilsa, Men uni undan yaxshiroq va hurmatliroq jamoat ichida zikr qilaman” *(muttafaqun alayh).*

Unga aytdim: “Aql-u jonim senga g‘arq”,
Ul demish: “Bor, ayla bul afsunni tark”.

Nega bilmay, ne xayoling ichra bor?
Ey g‘ilay, qandoq ko‘ringay senga Yor?

Ey xasis, sen arzimas bilding uni,
Chunki arzonga xarid qilding uni.

Kimki arzon olsa, arzon topshirar,
Burda non deb, bola bergay siym-u zar.

G‘arq erurman ishqqakim, bul ishq aro
Ilk-u so‘nggi ishqlar g‘arq-u ado.

Qisqa aytdim, etmadim borin bayon,
Yo‘qsa, kuygay ham bayon-u ham zabon.

“Lab” desam, daryo labi insho erur,
“Lo” deyishdan maqsadim **“illo”** erur.[1]

Lazzatim bois manim tunddir yuzim,
Jim erurman, garchi ko‘p aytar so‘zim.

Ikki olam lazzati to benishon,
Tund chehra pardasi ichra nihon.

Deb bu so‘z to har quloqqa kirmasin,
G‘ayb sirrin so‘yladim yuzdan birin.

* * *

Ko‘p uzundir ushbu tojir naqli, de:
Kechdi ul himmatli zotning holi ne?

[1] **“La ilaha illa-l-Lohu”** — “Allohdan o‘zga iloh yo‘q”.
“Illo” — “O‘zga”.

O‘rtanib Xoja qilardi oh-u voy,
Tinmayin so‘ylardi mujmal, poyma-poy.

So‘yladi goh noz etib, goh e’tiroz,
Goh umidsiz, gohida qo‘llab majoz.

Kimki suvga bo‘lsa g‘arq, izlaydi yo‘l,
So‘ngra cho‘zgay vahm ila har xasga qo‘l.

Bir najot kutgay, xatar sezganda jon,
Qo‘l-oyoq silkib, tutar boshin omon.

Bul parishonlik yoqar Yorga, biroq
Uyqudan befoyda g‘ayrat yaxshiroq.

Ulki shohdir, hech qachon bekor emas,
Bul ajab — kim noligay, bemor emas.

Shul sabab amr o‘ldi Haqdan, ey o‘g‘il!
“Kulla yavmin huva fi sha’n”, ey o‘g‘il![1]

Tentirab bul yo‘lda tez qo‘ygin qadam,
Bo‘lma forig‘ bir nafas to so‘nggi dam.

So‘nggi dam gar senga bo‘lsa so‘nggi dam,
Mehribonlik mahramisan, muhtaram.[2]

Qilsa g‘ayrat xoh erkak, xoh ayol,
Darchadan jon Shohi ko‘rgay bemalol.[3]

[1] **“Yas-aluhu man fi-s-samavati va-l-arz. Kulla yavmin huva fi sha’n” — Osmonlardagi va yerdagi jon-jonzotlar** (barcha hojatlarini faqat) **Undan so‘rar. U** (Alloh) **har kun** (har on O‘z hikmatiga muvofiq) **yangi bir ishda** (ijodda)**dir** *(“Rahmon” surasi, 29-oyat).*

[2] **Darhaqiqat,** (Allohning lutf-u karami va uning ruhi uchun qilinadigan xayr-ehsonlardan tashqari) **insonga o‘z sa’y-harakatidan boshqa narsa yo‘qdir. Va albatta, uning sa’y-harakati**(ning muqobili) **yaqinda** (qiyomatda) **ko‘rilur** *(“Najm” surasi, 39–40-oyatlar).*

[3] **Bas, ularning Rabbi duolarini** (bunday) **ijobat qildi: “Men, albatta, sizlardan — xoh erkak, xoh ayol —** (ajratmasdan, yaxshi) **amal qiluvchi hech bir kishining amalini zoe qilmasman; sizlar** (hammangiz) **bir-biringizdan** (dunyoga kelgan)**dirsiz...** *(“Oli Imron” surasi, 195-oyat).*

SAVDOGARNING TO‘TI O‘LIGINI QAFASDAN OLIB ULOQTIRGANI VA TO‘TINING PARVOZ ETGANI

So‘ng olib otgach qafasdan, uchdi tez,
Qo‘ndi bir shox uzra ul to‘ti shu kez.

Uchdi “o‘lgan” to‘ti darhol charx urib,
Chiqdi Mashriqdan quyosh, nur yo‘g‘irib.

Qush ishindan Xoja bir zum qotdi lol,
Erdi qush asror-sirin bilmoq mahol.

Angrayib so‘ng dedi: “Aytgil, ey qushim!
Ko‘rganim, bul hodisa o‘ng yo tushim?

Ne edi o‘rganganing undanki to
Makr etib yoqding meni o‘tlar aro?”

Dedi qush: “Aqlimni ul qilmish raso,
Bo‘l deya ovoz-u nutqingdan judo.

Deb: “Asir etmish sadoying begumon,
“O‘ldi” shul yo‘sin qilib menga ayon”.

Ey avom-u xosga bo‘lgan nag‘ma, soz,
Mendayin o‘lsang, kishandan sen xalos.

Dona bo‘lsang, seni qushlar cho‘qigay,
G‘uncha bo‘lsang gar, go‘daklar yulqigay.

Sen yashir doningni doming ichra mo‘l,
Sen yashir g‘unchangni, tomda maysa bo‘l.

Kim chiroyin solsa bozor ichra zor,
Bo‘lgusi yuzlab falokatga duchor.

Ne nigohlar, ne g‘azablar, qancha kin
Do‘ldayin tinmay yog‘ilgay boshidin.

So‘ng g‘ayir dushmanlari yanchib ketar,
Do‘st-u yori dilga tig‘ sanchib ketar.

Kim yiroq ko‘klam, ziroat atridan,
Hech xabar topgaymi ayyom qadridan?

Haqqa qoch, Haqdan qidir doim najot,
Qildi Ul ruhlarga minglab iltifot.

Top panoh, gar amr-u farmon aylagay,
O‘t va suvni senga qalqon aylagay.

Bo‘ldi suv, dengiz Muso-yu Nuhga yor,
Yovlarin qildik falokatga duchor.[1]

Otash Ibrohimga qal’a bo‘ldikim,
To‘ldi dud Namrud diliga betinim.[2]

Chorlamish Yahyoni tog‘ o‘z qoshiga,
Toshlarin yog‘dirdi yovlar boshiga.

Dedi: “Ey Yahyo, yugurgil men tomon,
Asrayin toki seni tig‘dan omon!”.

[1] **Ular o‘z gunohlari tufayli** (to‘fon bilan) **suvda g‘arq bo‘ldilar,** (oxiri) **do‘zaxga kiritildilar, bas, o‘zlariga Allohdan boshqa yordamchilar topa olmadilar** *(“Nuh” surasi, 25-oyat).*

[2] (Shunda Namrudning odamlari:) **“Agar** (bir ish) **qilguvchi bo‘lsangizlar, uni** (Ibrohimni) **o‘tga yoqinglar va** (shunday qilib) **ilohlaringizga yordam ber**(gan bo‘l)**inglar!” dedilar. Biz: “Ey olov! Ibrohim uchun salqin va salomatlik bo‘l!” — dedik** *(“Anbiyo” surasi, 68-69-oyatlar).*

TO‘TINING XOJA BILAN VIDOLASHGANI VA UCHIB KETGANI

Necha o‘gitlar berib chin, beriyo,
Xojaga to‘ti demish so‘ng: “Alvido”.

Dedi Xoja: “Bo‘lsin Alloh senga yor,
Aylading yangi, charog‘on yo‘l nisor”.

Dedi Xoja o‘zicha: “Bundan buyon
Nurli shul yo‘ldan yurarman begumon.

To‘tidan ham kammi jonim? Endi bas,
Tolein axtarmagan jon jon emas”.

XOJASI LUQMON[1]NING ZIYRAKLIGINI SINAB KO‘RGANI

Erdi Luqmon garchi sodiq qul, faqat,
Kecha-kun ishda sinalganmasmi, ayt?[2]

Xojaga har ishda ul avval edi,
Unga o‘z farzandidan afzal edi.

Tug‘ma qullik — garchi Luqmon naslida,
Xoja erdi, nafsiga shoh aslida.

[1] **Luqmon** — Qur’onda tilga olingan donishmand (Qur’ondagi 31-sura Luqmon nomi bilan atalgan). Luqmonning payg‘ambar ekani haqida rivoyatlar ham mavjud. Lekin manbalarda, asosan, u solih va dono shaxs sifatida tilga olingan. Naql qilishlaricha, Luqmon ming yil umr ko‘rgan bo‘lib, Alloh u zotga narsa va voqea-hodisalarning mohiyat-haqiqatiga bexato yetish va eng to‘g‘ri hukm chiqara olish ne’matini, ya’ni hikmatni ato etgan ekan... (Islom. Ensiklopediya. Toshkent, 2017).

[2] **Qasamki, Biz Luqmonga hikmat ato etdik**. (Va dedik:) **“Allohga shukr qil! Kimki** (Allohning ne’matlari uchun) **shukr qilsa, faqat o‘zi** (foydasi) **uchun shukr qilgan bo‘lur** *(“Luqmon” surasi, 12-oyat).*

Shayx ila suhbatda dedi bitta shoh:
“Qil talab mendan biror ehson, matoh”.

Dedi shayx: “Ey shoh, uyatmasmi, axir,
Gar desang shundoq? Balandroqdan gapir!

Menda bor ikki qulim, zor-u haqir,
Ikkisi ham sen uchun hokim, amir”.

So‘rdi shoh: “Kimdir ular? Fikring xato!”
Dedi: “Qahr-u boshqasi hirs-u havo”.

Shoh bil chin — shohligindan kim judo,
Oy, quyoshsiz gar taratgay nur, jilo,

Kim o‘zi mahzan — erur mahzanga yor,
Kimki yov borlikka — borlik unda bor.

Xoja yanglig‘ sirti — Luqmon xojasin,
Aslida qul, unga Luqmon — xoja chin.

Teskari olamda uchrar har nafas,
Kimgadir gavhar erur xasdan-da past.

Cho‘lni suvsiz deb atarlar kecha-kun,
Rang-u nomlar bo‘ldi zanjir aql uchun.

Bir guruh to‘nga qarab olgay maqom,
Kim qabo kiysa, uni derlar avom.

Bir guruhning zohiri zohidsimon,
Nur kerak, etmoq uchun zuhdin ayon.

Nur kerak, taqliddan ozod, pok chunon,
Nutq, amalsiz toki shaxs o‘lsin ayon.

Dilga nur aql orqali kirgay, axir,
Ma'ni ko'rgay, etmagay naqli asir.

Barcha komil banda **"a'lamu-l-g'uyuub"**,
Jon jahoninda **"javaasisu-l-quluub"**.[1]

Jon aro misli xayol kirgay ular,
Barcha chin hollar sirin bilgay ular.

Qarg'aning jismida ne bordir o'zi,
Ko'rmagan lochinda aql-u hush ko'zi?

Kimga Haq asrori gar oshkoradir,
Har yaralmishning siri unga nadir?

Kimki osmon uzra kezgay erta-kech,
Yerda yurmoqlik qiyin bo'lgaymi hech?

Misli mum temirki Dovud kaftida,
Ey jafo, kaftida mum ne aslida?[2]

Sirtda Luqmon xojaga qul erdi, lek
Unga qullik, xuddi zarbof to'nidek.

Qo'ysa xoja notanish joyga qadam,
O'z libosin kiydirar qulga shu dam.

[1] **Alloh** (qiyomatda barcha) **payg'ambarlarni jamlagan kun: "**(Ummatlaringizdan da'vatingizga) **nima javob oldingizlar?" deydi;** (ular esa: "Sening ilming oldida) **bizning hech bilimimiz yo'q, albatta, g'ayb** (narsa)-**larni bilguvchi faqat Sensan" deydilar** *("Moida" surasi, 109-oyat).*

"A'lamu-l-g'uyuub" — "G'ayblarni bilguvchi".

"Javaasisu-l-quluub" — "Qalblardan ogoh".

[2] **Muhaqqaq, Biz Dovudga O'z tarafimizdan bir ustunlik berdik. "Ey tog'lar!** (Dovud aytayotgan tasbihni) **u bilan birga sado berib qaytaringlar!" Qushlarga ham** ("Bu tasbihga qo'shilinglar!" — dedik.) **Unga temirni yumshoq qilib qo'ydik** *("Saba'" surasi, 10-oyat).*

Qul libosin egniga xoja ilar,
Qulni ersa o'ziga peshvo qilar.

Yo'l yurar ul ortidan jim, qulnamo,
Bilmasin deb kimligin hech kimsa to.

Deydi: "Ey qul, bor o'tirgin to'rga tez,
Men olay kavshing, haqir qulday bu kez.

Qil haqorat, men bilan gaplash dag'al,
Sen zig'ircha qilma hurmat ul mahal.

Tarki xizmat — xizmating dey kecha-kun,
Makr urug'in chekkada ekmoq uchun".

Xojalar o'zni tutar qulday chunon,
O'zgalar etsin deya qul deb gumon.

Xojalikka xojalar to'ygandi xo'p,
Shul sabab, qilmish ular xizmatni ko'p.

Nafsiga qul borki, aksin qildilar,
Aql-u jonga o'zni xoja bildilar.[1]

Xojalar zorlikni kasb etgay nuqul,
Quldan o'zga hech vaqo bo'lmaydi qul.

Ul jahondan bul jahonga har mahal,
Aks amal uslubi shundoq, angla sal.

Erdi Luqmon xojasi pinhon bu hol
Sirridan ogoh, u ko'rmish ko'p misol.

[1] **Havoyi nafsini o'ziga iloh qilib olgan, ilmi bo'lishiga qaramay,** (bila turib, Allohni qo'yib havoyi nafsiga qul bo'lgani uchun) **Alloh zalolatda qoldirgan, qulog'ini va qalbini muhrlab, ko'ziga parda tortib qo'ygan kimsani ko'rdingizmi? Bas,** (ayting-chi) **uni Allohdan boshqa kim to'g'ri yo'lga keltira olur?! Axir, fikrlab eslatma olmaysizlarmi?** *("Josiya" surasi, 23-oyat).*

Bilsa ham Luqmon sirin, turmasdi tek,
Ul yo‘lovchi foydasin ko‘zlardi lek.

Boshdan ozod etmak erdi maqsadi,
Lek u Luqmon ixtiyorin angladi.

Chunki Luqmon maqsadi shul erdi chin:
Sher yigit sirrin biror zot bilmasin.

Ne ajab, sir bermasang — gar ko‘ngli kir,
Bul ajab — tutsang o‘zingdan sirni sir.

O‘z ko‘zingdan tut nihon o‘z qilmishing,
To yomon ko‘zdan nari bo‘lsin ishing.

O‘zni in’om domiga aylab asir,
Anglamay o‘zni, o‘zingdan ol nadir.

Kim jarohat topsa, tez af’yun ravo,
To sug‘urgaydirlar o‘qni tan aro.

Jon chiqar chog‘ yo‘llashib g‘am-qayg‘uni,
Eltishar jonin, etib mashg‘ul uni.

Ersa qay fikr ichra gar ko‘ngling asir,
Eltadir sendan nihon ul ham nadir.

Ne kiritma qo‘lga, ey kuygan bag‘ir,
Poylagan joyingdan o‘g‘ri eltadir.

Neki yaxshi, ayla ishg‘ol shul sabab,
To yomoning o‘g‘rilar ketsin talab.

Tushsa tojir moli gar daryo aro,
Ushlagay eng yaxshi molin avvalo.

Neki suvga cho‘kkali mahkum erur,
Yaxshisin ol, pastidan tez yuzni bur.

IMTIHON QILUVCHILAR HUZURIDA LUQMONNING FOZIL-U ZIYRAKLIGI MA’LUM BO‘LGANI

Ne taom keltirmasinlar, xoja tez
Yo‘llamish Luqmonga odam o‘sha kez.

To yesin Luqmon taomning boshidan,
Aylasin xoja tanovul ortidan.

Sarqitin yerdi uning yayrab mudom,
Tashlanar — ul totmagan har ne taom.

Yesa nochor, ishtahasiz yer faqat,
Sidq-u mehri erdi shunday beadad.

Bir qovun keltirdilar unga shu dam,
Dedi: “Bor, o‘g‘lim, chaqir Luqmonni ham”.

So‘ydi, so‘ng Luqmonga bermish bir tilim,
Bol-shakarday yerdi qul mamnun va jim.

Berdi, mamnun ko‘rgach, ul ikkinchisin,
Berdi o‘n yetti tilikni shul yo‘sin.

Bir tilik qolgach, dedi: “Yey oxirin,
To tatib anglay, qovun nechog‘ shirin”.

Shuncha mamnun, zavq bilan yerdi shu dam,
Derdi ko‘rgan, koshki bir tishlam yesam.

Ul yegach, achchiqdan og‘zi kuydi lol,
Til shishib, bo‘g‘zi bo‘g‘ildi ayni hol.

Ancha payt o‘zga kelolmay ul hamon,
So‘ng dedi: “Ey menga jon, menga jahon!

Sen nechuk mamnun yeding bul og‘uni?
Sen qabul qilding nechuk deb lutf uni?

Bul chidam qaydan? Bu toqat ne, gapir?
Yoki sen dushmanmi joningga, axir?

Nega bir vaj topmading yo chorasiz
So‘rmading uzringni, deb vaqtim tig‘iz?”

Dedi: “Qilding behisob ne’mat ato,
Himmatingdan nolisam bo‘lgay xato.

Sendan achchiq luqma bir bor bo‘lsa ham,
Totmasam bo‘lgay uyat, ey muhtaram!

Bor tanim lutfing ila topmish kamol,
Dom-u doning ichradirman bezavol.

Aylasam bir achchig‘ingdan oh-u dod,
Kul bo‘lar a’zo-tanim ham shul zahot.

To qo‘ling tutgay shirinlik erta-kech,
Bul qovun ta’min taxir qilgaymi hech?”

Ishq erur achchiqni etguvchi shakar,
Ishq erur misni mudom etguvchi zar.[1]

Ishq etar har quyqaga soflik ato,
Ishq erur illatga bo‘lguvchi davo.

Ishq o‘likka jon bag‘ishlar har qadam,
Ishq etar bir zumda qul shohlarni ham.

[1] **Yaxshilik**(lar) **ham barobar emas, yomonlik**(lar) **ham barobar emas** (har birining o‘zaro turlari va darajalari bor). **Siz** (yomonlikni) **eng go‘zal bo‘lgan ish-harakat bilan daf’ qiling. O‘sha vaqt** (ko‘rsizki,) **siz bilan o‘zi o‘rtasida dushmanlik bo‘lgan kishi go‘yoki yaqin** (sodiq) **bir do‘st bo‘lib qolur** *(“Fussilat” surasi, 34-oyat).*

Ishq erur Haq ilmidan to‘lgan yetuk,
O‘ltirar bul taxtda noloyiq nechuk?

Ishqni paydo etarmi noqis ilm?
Noqis ilm ishqi erur jonsiz u jism.

Ko‘rsa jonsiz jism aro ul rang-u zeb,
O‘ylagay mahbub sado bermoqda deb.

Ishqi past har neni farq aylaydi kam,
Noiloj bilgay quyosh, chaqmoqni ham.

Der ekan noqisni mal’un to Rasul,
Aqli kamlikni nazarda tutdi ul.

Afv etilgay, kimda gar tan nuqsi bor,
Bo‘lmagay la’nat, jazoga ul duchor.

Aqli noqislik — yovuz illat va g‘am,
Ul sabab — la’nat, judoliklarga ham.

Gar ravo aqling kamoli har nafas,
Tanni, lek avj oldirish mumkin emas.

Har xudosiz kufri, fir’avniyni ham
Aqli noqislik yaratgay har qadam.

Jismi noqiskim, erur shafqatga zor,
Bil, **“ ’ala-l-a’ma haraj”** — Qur’onda bor.[1]

Bir yonib chaqmoq so‘nar so‘ng shul zahot,
Ne baqo, ne bebaqo — g‘ofilga yot.

[1] (O‘zlari qo‘riqchi qilib qoldirilgan uylarga iznsiz kirishda, ehtiyojlari bo‘lgan taomni yeyishda) **uzrli ko‘r kishiga gunoh yo‘q, cho‘loqqa gunoh yo‘q va bemorga gunoh yo‘q;** *(“Nur” surasi, 61-oyat).*

“ ’ala-l-a’ma haraj” — “Uzrli ko‘r kishiga gunoh yo‘q”.

Kulsa gar chaqmoq, kular kim ustidan?
Ul kular, kim bo‘lsa lol nur-husnidan.

Gar falakning nuri cho‘ltoq erta-kech,
Ul na sharqiy, ul na g‘arbiy o‘lmas hech.

Angla, chaqmoq **“yaxtafu absor”**[1] erur,
Mangu nur senga habib, hamkor erur.

Ot surish dengizda, ko‘pik ustida,
Xat o‘qishday, xuddi, chaqmoq nurida.

Oqibatni ko‘rmagan ochko‘z ular,
Aqli-yu ko‘nglin mazax aylab kular.

Oqibatni ko‘rgay aqling, shubhasiz,
Oqibatni nafs etolmas zarra his.

Yengsa nafs aqlingni, aqling nafs erur,
Mushtariy gar mot Zuhalga — g‘am kelur.

Bul halokat sori tashla bir nazar,
Ko‘r, kim u, yog‘dirgay ofat har safar.

Avj-u past oqimni ko‘rgach bul nazar,
Yo‘l ochar ofatdan iqbolga qadar.

Toki holing o‘zga holga aylanar,
Bir-birin-la neki zid, joy almashar.

Toki duch qo‘rquvga, kim **“zata-sh-shimal”**
O‘ng tarafda neki bor **“yurji-r-rijaal”**.[2]

[1] **“Yakadu-l-barqu yaxtafu absorahum”** — **U chaqmoq ko‘zlarini** (olib) **ko‘r qilgudek bo‘lur** *(“Baqara” surasi, 20-oyat).*

[2] **Biz ularni** (yerda uxlaganlari sababli tanada yaralar paydo bo‘lmasligi uchun) **goh o‘ngga, goh chapga ag‘darib turdik. Ularning iti esa ikki qo‘lini** (old oyoqlarini) **ostonaga cho‘zib yotar edi** *(“Kahf” surasi, 18-oyat).*
“Zata-sh-shimal” — “So‘l tomonda”.
“Yurji-r-rijaala” — “Ularni umidga burib, ularda umid uyg‘otadi”.

Qo‘shqanot bo‘l, qushda bo‘lsa bir qanot
Hech ucholmaydi, axir, ey ezgu zot!

Yoki qo‘yvor, so‘ylamay to bir kalom,
Yoki ber imkon, gapim aytay tamom.

Gar kerakmas ul na bul, Hukming ravo,
Kim bilar, bor Senda qanday muddao?

Lozim Ibrohim ruhi, nur insa to
Ko‘rgali jannat va bog‘ni o‘t aro.[1]

Oy, quyoshga toki chiqsin birma-bir,
Halqaday qolmay eshik uzra asir.

To Xalilday yetti qat ko‘k toqidin,
Ma’lum etsin: **“La uhibbu-l-afilin”**.[2]

Tan jahoni keltirar xavf-u xatar,
Nafsidan bo‘lmaydi ozod kim agar.

MUSO ALAYHISSALOMNING CHO‘PON MUNOJOTINI INKOR ETGANI

Yo‘lda bir cho‘ponni uchratdi Muso,
Derdi tinmay: “Ey Xudoyim! Ey Xudo!

Qaydasan, to Senga bo‘lsam bir malay,
Chorig‘ing chokin tikib, soching taray.

[1] **Ular unga hiyla qilmoqchi** (tuzoq qurib, halok etmoqchi) **bo‘ldilar. Biz esa o‘zlarini** (dunyo va oxiratda) **battar ziyonga yo‘liqguvchilar**(dan) **qilib qo‘ydik** *(“Anbiyo” surasi, 70-oyat).*

[2] (Ibrohim) **tun qorong‘uligi cho‘kkanida bir yulduzni ko‘rdi.** (Otasi va uning qavmi butlarga, yulduzlarga, oyga va quyoshga topingani sababli: “Sizlarning da’vongizga ko‘ra, demak) **rabbim shudir” dedi. Yulduz botgach: “Men botib** (yo‘q bo‘lib) **ketguvchilarni** (iloh deb) **sevmayman” dedi...** *(“An’om” surasi ,75–80-oyatlar).*
“La uhibbu-l-afilin” — “Botib ketguvchilarni suymayman”.

O‘ldirib bit, to yuvay to‘ningni ham,
Keltiray oldingga sut, ey Muhtasham!

Kel, oyog‘ingni silab, qo‘ldan o‘pay,
Kelsa uyqu vaqti, Senga joy to‘shay.

Senga bor echkimni qurbon aylagum!
Seni deb oh-zor-u tug‘yon aylagum!”

Shul yo‘sin so‘ylardi cho‘pon noravo,
“Kim bilan suhbat bu?” — deb so‘rdi Muso.

Dedi: “Ulki, bizni paydo aylamish,
Yer bilan osmonni barpo aylamish”.

Dedi: “Hay-hay, sen gunoh qilding azim,
Muslim o‘lmay, kofir o‘lding, ey laim!

Ne erur bul kufr-u bul bema’ni gap?
Paxta tiq og‘zingga, qolma aljirab!

Islanar dunyo, tuyib kufring isin,
Jandaga aylantirar din shoyisin.

Chorig‘-u shippak yaroqli sen uchun,
Haq quyoshinga kerak bo‘lsin nechun?

Tiymasang bo‘g‘zingni bul gapdan agar,
O‘t tushib, butkul kuyib ketgay bashar!

Yo‘q olovga ne erur bunday tutun?
Rad erur ruhing, qoraydi jon nechun?

Anglasang chindanki, Haq Qozi erur,
Puch, uyat gapga ishonching ne berur?

Yov erur do‘st, aqlidan bo‘lsa judo,
Bundayin ta’zimga zormasdir Xudo.

Kimga bul arz? Amma yo tog‘anggami?
Zuljalolda bormi tan, hojat g‘ami?

Sut ichar — qay tanda bordir ishtiyoq,
Chorig‘in kiygusi, kim bosgay oyoq.

So‘zlaring ul haqda gar, kim Unga qul,
Haq demish to: “Ul — bu Men, Men esa ul”.

Dediki: **“Inni mariztu lam ta’ud,**
Men edim, ulmas, faqat xasta vujud”.[1]

Ulki **“bii yabsir”** va **“bii yasmaya”** gar[2],
Bul bari Alloh uchundir besamar.

Haqqa yordan beadab bir so‘z demoq,
Dilni o‘ldirgay, qaro tortar varoq.

---

[1] Abu Hurayra *(r.a.)* rivoyat qiladi: Rasulullоh (s.a.v.) dedilar: “Alloh azza va jalla Qiyomat kuni (ayrim kishilarga) shunday nido qiladi: “Ey Odam bolasi, kasal bo‘ldim, lekin holimdan xabar olmading!” Banda: “Ey Rabbim, qanday qilib Sening holingdan xabar olaman, holbuki, Sen olamlar parvardigorisan-ku?” — deydi. Shunda Alloh: “(Ey bandam), bilmadingmi, falon bandam kasal bo‘ldi, lekin uni borib ko‘rmading. Bilmasmiding, agar uni ziyorat qilganingda, uning huzurida albatta Meni topgan bo‘larding!” — deb aytadi” *(Muslim rivoyati)*.

“Inni mariztu lam ta’ud” — “Kasal bo‘ldim, holimdan xabar olmading”.

[2] Abu Hurayra (r.a.) Rasulullоh (s.a.v.)dan rivoyat qiladi: “Alloh taolo aytadi: Kim Mening bir do‘stimga (valiy bandamga) dushmanlik qilsa, Men unga urush ochaman! Bandam, Menga sevimli, unga farz qilganim amallardan boshqa amal bilan Menga yaqinlasha olmaydi. Bandam nafl amallar bilan ham Menga yaqinlashishda davom etsa, Men uni yaxshi ko‘rib qolaman. Uni yaxshi ko‘rgach esa, eshitadigan qulog‘i, ko‘radigan ko‘zi, tutadigan qo‘li va yuradigan oyog‘i bo‘laman. Mendan biror narsa so‘rasa, tilagini beraman, Mendan panoh so‘rasa, uni panohimga olaman. Hech bir ishda mo‘min bandamning jonini olishdagidek taraddud qilgan emasman. U o‘limni yoqtirmaydi. Men esa unga yomonlik qilishni istamayman” *(Imom Buxoriy rivoyati)*.

“Bii yabsir” — “Men bilan ko‘rgay”.

“Bii yasmaya” — “Men bilan eshitgay”.

Gar atarsan Fotima deb er kishin,
Er-ayol ham garchi odam zotidin,

Seni o‘ldirmakka chog‘langay shu dam,
Garchi xushfe’l-u muloyim bo‘lsa ham.

Fotima ismi ayolni madh etar,
Gar desang erkakni, tig‘ yanglig‘ botar.

Qo‘l, oyoq bizlar uchun madh-u sano,
Lek bu — Haqning pokligi-chun noravo.

“Lam yalid lam yulad”[1] — Ulning loyig‘i,
Ne yaralmish — barchaning Ul Xoliqi.

Neki bor jismi — vujud har onida,
Ne yaralmish — soyning ul-bul yonida.

Ne uchun borliq erur ojiz va xor,
Manbai bor, lozim unga Manbador”.

Dedi cho‘pon: “Ey Muso, bog‘lab tilim,
O‘rtading butkul nadomat-la dilim!”

Pora aylab to‘nni, oh tortdi chunon,
So‘ng biyobonga qarab bo‘lmish ravon.

HAQ TAOLONING MUSO ALAYHISSALOMGA CHO‘PON TUFAYLI TA’NA QILGANI

So‘ng vahiy kelmish Xudodan: “Ey Muso!
Bandamizni aylading bizdan judo.

[1] **“Lam yalid va lam yulad”** — (U) **tug‘magan** (farzand tutmagan) **va tug‘ilmagan** (ota-ona, o‘g‘il-qiz tutishdan pok va munazzah, azaliy va abadiy Zotdir) *(“Ixlos” surasi, 3-oyat).*

Bandani qo‘shmoq uchun kelganmisan
Yo uni to‘smoq uchun kelganmisan?

Toki borsan, o‘rtaga solma firoq,
“Abg‘azu-l-ashyoi indi at-taloq”.[1]

Ayladim har kimga o‘z tarzin ato,
Ayladim har kimga o‘z arzin ato.[2]

Unga madh ersa, haqorat — sen uchun,
Unga bol, zahr-u malomat — sen uchun.

Bizga xos na beg‘uborlik, na g‘ubor,
Bizga na tezlik-sekinlik daxli bor.

Ko‘zlamam bir foydani Men, amr etib,
To nafim bandam uchun borsin yetib.

Hind uchun hindiy sanolar bo‘ldi xos,
Sind uchun sindiy sanolar bo‘ldi xos.

Poklamas Nomimni tasbeh-u hunar,
Poklanar madh-u sano aytib ular.

Nutq-u til bizlarni hech etmaydi jalb,
Bizni jalb aylar hamisha hol-u qalb.[3]

[1] Hazrati Ibni Umar (r.a.)dan: “Allohning yaratgani halol narsalari ichida aslo xushlamagani taloqdir” (Abu Dovud, Ibni Mojja, al-Hokim, Ibni Adiy, Tabaroniy, Doruqutniy rivoyatlari).

“Abg‘azu-l-ashyoi indi at-taloq” — “Narsalar ichra eng ushlamaganim taloqdir”.

[2] **Ayting: “Har kim o‘z ravishiga** (va axloqiga) **ko‘ra harakat qilur. Rabbingiz esa kimning eng to‘g‘ri yo‘lda ekanini yaxshi bilur”** *(“Isro” surasi, 84-oyat).*

[3] Hazrati Abu Hurayra (r.a.)dan: Alloh taolo sizlarning shakl-u shamoyil-laringizga va mol-mulklaringizga emas, qalblaringizga va amallaringizga nazar qilur” *(Imom Ahmad, Imom Muslim, Ibni Mojja rivoyati).*

Biz itoatga boqarmiz qalb aro,
Ersa ham so‘zlar itoatdan judo.

Qalb — asos, so‘z — hodisa, haybat erur,
Hodisa — soxta, asos maqsad erur.

Aljirash, pinhon majoz kelgay malol,
Otash istarman, o‘shal o‘t ichra qol.

Toki ishq o‘ti aro yonsin bu jon,
Toki yonsin o‘tda bor fikr-u bayon.

Ey Muso, odobni bilgan boshqadir,
Qalbin ishq ozori tilgan boshqadir.

Har nafas — oshiqqa yonmoq, yo‘q iloj,
Undirilmas to xarob yerdan xiroj.

Gar xato aytar, gunohga burmagil,
Gar shahid g‘arq ersa qonga, yuvmagil.[1]

Suvdan afzaldir shahidga qoni to,
Yaxshiroq — yuz ming savobdan bul xato.

Kim qidirgay Qibla Ka’ba ichra ham?
Bo‘lmasa g‘avvosda kovush, ne alam?

Mast odamni bilma peshvo, bo‘l yiroq,
O‘z to‘nin yirtarga ne darkor yamoq?

Ishq ahli barcha dinlardan judo,
Ishq ahlin mazhab-u yori — Xudo.

Muhri yo‘q gar la’l aro, yo‘q zarra g‘am,
Ishq — beg‘am, g‘amli ummon ichra ham”.

[1] Din yo‘lida shahid bo‘lganlar Qiyomat kunida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jannatga yuboriladi. Ularni yuvmay, kafanga o‘ramay, shahid bo‘lgan paytdagi kiyimlari bilan ko‘mish mumkinligiga ishora.

CHO‘PONDAN UZR SO‘RASH BOBIDA MUSO ALAYHISSALOMGA VAHIY KELGANI

Haq Musoga necha sir etmish ayon,
Sirki, ul oshkor etilmas hech qachon.

Qalbiga bir-bir to‘kilmish so‘z bari,
So‘ng qo‘shildi ko‘rgan-u bilganlari.

Necha bor hushdan ketib, goh hushi yor,
Toabad uchmish azaldan necha bor.

Ushbu hol sharh-u izohdan ham nari,
Chunki ul sharhi — shuurdan tashqari.

Xiyra tortar aql-u hush, gar so‘ylasam,
Ulni gar yozsam, sinib ketgay qalam.

Tinglagach Haq ta’nasin, darhol Muso
Axtarib cho‘ponni, kezmish cho‘l aro.

Izlamish cho‘pon izin lol, beqaror,
Kezdi cho‘lni changitib ul zor-u zor.

Jo‘shqin ishq ahlin izi qayga yetar,
Bunda barcha boshqa izdan farq etar.

Bir qadam — past-u yuqori “ruh”simon,
Bir qadam — “fil”day qiyoliklar tomon.[1]

Tug‘ ko‘targay gohi to‘lqin singari,
Goh baliq yanglig‘ emaklab ilgari,

Gohida tuproqqa o‘z holin yozib,
Folchilardek gohi qumda fol ochib,

[1] Shatranj o‘yinida Fil va Ruh yurishi ko‘zda tutilgan.

Topdi cho‘ponni nihoyat, dedi so‘ng:
“Ber suyunchi, yetdi dastur, ishlar o‘ng!

Tartib-u odob qidirmay beg‘ubor,
So‘ylagin ko‘ngling buyurgan neki bor.

Din erur kufring-u diyning jonda nur,
Sen — xatarsiz, sendan olam ahli hur.

“Yaf’alulloh ma yasha’”[1] afving agar,
Tilda borin so‘ylagin, bor, bexatar.

Dedi: “O‘tdim bundan endi, ey Muso!
G‘arq erur dil qonga bul dam, benavo.

Men Nilufar yonidan o‘tdim, biroq,
Necha yuz ming yil nari ketdim yiroq.[2]

Qamchi urding, tislanib otim bu kez,
Sapchib, osmon avjidan ham oshdi tez.

Boq, ilohiy aylamish tan olamin,
Qo‘llaring, kiftingga bo‘lsin ofarin!

Ayta olmasman bukun holimni jim,
Ulki men deyman, emas holim manim”.

Ko‘zgu ichra gar namoyon senga aks,
Ul sening aksing, u ko‘zgu aksimas.

Puflagach, naydan chiqarsa naychi sas,
Naychidandir bul navo, naydan emas.

[1] **Alloh** (shirk va tog‘utni rad etgan va) **iymon keltirganlarni dunyo hayotida ham, oxiratda ham sobit-mustahkam so‘z** (bo‘lgan kalimayi shahodat) **uzra sobit-barqaror qilur. Alloh** (kufrga ketgan) **zolimlarni esa zalolatda qoldirur yo‘ldan ozdirur. Alloh xohlagan ishini qilur** *(“Ibrohim” surasi, 27-oyat).*

“Yaf’alullohu ma yasha’” — “Alloh xohlagan ishini qilur”.

[2] **Qasamki, uni** (Jabroilni) **boshqa bir karra** (me’rojdan qaytishda) **Sidrayi muntaho** (yettinchi osmon) **yonida ko‘rdi** *(“Najm” surasi, 13–14-oyatlar).*

Ehtiyot bo‘l, aylasang shukr-u sano,
Angla cho‘pon so‘ziday g‘o‘r, benavo.

Hamd etarsan garchi undan yaxshiroq,
Notugaldir Haq uchun hamding, biroq.

Aytasan tokay, surilsa parda gar,
Bul emas bundoqki, to o‘ylar ular?[1]

Gar qabul zikringki — rahmat senga yor,
Mustahoza ul namoz[2]day izni bor.

Ul namoz qonga belangan begumon,
Lek sening zikringda o‘xshashlik nihon.

Qon paliddir, suv bilan yuvsa ketar,
Ichni, lek ne-ne fasod iflos etar.

Toki Haq lutfin suvi yuvmas u dam,
Ul fasod hech kimsada bo‘lmaydi kam.

Koshki yuz bursang edi sajdangda chin,
Anglasang **“Subhona Rabbiy”**[3] ma’nisin:

“Sajdam o‘lmish borligimday noravo,
Ber yomonga yaxshilik birlan jazo”.[4]

[1] **“Albatta, sen** (dunyoda) **bundan g‘aflatda eding. Bas, sen**(ing ko‘zing) **dan** (g‘aflat) **parda**(si)**ni ko‘tardik-ochdik; endi bu kun ko‘zing o‘tkirdir”** (deyilur) *(“Qof” surasi, 22-oyat).*

[2] **Mustahoza** — hayz ko‘rish muddatidan tashqari ham andomidan qon keladigan ayol. Ya’ni andomdan qon kelsa, tahorat buziladi. Ammo andomidan mudom qon keladigan ayollarga, Allohning mehribonligi bois, namoz o‘qish uchun ruxsat bor.

[3] **“Subhona Rabbiy”** — “Parvardigorim har narsadan pokdir”.

[4] **Faqat kimki tavba qilsa, iymon keltirsa va solih amal qilsa, mustasnodir; bas, Alloh ana o‘shalarning yomonliklarini yaxshiliklarga almashtirib qo‘yur. Alloh behad mag‘firatli, benihoyat rahmli Zotdir** *(“Furqon” surasi, 70-oyat).*

Yerda Haqning hilmidan bordir asar,
Undirib gullar, najasni tarqatar.

Yopgali bizning gunohni shunchalar,
O‘rnidan chiqmish unib gul-g‘unchalar.

Ko‘rdi so‘ng kofir, saxovat borligin,
Xor-u zor tuproqdanam xor-zorligin.

Jismidan gul-meva unmay shul zahot,
Izlamish poklik aro tinmay fasod.

Derdi: “Yo‘l yurganda tislandim shu tob,
Hasrato! **“Ya laytani kuntu turob!”**[1]

Ketmasaydim koshki men xokdan nari,
Koshki don tersam edi xok singari!

Yo‘lga tushsam, yo‘l sinardi birma-bir,
Bul safardan keltirar sovg‘am nadir?”

Shul sabab, fikr-u xayoli — xok taraf,
Yo‘l yurib, kim oldida ko‘rmaydi naf.

Yuz burish yo‘ldan — haris zotlarga xos,
Yo‘lga yuz burmoq erur sidq-u niyoz.

Har giyohkim, bo‘lsa o‘smoq zavqi to,
Bo‘y cho‘zib, topgay mudom nash’-u namo.

Yerga boshin qay mahal egsa agar,
Qovjirab so‘lgay tamom, topgay zarar.

[1] (Chunki) **albatta, Biz sizlarni yaqin bir azobdan ogohlantirdik. U Kun kishi o‘z** (qo‘llar)**i oldindan yuborgan** (yaxshi-yomon, savob-u gunoh) **narsalarga qarar va kofir** (hamda bir vaqt tuproqdan yaralgan Odamga sajda qilishdan or qilgan Iblis endi) **esa: “Eh, koshki men** (bu azobni ko‘rmay) **tuproq bo‘lib ketsam edim!” – deb qolur** *(“Naba’” surasi, 40-oyat).*

“Ya laytani kuntu turoba” — “Koshki men tuproq bo‘lib ketsam”.

Etsa joning yuksalishni ixtiyor,
Yuksalarsan, maqsading ul yerda bor.

Gar egilgay yerga boshing kun sayin,
Sen fano, Haq **“la uhibbu-l-afilin”**.[1]

BOG‘BONNING SO‘FIY, FAQIH[2] VA ALAVIY[3]NI BIR-BIRIDAN AJRATGANI

Ko‘rdi bog‘bon boqqa kirgan chog‘ida,
O‘g‘riday uch kimsa kezmish bog‘ida.

Bitta so‘fiy, bir sharif-u bir faqih,
Erdi bebosh har biri, xulqi qabih.

Dedi: “Yuzta zid dalilim bo‘lsa ham,
Lek ular ko‘p, ko‘pchilik — kuch har qadam.

Uch nafarga bir o‘zim chiqsam — xato,
Bir-birindan ajratay men avvalo.

Har birin men ajratarman to‘dadin,
Yakka qolgach, so‘ng yularman mo‘ylabin”.

[1] (Ibrohim) **tun qorong‘uligi cho‘kkanida bir yulduzni ko‘rdi.** (Otasi va uning qavmi butlarga, yulduzlarga, oyga va quyoshga topingani sababli: “Sizlarning da’vongizga ko‘ra, demak) **rabbim shudir” dedi. Yulduz botgach: “Men botib** (yo‘q bo‘lib) **ketguvchilarni** (iloh deb) **sevmayman” dedi...** *(“An’om” surasi ,76-oyat).*

“La uhibbu-l-afilin” — “Botib ketguvchilarni suymayman”.

[2] **Faqih** — shariat hukmlarini mukammal bilgan, fiqh fani bilan shug‘ullanuvchi odam.

[3] **Alaviy** — alaviylar(nusayriylar) — shialikka mansub firqalardan birining tarafdorlari. IX asrda yashagan Muhammad ibn Nusayr Basriy rahnamo bo‘lgan. Nusayriylarning asosiy aqidasi shialarning birinchi imomi xalifa Ali ibn Abu Tolib (k.v.)ni ilohiylashtirish (shundan “alaviylar” nomi kelib chiqqan), unda xudoning o‘zi mujassamlangan deb ishonishdan iborat *(Islom. Entsiklopediya, Toshkent, 2017).*

Makr etib, so‘fiyni chetga yo‘llamish,
Qayrasin deb do‘st-u yorlar unga tish.

Dedi ul so‘fiyga: “Bor hovlimga tez,
Do‘st-u yorlarga gilam keltir bu kez”.

Ketdi so‘fiy. Ikkisiga qildi pand:
“Sen faqihsan, bul — sharif, nomi baland.

Non yegaymiz hukm-u amring birla shod,
Bo‘ldi ilming biz uchun ulkan qanot.

Bul esa — ham shoh-u sulton, bizga nur,
Mustafo avlodidan, sayyid erur.

Kim o‘zi so‘fiyki, bir mechkay, xasis,
Siz kabi shohlar aro bo‘lgay aziz?

Kelsa gar, darhol uni haydab teping,
Bog‘-u rog‘im ichra oylab aysh eting.

Sadqa bo‘lsin bog‘ tugul jonim bukun,
O‘ng ko‘zimdek siz yaqinsiz men uchun!”

Yo‘ldan urgach, aylabon bog‘bon hunar,
Do‘stidan, oh, behuda tonmish ular!

Ketdi so‘fiy haydalib, yovday u choq,
Chopdi bog‘bon ortidan, qo‘lda tayoq.

Dedi: “So‘fiylik shumi, ey it, maraz,
Boqqa kirmoq bostirib, aylab g‘araz?

Rahnamoying Boyazid[1]mi yo Junayd?[2]
Bul hunarni qaysi pir o‘rgatdi, ayt?!”

[1] “Sulton-ul-orifin”, “Burhon-ul-muhaqqiqin” laqabi bilan shuhrat topgan, tasavvufdagi tayfuriya oqimiga asos solgan Abuyazid Tayfur Iso o‘g‘li.

[2] “Toj-al-orifin”, “Sulton-al-muhaqqiqin”, “Ustod-al-tariqat” nomi bilan mashhur bo‘lgan Junayd Nahovandiy (Bag‘dodiy).

Tuydi xo‘p so‘fiyni, yakka qoldirib,
O‘lguday do‘pposladi, boshin yorib.

Dedi so‘fiy: “Bo‘lganim bo‘ldi bu choq,
Oshnolar, siz oching ko‘zni biroq!

Yot bilarsiz meni, qolmang behadik,
Yot emasdim sizga bul ablahchalik!

Neki ko‘rdim, sizga ham etgay nasib,
Bul sharobdan har palid ko‘rgay tatib.

Bul jahon tog‘dek, gapirsang gar nadir
Aks ovoz yanglig‘ o‘zingga qaytadir”.

Aylagach so‘fiyni gumdon bog‘bon,
Boshqa vaj topdi shuningdek shul zamon.

Dedi: “Borgil, ey sharifim, uy tomon,
Yopganim nonushtaga — bor yupqa non.

Xona eshiginda xizmatkorga ayt,
Tezda keltirsin u non, g‘ozni bu payt”.

Dedi so‘ng yo‘llab sharifni: “Ey aziz!
Sen faqihdirsan, ayon bul, shubhasiz.

Ul sharifman deb mudom da’vo qilar,
Onasi kim birla yotgan, kim bilar?

Siz ulug‘laysiz ayol ham qilmishin,
Aqli noqisga ishonch o‘lgaymi chin?

Ul Nabiy birlan Aliga har nafas
O‘zni bog‘lar, dahr aro ko‘p aqli past”.

Kim zinodan ham zinokordir chunon,
Aylagay Haq ahlidan shunday gumon.

Aylanishdan aylanar kim boshi gar,
O‘zi yanglig‘ aylanar uy deb bilar.

Neki deb vaysardi bog‘bon tumtaroq,
Unga xos, undan Rasul nasli yiroq.

Tug‘ma murtad bo‘lmasa gar ul la’in,
Dermidi avlod haqinda shul gapin?

Dedi yolg‘onlar, eshitdi ul faqih,
So‘ng sharif oldiga bormish ul qabih.

Dedi: “Ey eshshak, chaqirmish kim bu payt?
O‘g‘rilik merosmi payg‘ambardan, ayt?

Sherga sherbachcha bo‘lar o‘xshash, axir,
Senda payg‘ambarga xos ne bor? Gapir!”

So‘ng sharif-la etdi bul — yor vahmiga,
Xorijiy[1] ne etsa Yosin[2] ahliga.

Bir-biriga dev[3]-u g‘ul[4]day erdi zid,
Haq Rasulin ahli-yu Shamr-u Yazid.[5]

[1] **Xorijiy** — tashqaridagi. Ali (r.a.)ning xalifaligini inkor qilib, unga qarshi fitna qo‘zg‘agan to‘da. Ali (r.a.)ni o‘ldirgan ham (661-y) xorijiylardan biri edi.

[2] **Yosin** — Muhammad (s.a.v.) laqablaridan biri.

[3] **Dev** — bahaybat, qo‘rqinchli shaklda tasavvur etiladigan mavhum bir maxluq.

[4] **G‘ul** — o‘z shovqin-suroni bilan odamlarni esankiratib, yo‘ldan urib, so‘ng ularga hujum qilguvchi afsonaviy afsungar dev.

[5] **Yazid ibn Muaviya** — ummaviylar qabilasi xalifalaridan. Muhammad (s.a.v.) ning nevarasi Husayn Ibn Ali Yazid yuborgan va Shamr boshchilik qilgan qo‘shin bilan kechgan jangda o‘ldirilgan.

Zulmidan bo‘lgach sharif holi xarob,
So‘ng faqihga dedi: “G‘arq o‘ldik shu tob!

Endi yolg‘izsan, chida, holing chatoq,
Yer nog‘ora singari qorning tayoq.

Garchi men na senga yorman, na sharif,
Lek emasman ayni dam sendan zaif.

Aylading bitta g‘arazgo‘y deb g‘araz,
Sendagi nodonlik ul **“bi’sa-l-ivaz”**.[1]

Keldi undan forig‘ o‘lgach: “Ey faqih!
Sen faqihmi? Omisan orsiz, qabih!

Ey kesikqo‘l, shulmi fatvo — senga ep?
Sen kirib, so‘rdingmi ruxsat bormi, deb?

Yo “Vasit”[2] da bir ijozat bormi, ayt?
Yo “Muhit”[3] da bir ishorat bormi, ayt?”

Dedi: “Haqsan, mag‘lub etding, qil sazo,
Do‘stidan ayrilsa kim, shuldir jazo”.[4]

[1] **“Bi’sa-l-ivaz”** — “Yomon evaz” (ushbu bayt Qo‘niyo nusxasining hoshiyasida keltirilgan).

[2] **“Vasit”** — “Vosita”, Abu Homid Muhammad G‘azzoliy tomonidan tuzilgan huquq ilmiga doir kitob nomi.

[3] **“Muhit”** — “Al-Muhit”, (“Qamrovchi”), huquq ilmiga doir bir necha risolalarni o‘z ichiga olgan kitob nomi.

[4] (Ey iymon keltirganlar!) **Allohga va Uning Rasuliga itoat etinglar, bir-biringiz bilan janjal qilmanglar, yo‘qsa qo‘rqoqlashib qolursizlar va shamolingiz** (shashtingiz) **qaytur** (quvvatingiz va davlatingiz qo‘ldan ketur). (Shu bois) **sabrli** (va xushfe’l) **bo‘linglar**. **Chunki Alloh sabr qilguvchilar bilan birgadir** *(“Anfol” surasi, 46-oyat).*

DO‘STINING QILIG‘INI QORALAB, O‘ZI HAM O‘SHANDAY YO‘L TUTAYOTGANIDAN BEXABAR HINDU HIKOYASI

To‘rtta hindu kirdi bir masjid aro,
Qildi toatda ruku’, sajda bajo.

Takbir aytib, qildi har kim niyyatin,
So‘ng namozin boshladi miskin, hazin.

So‘fi kirgach, bittasi undan so‘rar:
“Yetdi vaqt, ey so‘fi, sen soldingmi jar?”

Boshqa hindu berdi so‘ng nochor sado:
“Hoy, gapirding-u namoz bo‘ldi qazo”.

Dedi ikkinchin uchinchi: “Ey amak!
O‘zni bil, qilguncha unga ta’na, shak”.

Dedi to‘rtinchi: “Shukur, men har qalay,
Tushmadim chohga manov uchchoviday”.

Shul yo‘sin buzdi namoz to‘rtovi ham,
Barcha ayb izlovchida ayb erdi jam.

Baxtiyor — kim ko‘rsa qusrin har safar,
Olsa tan, kim demasin, aybin agar.

Chunki ulning yarmi — ayb ayyomidan
Hamda qolgan yarmi — g‘ayb ayyomidan.

Gar boshingga o‘n yara chiqsa u kez,
Sen o‘zingga surgin ul malhamni tez.

O‘zni bilsang aybi bordek — malham u,
Gar shifo topsang, munosib **“Irhamuu!”**[1]

[1] **“Irhamuu”** — “Rahm aylang”.

Bequsursan garchi, yurma bemalol,
Senda ham paydo bo‘lar nuqs, ehtimol.

Sen eshitmay **“la tahafu”**[1] — Haqdan un,
Ne uchun osuda, shodsan kecha-kun?

Erdi Iblis nomi ezgu necha yil,
Bo‘ldi rasvo, kim atalgay endi, bil!

Erdi mashhur undagi bor “hoy-u hoy”,
Ters erur mashhurligi ham, holi voy!

Topma shuhrat, quvmaguncha qutquni,
Yuv yuzing vahmin, keyin ko‘rsat uni.

To soqoling chiqmas, ey ko‘zga yaqin,
Ko‘salarga kulma, ta’na qilmagin.

Ko‘r, uning nelarga bo‘ldi joni band,
Chohga tushdi, toki bo‘lsin senga pand.

Unga na pand-u na chohda bandisan,
Ul zahar ichganda, sen ye qandidan.

BIR KEKSA KISHI TABIBGA O‘ZIDAGI XASTALIKLARDAN SHIKOYAT QILGANI VA TABIBNING UNGA JAVOBI

Bir tabibga keksa chol dedi: “Shu tob
Menga miyyam betinim bergay azob”.

[1] (Ey mo‘minlar!) **Shubhasiz: “Rabbimiz Alloh!” — deb, keyin** (bandalik vazifalari va ishlarida) **qoim-mustaqim** (to‘g‘ri-mustahkam) **turganlar borki, ularning tepasiga** (o‘lim onida) **farishtalar tusharlar va: “**(O‘limdan va oqibatdan) **qo‘rqmanglar,** (qoldirayotgan farzandlar va oilangiz haqida) **g‘amgin ham bo‘lmanglar. Sizlarga va’da qilingan jannat xushxabari bilan shodlaninglar!” — derlar** *(“Fussilat” surasi, 30-oyat).*
“Alla tahafu” — “Qo‘rqmanglar”.

Dedi: “Miyyang keksalikdan bemador”,
Dedi: “Ko‘zda tiyra zulmat dog‘i bor”.

Dedi: “Bois — keksalik, ey qari chol!”
Dedi: “Belim og‘rig‘i kelgay malol”.

Dedi: “Kelgay keksalikdan bul xabar”,
Dedi: “Hazm o‘lmas, yesam nedir agar”.

Dedi: “Me’da keksalikdan bo‘shashar”,
Dedi: “Bo‘g‘gay dam, nafas olsam agar”.

Dedi: “To‘g‘ri, keksalik etsa xuruj,
Ikki yuzlab xastalik kelgusi duch”.

Dedi: “Ey nodon, shumi topgan gaping?
Ayt, tabiblikdan shumi o‘rganganing?

Bermas, ey nodon, nechun aqling sado,
Haq agar har dard uchun bermish davo?

Sen bir eshshak, ilmi past-u notavon,
Loydasan ko‘tohoyoqlikdan hamon!”

Dedi: “Qo‘yding oltmishni qoralab!
Keksalikdan — senda bul qahr-u g‘azab.

Barcha a’zong chiqsa ishdan, shul zahot
Tark etar bosiqlig-u sabr-u sabot”.

Ikki so‘z ortiqchadir, haydaydi tez,
Ichsa bir qultum, qusib tashlar shu kez.

O‘zgadir ul keksakim, Haq mast etar,
Qalbi ichra pok hayot yashnab ketar.[1]

[1] **Erkakmi yoki ayolmi, kimki iymonli bo‘lgan holida solih** (savobli) **amal qilsa, albatta, uni** (dunyoda) **go‘zal bir hayot bilan yashaturmiz. Va** (oxiratda) **ularga mukofotlarini qilayotgan amallarining eng go‘zali miqyosida berurmiz** *(“Nahl” surasi, 97-oyat).*

Sirti keksa, qalbi yosh, bor unda nur,
Ul valiymi, ul nabiymi, kim erur?

Gar emas paydo yomon-yaxshi aro,
Ne uchun aylar hasad har dilqaro?

To aniq bilmay ularning kimligin,
Qaydan ul makr-u hunarlar hamda kin?

So‘nggi Kun, Mahsharni bilgaylar agar,
O‘zni urgay nega o‘tkir tig‘ qadar?

Senga kulsa, bilma ulni shulsimon,
Yuz Qiyomat ul ichinda bor nihon.

Do‘zax-u jannat bilandir jismi band,
Ne xayol etsang, turar undan baland.

Barcha o‘y-fikringni yutgaydir fano,
Ulki sig‘mas fikr-u o‘yga, Ul — Xudo.[1]

Xonaga kirmay bu jur’at nega, gar
Xonada kim borligin bilgay ular?

Aqli kam masjid uchun ta’zimga shay,
Dil eli vayronada jahd aylagay.

Ey eshaklar, ul haq-u bul — haqqa zid!
Yo‘qdir orif ko‘nglidan o‘zga machit.

[1] **U** (Yer)**ning ustidagi barcha jon-jonzot foniydir.** (Faqat) **ulug‘lik va ikrom egasi bo‘lmish Rabbingiz Zoti boqiydir** *(“Rahmon” surasi, 26–27-oyatlar).* (**Izoh**: Oyatning so‘zma-so‘z tarjimasi: “(Faqat) **ulug‘lik va ikrom egasi bo‘lmish Rabbingiz vajhi** (yuzi) **boqiydir”.** Aqida ilmida Qur’oni karimdagi “yad” (qo‘l), “ayn” (ko‘z), “vajh” (yuz) kabi so‘zlarni aynan tarjima qilishga izn berilmagan. Shu sababdan ishonchli tafsirlar asosida ma’nolarini berib bormoqdamiz. — *M.K.*)

Ul machitkim, — avliyo qalbi aro,
Sajdagoh barcha uchun, unda — Xudo.

Dard-u ozor ko‘rmas orif ko‘ngli to,
Sharmsor etmas biror zotni Xudo.

Anbiyo birlan mudom jang qildilar,
Tanni ko‘rgach, odamiy deb bildilar.[1]

Senda ham bo‘lmish ularning xulqi jam,
O‘sha holdan nega qo‘rquv senda kam?

Senda bordir gar ulardan bir nishon,
Gar biri ersang, qocharsan, ayt, qayon?

ZARGAR ISHNING OQIBATINI KO‘RGANI VA UNDAN TAROZI SO‘RAGAN KISHIGA OQIBAT TARZINI TUSHUNTIRGANI

Keldi zargar oldiga bir keksa er,
Dedi: “Zar o‘lchay, tarozi-toshni ber”.

Dedi: “G‘alvir yo‘q, ovora bo‘lmagin”,
Dedi: “Ber menga tarozi, kulmagin!”

Dedi: “Do‘konda supurgim yo‘q, qara”,
Dedi: “Bas, qo‘y endi, qilma masxara!

Men tarozi ayladim sendan talab,
Solma karlikka o‘zingni, berma chap!”

Dedi: “Karmasman, gaping menga ayon,
So‘zlagay bema’ni, deb etma gumon!

[1] **Ular** (esa): **“Sizlar ham bizga o‘xshagan bir insondan boshqa hech kim emassizlar; bizni otalarimiz topinib kelgan narsalardan** (ma’budlardan) **judo qilmoqchisizlar. Yo‘qsa, bizga ochiq-oydin** (favqulodda) **bir dalil keltiringlar” dedilar** *(“Ibrohim” surasi, 10-oyat).*

Angladim, lek keksa bo‘lding bul zamon,
Qo‘llaring titrar, taning ham notavon.

Sendagi zarlar yirikmas, mayda zar,
Qo‘llaring titrab, to‘kilgay zarralar.

So‘ngra deysan: “Ber supurgi, xoja, tez,
Zarni tuproq ichra izlay to bu kez!”

Sen supurgaysan, yig‘ib tuproqni ham,
So‘ngra “ber g‘alvirni” deysan, ey xo‘jam!

Boshidan oxirni ko‘rdim men tamom,
Ket bu yerdan, boshqa joy top, vassalom!”

ISO ALAYHISSALOMNING AHMOQLARDAN BEZIB, TOG‘ CHO‘QQISIGA QOCHGANI

Qochdi Iyso Maryam o‘g‘li tog‘ tomon,
Qonga tashna sher uni quvgansimon.

Chopdi kimdir ortidan, so‘ng so‘rdi hol:
“Quvmas hech kim, nega qochding qush misol?”

Lek yugurmish ul tag‘in aylab shitob,
Shoshgani-chun bermadi unga javob.

Ortidan bir-ikki maydon tez yurib,
So‘ng Isoga qotdi so‘z qat’iy turib:

“So‘yla, Haq haqqi, olib bir lahza tin,
Bilmayin lolman bu qochmoq boisin.

Bul taraf kimdan qocharsan, ey karim?
Ortda na sher, na xatar bor, na g‘anim”.

Dedi: “Ahmoqdan qocharman, chetga tur,
Meni ozod et o‘zingdan, g‘ovni sur”.

Dedi: “Senmasmi Masih, ul bebaho,
Ko‘r-u kar dardiga berguvchi davo?”

Dedi: “To‘g‘ri”. Dedi: “Senmasmi u shoh,
Barcha g‘ayb asrori-chun manzil, panoh?

O‘qisang afsun o‘likka, har safar,
O‘lja tutgich sher misoli qo‘zg‘alar”.

Dedi: “Ha, menman o‘shal”. — “Ey nurnigor!
Senmi loydan aylaguvchi qushni bor?”[1]

Dedi: “Ha”. — “Ey pokiza ruh, yo‘ldasan,
Ixtiyoring o‘zda, kimdan qo‘rqasan?

Shuncha isbot birla kim olam aro
Bandalik qilmaydi senga doimo?”

Dedi Iyso: “Pok, ulug‘ Zotga qasam,
Jism-u jonlarni yaratmish muhtaram.

Pok sifot-u Zotin aylab ehtirom,
Nazdida yulmish yaqo osmon mudom.[2]

[1] **“Darhaqiqat, men sizlarga Rabbingizdan bir oyat** (mo‘jiza) **bilan keldimki, sizlarga loydan qush shaklida bir narsani yasab, unga dam ururman,** (u esa) **Allohning izni bilan darhol** (jonlanib, uchadigan) **bir qush bo‘lur. Onadan tug‘ma ko‘rlarni va peslarni tuzaturman,** (hatto) **Allohning izni bilan o‘liklarni tiriltirurman; uylaringizdagi yemaklaringizni va yig‘ib-saqlayotgan narsalaringizni sizlarga xabar berurman. Agar** (Allohga) **iymon keltirganlardan bo‘lsangizlar, albatta, bunda sizlar uchun** (mening payg‘ambarligimni ko‘rsatadigan) **qat’iy dalil bordir”** *(“Oli Imron” surasi, 49-oyat).*

[2] **Kufr keltirganlar osmonlar va yer** (avvalda bir modda bo‘lib) **birikkan** (va berk) **ekanini, Biz ularni** (qudrati Ilohiy bilan) **yorib-ajratganimizni** (va ochganimizni, osmondan yog‘in tushib, yerdan giyohlar una boshlaganini) **hamda har bir tirik narsani suvdan yaratganimizni bilmadilarmi? Ular hanuz iymon keltirmaydilarmi?** *(“Anbiyo” surasi, 30-oyat).*

Ul fusun, ul Ismi A’zamki, agar
O‘qisam, topgay shifo har ko‘r-u kar.

O‘qisam gar, tog‘-u toshni parchalar,
Hirqasin yulmish ular kindik qadar.

O‘qisam — murda tirilmish birma-bir,
Hech vaqoga o‘qisam, bo‘lmish nadir.

O‘qisam ahmoq diliga doimo,
Ming urinmay, topmadi hech bir davo.

Toshdayin qotmish, o‘shandoq benavo,
Bo‘ldi qum, unmaydi unda hech vaqo”.

Dedi: “Ne hikmat bu, Haq ismi agar
Unga kor qilmish, bu qolmish besamar?

Unda bor illatga bul ham mubtalo,
Nega unga malham-u bul bedavo?”

Dedi: “Ahmoq illati Haq qahri, bas,
Ko‘r-u karlik — bir sinov, Haq qahrimas.

Har sinov, dard ortidan rahmi kelur,
Ersa ranj ahmoqlik, orti zaxm erur.

Ulki muhrin bosdi, yo‘qdir o‘zga yo‘l,
Unga chora topmagay hech qaysi qo‘l”.[1]

Qochgin ahmoqdan, Iso qochgansimon,
To‘kilar ahmoq bilan suhbatda qon.

[1] **Alloh ularning** (kufr niyat va qilmishlari tufayli) **qalblarini va quloqlarini muhrlab qo‘ygandir. Ko‘zlariga esa** (Ilohiy haqiqatlarga qarshi) **parda tushgandir. Va ular uchun ulug‘ azob bordir** *(“Baqara” surasi, 7-oyat).*

Suvni kam-kam so‘rgani yanglig‘ havo,
Sendan ahmoq dinni eltar doimo.

Sovutar taftingni ul olgan sayin,
Xuddi ul ostingga qo‘ygan toshdayin.

Qochmadi qo‘rquvdan Iyso bunda, boq,
Ul xatardan xolidir, bul bir saboq.

Qahraton ofoqni qoplab olsa ham,
Hech yorug‘, porloq quyosh chekkaymi g‘am?

OHU BOLASINING ESHAKLAR OG‘ILIGA QAMALGANI, ESHAKLAR GOH QIYNAB, GOH USTIDAN KULIB, UNGA TA’NA YOG‘DIRGANI VA U UNGA OZIQ BO‘LMAGAN QURUQ POXOLNI YEYISHGA MAJBUR BO‘LGANI. BU HOLAT — XUDONING XOS BANDASI DUNYO VA SHAHVAT AHLI ORASIGA TUSHIB QOLGANIGA O‘XSHASHLIGI, ZOTAN: “AL-ISLOMU BADA’A G‘ARIBAN VA SAYA’UDU G‘ARIBAN FATUBOO LI-L-G‘URABO’I SADAQA RASULULLOH”[1]

Bitta ovchi ovlamish bir ohuni,
Tiqdi so‘ng og‘ilga rahm etmay uni.

Mol-u eshshak ko‘p edi og‘il aro,
Tutqun etdi ohuni, aylab jafo.

[1] **“Al-islomu bada’a g‘ariban va saya’udu g‘ariban fatuboo li-l-g‘urabo’i sadaqa rasululloh” —** (Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Rasulullоh (s.a.v.)): “Islom g‘arib holatda boshlandi va tez kunlarda qanday g‘arib bo‘lib boshlangan bo‘lsa, o‘sha g‘ariblik holatiga qaytadi. (O‘shandagi) g‘ariblarga muncha ham yaxshi”, dedilar. Rasulullоh rost aytgan!

Ohu qo‘rquvdan qochardi har tomon,
Tunda eshshaklarga soldi u somon.

Och eshak, mollar somonni yerdi, lek
Xuddiki, somon shakardan totlidek.

Ohu ul yon, goh bu yon urmish o‘zin,
Goh somonning changidan burmish yuzin.

Ziddi birlan bitta joyda bo‘lsa kim,
Bul azob unga — misoli bir o‘lim.

To Sulaymon ham demish: “Hudhud agar
So‘rmasa g‘oyiblik uzrin bu safar,

O‘ldirarman, yo berarman men azob,
Shunchalar qattiq azobki, behisob!”[1]

Bul azob ne, jinsi yot-la, ey janob,
Bir qafas ichra qolishmi bul azob?

Tan sabab, umring azobda, ey bashar,
Ruh qushing yot jins ila tutqun agar.

Qarg‘alar — borliq va lochin ruh erur,
Qarg‘a, boyqush zulmidan majruh erur.

Mangu zor qolmish aroda besurur,
Sabzazor shahrindagi Bul Bakr erur.

[1] **Sulaymon qushlarni tekshirib chiqdi va keyin dedi: “Hudhudni nechun ko‘rmayapman? Yoki u** (ruxsatsiz) **g‘oyiblardan bo‘ldimi?** (U kelsa,) **ochiq bir hujjat** (maqbul bir uzr) **keltirmagan taqdirda, albatta, uni qattiq azob bilan azoblayman yoki uni so‘yib tashlayman!”** *(“Naml” surasi, 20–21-oyatlar).*

* * *

Mushkifor ohu necha kun holxarob,
Chekdi eshshak og‘ili ichra azob.

Erdi qirg‘oqda baliqdek dardi cho‘ng,
Bir quti ichra misoli mushk-u go‘ng.

Bir eshak der: “Bul o‘zi yovvoyi, lek
Xulqi — shohona, turing bir lahza tek!”

Boshqasi kuldi: “U dengizdan nuqul
Ovlamish gavhar, berarmi arzon ul?”

Boshqasi der: “Nozik ersang shunchalar,
Bor, o‘tir shoh taxti uzra har safar!”

Bir eshak bo‘kmish, yemoqdan oldi tin,
Ohuni chorlardi da’vat rasmidin.

Ohu bosh chayqab dedi: “Yo‘q, ey falon,
Ishtaham yo‘qdir, erurman notavon”.

Dedi: “Men bildim, qilarsan bunda noz,
Asrab oringni, etarsan e’tiroz”.

O‘ziga derdi: “Bu senga luqmadir,
Undan a’zoyi taningdir muqtadir.

Yeb-ichardim men chamanzor sharbatin,
His etib bog‘ va zilol suv lazzatin.

Gar Qazo qiynoqqa solgay erta-kech,
Men u xush damni unutgaymanmi hech?

Gar gado bo‘lsam, gadoyuzmanmi, kir?
Yangiman, garchi libosim eskidir!

Lola, sunbul, xushbo‘y o‘tni har zamon
Yer edim ming noz-u nafrat aylabon”.

Dedi eshshak: “Lof urarsan, mayli, ur,
Bul g‘ariblik ichra lof mumkin erur!”

Dedi ohu: “Kindigim — bunda dalil,
Qiymati ambar va ud yanglig‘ asil.

Kim eshitgay? Ulki atr anglar mudom,
Go‘ngparast eshshak uchun bul hid harom.

Yo‘lda eshshak siydigin hidlar eshak,
Mushk-ifor taklifi unga ne kerak?”

Shul sababdan ul Nabiy, mas’ul habib
Dedi: **“Al-islomu fi-d-dunyo g‘arib”**,[1]

Chunki qondoshlar uni aylaydi tark,
Zotiga hamdam erur garchi malak.

Suvratin ko‘rgay ular shak-shubhasiz,
Ul ifor-atrin sira etmaydi his.

Ul sigirning shaklin olgan shersimon,
Boq uzoqdan, izlama undan nishon!

Izlasang, moltanligingga bo‘lma yor,
Pora aylar, chunki ul sher xulqi bor.

Seni mollik maylidan aylar xalos,
O‘zga hayvondan olar, ne unga xos.

Sen sigir, shersan u birlan har safar,
Izlama sherlik, sigirlik yoqsa gar.

[1] **“Al-islomu fi-d-dunyo g‘arib”** — “Islom bu dunyoda g‘arib”.

ERIGA: GO‘SHTNI MUSHUK YEB QO‘YDI, DEGAN XOTIN HAQIDA HIKOYAT. ERI MUSHUKNI TAROZIDA TORTIB KO‘RGANDA — MUSHUK OG‘IRLIGI YARIM MAN[1] CHIQQANI. ERI: “EY XOTIN, GO‘SHT YARIM MAN, HATTO ORTIQROQ EDI! AGAR BU GO‘SHT BO‘LSA, MUSHUK QANI? AGAR BU MUSHUK BO‘LSA, GO‘SHT QANI?” — DEGANI

Bor edi bir kimsa — uy-ro‘zg‘ori bor,
Bir palid, olg‘ir va tannoz — unga yor.

Eri ne keltirsa, sarf aylardi tez,
Eri lek og‘zin ocholmasdi u kez.

Uyga, mehmonlarga deb keltirdi er
Go‘sht, uni topmoq uchun ko‘p to‘kdi ter.

Xotin ulni qovurib, so‘ng ichdi may,
Eri kelgach, vaj qidirdi o‘ylamay.

Dedi er: “Mehmon shu yerda, qayda go‘sht?
Tort taomni, turmasin to oldi bo‘sh!”

Dedi: “Yeb qo‘ydi mushuk, go‘sht endi yo‘q,
Boshqa keltir, gar topolsang, urma do‘q!”

Dedi: “Ey Aybak! Tarozu ayla shay!
Bir ko‘ray tortib mushukni, to sinay!”

Ko‘rdi tortib, lek yarim man chiqdi ul,
Dedi eri: “Ey xotin, ne hiyla bul?

Et yarim mandan oshiqroq erdi sal,
Ko‘r, yarim mandir mushuk ham bu mahal,

[1] **Man** — og‘irlik o‘lchovi. 1 man — 180 misqol, ya’ni 846 g.

Bul mushuk bo‘lsa, qani et? Ber javob!
Bo‘lsa et, qayda mushuk? Tez ulni top!”

Boyazid gar bul, u ruh ne, ne bu sir?
Ruh esa ul, unda bul tasvir nadir?

Hayrat ichra hayrat ul, ey do‘st-u yor!
Bul na senga va na menga daxli bor.

Ul erur ikkov, unumdorlikda, lek
Don erur ildiz, somon — ul shoxidek.

Bog‘lamish hikmat ularga bir-birin,
Xuddi, bul — son go‘shtida bordek bo‘yin.[1]

Ruh yaroqsiz ishga, qolip yo‘q agar,
Tan agar ruhsiz — sovuqdir besamar.

Tan erur paydo, nihondir senda jon,
Tik turar ikki sababdan bul jahon.

Boshni yormas, boshga xok ursang u dam,
Boshni yormas, boshga suv urganda ham.

Bosh yorishni ixtiyor etsang agar,
Suv bilan tuproqni qo‘shgin har safar.

Boshni yorsang, suv ketar asli tomon,
Ketgusi tuproqqa tuproq, ketsa jon.

Ulki hikmat, etdi Haq birlikni bor,
Ehtiyoj, zidlikdan o‘lmish barqaror.

Ul dam o‘zga ittifoqlar birlashar,
Ko‘zlari ko‘rmas, quloqlar unda kar.

[1] Qassoblarning, odatda, son go‘shtiga bo‘yin suyagini qo‘shib sotishiga ishora.

Tinglasa qanday quloq bo‘lgay quloq,
Yo qabul qilgaymi so‘zlarni u choq?

Qor va muz solsa quyoshga gar nazar,
Uzgay ul muzlik umidin har safar.

Suv bo‘lar, na ildizi bor, na tugun,
Ul havo — suvdan sovut Dovud uchun.[1]

Har nihol joniga so‘ng darmon bo‘lar,
Har daraxt ul kelsa gar shodmon bo‘lar.

Qotgan ul muz o‘zi-la qolgach nuqul,
Har niholga “menga tegmang”[2] deydi ul.

“Laysa ya’lif laysa yu’laf jimuhu,
Laysa illoh shuhhu nafsin qismuhu”.[3]

Behuda yitmay, dilin poklar u dam,
Bo‘lmagay ko‘klikka sulton, elchi ham.

“Ey Ayoz, boq, yulduzing behad baland,
Barcha burj, undan o‘tib, etmas pisand.

Xush yoqarmi himmatingga har vafo?
Sofligingga xush yoqarmi har safo?”

[1] **Biz unga sizlarni janglar zararidan saqlasin deb sovut** (yasash) **san’atini o‘rgatdik. Axir,** (bularning barchasi uchun) **shukr qilasizlarmi?** *(“Anbiyo” surasi, 80-oyat).*

[2] (Muso:) **dedi: “Ket** (yo‘qol)**! Darhaqiqat, endi hayotda sen uchun** (jazo)**: “Menga tegmanglar!” — deyishing bordir.** (Oxiratda esa,) **albatta, sen uchun o‘zing aslo qutula olmaydigan bir jazo kuni bordir** *(“Toho” surasi, 97-oyat).*

[3] **Laysa ya’lif laysa yu’laf jimuhu, laysa illoh shuhhu nafsin qismuhu** — Uning tanasi do‘stlikni oziqlantirmaydi va uning mavzuyi emas; uning qismati o‘z ziqnaligidir.

O‘G‘RILAR SAVDOGARNING BARCHA BUYUMLARINI O‘MARIB KETGUNGA QADAR JIM TURGAN, KEYIN ESA DOD-VOY SOLGANCHA YORDAMGA CHAQIRIB, POSBONLIK BURCHINI BAJARGAN POSBON HIKOYATI

Soqchi uxlab, o‘g‘rilar qilmish talon,
Narsalarni xok aro aylab nihon.

Karvon ahli uyg‘onib tong otgan on,
Ko‘rdilar, yo‘q tevalar, yukdan nishon.

Dedilar: “Ey soqchi, ne bo‘ldi, gapir,
Narsalar qayda? Qaerda yuk, axir?”

Dedi: “Keldi o‘g‘rilar, bog‘lab niqob,
Narsalarni ketdilar eltib shitob”.

Dedi qavm: “Ey sen yaroqsiz misli do‘ng!
Kim erursan? Ko‘rmadingmi chora so‘ng?”

Dedi: “Men yolg‘iz, ular-chi — bir guruh,
Bor quroli, ham shijoat, ham shukuh”.

Dedilar: “Gar jang uchun kam qurbating,
“Qo‘zg‘aling!” — deb nega na’ra urmading?”

Dedi: “Bo‘g‘zimga tirab tig‘ ul zamon,
Derdilar: “Jim! Yo‘qsa, o‘lding beomon!”

Unda qo‘rquv ichra erdim benajot,
“Qo‘zg‘aling!” — deb endi urgum na’ra, dod.

Unda qisgandi nafas, holim yomon,
Bas deguncha qichqirarman bu zamon”.

Gar qabih dev eltadir umringni, boq,
Fotiha birlan **"A'uz"**[1]dan ma'ni yo'q.

Arzi hol bema'nilik gar ayni dam,
Bexabarlik ma'nisizdir undan ham.

Ma'ni yo'q arz aylasang-da, shubhasiz,
"Xor-u zorlarga nazar sol, ey Aziz!"

Gohi erta, gohi kech to Sen panoh,
Qoldi Sendan chetda ne, ayt, ey Iloh?

Shohki: "Qo'ldan ketsa nedir, chekma dard",[2]
Istaging Ul qurbidan yitgaymi, ayt?

BIR XONADONDAN NEKI SO'RAMASIN, "YO'Q" JAVOBINI OLGAN DARVISH HIKOYASI

Bir eshikka och gado bo'lmish ravon,
So'rdi qotgan yoki yumshoq burda non.

Dedi uyning sohibi: "Non qaydadir?
Senga novvoyxonamas bul yer, axir!"

Dedi: "Unda ozgina yog' ber, shu bas",
Dedi: "Bul yer go'sht-u yog' do'konimas!"

[1] **"A'uz"** — "Panoh izlayman".

[2] **Xoh yerda, xoh o'z jonlaringizda vujudga kelgan** (qahat, ofat, dard va bemorlik kabi) **har qanday bir musibat Biz uni yaratmasimizdan oldin, albatta, Kitobda** (Lavhul-Mahfuzda) **yozilgandir. Albatta, bu Alloh uchun osondir.** (Hamma narsaning oldindan yozilganligi shuning uchunki,) **toki sizlar qo'lingizdan ketgan narsaga g'am yemanglar** (Allohning taqdiri deb tan beringlar) **va U sizga ato etgan narsaga quvonib kerilmanglar. Alloh hech bir takabbur va maqtanchoq kimsani sevmas** *("Hadid" surasi, 22–23-oyatlar).*

Dedi: "Unda qittay un, ey xoja, ber",
Dedi: "Tegirmon emas senga bu yer!"

Dedi: "Bir kosa suving bor, hoynahoy",
Dedi: "Yo'q bunda biror anhor-u soy!"

So'rdi undan neki, non yo kepak ul,
Ustidan kulmish, mazax aylab nuqul.

Kirdi uyga, etagin tortib gado,
Hojatin etmoqchi bo'ldi so'ng ado.

Dedi: "Hay-hay!" Dedi: "Jim, ey xor, zada,
Bir yozilgum toki bul vayronada!

Toki bul uyda mahol bo'lgay yashash,
Bilki, hojatxona bul, lozim — bo'shash".

Senki, Shoh ilkinda lochin bo'lmasang,
O'ljaga ov ichra chovut solmasang,

Yo tovusmassan agar, yuz naqshi bor,
Naqshidan ko'zlar yorug', to nurga yor,

To'timassan gar, berib senga shakar,
Tinglashar bolday so'zin shom-u sahar,

Yoki bulbumassan, oshiq, zor bo'lib,
Sayrasang bog', lolazor ichra to'lib,

Yoki hudhudmassan — eltuvchi xabar,
Yoki laylak — ota uy avji qadar,

Ne uchun olsin sotib erlar seni?
Sen nechuk qush, ne bilan yerlar seni?

Qolma bul do‘konda sarsonlar aro,
Borgin ul do‘konga, **“Alloha-shtaro”**,[1]

Mol-matoh bor — boqmagan hech kimsakim,
To yaroqsiz, lek sotib olmish Karim.

Aylamas rad, bo‘lsa-da pul qadri past,
Chunki Ul savdoda foyda ko‘zlamas.

Forschadan Odil Ikrom tarjimasi

[1] **Shubhasizki, Alloh mo‘minlardan jonlarini va mollarini** (ularga beriladigan) **jannat badaliga sotib olgandir;** (chunki) **ular Alloh yo‘lida jang qilurlar, o‘ldirurlar va o‘ldirilurlar.** (Bu) **Tavrot, Injil va Qur’onda U** (Alloh)**ning zimmasida haq bo‘lgan** (qarz qilib bitilgan) **va’dadir. Allohdan ko‘ra ahdiga vafodorroq kim bor? U holda** (ey mo‘minlar,) **U Zot bilan qilgan savdo-sotig‘ingizdan quvoninglar! Bu ulug‘ muvaffaqiyat** (va saodat) **dir** *(“Tavba” surasi, 111-oyat).*

“Alloha-shtaro” — “Alloh sotib oldi”.

G‘AZALLAR

* * *

Ey jonimiz, ey jonimiz, ey kufr-u ey iymonimiz,
Istar edim munchoqni ham gavhar qilar bu konimiz.

Kufrimni iymon aylagil, jismimni-da jon aylagil,
Dardimga darmon aylagil, ey dard-u ey darmonimiz.

Bizga tomon qilsang nazar, nur ayla tuproqdir bashar,
Ovoza qilgil sarbasar, biz bir tan-u bir jonmiz.

Men mis edim zar aylagil, vayronni kishvar aylagil,
Daryoni gavhar aylagil, ey bahri bepoyonimiz.

Bilmam, nadir ushbu sifat, bu naqshlarkim beadad,
Zaqqum berar bo‘lsang qabul qildi shakar deb jonimiz.

Lutf aylagil, qilgil karam, ishq ahliga qilma sitam,
Bu o‘g‘riga darkor diram, boqqil, tunar hamyonimiz.

Olam sarosar bo‘ldi gul, juzv birla uyg‘un bo‘ldi kull,
Yoningdadirmiz, ey ko‘ngil, kelgil davo-darmonimiz.

Soqiy, sharob sun ma’naviy, ul jomdankim xusraviy,
Gar tinglamas bu so‘zni kim, pinhon chekar armonimiz.

Soqiy qadah so‘z onchunon, jonini bersin ahli jon,
Yo‘l solsa so‘ng to lomakon bu joni sargardonimiz.

Bir dam qo‘yib tur qolni, bir lahza boqqil holni,
Voqif etar ahvolni bu shevai mastonimiz.

Xomush qildim sozni, hech kimga aytma rozni,
Tabriziy ismin yozdi bu Mus’haf-u devonimiz.

Tabrizni ko‘rgach sarbasar, din Shamsidan topdim xabar,
Och, ko‘zlaringni, bexabar, charx ravzayi rizvonimiz.

* * *

Oshiqlarim, bedillarim, men qayda-yu Ishq qaydadir?
Bedillarim, betillarim, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Tug‘yondaman, tug‘yondaman, xon-u moni tarxondaman,
Ishqidaman, jon-jondaman, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Goho olov ichra Xalil, goho Musodek jon sabil,
Goho yutib daryoyi Nil, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Ishq jondir bu jomaga, Ishq lomdir bu lomaga,
Ishq domdir bu domaga, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Bo‘ldim xaridori g‘aming, hayroni bozori g‘aming,
Jonim olib kori g‘aming, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Mutriblarim, mutriblarim, dafga uring holim manim,
Bedil edim, bedil edim, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Ishqdir sultoni yaqiyn, Ishqdir burhoni yaqiyn,
Ishqdir maydoni yaqiyn, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Ishq manzilidir osmon, yongay o‘tida badgumon,
Ishqdir baloyi nogahon, men qayda-yu Ishq qaydadir?

Ey Shams, bas qil zamzama, bu xona gulzordir hama,
Ishq bo‘ridir, Ishqdir rama,[1] men qayda-yu Ishq qaydadir?

[1] Suruv

* * *

Ey yuzlari ganji baqo, mahrami jonim, Sanamim,
Topmagay tag‘yir-u fano, amn-u amonim, Sanamim.

Sen bila nazzora qilur, murda sening-la tirilur,
Zinda-yu poyanda bo‘lur, nuri zamonim, Sanamim.

Ey Sanam, ey Ruhi ravon, ganji ma’oniy va bayon,
Oyat o‘qi menga chunon sen dil-u jonim, Sanamim.

Aql-u ravon lol bo‘lib, istagi abdol bo‘lib,
Qol hama hol bo‘lib, sirri ayonim, Sanamim.

Dard-u davo sendan erur, ranj-u ano sendan erur,
Lutf-u ato sendan erur, nom-u nishonim, Sanamim.

Ruhimda Tabriz manim, voqifi sirri Ahadim,
Sen bila topgum sifatim, ruh-u ravonim, Sanamim.

So‘z demagil, xomush bo‘l, yo‘l demagil yo yo‘l bo‘l,
Yor sirin so‘ylama, qo‘y, sirri nihonim, Sanamim.

* * *

Tunda gar uxlolmasang, jon na bo‘lur?
Qoqmasang darvoza, hijron na bo‘lur?

Kechalar yoriga kunduz kelsa kim,
Dillari xasta bu yoron na bo‘lur?

Ikkala ko‘zing agar ravshan esa,
Ko‘zi ko‘r mal’un bu shayton na bo‘lur?

Ko‘ngul ummonida tarqatsa g‘ubor,
Misli Muso qo‘li, Imron na bo‘lur?

Gar Sulaymon kelsa chumoli tomon,
U — chumoli, bu Sulaymon na bo‘lur?

Boshlasa Ilyos kabi bir mardi roh,
Qayda deb bu obi hayvon na bo‘lur?

Silkisang ilkingdagi gullarni bot,
Bori olam gul va rayhon, na bo‘lur?

Obi hayvonkim qorong‘u chohdadir,
Oqsa gar shahr-u biyobon na bo‘lur?

Gar tirilsa ne’mat-u noning bilan
Ikki-uch bechora mehmon na bo‘lur?

Sen agar dildor-u jonbaxshsan magar,
Topsa jon bir-ikki bejon na bo‘lur?

Ot minib kelsang-da maydon sahniga,
Siynalar bo‘lsa chu maydon na bo‘lur?

Oy yuzingni ko‘rsatar bo‘lsang, ne tong,
Zuhra bosh urgay-da, Mizon na bo‘lur?

Gar etak qoqsang karamdan jon uchun,
Etmasak chok bu giribon na bo‘lur?

Ag‘darib to‘ksang labolab kosani,
Bu xarobot ahlida jon na bo‘lur?

Yaltiroq xil’at kiyibmiz, aybimiz,
Biz — g‘ulommiz, sen-ku sulton, na bo‘lur?

Cho‘pni Musodek olib ilkingga so‘ng,
Cho‘p ilondek qilsa tug‘yon, na bo‘lur?

Yuz burib lutfiga, dushmandan chekil,
Axtar, ey, ko‘ngulni, armon na bo‘lur?

Bas qil, ey ko‘nglum, fig‘on chekma, abas,
So‘ylasang-da gar parishon na bo‘lur?

* * *

Ka'ba talab aylab, yugurib bosh bila ul yon,
Ham oqibatul amr bo'lib maqsadi shoyon.

Toshdan bir ajib xonaki a'lo va muazzam,
Jonsiz bu biyobon ichida bo'ldi namoyon.

Ul xonada ko'rmak edi orzusi Xudoni,
Ko'p izladilar yo'q edi hech qayda u Rahmon.

Yuz burdi ular sidq bilan xonaga nogoh,
Ul xona ichidan bu xitob yangradi shul on.

"Ey xonaparast, toshparast, xokparastlar,
Poklar tilagan xonani istang-da tiking jon.

Ul xona ko'ngul xonasidir — Vohidi Mutlaq,
Xurram o'shalar ko'nglukim ul xonada mehmon.

Bul xonada bosh eggan o'sha sohibi dillar,
"Labbayk", deya rost alifdek borar oson.

Vahdat xatidan o'tgani on beshak-u beshirk,
Tortdi "laminal mulk" xatin xasmga shodon.

Bul xonadan ul xonaga kim topdi nishona,
Qaytib uni hech ko'rmadilar Ka'bada sarson.

Ehrom kiyib Ka'ba tavof ayladi kimki,
Suykashdi bu tosh xonaga bosh, nafs-u jig'ildon.

Ul toifakim xonada do'st izladi mutloq,
Ostoniga bosh urdilar-u topdilar iymon.

Ishq nomi bila kimki kelib erdi jigarxun,
Ul Ka'bai maqsudiga u yetdi xiromon.

Yor xoki darin tanladilar ikki jahonda,
Kim Ka'ba g'aribi edilar, nafsga dushmon.

G'oyatda ajib holga tushibdir Malakul Mavt,
Ul toifa ma'nosini hech anglamay hayron.

Shamsul Haqi Tabriz kabi baxtlidir ul zot,
Chiqmay uyidan qilsa safar dasht-biyobon.

* * *

O‘limim kuni qachonki tobutim ravon bo‘lgay,
Gumon qilmagilki ko‘nglimda dardi jahon bo‘lgay.

Mening uchun yig‘lama va demagil: “Darig‘, darig‘!..”
Devlar domiga tushgaysan darig‘ hamon bo‘lgay.

Janozamni ko‘rsang demagil: “Firoq, firoq”,
Menga visol va muloqot o‘shal zamon bo‘lgay.

Meni tuproqqa topshirsang, dema: “Vido, vido!..”
Ki go‘r darpardai jam’iyati jinon bo‘lgay.

Cho‘kmoqni ko‘rganing chog‘ yuksalmoqni anglagil,
Shams-u qamar botmog‘iga nechuk fig‘on bo‘lgay.

Senga botmoq tuyulsa-da otmoqdir aslida,
Lahad hibs aylaganda, jon omon bo‘lgay.

Qay urug‘ tuproqqa tushib, ko‘karmadi axir,
Nechun inson urug‘iga bunday gumon bo‘lgay?

Qay bir charx past enib, limmo-lim chiqmadi,
Jon Yusufiga choh ichra nechun fig‘on bo‘lgay?

Bu yondan og‘iz yumdingmi, ul yondan so‘ylagil,
Kim hoy-u hularing birla lomakon bo‘lgay.

* * *

Asror ostonasiga osmon yetmagay,
Faqr-u yaqiyn tomiga norvon yetmagay.

Orif kamon ma’rifatida sayr etsa,
Ming yulduz va oy unga tomon yetmagay.

Kimki jahon xarobasida o‘ziga bino qo‘ydi,
Bulbullardan ayrilgay-da guliston yetmagay.

Bir dona arpa hirsida kimki talosh qildi,
Bilgilki, bog‘lanib joni bu kon yetmagay.

To‘yg‘iz hirslaringni bu makonda butlaring bilan,
His makoniy bo‘lgach aslo lomakon yetmagay.

Lojaram ohu qolib ketgay orqada, yorlar,
U na lolazorga va na yashil arg‘uvon yetmagay.

Akkadan to Makkagacha yuz bursang-da biroq,
Mahollik istasang na ul yon, na bul yon yetmagay.

Rayhon-u chechakni ko‘rsang olib hidlarsan,
O‘shal bo‘y ohular kindigidan hech on yetmagay.

Xomush bo‘l, agar ganj siri zamiringdadir,
Zamirga dil haddi sig‘ar, zabon yetmagay.

* * *

Bu ishq jumla oshig‘-u bedor o‘ldirgusi,
Tig‘siz kesgay bosh va bedor o‘ldirgusi.

Mehmon bo‘ldik mehmongakim mehmonni yeydi ul,
Yor o‘ldik ul Yorgakim ul Yor o‘ldirgusi.

Yusufni ko‘rdi qashqirdek tilka qilgaydir,
Mo‘minni ko‘rdi baayni kuffor o‘ldirgusi.

Biz dil berdikkim u bizga dildorlik qilsa deb,
O‘ldirsa mehr ila beozor o‘ldirgusi.

Yo‘q, yo‘q, nafasi jasadga jon ham bag‘ishlagay,
Garchi g‘amza birla oshiq bisyor o‘ldirgusi.

O‘ldirsa o‘ldirar, zotan, obi hayot emas,
Jahl qilma, asl do‘stdek oshkor o‘ldirgusi.

Himmatli bo‘l, bu ishq asli himmat ishqidir,
Tanlagay shohlarni-da ahror o‘ldirgusi.

Biz — tunmiz, zamin soyasi oftob yuzida,
Tunni subh pichog‘ida zarnisor o‘ldirgusi.

Tun zangisi tarror yanglig‘ oldi aqlimiz,
Sabuhning dushmani kelmish tarror o‘ldirgusi.

Zangi tun sipohi olib Sharqdan to G‘arbgacha,
Rum kunduzi bu lashkarni bir bor o‘ldirgusi.

Bulbuldirmen mastligim hosili gulshandir,
Bulbul kabi judodirman gulzor o‘ldirgusi.

* * *

Ey otashi otashnishon, bu xonani vayrona qil,
Qil aqldin begonavash, boshdan yana devona qil.

Sindir eshik xumxonada, keltir sharob paymonada,
Tark ayla bu afsonani, zuhdimni-da afsona qil.

Soqiy, uzatgil jomni, mendan olib oromni,
Qo‘ygil, axir, islomni, bor Ka’bani butxona qil.

Ey oshiq, oshiq, ket tamom, aylab garov bu jonga jom,
Ul Jomi Jam bir ramz, ishon, boshing kesib paymona qil.

Ey Ishq, aylab ko‘p jafo, yoqding yurak-bag‘rimni, oh,
Alloh uchun bir dam yuzing bur, qasdi ul jonona qil.

Ey oftobi osmon, chehrang uyatdandir nihon,
Gar fitnaga solsang jahon, sochingni yozgil, shona qil.

Ey Shams Tabriziy, bugun g‘amga botibman ne uchun?
O‘t qo‘y, bu aqlimga butun, boshdan yana devona qil.

*Forschadan **Asqad Mahkam** tarjimalari*

* * *

Bu zindon xalqini ozod qildim,
Bu oshiqlar ravonin shod qildim.

Tamom yirtib bu ajdarhoning og‘zin,
Tariyqi ishqni obod qildim.

Agar suvman, jahon tug‘yoni menda,
O‘shal dam suvni girdubod qildim.

Solibmen naqshlarkim suv yuziga,
Buni na oj-u na shamshod qildim.

Quvonchdan yirtadir o‘z naqshini jon,
Ki men bu naqshni miy’od qildim.

Bu Yusuflarni chohdan tortib oldim,
Ki Ya’qublarni zimdan yod qildim.

Tutib Xusrav kabi Shirinni zulfin,
Qasosi joni har Farhod qildim.

Xush, ey ul bog‘kim targ‘ib qildim,
Xush, ey ul shahrkim bunyod qildim.

Jahon bilsinki to men shohdirman,
Beribmen mol-u mulk-u dod qildim.

Jahon bilgay jahonimdan narida
Tasavvur birla shahr ozod qildim.

Ne ustodlarni men shahmot qilibmen,
Ne shogirdlarni men ustod qildim.

Necha sherlar solib dahshat va lekin,
Shoqolni ojiz-u minqod qildim.

Kim ishqida yonibdir ayla xomush,
Unga basdirki men irshod qildim.

Qayu elga bo‘lib to‘fon balolar,
Bosildi ul zamon faryod qildim.

Chiqorib oldim to‘fonning ichidan,
Chunonchi, yo‘q edi ijod qildim.

Bu Tabriziy chiqib soldi qilichni,
Tilimni tig‘idan po‘lod qildim.

* * *

Dilimning dardini hargiz huvaydo aylayub bo‘lmas,
Bu ko‘ksim ichra bir sir bor, ki paydo aylayub bo‘lmas.

Sening husning bizim ko‘zlarga toki tola nur bermas,
Jamoling bog‘ida aslo tamosho aylayub bo‘lmas.

Seni to so‘ylamaskan til, umrlar o‘tsa hamki bil,
Sening la’li labingdan bir tamanno aylayub bo‘lmas.

Bu olamda faqat tanho senga yuz burmaguncha to,
Sening chehrang bilan dilni musaffo aylayub bo‘lmas.

Mehr nuring qilib ifsho, kishi zarrangga yetmas to,
Masiho dahrining tarkini aslo aylayub bo‘lmas.

Butun olam tiniq ko‘zgu, ki ishq mayxonasidir bu
May-u ishq mastligin bir joyda barpo aylayub bo‘lmas.

Agar oshiq dilidan kim xabarsizdir, shuni bilkim,
U shaydolikni bilmaydur va shaydo aylayub bo‘lmas.

Bu olam uzra gar Iyso chiqib kelmas ekandir to,
Bu gumbaz uzra bir sayr-u tamosho aylayub bo‘lmas.

Labining bodasidinikim quyibdir Shams qalbiga,
Bu kun bir qatrasini ham huvaydo aylayub bo‘lmas.

* * *

Kel ey, jonimga jononim, uying qayda, uying qayda?
Kel ey, dardimga darmonim, uying qayda, uying qayda?

O‘zing manzursan-u nozir, o‘zing pinhon-u ham hozir,
Sen ey, paydo-yu pinhonim, uying qayda, uying qayda?

Meni mahjur etursan yor, g‘am ichra yig‘layursan zor,
Sen ey, sen mohitobonim, uying qayda, uying qayda?

O‘zing jonsan, o‘zing jonon, o‘zing husn ahliga sulton,
Seni derman, seni jonim, uying qayda, uying qayda?

Musalsal[1] zulflaring, hayhot, dilimni ayladi barbod,
O‘zing shoh birla sultonim, uying qayda, uying qayda?

Kel ey, sen Shamsi Tabreziy, tun oqshom yo sahar kezi,
Daf ayla fitna burhonim,[2] uying qayda, uying qayda?

Qara, arsh tomiga ketdim, sening zavqing hadis etdim,
O‘zing jon birla jononim, uying qayda, uying qayda?

1 **Musalsal** *(arab.)* — zanjir-zanjir, halqa-halqa soch.

2 **Burhon** *(arab.)* — dalil, hujjat, guvoh.

* * *

G‘azal ayt yorga, ey mutrib, ki ey yor, tavbalar qildim,
Agar har gulki uzdim, tildi bir xor, tavbalar qildim.

Ishimdin gohi mast bo‘ldim, xumoridin gahi o‘ldim,
Gahida zor bo‘ldim, gohi bezor, tavbalar qildim.

Maning bo‘ynumgacha boshdin oyog‘im tavbadin to‘ldi,
Qilingan tavbalardin qayta ming bor tavbalar qildim.

Kel ey sen, mayfurush kelkim, qo‘limga sog‘aring berkim,
Kechibmen, or-u nomus ham na darkor, tavbalar qildim.

Chunon mastdirman-u behush, na til bordir, na aql-u hush,
Siz ey, issiq bilan sovuq, suv-u qor, tavbalar qildim.

Dilimni poralar qildim g‘amimga choralar istab,
G‘amimga chorasizlik chora, nochor tavbalar qildim.

To‘lin oyning jamolidin qaro kechamni xush ayla,
Gunohlarni bu zavqdin mo‘l-u bisyor tavbalar qildim.

Dedimki tavba vaqtidir, menga bir xor kishi aytdi:
Ki men bir ko‘hna toibman,[1] umr bor — tavbalar qildim.

Salohiddin ulushidin kelib munkir so‘rar ishqdin:
Bu ishdin qil meni soqit, qil inkor, tavbalar qildim.

[1] **Toib** *(arab.)* — tavba qiluvchi.

* * *

Labing shahriga bir kunga meni mir aylasang erdi,
Labingning la’lidin jonimga taqrir[1] aylasang erdi.

Parishon zulflaringni tushda ko‘rgan kechadin boshlab,
Parishondirman-u hayron, ta’bir aylasang erdi.

Jahon oqillarini zulflaring devonalar qildi,
O‘shal zulflarni bir bor menga zanjir aylasang erdi.

G‘amingdin ko‘zlarim ikki tiflday[2] oncha yig‘larkim,
Sen, ey sen, toshbag‘ir, bag‘ringni taqdir aylasang erdi.

Chiroying Ka’basi yo‘lida ehrom boylamishman, ko‘r,
Necha talbiya aytdim, bir takbir aylasang erdi.

Dilim keksaydi, ey xushbaxt sarv, dard-u g‘aming birla,
Anga ergashmading hargiz, ani pir aylasang erdi.

Sening g‘amzang o‘qidin bejarohat qolmadi bir dil,
Meni ham ul aroda barchaga bir aylasang erdi.

Ki husning oyatidin bori aqlim ham tamom o‘ldi,
Karam aylab ul oyatdin tafsir aylasang erdi.

Necha jonlarni olding-u necha jonlarni zor etding,
Bu ishda, ey sanam, rahm-u karam bir aylasang erdi.

[1] **Taqrir** *(arab.)* — qaror berish.

[2] **Tifl** *(arab.)* — go‘dak, yosh bola.

Meni o‘ldirgali yetding-u muhlat bermading bir on,
Tuganmas nola-yu zorimni oxir aylasang erdi.

Sening ishqingni o‘tida kuyib bo‘ldi dilim butkul,
Bu dardimning davosiga taboshir[1] aylasang erdi.

G‘am-u hajring bilan oxir bu kun men o‘lgali yetdim,
Meningdek xastaga, ey yor, tadbir aylasang erdi.

Yuzing oftobi birla birlashibdir ul Zuhal zulfing,
Qilibdir necha qirg‘inlarki, ta’sir aylasang erdi.

Yuzimni ostoningga surib bir nolalar qildim,
Bu hijron qissasidin qissa tahrir aylasang erdi.

Na ham derdim, sening bir eskidan qolgan qulingdirman,
Meni ko‘ngil uyingda qayta tasvir aylasang erdi.

[1] **Taboshir** *(fors.)* — Xayzaron nomli hind qamishidan olinadigan oq dorivor modda.

* * *

Ey jahon, ezdi meni savdolaring, savdolaring,
Qildi talx umrimni bu halvolaring, halvolaring.

Marvarid-u dur-u la’ldin to‘ladir charx etagi,
Senga bergay borini — savg‘olaring, savg‘olaring.

Sel bo‘lib ketmoqdadir oshiqlarining jonlari,
Chorlagaydir ul sening daryolaring, daryolaring.

Kecha bergan maylaringdan men bu kundirman xarob,
Erta nelar ko‘rgizur da’volaring, da’volaring?

Men o‘zimning sodda jonimga turib boqsam bu kun,
Rangini qilmish sariq safrolaring, safrolaring.

Gavharingning zavqin istab ayladim dildan nazar,
Oyda ko‘rindi sening siymolaring, siymolaring.

Men seni oy deb xato qildim, g‘alat aytdim suxan,
Sen kim-u oy kim — bo‘lur hamrolaring, hamrolaring?

Shamsi Tabreziy shuning-chun aytur o‘z noming bilan,
Ey mudom ko‘nglim aro g‘avg‘olaring, g‘avg‘olaring.

* * *

Tebranur har bitta shox, lek o‘zga shoxdin mevasi,
Har kishi bir o‘zga maydin mast bo‘lib tebrangusi.

Parda ichra ikki yuz xotin yuzin yirtar, valek
Har biri gar bir ayoldir, o‘zga juftning bevasi.

Har baliqning tanglayi sayyod qarmog‘indadir,
Yangrayur goh ul baliq, goh bul baliqning nolasi.

Mutribi ishq ahlini, ey Shamsi Tabreziy seni,
Hech qachon yig‘latmasin charxning ajib bu shevasi.

* * *

Ey ko‘ngil, jonon tomon ketmoqdasan,
Kim nazarlardan nihon ketmoqdasan.

Oy misol chok aylabon ko‘ylaklaring,
Oftob, osmon tomon ketmoqdasan.

Ey zaminda o‘ltirursan, aslida
Yetti ul ayvon tomon ketmoqdasan.

Suratingdir bunda mehmonlar bilan,
Eng buyuk mezbon tomon ketmoqdasan.

Eng buyuk naqqoshdadir ul mo‘yqalam,
Naqsh-u surat ichra jon ketmoqdasan.

Suvdayin ketmoqdasan tuproqqa sen,
Ey hayot, bo‘ston tomon ketmoqdasan.

Bu jahondan g‘am chekib olamjahon,
Charx urib, raqs aylabon ketmoqdasan.

Qancha el g‘aflatda yotgay noayon,
Barcha eldan noayon ketmoqdasan.

Holimizni ko‘rgil-u yetkiz xabar,
Kim buyuk sulton tomon ketmoqdasan.

* * *

Ey yuzimni dahr aro misli qamar qilgan o‘zing,
Band-bandim so‘ylatib, ahli nazar qilgan ko‘zing.

Ey shamolingdan daraxtim raqs aylab, o‘ynagan,
Noming aytsam, og‘zimi shahd-u shakar qilgan so‘zing.

Sen bilursanki daraxtim ne uchun raqs aylagay,
Barg berdingmi samar yo besamar qilgan o‘zing?

Bargidin ham bir nishon yo‘q, mevasidin — bir nishon,
Ey daraxtim sabrini zer-u zabar qilgan o‘zing.

* * *

Gul kabi gulshan tomon ketmoqdasan,
Sendaman men, sen qayon ketmoqdasan?

Lol-u gung bo‘ldi seni savsan ko‘rib,
Gulruxim, savsan tomon ketmoqdasan.

Mayfurush ikki labingdin, ey sanam,
Bergali mastlarga jon, ketmoqdasan.

Dilrabolar ortingda yulduz misol,
Sen to‘lin oysan, jahon ketmoqdasan.

O‘zga bir otash yoqursan har kima,
Toshmi temirdil — nihon ketmoqdasan.

Men sening zarrang bo‘lib raqs aylagum,
Ey quyosh, ravzan tomon ketmoqdasan.

Surma yanglig‘ ko‘zga solgayman seni,
Ey dil, ey dil, beomon ketmoqdasan.

* * *

Bir soniyada meni guliston qiladir,
Bir soniyada yana zimiston qiladir.

Bir soniyada fozil-u ustod aylar,
Yosh bola misoli yana nodon qiladir.

Birpasda urib tosh, meni sindiradir,
Birpasda yana misoli sulton qiladir.

Birpasda oftob bila teng aylar,
Birpasda qaro tun-u shabiston qiladir.

Tutdim etagidin ikki qo‘lim birlan,
Toki ko‘royin deb, ne doston qiladir.

Xush dardining mayiga menman qadah,
Garchi meni mastlarga xon qiladir.

Shul-chun shakaridan oladirman tun-kun,
Toki laqabimni shakariston qiladir.

* * *

Dilbarim qilgay vafo andakkina,
Chiqdi xush aylab sado andakkina.

Menga bir kuldi kecha ul navbahor,
Bo‘ldi ro‘zgorim ziyo andakkina.

Oq atirgul chiqdi xandon aylabon,
Bo‘ldi bog‘im xushnavo andakkina.

Ul nafis tongim manga berdi nafas,
Shul nafasdin men ado andakkina.

Oq bulutim qo‘ndi daryo bo‘yiga,
Xok bo‘lgil, men — samo andakkina.

Men yog‘ay yomg‘ir bo‘lib, gullar ochib,
Bo‘lki, men bergum safo andakkina.

Menga muhlat bergil, o‘zdin ketmagil,
Sabr aylay, dilrabo, andakkina.

Kofir o‘lgayman, aning ishqida gar
Sabr qilsam, ey Xudo, andakkina.

* * *

Bu xilvat uyda biz birlan bu kech dildor tebrangay,
Dilim ko‘ksimda raqs aylar, eshik, devor tebrangay.

Bu shodlik g‘ul-g‘uli zo‘rkim, bu oshiq ahlini ko‘rkim,
Agar ming na’ra uyg‘ongay, bu dil bir bor tebrangay.

Haqiqatdir, buni ko‘rkim, bu ishrat majlisi ichra
Shahidlar bor — yotgaylar, shahidlar bor — tebrangay.

Uning aksi jamoli gar ko‘rinsa to‘qqiz ayvondin,
Zamin gardun misoli aylanur, davvor tebrangay.

Toshib o‘ynaydi daryolar uning shavqi jamolidin,
Adirlar, tog‘lar-u toshlar qilib izhor, tebrangay.

Bu ko‘ngil misli gul yaproq, anga bir yel solur titroq,
Bu holat birla guftordin bo‘lib xushtor, tebrangay.

Bu dunyo xalqini ko‘rgil, dili kar ham dili ko‘rdir,
Shuning-chun zohid-u obid bila asror tebrangay.

G‘alat aytdim bu ma’nidin, ki zohid birla obidmas,
Bu majlis ichra ul rohib ila zunnor tebrangay.

Tilimni tiydim, ey do‘stlar, bu gap bir joyga yetgay gar,
Bu shahr-u kent, borliq — barcha majnunvor tebrangay.

* * *

Ketgusi aql-u hush-u tan birla jon, sen ketmagil,
Menga mendin sen azizroq, sen ishon, sen ketmagil.

Oftob birlan falak — bori sening soyangdadir,
Ketsa gar bul oftob-u osmon, sen ketmagil.

Ey kaloming pok ham tab’i latifdin ham latif,
Ketsa gar og‘zimda til, tab’i ravon, sen ketmagil.

Jumla iymon ahlining eng so‘nggi damdin xafvi bor,
Ketmagil, ey bori iymon, qol omon, sen ketmagil.

Ketmagil, ketsang, mening jonimni ham ol birgakim,
Sen agar mensiz ketursan — hech qachon sen ketmagil.

Bog‘ bilan bo‘ston erur sen birla bu ro‘yi jahon,
Bo‘lsa gar bul bog‘-u bo‘stonlar xazon, sen ketmagil.

Tosh dilimni men kuyib suv ayladim, hajring bila
Toshga aylandi Badaxshon la’li, kon, sen ketmagil.

Zarradir gar kimsa, aytur: ketmagil, ey oftob,
Banda bo‘lsa, aytur ul, ey sulton, sen ketmagil.

Lek sen obi hayotsan, bori xalqlardir baliq,
Ey kamol-u rahmat-u, ey ehson, sen ketmagil.

Bu mening ko‘ngil tumorim mangulikdin ham uzun,
Sen o‘zing yozding uni, qilding bayon, sen ketmagil.

Sen o‘zing yuz mingta bayt, yuz ming g‘azaldin ham baland,
O‘n sakkiz ming olam-u yuz ming jahon, sen ketmagil.

Shamsi Tabreziy sening la’li labing birla hayot,
Ey hayot, men birla qol, ey jonga jon, sen ketmagil.

Forschadan ***Sirojiddin Sayyid*** *tarjimalari*

* * *

No‘sh[1]lik bag‘ishlab neshga, begona aylab xeshga,
Yolg‘izni boshlab eshga, ehson qil darvishga.

E’zoz qil ushshoqni, nurga belab ofoqni,
Og‘uga ur taryoqni, ehson qil darvishga.

Oyday go‘zal chehrang bilan, bechorabop mehring bilan,
Ergashtirib sehring bilan, ehson qil darvishga.

Jilvang misoli moh etib ham ishqdin ogoh etib,
Himmatni-da hamroh etib ehson qil darvishga.

Darvishdin nedir nishon, dur sochguchi til birla jon,
Yirtiq to‘nin qilma gumon, ehson qil darvishga.

Ham Odamu ul dam o‘zing, ham Isiyu Maryam o‘zing,
Ham sirru ham mahram o‘zing, ehson qil darvishga.

Achchiq uzat — shirin bo‘lur, kufring misoli din bo‘lur,
Sendan tikan nasrin bo‘lur, ehson qil darvishga.

Ey jonimu jononginam, ham kufrimu imonginam,
Beklar begi, sultonginam, ehson qil darvishga.

Ey xudbinu ozurdadil, to‘lg‘onmagil, jon uzmagil,
Boq manga, tandan yuz o‘gir, ehson qil darvishga.

Bul kun yoqib sham’ni atay, nuringda bir javlon etay,
Ishqingda jon qurbon etay, ehson qil darvishga.

[1] **No‘sh** — shirin va totli narsa.

Bul kun deyinki, yur, tayin, birdan yurakni o‘rtayin,
Zaxmimga malham surtayin, ehson qil darvishga.

Kimsan o‘zi bizga, rafiq, mal’un ilonsan yo baliq?
O‘zni tanit — maydonga chiq, ehson qil darvishga.

Joningni ber — yutsin adam, zero yetishmas, ey sanam —
Sen muhtasham, u muhtasham... ehson qil darvishga.

* * *

Ketdi o‘chib nafs-u havo, o‘ldi — balo, qoldi — balo,
O‘lsamu, qolsam, man uchun asli vatan — fazli Xudo!

Bo‘ldi, demam bayt-u g‘azal, ey shahu sultoni azal,
Mufta’ilun, mufta’ilun, mufta’ilun qildi ado!

Qofiya-yu bor-budini selga oqiz, yelga sovur,
Po‘stu qobiqdur, sanama mag‘zu ma’oniy, shuaro!

Jimlik erur tilla hisob, aybni yopmakka hijob,
Keldi sukut fazli kamu, lek yo‘lamas xavf-u rijo![1]

[1] **Xavfu rijo** — vahm va umidlanish, tariqatdagi maqomlardan biri.

* * *

Yerga zakot o‘lsa, ne tong, eltar esang ko‘ching agar,
Mastu xarobman, tilama lafzim aro naqd-u xato!

Toki xarob aylamasa, ganj bag‘ishlarmu manga?
Selga oqizmay mani U, qandayin umr etsin ato?!

Ul so‘zamolda ne xabarkim, sukut o‘ldi-ku shakar,
G‘o‘r ne bilsun, nedurur tarlalalo, tarlalalo!

Oyinaman, oyinaman, so‘zlaguchi kimsa eman,
Do‘nmasa gar ko‘zga quloq, bo‘lmas ayon holatim-o!

Qo‘l yozaman misli shajar, evrulaman xuddi qamar,
Charxim erur yer tusida, kelmadi teng charxi samo!

Orifi davr, o‘rgatako‘r, toki duoyingda bo‘lay,
Chunki xush-u mastmanam etmak oni tonggi duo!

Xirqa-yu yirtiq bu to‘nim arzimagaydur sanga hyech,
Ulki shahanshoh uzatur, yarmi mango, yarmi sango!

Bizga yetar kelsa azal chog‘iri sulton qo‘lidan,
Bilki, quyosh chashmasi ham tomchisiga zoru gado!

Jimginaman — xastatomoq, so‘yla manga, orifi toq,
Chunki Dovuddamsan o‘zing, qo‘zg‘alaman tog‘ misol-o!

* * *

Ko‘rsang edi, ey xoja, bu ro‘zi qiyomatni,
Bu ko‘rkli Yusufni, bu xushqadu qomatni!

Ko‘rsang edi, ey shayxim, bu durri mashoyixni,
Bu nuri safo birlan bu johu jalolatni!

Ko‘rsang edi, ey shohim, bu jon kabi maskanni,
Bu ravzayidavlatni, bu taxt-u saodatni!

Ey xushdilu xushdoman, sen telbamisan yo man?
Ich sog‘ari sahbodan, qo‘ysang-chi malomatni!

Ey moh, xarob o‘lmay ul tegrasida hargiz,
Anvori jaloling mahv aylaydi zalolatni!

Ko‘rdingki, oqar suv bor, sur chetga tayammumni,
Chun keldi visol iydi, qo‘y nari riyozatni!

Noz etsang agar, xomsan, bil’aks, dili romsan,
Zahmat bila topgaysan ul husn-u malohatni!

Jim bo‘lki, sukut avlo bol totmagidan hatto,
Yoq bari iboratni, qo‘y nari ishoratni!

Shamsulhaqi Tabriziy, jonlar sanga mashriqdir,
Kun ko‘kda jiloyingdan topmish bu haroratni!

* * *

Ey pardalar ortida ham tafting-ku tobistonimiz,[1]
Bas, eltgin yozdek iliq koʻngil-la to boʻstonimiz!

Ey koʻzlarimga toʻtiyo, bording qayoqqa?! Kel bu yon,
To obi rahmat purkasin qaqroq bu otashdonimiz!

Toki koʻkarsin shoʻralar, to ravza boʻlsin goʻrlar,
Doʻnsin uzumga gʻoʻralar, pishsin tanurda nonimiz!

Ey jonu dilga oftob, oldingda tilka oftob,
Chun suv ila xok ushbu tob olmish oʻrablar jonimiz!

Gulzor boʻldi xorlar ishqingda necha borlar,
To yuz tuman iqrorlar topdi tugal imonimiz!

Ishqi abadning suvrati, tan uzra husning qudrati,
Borgil ahadga sudratib jonni, buzib zindonimiz!

Gʻam dudidan soz et tarab, tundan shu dam kunduz yasab —
Boʻlsin gʻaroyib, bulʼajab, ey subhi nurafshonimiz!

Gavharga evrilsin tumor, Zuhroni keltir torumor,
Sultonga aylansin xumor, ming balli, ey sultonimiz!

Qayda saʼodatli qarogʻ, topsa gʻuboringdan farogʻ?
Qayda sening tolib quloqkim, tuysa to burhonimiz[2]?

Bu nayshakar shukronasin etsin koʻngil ehson uchun,
Har bir tishimiz ostidan cheksin figʻon yutgonimiz.

Jondan sado berdi dovul, boʻlsin boʻlaklar deya kull,
Rayhonga rayhon, gulga gul bersin bu xoristonimiz.

[1] **Tobiston** — yoz fasli.
[2] **Burhon** — hujjat, dalil.

* * *

Ahli shakar, ahli shakar, koni shakardori oʻzim,
Pandu nasihatni qoʻying, shoʻru shararvori oʻzim.

Koʻnglim erur bazm uyi, yoʻqdur alam hoyu huyi,
Dahrda achchiq nimadir bor esa, bezori oʻzim.

Oʻzda emasman, kamida, kezdiradi may gʻamida,
Gul ochadi qish damida, bulbuli gulzori oʻzim.

Men toʻla, sen mast yarim; bilmak esang jilvalarin,
Bir qadah ichmakka urin, mayki, giriftori oʻzim.

* * *

Ey chekinib, vafo yo‘lin burding u yon nechun, nechun?
Xasta demay, g‘azablaring qilding ayon nechun, nechun?!

Joying erur dilim aro, jo‘sh uradi sanga vafo,
Tig‘ urasan tinimsizin, qo‘ymay omon nechun, nechun?!

Gavharing oldi Sa’di akbar[1] qo‘lini bahosida,
Jonu jahonim eltasan, jon-u jahon, nechun, nechun?!

Chashmai Xizru Kavsarim, obi hayoti shakkarim,
So‘yla, firoqing o‘tidin quvradi jon nechun, nechun?!

Mehring erur nihoni jon, muhring asosi benishon,
Ko‘nglim aro vale sening naqshu nishon nechun, nechun?!

Aytdiki: jonga jon o‘zim, qilma havas ko‘ray debon,
Yo‘qsa yuzingda jilvagar suvrati jon nechun, nechun?!

Eyki ziyosi mustaqil, bo‘ldi sitoralar xijil,
Ikkilanish dil ichra bul soldi gumon nechun, nechun?!

[1] **Sa’di Akbar** — katta baxt yulduzi, Mushtariy sayyorasi.

* * *

Taningdir qadr oqshomi, topilgay unda davlatlar,
To‘lin oydir yuzing, undan sitilgay jumla zulmatlar!

Magar taqvimisan Haqningki, tole’lar bo‘lur anda,
Magar daryoyi rahmatsan, yuvilgay aybu zillatlar!

Magar sen Lavhi Mahfuzsanki, olgay g‘ayb darsin el,
Saxovat maxzanisan yo kiyurgan turfa xil’atlar?!

Ajab obod bir uysanki, tavof etgay shaharlar ham,
Ajab mujda varog‘isan — ichirgay shahdu sharbatlar!

Va yo timsoli yo‘q ruhsan bu savdolar qirog‘inda,
Sening nozik vujudingga topilmas tengu ulfatlar!

Jamoli aksi yuz choh ichra tushgan mahliqo Yusuf
Erursan, necha Ya’qublar chekar choh ichra zahmatlar!

Rasan qilsa agar sochin, olar tortib quduqdan, chin
Solar rahmat aro, lekin yechilgay bandi hayratlar!

Chu hayrat ilkidin qochgay, sifatlar unda yuz ochgay,
Sukut etsinki, sinmishdur iboratlar va ibratlar!

* * *

Ey savti shakar jonon, oy yuzli, ko‘zi surma,
Yayraydi kuyingdan jon, to tonggacha o‘lturma!

Sen foyda, tortiqsan, el baxtiga, ortiqsan,
Qol ahdinga sodiq san, to tonggacha o‘lturma!

Yuz shahra yetib payg‘om: “Ey g‘aflat eli, uyg‘on,
Uyg‘ondi uyub qolg‘on...” to tonggacha o‘lturma!

Uyg‘ondi o‘shal fitna, yog‘dirsa magar ta’na,
Tog‘ni teshar albatta, to tonggacha o‘lturma!

Uy ichra to‘lib odam, odamlar aro ul sham,
Sendan shuni istarman: to tonggacha o‘lturma!

Shah keldi-yu shah keldi, partav to‘la mah keldi,
Ul fayz-u farah keldi, to tonggacha o‘lturma!

Ey bong-u navoying soz, ey tong yelidan mumtoz,
Sarmast qilib oz-oz, to tonggacha o‘lturma!

Doim yig‘ining gulgun, jon topgay o‘yin-kulgu,
Shamdek taratib yog‘du, to tonggacha o‘lturma!

Chodir de samo, yerni, chodir bu birov dermi?
Ey ustuni chodirning, to tonggacha o‘lturma!

Bu qavmga sen to‘lding, kibriga sabab bo‘lding,
Ham zer-u zabar qilding, to tonggacha o‘lturma!

Eshkakchidayin suvda turmaydi fil osuda,
Oboqona yetguda — to tonggacha o‘lturma!

Ey xushnafas, ul naysan, noyob yigitdaysan,
Bizlar kabi yitgaysan, to tonggacha o‘lturma!

Qo‘l dafni chalar, ayni, oshiq nafasi nayni,
Nay kimsani qo‘ymaydi, to tonggacha o‘lturma!

Til jon kabi lol, ammo jon uxlamagay, jono,
Bo‘l bizga zabon, aslo to tonggacha o‘lturma!

* * *

Kel, aylab yangi jon tortiq jahonga,
Surilsin ishbilarmon aql yonga!

Bir o‘qman, otmasang, aslo otilmam,
Kel-yey, qayta solib qo‘ygin kamonga!

Tag‘in ishqing sabab tomdan tushar tos,
Quyi narvonni ham indir bir onga!

So‘raydurlarki: “Qaydin tomi oning?”
O‘shal yoqdanki, manzil erdi jonga!

O‘shal yoqdanki, jon bordi har oqshom
Va qaytish joyidur tongda ravonga![1]

O‘shal yoqdanki, yerga keldi ko‘klam,
Berur yangi chiroq subh osmonga!

O‘shal yoqdanki, ajdar bo‘ldi hassa,
Jahannamni makon etdi yomonga!

O‘shal yoqdanki, axtardi nishoning,
Nishon Uldir va tolib ham nishonga!

Eshak mingan kishidaysanki, so‘rgay
Eshakdan ma’lumot oid makonga!

Tiling tiy, yo‘l anga bermas hamiyat
Otarga sherigin dengiz tomonga!

[1] **Ravon** — ruh, jon.

* * *

Xabardor ayla, yulduz, yorimizni,
Ki topsin dil degan xunxorimizni!

Xabardor aylang oshiqlar tabibin,
Davo qilsin bizim bemorimizni!

Degil shirinsuxan shakkarfurushga,
Yurishtirsin axir bozorimizni!

Agar sirga asir etsang dilingni,
Eshitmaydur g‘anim asrorimizni!

Netay, ishq ichra dushmanga tilab kom
Yurarman, chun suyar raftorimizni!

Agarchi yovimiz jonsizdir, o‘rta
Ravonimiz — g‘animi borimizni!

Agar boshdan turobing yuvmas ersang,
Ketur, yashnat gulu gulzorimizni!

Kel-yey, nuri safolig‘ Shamsi Tabriz,
Yuzing birla yorit diydorimizni!

* * *

Malohat xoni, ber bahra hashamga,
Vujud etgil ato bir kaft adamga!

Qarolig‘ aylayur hasrat sipohi,
Muzaffar baxt ber sohibalamga![1]

Quvontirsin chiroying shodlikni,
G‘amu anduh sol anduhu g‘amga!

Jamolingdan karamni shodmon qil
Ki, yuz jon baxsh etar husning karamga!

Ishim oltinga do‘ndir, ey kumushtan,
Javohirlik bag‘ishla zar tanamga!

Ayo dil, istasang gar ishq bisyor,
O‘rin berma ko‘ngilda ko‘p-u kamga!

Boshingni Shams poyi uzra qo‘ygin
Ki, imondir sig‘inmoq ul sanamga!

[1] **Sohibalam** — bayroq egasi.

* * *

Payqab olisda Shamsi dinni,
Tabriz g‘ururi, rashki Chinni;

Ul charxu samo ko‘zin, chirog‘in,
Ulkim, tirik aylayur zaminni;

Ey, bo‘lgay o‘shanday, undayinroq,
Har jonki, ko‘rur u bundayinni!

Kimni, — dedi, — o‘lduray alamda?
Dedimki, kamina-kamtarinni!

Bu so‘zni takallum etgan onim
Ul g‘aybdan o‘ngladi yashinni.

O‘t qo‘ydi kamina borlig‘iga,
Ildiz bilan uzdi kibr-u kinni.

Ham lola diliga solmayin dog‘,
May birla sug‘ordi yosaminni!

Qo‘ynida edi chun asl maqsud,
Biz soriga ochdi ul qo‘yinni:

Ul shohki, oyni chehra aylab,
Taqdi falak ashhabiga[1] zinni.

Mingash, dema egri-to‘g‘ri, yo‘qdur
Tengi, bilar ul malik chinni!

[1] **Ashhab** — kulrang ot.

Jabroil erur xabarsiz ondin,
Vallohki, ko‘r bu yoshirinni!

Ne holki, bu keturdi qola,[1]
Yettinchi falakni — ul barinni[2]!

Chun mehrida qaytadan ko‘z ochdik,
Bir arpaga olmadik yaqinni!

Evohki, teskari o‘girdi
Ul davlati vasl po‘stinni!

Dinim Shamsi, ayo mug‘anniy,
Kuyla tag‘in, olgin ofarinni!

O‘pmakka qo‘lini yetmasam gar,
Tufroqqa uray yuzu burunni!

[1] **Qol** — gap, gapirish.
[2] Yuksak, eng yuksak.

* * *

Qonli parda bag‘rida bor ishq uchun gulzorlar,
Benazir ishq istar oshiqlar — haqiqiy yorlar!

Aql deydi: “Olti yoning — g‘ov, chiqishga yo‘q yo‘ling”,
Ishq deydi: “Bor axir, bordim-ku yuz ming borlar”.

Ko‘rmayin bozor tojirlikni boshlab qo‘ydi aql,
Ishq uning ko‘rgan ziyonida ko‘rar bozorlar!

Ishq joni qilmadi Mansurga hargiz vafo,
Tark etib minbarni ketdi, jazb qildi dorlar!

Durdkash oshiqlar ich-ichdan tuyar zavqu surur,
Ko‘ngli tor oqillar ichda saqlagay inkorlar.

Aql deydiki: “Fano ko‘yi tikanzor, etma sayr”,
Ishq deydi aqlga: “Qo‘yningdadir ul xorlar!”

Tilni tiy, borlik tikonin dil oyog‘idan sug‘ur,
Shunda ko‘rgaysan vujuding ichra gul, gulzorlar!

Shams Tabriziy, ayo so‘z abrida pinhon quyosh,
Chiqqan oni oftobing mahv o‘lur izhorlar.

* * *

Ajab sarvu, ajab mohu, ajab yoqutu marjonsan,
Ajab jism-u, ajab aql-u ajab ishqu, ajab jonsan.

O‘zing ko‘klamdagi maysa, o‘zing ov istagan qaysar,[1]
Karashmangda nadir muzmar?[2] Ne bois muncha biyronsan?

Ajab qand-u shakarliksan, quliga beziyon beksan,
Falak toqida oydeksan, solur gardunga davron — San!

Seningdekmas ajoyiblar, sanga ma’lum g‘oyiblar,
Asar qilmas navoyiblar,[3] mudabbiru bilimdonsan.

Oshiq shirinliging haddan, tuyib botinni sarhaddan,
Yiroqsan har nima baddan, demak, loyiqi g‘ufronsan.[4]

Xush ulkim, husni shohona, yorishgay har dilu xona,
Xush ulkim, piri farzona, xush ulkim, Shamsi Rahmonsan.

Xush ulkim, par yurolmasga, halovat muztarib kasga,
Jahon sultonlari asg‘ar qulingdir barcha, sultonsan.

Nedir sendan zarar ko‘rsa, topar nash’u namo ko‘proq,
Bo‘lur oshufta, ishqiga qilursan yuz pushaymon San.

Jahon yarmi kulib yashnar, jahon yarmi so‘lib qaqshar,
Munga vasling-la darmonsan, anga hajring-la armonsan.

[1] **Qaysar** — Rum podshosi; o‘jar.
[2] **Muzmar** — yashirin.
[3] **Navoyib** — ko‘ngilsizliklar.
[4] **G‘ufron** — kechirilish.

Kulib ishq og‘zi hayratdan, ko‘zi yig‘laydi hasratdan,
Baso shirin bu qand, ammo tutarsan oni pinhon San.

Qil osoish dilu jonni, bu ozurda, parishonni,
Guliston ayla zindonni, qilib ruhimga ehson San.

* * *

Orzum, jon-u dilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing,
Ey murodu hosilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Mushkil-u oshuftaman sochingdayin, sochingdayin,
Etgil oson mushkilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Rohu manzildan dema, aslo dema, aslo dema,
Sen tariqi manzilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Yerdan olding bir siqim tuproqni san, tuproqni san,
Ul mening loy-u gilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Ne yomon, ne yaxshidur — bildim ayon, bildim ayon,
Husninga ojiz bilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Yonmasa aqlim tamom ishqing ila, ishqing ila,
G‘ofilim, de, g‘ofilim! Kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

Bek Salohiddin, o‘zing ham hozirim, ham g‘oyibim,
Ey ajoyib vosilim, kelgil o‘zing, ko‘rsat yuzing!

* * *

Sen o‘zing jon-u jahonim, netayin jonu jahonni?!
Sen o‘zing ganji ravonim, netayin naf’u ziyonni?!

Gahi men yor sharoba, gahi men yor kaboba,
Tushib ovoni[1] xaroba, netayin davr-u zamonni?!

O‘zima vahm sochib man, hama eldan-da qochibman,
Na nihon-u, na ochiqman, netayin kavn-u makonni?!

Ko‘rayin, oshdi xumorim, tilamam bandani, Yorim,
Sanga ov ersa bu borim, netayin tir-u kamonni?!

Chun ariq ostidadirman, nega suv izlay axir man?!
Ne deyilgay, nima derman tanitib obi ravonni[2]?!

Buroqib[3] borlik asosin, nega tog‘ yukini tortay?!
Manga qashqir esa cho‘pon, ne qilay bo‘yla cho‘ponni?!

Na xush, ul ishqni surding, qadahingda mayi durding,
Na go‘zal yerda o‘turding topib ul diydayi jonni!

Bu jahon zarrama-zarra, hama jon qatrama-qatra
Chu nishon Sendin agarda, netadir nom-u nishonni?

Yashirin bahri haqoyiq[4] ichida durri daqoyiq[5],
Ketarim bosh ila loyiq, netay ikki chopag‘onni?!

[1] **Ovon** — zamon, chog‘.
[2] **Obi ravon** — oqar suv.
[3] **Burulmoq** — tashlamoq, tark etmoq.
[4] **Haqoyiq** — haqiqatlar.
[5] **Daqoyiq** — nozik ma’nolar, ma’nosi yopiq nozik so‘z.

Biruborim, unading Sen, yo‘limizni o‘rading Sen,
Naki borim to‘nading Sen, to‘layolmam-ku tovonni!

Ko‘rib ul chehrai tobon, ko‘rib ul zulfi parishon
Juda yengil dilim, ey jon, uzat ul jomi garonni[1]!

Qarama ranj-u baloga, qaragin ishqu vafoga,
Qarama javr-u jafoga, ko‘rib ol yuz nigaronni!

Alaming bahra atab, bul g‘amu hasratni tarab bil,
Sanamingdan-da talab qil farahu amnu amonni!

Talab et amn-u amonni, quloq aylab dilu jonni
Eshit ul piri zamonni, tiyib albatta zabonni!

[1] **Garon** — og‘ir, salmoqli.

* * *

Ey ulki, yetkazursan bul bodayi baqoni,
Bizlarga zavq bermas sensiz simirmak oni!

Mutrib[1], qadahni olgin, sol qalblarga yolqin,
Jono, bahoga solgin ul durri bebahoni!

Ul ishqi zanjiringni, ko‘nglingdagi chiringni[2],
Ul chohi Bobilingni, ul sehru ming baloni!

Borini qayta keltir, ish toki zarlik eltur,
Takror boshdan, oxir, qil odati vafoni!

Lutfing sabab mukarram bo‘ldi zalil jin ham,
Xatlab beribsen ul dam amloki pursafoni[3]!

Nuringda, ey tanilgan, ey osmonga yetgan,
Har lahza ilg‘adim man anvori Mustafoni!

Bog‘langan oni rohim barq urdi dilda ohim,
Evrildi xasga tog‘im, chun sevdi kahraboni!

Oy yuzli Shamsi dindan Tabriz shod, chindan,
Omin de, tinglagin-da men aylagan duoni!

[1] **Mutrib** — sozanda va xonanda.
[2] **Chir** — tugun, qayg‘u.
[3] **Amlokli pursafo** — safoga to‘la mulklar.

* * *

Ko‘rib so‘roqlamadi holim ul nigor nega?
Yuzin burishtirib oldimdan o‘tdi yor nega?

Sabab nadir, nima qildim – yomon munosabati,
Nafis xotiriga indi bu g‘ubor nega?

Sahardan oshig‘ining qonina tikibdur ko‘z,
Nega olindi qo‘liga bu zulfiqor, nega?

Tabassum aylasa, ko‘ngil kular sa’odatdan,
Uning labiga taalluq etar baror nega?

Ajin tushirsa agar qoshlari aro qahri,
G‘ijimlanar yuragim, g‘am qilar figor nega?

Yuzin evursa, jahonga tushar qarong‘ulik,
Na ro‘z qolga-yu na aql barqaror nega?

Agar bir on o‘zini bizdan uzsa yor dili,
Nega shu dam uzilar lutfi Kirdigor[1], nega?

Xato qilibman, o‘zidur magar Xudo lutfi,
Yo‘q ersa, husniga keldi bu dahr tor nega?

Liqo namoyishi gar bo‘lsa beg‘araz bir lutf,
Payambar ahli nechun keldi pardador[2], nega?

[1] **Kirdigor** — Yaratgan.
[2] **Pardador** — pardalangan.

* * *

Yorimiz, dildorimiz, bir jahon asrorimiz,
Ko‘rkli diydorimiz, gulladi bozorimiz!

Ko‘rdi bul kun holimiz, o‘tmish o‘ldi zorimiz,
Kambag‘almiz, sen o‘zing ganjimiz, dinorimiz!

Barchamiz tanbal, o‘zing nayzamiz, paykorimiz[1],
Uxlaganmiz jumla, sen davlati bedorimiz!

Sen davosan dardga, malhaming bemorimiz,
Biz – xaroba, sen esa bir saxiy me’morimiz!

Dedim ishqimga kecha: “Ey bizim ayyorimiz,
Yuz o‘girma, qilma rad, eltding dastorimiz!”

Ul javob aylab dedi: “Sen sabab bul korimiz,
Tog‘ misoli qaytarur o‘z ovozing borimiz!”

Dedim ulga: “Biz-ku tog‘, ul sado guftorimiz[2],
Chunki tog‘da ixtiyor o‘lmas, ey muxtorimiz[3]!”

Dedi: “Oldin tinglagin bir qadar asrorimiz,
Gar tuya ozg‘in esa, elta olmas borimiz[4]!”

So‘yladim: Bizdan ko‘tar bu saqil axborimiz,
Andalibsan, kuylagin mast o‘lib ash’orimiz!

[1] **Paykor** — urush.
[2] **Guftor** — so‘z.
[3] **Muxtor** — ixtiyorli.
[4] **Bor** — yuk.

Faxrimizdir borlig‘ing, borlig‘imiz — orimiz,
Ahmadu Siddiq uyi qalbimiz — bu g‘orimiz!

Ichmagay har qandayin bodani mayxorimiz[1],
Bul na qush? Shoh ilkidan yer taom, inkorimiz —

Etgay ul, tufroqqa yem aylatib murdorimiz[2],
Bul qafasni tark etar to‘tiyi zangorimiz!

Qayga qo‘nmoqni bilar ziyrak ul tayyorimiz[3],
Biz ketib bor etgasen yer uza osorimiz!

Sensizin bo‘ston aro xordir gulzorimiz,
Sen bilan zindon aro gulga do‘ngay xorimiz!

Otash ichra sen bilan nur bo‘lgay norimiz,
Sensizin rizvon aro nordir anvorimiz!

Sen sabab shahbozdir zog‘imiz ham sorimiz,
Bas qil, ortiq so‘ylama, ushbudir guftorimiz!

[1] **Mayxor** — may ichadigan kishi.
[2] **Murdor** — o‘limtik, jasad.
[3] **Tayyor** — uchadigan.

* * *

Qirog‘i adamlig‘ biyobonimiz,
Qarori nafaslig‘ dil-u jonimiz!

Jahon ichra topdi jahon naqshu rang,
Qayu naqsh bizning atalg‘onimiz?!

Kesik boshni ko‘rsang yo‘l uzra, tushun,
Yiqilganni tortar bu maydonimiz!

O‘shandan, o‘shandan so‘ra sirrimiz,
Ayon aylar ul bori pinhonimiz!

Ne erdingki, birdan chiqarding quloq,
Tutib do‘st tayri g‘azalxonimiz?

Ne erdingki, qushday chiqarding qanot,
Ilib roz tavqin Sulaymonimiz?

Ne dey, ne bilaykim, ne bul doston,
yetishmas anga haddu imkonimiz!

Dam urmak yarashmas, damodam batar[1]
Parishondurur bu parishonimiz!

Uchar teskari tog‘ havosi aro
Ajab, bozu[2] kaklik, zag‘izg‘onimiz.

Havokim, erur yetti aflok uza,
Aning avjida qoyim ayvonimiz.

[1] **Batar** — badtar.
[2] **Boz** — lochin, qirg‘iy.

Buroq bu hikoyatni, qilma talab
Ki, sindi qo‘l oni yozar onimiz!

Salohulhaqu din qilur, lojaram[1],
Seni husn ila shohu sultonimiz!

[1] **Lojaram** — nochor, shunhasiz, haqiqatda ham, oqibat, shunga ko‘ra.

* * *

Ravon-u jahonsan, Karimo[1], mango,
Nadir jon?! Qayoqdan qayoqlarga to?!

Nadir oshiq ahli uchun jon o‘zi,
Jahonni na deydi o‘zi avliyo?!

Ho‘kiz yelkasida emasdir zamin
Ki, yurgay ul o‘tlab tomorqang aro!

O‘shal korvon ichrasan, yer sharin
Ho‘kiz ortmoqlar, o‘zing rahnamo!

Erur qattiq ombori fazlingdagi
Bu donlar – tuyolmas yeti osiyo!

Seni ko‘rdi Naqqosh, esang-da nihon,
Na xush, sehru jodu, na xush, simiyo[2]!

Sening o‘n sakiz ming jahondan bo‘lak
Jahoning, na xush, kimiyo, kibriyo!

Degum o‘zga bir bayt, vaqtinchalik
Bo‘lur qarz shul qofiyada sango!

To‘lolgay uni, gar kim ersa faqir
Ki, faqr ul dengizkim, to‘la dur, vafo!

Baxillik badavlatga davlat qo‘shar,
Saxovat faqira, faqira saxo!

[1] **Karimo** — ey Xudo.
[2] **Simiyo** — o‘rta asrlar xurofiy ilmlaridan biri, sehr-jodu ilmi.

* * *

Muntazirdir quloq payomingga,
Jon ila tolib ul salomingga!

Jo‘sh urar shavq yurakda ko‘pirib,
Muntazir qaynagan bu jomingga!

Shunchalik shirinu shakarsanki,
Yo‘q talab don separga domingga!

Toju belbog‘ etur nisor tuman
Shohlar dalq[1] uchun g‘ulomingga!

Ishq boshlanmasida o‘y surdim,
Aql yetsin dedim tamomingga!

Bog‘lab olgin tuyang oyog‘iga, men
Qaydan etgum tama’ lajomingga[2]?!

Ulki, lutfingdan ichar sut, shaksiz,
Tob bermas sira fitomingga[3]!

Koshifi g‘ayb bul zabon haqi et
Bir musharraf mani payomingga!

Baski qasring badavlat, olisdan
Termularman havas-la tomingga!

Bosh agar sajdang aylab olgay sud[4],
Ne ziyon lutf ham nizomingga?!

Shams Tabriziy, erur bu diltang
Jon-u dil birla vola nomingga!

[1] **Dalq** — darvishlarni jundan to‘qilgan kiyimi, janda.
[2] **Lajom** — ot inoni.
[3] **Fitom** — go‘dakni sutdan chiqqarish.
[4] **Sud** — foyda, manfaat.

* * *

Bag‘rimizga kelibdi dilbarimiz,
Gulimiz asru[1] ko‘pu shakkarimiz!

Gulshakar ichramiz hamisha, turar
Ko‘ksimizda butun yuraklarimiz!

Tegramizda kezar har on Zuhra,
Ko‘nglini ovlab oldi lashkarimiz!

Biz falakka qanot ila uchamiz,
Chunki oid samoga javharimiz!

Osmon jismiga ifor ulashar
Xush sifatlar taratgan anbarimiz!

Gul-u nasrin-u arg‘uvonga to‘la
Yo‘llari kengu toza kishvarimiz!

Quvnatur, yashnatur jahonni nasim,
Tegsa anga dami munavvarimiz!

Ruh solgay havoyu zarraga ham
Damimiz, ishqi ruhparvarimiz!

G‘ayb durrin quloqlar ichra solar
Tilimiz — so‘zga usta zargarimiz!

Shams Tabriziy abrlarni yoqar,
Soyasidir mudom istarimiz!

[1] **Asru** — ko‘p, juda ko‘p.

* * *

Tur va sabuhiy[1] qilib, ayla salo[2],
Tur, sahar onidurur, etgil duo!

Kosaga quy, ko‘zaga may to‘ldirib,
Xumni ochib, chalma nag‘orang, ayo!

Davra yurit, avval uzatgil manga,
Tozala jonimni sen, ey jonfizo!

Bong solur chang falak uzra, tur,
To‘rt tomondan keladur ul sado!

“Tan-tan”ini tingla bu tantanningu[3],
Urma taningga, quvon, ey mahliqo!

Mayni quyib boshima, poband[4] qil,
Telbakezik tentimayin mutlaqo!

Ekting agar bizni, dengizdek azim
Kafting ila dur kabi suv quy mango!

Yorti tayoq erdimu, kafting tegib
Bo‘ldim, ayo Musiyi jon, ajdaho!

Pora tanim yig‘di daming, ey Masih,
Garchi yutib erdi vujudim fano!

1 **Sabuhiy** – sahardan ichilgan sharob.
2 **Salo** — chorlov, azon.
3 **Tantan** — musiqa asbobi.
4 **Poband qilmoq** — oyog‘iga band, arqon, zanjir yo kishan solmoq.

Yoki rasul amri bilan sudralib
Misli shajar keldim, ilinjim — falo[1]!

Ham ilinib, ham bilinib tur o‘zing,
Ey dahanu kafti madoru baqo!

Shoh o‘zi Tabrizga — sen, Shamsi din,
Jumla salotindan ulug‘, bebaho!

1 **Falo**(h) — najot.

* * *

Ne'mat etib baxsh chu paymonaga,
Qadr berib majlisu mayxonaga,

Mast qilib nargisi maxmurni,
Lutf qilarsan buti durdonaga!

Sen egalik aylamasang, yetmagay
Sabru chidam bu dili devonaga!

Tig' chiqar, tez bo'l, ey oftob,
Nur bag'ishla, qani, vayronaga!

Qofsan — ul maskani Simurg'ning,
Sham'san andoq tani parvonaga!

Har taraf och obi hayot aynini[1],
Ruh ato qil o'shal afsonaga!

Mast qil, ey soqiy-u, etgil asar
Kufrgar ushbu tani begonaga!

Bo'yla agar devni rom etmasa,
Ne jihat ul sog'ari mardonaga?!

Yorti yurak oldida nedir uning,
Sho'r solar yuz dili farzonaga!

Ertadan avlo bugun ersa yig'in
Ofati jon — fitnachi jononaga!

[1] **Ayn** — ko'z; chashma.

Yuz tuman ahd o'ldi ko'zingdan talaf,
Boda tutar soching, ajab, shonaga[1]!

Lahzaga chiq tomga, sanam, o'ynasin —
Zavq ber ul ustuni giryonaga!

Buki "Fatahno"ga ishorotu sharh —
Qulf degay sirrini dandonaga[2]!

Shoh degay, tinglasa nogah so'zim:
"Bas, yetishay suhbati shohonaga!"

[1] **Shona** — taroq.
[2] **Dandona** — kalit tishlari.

* * *

Uxlamasang tunda gar, ey mahliqo,
Yuzlanadi sen sari ganji baqo!

G‘ayb quyoshida isinsang, qilur
Tunda ko‘zingni tag‘in ul to‘tiyo!

Bu kecha rag‘maylayu, bosh egmagil,
Toki bo‘lur sanga saodat ato!

Jilva qilar jumla sanam tunlari,
Bilmadi uyqudagi ne “As-salo”!

Tunda magar ko‘rmadimi Musi nur?!
Ul shajar oldida — degich “Marhabo!”

O‘tdi tun o‘n yillik oshar yo‘lni u,
Ko‘rdi daraxt — ul sochar erdi ziyo!

Etdi axir tunda Muhammad uruj[1],
Quchdi Buroqi bila Arshu samo!

Kunda ishing, tunlari ishqing bilan,
Tegmasin aslo nazari bad sango!

Uxladi xalq, oshiq elin tun bo‘yi
Chorladi suhbatga o‘zi Rabbano!

Dedi Xudovand chu Dovudga:
“Kimki manga ishqin etar iddao,

[1] **Uruj** — yuksalish; Me’roj tuni nazarda tutilmoqda.

Uyquga do‘st ermas axir ishq azal,
Uxlasa tun chog‘i, ishonmam ango!”

Chunki erur ishq eli xilvattalab,
Mahrami to bo‘lsa faqat dilrabo!

Uxlamadi tashna magar bir qadar,
Tashna qayon, uyqu qayondan, ayo?!

Uxlamadi, ko‘rdi hamon tushda u
Nahrda suv yoki sabu, yo saqo[1]!

Tun bo‘yi Haqdan yetadi bir xitob:
“Damni g‘animat bil, uyon[2], benavo!”

Yo‘qsa o‘limdan keyin afsus - ishing,
Chunki bo‘lar jon badaningdan judo!

Ikki safar yoqdilaru, xom yer,
Pishgani yo‘q zarra tikonu giyo!

Keldim o‘z ilkingdan abad mulkiga,
Mastman, o‘zni tanimam mutlaqo!

Shamsi Haq, ey mafxari[3] Tabriz elin,
Yopdim og‘izni, kelu och qayta to!

[1] **Saqo** — suv ulashuvchi, suv beruvchi.
[2] **Uyonmoq** — uyg‘onmoq.
[3] **Mafxar** — iftixor.

* * *

Chorla o‘shal shohi shakarxonani,
Nur sochar gavhari durdonani!

Tengi topilmas go‘zal ul shohni,
Ko‘ngli yopilmas mahi jononani!

Ruh bag‘ishlab chirigan murdaga,
Mehr ila yashnatgay u begonani!

Barcha tikan bandiga gul to‘ldirur,
Oqil etar lahzada devonani!

Jo qiladi neki go‘dak aqliga,
Lol qilur fozilu farzonani!

Kimning erur tifli[1], qilursanmi rad
Xarxashaboz ustuni giryonani?

Mast qilar, shohi xarobot[2] etar,
Ulki yuritgay mayu paymonani!

Bexud-u beaql-u tag‘in mastman,
Yo‘q esa, maqtarmidim afsonani?

El bila tingla ani, tinglash zarur
Bo‘yla ajab naqli g‘aribonani!

Sindirar ul chehra dilin mohning,
Sindirar ul soch iki yuz shonani!

[1] **Tifl** — go‘dak, chaqaloq.
[2] **Xarobot** — xarobalar; maj. mayxona.

Kim deya olgay o‘sha ko‘z qissasin –
Fitnasi sehr ahliga ordonani!

Ko‘zlari ko‘rgayki, na sodir bo‘lur
To abad, ul uqsa bu peshonani!

Roz dema, bor, ajamiy et o‘zing,
Esla o‘shal xojayi shohonani!

* * *

Mehmoning o‘zim, ey jon, zinhor bu kech yotma,
Jon tutdi seni mehmon, zinhor bu kech yotma!

Badr o‘ldi jamoling chun, qadr o‘ldi butun bul tun,
Ey husn eliga sulton, zinhor bu kech yotma!

Ey yuzta chaman naxli[1], oromi xumor ahlin,
Olding nechalar qalbin, zinhor bu kech yotma!

Ey zavq ulashar bo‘ston, sensiz hama yer zindon,
Bori sangadur qurbon, zinhor bu kech yotma!

[1] **Naxl** — xurmo daraxti, nihol.

* * *

Ko‘zing yumma, qo‘nog‘ing bor bul tun,
O‘zing ruh-u quling bemor bul tun!

Chiqar uyquni asror aynidan, to
Bo‘lur paydo sanga asror bul tun!

Agar sen Mushtariysan, oyni davr et,
Kezib chiq gunbazi davvor[1] bul tun!

Qilib ov Nasri Toyirni[2] falakda
Misoli Jaf’ari Tayyor bul tun!

Sanga Haq berdi sayqal, hajr zangi
Ketib, to pok bo‘l zinhor bul tun!

Bihamdullahki, uxlar jumla mardum
Va Xoliq birlaman takror bul tun!

Na xush, shonu sharaf, bedor tole’
Ki, Haq bedoru men bedor bul tun!

Agar tongga qadar uyqu elitsa,
Ko‘zimdan bo‘lg‘amen bezor bul tun!

Agar bozor tindi, yaxshilab boq
Ki, Somon Yo‘lida bozor bul tun!

[1] **Gunbazi davvor** — aylanuvchi falak.
[2] **Nasri Toyir** — Attoir yulduzi.

Bilar kunduz tunimizni kavokib,
O‘shalkim, ko‘rsatur diydor bul tun!

Asad[1] chun hamla qilgay Savr[2] sori,
Atorud ham yoyar dastor bul tun!

Zuhal pinhona ekkay fitna tuxmin
Va sochgay Mushtariy dinor bul tun!

Tilim tiydim, sukut etdim, valekin
O‘zim go‘yo-yu, yo‘q izhor bul tun!

[1] **Asad** — beshinchi burj nomi.
[2] **Savr** — ikkinchi burj nomi.

* * *

Badnamolar dastidan dod, aylashar oydan niqob,
Botini xasdek haqiru, zohiri chun mohtob!

Panjayi Dajjol ichinda, tashda abdol[1] oyini,
Qalbida dom o‘g‘rilardan, shoh ramzidan xitob!

Pardaga burkanma, surma eshaging loy ustiga,
Toki loy ichra eshakdek botmagil xoru xarob!

Tashlasang non itga, avval iskab, andin so‘ng yegay,
Itmas, oxir shersan, ko‘p aylama nonga shitob!

Har ne murdor uzra ko‘rgach rang, deysan, jon budir,
Jonni izla, jonni top, qaydan bu rangu jon hisob?!

Sen — savol-u ehtiyoj, ayni javobing — dilrabo,
yetsa, mahv etgay o‘zi ichra so‘roqlarni javob!

Bir xitobi etdi paydo mayni suv tuzgan kabi,
Ham sharobi yutdi qayta suvni yutgandek sharob!

Ishva birla bo‘y cho‘zib u xuddi nur ichra olov,
Bosh egib sen bir xato yanglig‘ki, boshinda savob!

Garchi g‘oratgar[2] xazon to‘kdi chaman yaproqlarin,
Keldi ko‘klam shohi adli shaxt ila ochmoqqa bob[3]!

Nomalardir barglar, yozib yashil xatlar anga,
Sharhini ul xatning aylar “indahu Ummulkitob”[4]!

[1] **Abdol** — solih, Xudoga yaqin kishi.
[2] **G‘oratgar** — kishilar molini talon-taroj qiluvchi, yag‘mo qiluvchi.
[3] **Bob** — eshik.
[4] **Indahu Ummul kitob** — U yerda Lavhul Mahfuz.

* * *

O‘rtandi g‘amingda, dedi “yo Rab!”
Har tun falak asr-u zor yig‘lab!

Yosh to‘ksa kulib turib gar aflok,
yer jazbasidan erur bu, ag‘lab[1]!

Tufrog‘ uza tushganidan ul ashk
Xok anbarin o‘ldi, gardi tarqab!

Ko‘k yig‘larini ko‘rarda yuz bog‘
Kulgusi bo‘lubdurur muzahhab![2]

Men erdim-u charx kecha giryon,
Ul birla manga yagona mazhab!

Gar to‘ksa falak yoshin, na bo‘lgay?
Gul birla binafshalar murattab![3]

V-ar yig‘lasa oshiq, anda netgay?
Yuz mehr quchar o‘shal shakarlab!

Favvora bo‘lur yig‘idan ul ko‘z,
To solsin o‘shal nigor g‘abg‘ab![4]

Ko‘k yoshi-yu yer quvonchi bo‘ldi
Sen birla mening uchun murakkab!

[1] **Ag‘lab** — g‘oliban, ko‘pincha, aksar.
[2] **Muzahhab** — oltin suvi yugurtirilgan. Maj. tarovatli, tusi chiroyli.
[3] **Murattab** — tartiblangan, tizilgan; muhayyo qilingan.
[4] **G‘abg‘ab** — tomoq osti, bag‘bag‘a.

Bu yosh bila kulgumiz bo‘lubdur,
Beshubha, samar uchun murattab!

Boq jimgina, ne qilur namoyon
Olam talabi va dahri matlab!

* * *

Tun-u kun shavqingdadirman beqaror,
Tun-u kun boshim ayog‘ingda, nigor!

Tun-u kun Majnun bo‘lar dastimdan, oh,
Tun-u kunni qo‘ymagum xoli biror!

Istagaylar jon-u dil ushshoqdan,
Tun-u kun qilgum dilu jonim nisor!

Topgunimcha nedur ul mag‘zimda jo,
Tun-u kun boshim qasholmam, vaqt tor!

Boshlagandan beri ishqing kuychilik,
Tun-u kun gah changdirman, goh tor!

Chertasan mizrob birla, boradur
Tun-u kun gardunga bizning zeru zor![1]

Piri dayr, etding basharni subh mast,
Tun-u kun men ul xamir ichra xumor!

Ey, qo‘lingda jumla oshiq tizgini,
Tun-u kun ul saf ichinda men-da bor!

Tortaman mastona boring bexabar,
Tun-u kun yuk ostida men misli nor!

Ochmasang ro‘zamni qanding birla sen,
Tun-u kun to mahshar ochmam oni, yor!

[1] **Zer-u zor** — mayin ohang va nola-faryod.

Sinsa ro‘zam fazl dasturxonidan,
Tun-u kun manga hayitdir ro‘zgor!

Eyki, joning kun bilan tun jonidir,
Tun-u kun men intizoru intizor!

Kutmayin qo‘ygach u yillik iydni,
Tun-u kun oying bila men iydvor!

Iydi vasling va’da bo‘lgan tundan-o‘q,
Tun-u kunni tun-u kun songum qator!

Chunki jonim mehri naxli tashnadir,
Tun-u kun diydam buluti ashkbor![1]

[1] **Ashkbor** — ashk to‘kuvchi.

* * *

Ne qilsa oshiq ahli, misli zar o‘ldi bul tun,
Har bir hasud[1] joni ko‘ru kar o‘ldi bul tun!

Ezid[2] jamoli bahri amvojday[3] kezar mast,
Yo‘l gardi maqdamindan naqd anbar o‘ldi bul tun!

Ul birla yaxshi doim, lekin suyib Xudoyim
Biz boshqamiz, u – boshqa, ruh anvar o‘ldi bul tun!

Xob etma bul tun, ey dil, top qayda bo‘lsa manzil,
Pinhona boqdi nozir, ko‘z manzar o‘ldi bul tun!

Qayrilma ters, yoring yoningda, boq bu soring
Kim, bu tomon u yondan farq aylar o‘ldi bul tun!

Qo‘llovchi kelgan ersa, tut qo‘llarini, raqs et
Kim, davlat ilki – shoxi yashnab taro‘ldi bul tun!

Uyqu harom menga bul tun, Xudo haqikim,
O‘rdak misoli jonga yer Kavsar o‘ldi bul tun!

[1] **Hasud** — hasadchi, hasad qiluvchi.
[2] **Ezid** — Yaratgan.
[3] **Amvoj** — mavjlar.

* * *

Kelmish tag‘in falak tushida ko‘rmagan janob,
Keltirdi o‘tki, o‘chmagay, olamcha sepsang ob!

Xonam va xonim uzra nazar tashla, ishqining
Liq jomidan bu mast bo‘libdur ham ul xarob!

Mayxona sohibi yuragimga bo‘lib anis,
Qonim sharob qildi muhabbat, dilim kabob!

Gar to‘lsa ko‘z xayoli bilan, yangragay nido:
Bor bo‘l, ayo piyolayu kam bo‘lma, ey sharob!

Uchratdi nogahon yuragim ishq dengizin,
“Topgil, — dedi, — meni!” anga tashlab o‘zin shu tob.

Tabriz husni faxr quyoshi — bu Shamsi din,
Ergashgay abr dillar izidan, yurib shitob!

* * *

Shakarlab ul pariruxsor qandoq?
Ko‘zim nuri — ko‘zi xummor qandoq?

Ajab, ul g‘amzayi g‘ammoz[1] qandoq?
Ajab, ul turrayi tarror[2] qandoq?

Ajab, ul yaxshilar bozori naqshi,
Chamanning ravnaqi — gulyor qandoq?

Dilim motamga botmish mehr bois,
Ajab, dil mehrida dildor qandoq?

O‘ziga yor sondi lutfidin yor,
Ajab, ul — tutmagan bul yor qandoq?

Muayyan erkalatgay bandalarni,
Ajab, qilgay manga isror[3] qandoq?

Bag‘ishlab ilk ko‘rgan chog‘i jonim,
Ayon bo‘ldi — qilur isor[4] qandoq!

Agar qayta qilur bo‘lsang o‘shal lutf,
Bilingaykim, sening takror qandoq!

Ajab, ul zulfining atlas ro‘moli
Jamoli atlasin qurshor qandoq?

[1] **G‘amzayi g‘ammoz** — ko‘z ishoralari bilan, ko‘z-u qoshning harakati bilan qilingan noz.

[2] **Turrayi tarror** — g‘oratgar (o‘g‘ri, hiylagar) zulf.

[3] **Isror** — biror ish yo istakda barqarorlik.

[4] **Isor** — sochqilash, nisor qilish.

So‘rang oshiq elining hoziqidan[1],
Degay ul nargisi bemor qandoq!

Ajab, ul nofayi totor[2] qandoq?
Ajab, ul turrayi bulg‘or[3] qandoq?

Ajab, sobit bu aylanma chiziqda
Sinib yo‘q bo‘ldi yuz pargor, qandoq?

Meni zor o‘ldi bandi g‘am tubida,
Qiziqmaskim hanuz, ul zor qandoq!

Nazarga o‘g‘ri dil, ul bunga o‘g‘ri,
Ajab, o‘g‘ri to‘nar hamkor qandoq!

Sanga, ey do‘st, chun g‘or ulfatiman,
Boshing suq g‘orga, boq, g‘or qandoq!

Seni ko‘rgan zamon jonim socharman,
Qilurman xalqni nazzor, qandoq?

So‘zimga yo‘q nihoyat, lek qildim
O‘shal aytim kabi iqror, qandoq?

[1] **Hoziq** — ustod, mohir; xususan, tib ilmida as; mohir tabib.

[2] **Nofayi totor** — tatarlar istiqomat qiluvchi yerda yashaydigan ohu turining kindigi va unda hosil bo‘luvchi xushbo‘y modda; mushk.

[3] **Turrayi bulg‘or** — bulg‘or xalqi tang‘iydigan rangli bosh kiyim, dastor.

* * *

Ikki ohu chashminga sher o‘ljadir,
Kelgay andin menga yomg‘ir chog‘li tir!

Qoshi yosi birla kirpik o‘qlari
Jumla shohidkim, u — jonimga amir!

Halqa zulfidek buralgum, boisi —
Teng emasdir bo‘yiga mushku abir!

Shul sabab jonim o‘raldi zulfiga
Kim, yurak zulfi g‘uliga band, asir!

Sarvimizning sen naziri bor dema,
Xo‘bliqda oyimizdir benazir!

Men bu boshimni solarman ollida,
Garchi jonim oning ollida haqir!

Sajda qilgil shoh fikri aksiga,
Shoh fikrin bil haqiqatga vazir!

* * *

O‘shal dildordan dil bor maxmur,
Musaffo qonimizdan yor maxmur!

Xumori sinmagay qonimdan, ey xush,
Hazin dilni qilur bul kor maxmur!

Shafaqdayman saharlar qon ichinda,
Sahardan chunki ul xunxor maxmur!

Bo‘yinga qo‘yma qonim pand birla
Ki, yorim ko‘zlari bisyor maxmur!

Nechun bu xol qon to‘lmish qadahdek,
Solar ko‘z soqiyi asror maxmur?!

* * *

Gar do‘st xayoli naqshi paydo,
Bizga bori umr erur tamosho!

Bor qaydaki do‘stlar visoli,
Vallohki, xona sathi — sahro!

Ul yerdaki, dil muroda yetdi,
yetmas tikaniga mingta xurmo!

Gar ko‘yida uxlasak ul oyning,
Par ko‘rpa-to‘shak bo‘lar Surayyo!

Gar zulfiga chirmashursak oning,
Qadr oqshomi qadr o‘lur muhayyo!

Tovlansa aning jamoli aksi,
Bo‘lgay yer-u tog‘ harir-u debo[1].

Gar so‘rsak iforini sabodan,
Yangraydi saboda changu surno[2]!

Tufroqqa yozar esak gar otin,
Har zarra turob — huru havro[3]!

Otashga fusun o‘qusak ondin,
Suv tusli olov bo‘lur huvaydo!

[1] **Hariru debo** — nafis shoyi mato, shoyidan tikilgan bejirim libos.
[2] **Surno** — surnay.
[3] **Havro** — hurlar; qora ko‘zli chiroyli ayol.

Qissa, netayin, adamga cheksak
Nomini, bo‘lur vujud barpo!

Ul nuktaki, joy olibdur ishqi,
Javzodan erur samarda avlo!

Ishq aylagan onida tajalliy
Yo‘q bo‘ldi arodan ushbu g‘avg‘o!

Jim bo‘lki, tamom xatm bo‘ldi
Kim, bori murod — Haq ta’olo!

Forschadan ***Alisher Sabriy*** *tarjimalari*

RUBOIYLAR

1

Ay dil, ko‘zingni och, jahon o‘tgusidir,
Umring bu jahonda roygon o‘tgusidir.
Tan manzilida mahbus-u g‘ofil qolma,
Manzil osha manzil karvon o‘tgusidir...

2

Jonim berayin, ol uni, jondin kechma,
Dildan kechmayin, ol, u jahondin kechma.
Sen o‘qsan-u men esam kamonmen hanuz,
Ey o‘q, sabr ayla, kamondin kechma...

3

Ko‘nglim dudi bir nishoni savdo, ey dil,
Har lahza u dud ko‘ngilda paydo, ey dil.
Qonlar necha mavj urar mening bag‘rimda,
Toshgaymu edi bo‘lmasa daryo, ey dil...

4

Ko‘nglimni sanamga mubtalo istarmen,
Jonimga necha tiri balo istarmen.
Ko‘yingda agar kechmasa umrim, sanamo,
Qonlar yutadirman-u qazo istarmen...

5

Dedimki ko‘zim, dediki, Jayhun etgum,
Dedim: yuragim, dediki, purxun etgum.
Dedimki, tanam, dediki, uch kundan so‘ng
Rasvo qilibon, badarg‘a, surgun etgum...

6

Soqiy quyadir bodai humro, na qilay?
Gar bo‘sa talab aylasa jono, na qilay?
Iqboli visol hozir ekan, kutmasmen,
Kutmoqqa yana bo‘lsa ma’no, na qilay?

7

Mayling, malagim, xo‘blik esa, xo‘bing o‘zim,
Jang qilsang agar, qo‘lingdagi cho‘bing o‘zim.
O‘ldirsang agar ranj ila, Ayyubing o‘zim,
Ey Yusufi ro‘zgor, Ya’qubing o‘zim...

8

Sendanmi chu bezor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!
Bir boshqasiga yor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!
To bog‘i visolingda faqat gul ko‘rdim,
Guldin kechibon, xor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!

9

Ko‘nglim havasing bila rubobdir, rubob,
Har porasi o‘rtanib kabobdir, kabob.
Diltorki dardimga boqib xomushdir,
Xomushligi menga ming javobdir, javob...

10

Majnuni parishoning o‘zim, ilkim tut,
Sargashtavu hayroning o‘zim, ilkim tut.
Har holi xarobda bir madadkor bo‘lgay,
Ul besar-u somoning o‘zim, ilkim tut...

11

Ey sarvi ravon, hech xazonliq ko‘rma,
Ey chashmi jahon, hech yomonliq ko‘rma.

15 - 22-322

Ey jon, ki jon der seni osmon-u zamin,
Rohat bori ko‘rgilki, ziyonliq ko‘rma...

12

Ey bongi rubob, ko‘yingda tobim bordir,
Bag‘rimda mening-da bir rubobim bordir.
Chetlab o‘taverma, kir, aziz mehmon bo‘l,
Mehmonni kutishga bir xarobim bordir...

13

Ey bosh, sabab senda, sabab senda, sabab,
Ey tan, ajab senda, ajab senda, ajab.
Ey dil, talab senda, talab senda, talab,
Ey jon, tarab senda, tarab senda, tarab...

14

Yuzingga boqib yuzlari gulshan erdim,
Ko‘zingga boqib ko‘zlari ravshan erdim.
Dedimki, yiroq tutay yomon ko‘zlardin,
Yoningda yomon ko‘zli magar man erdim?..

15

Ey jon-u jahon, jon-u jahonim qayda?
Ey oy, zamin-u osmonim qayda?
Sen mayni qo‘limgamas, labimga tutqil,
Mastlik bilan bilmasam: dahonim qayda?

16

Jonon keladir chamanda tanho-tanho,
Nargis ko‘zi purxumor-u ra’no-ra’no.
To‘sdim yo‘lini, dedimki, bir bo‘sa olay,
Faryod solib, haydadi: yag‘mo-yag‘mo!..

17

Har lahza g‘aming chekib, g‘aming olgaymen,
Har lahza g‘aming bila yana qolgaymen,
Harchandki g‘aming chekib-chekib jon berdim,
G‘am ulki, g‘aming chekib-chekib, tolgaymen...

18

La’ling, sanamim, hamisha xandon bo‘lgay,
Oshiq sen ila xurram-u shodon bo‘lgay.
Har kimsa seni ko‘rsa-yu gar bo‘lmasa shod,
Baxt yuzini ko‘rmagay u, sarson bo‘lgay.

19

Jonimki, harif erdi, begona emish,
Aqlimki, tabib erdi, devona emish.
Vayronaga shohlar berishar ganj, ajab,
Vayrona dilim ganj ila vayrona emish...

20

Men o‘lsam agar, boshimda giryon bo‘lmang,
Jononima topshiring-u nolon bo‘lmang.
Jonsiz u labimga lab qo‘yib jononim,
Jon menga ato aylasa, hayron bo‘lmang...

21

Ey munisi ro‘zgor, nechuksan mensiz?
Ey hamdam-u g‘amguzor, nechuksan mensiz?
Men bori xazonman-u xarobman sensiz,
Ey yuzlari gulbahor, nechuksan mensiz?

22

Xurshedi kamarbasta fidoying bo‘lsin,
Ul oy, jigarxasta fidoying bo‘lsin.

Ul sarv-u guli rasta fidoying bo‘lsin,
Bu jon senga payvasta, fidoying bo‘lsin...

23

Men zarravu xurshedlik oyim sensan,
Bemor g‘amingman-u davoyim sensan.
Uchmoqqa qanot yo‘q vale uchgaymen,
Somon bo‘libman, kahraboyim sensan...

24

Dedim, sanamo, magarki jononim o‘zing,
Jonimni nisor etay senga, jonim o‘zing,
Murtad bo‘layin, agarda tushsam ayru,
Ey jon-u jahon, kufr ila iymonim o‘zing...

25

Xushdirki bugun jisming aro jon bo‘lsa,
Qarshingda dag‘i bir ruhi jonon bo‘lsa.
Bulbul kabi dilda dog‘i hijron bo‘lsa,
Maskan senga erta-kech guliston bo‘lsa.

26

Derlar: hama ishq havoyi nomdir, yolg‘on,
Derlar yana: ishq umidi xomdir, yolg‘on.
Baxt yulduzi ko‘kdamas, shu jonimda yashar,
Derlarki, balandlik necha tomdir, yolg‘on...

27

Gar bo‘lsa umr, boz bergaydir xudo,
Gar umri fano bo‘lmasa, naqd umri baqo.
Ishq obi hayot erur, uning mavjiga kir,
Har qatrasi bir hayot emish, senga fido...

28

Dunyoki Iso bilan ekan molomol,
Sig‘mas anga hech qachon matoi Dajjol.
Sho‘roba — taxir suv degani kimga kerak,
Ko‘p ersa jahon ichra agar obi zilol?

29

Ey oy, chiqib kelding-u tobon bo‘lding,
So‘ng sayri falak etib, xiromon bo‘lding.
Bildingmi keyin, jonga barobar bo‘libon,
Nogoh botib ketding-u pinhon bo‘lding...

30

Ey, senki yasharsen, shod-u xurram bo‘lgil,
Har yerda yana aziz-u mahram bo‘lgil.
Umringni halol-u pok kechir, ilm o‘rgan,
To zebi bashar, ziynati Odam bo‘lgil...

31

Umr o‘tdi-yu ko‘rmadim vale gulzoring,
Ul nargisi purxumoring-u xummoring,
Xalqdan chu vafo kabi magar pinhonsen,
Ko‘p bo‘ldi-ku ko‘rmadim pari ruxsoring.

32

Ishq bo‘ldi, ko‘ring, hamisha damsoz menga,
Dunyo ishidan etmadi og‘oz menga.
Jonim beradir ichimdan ovoz menga,
Och menga eshikni, deb qilur roz menga.

33

Kun o‘tdi-yu kun keldi, xarobman xarob,
Qo‘y har neki andishani, ol qo‘lga rubob.

Yuz qatla namoz durur, yuz qatla sujud —
Gar do‘st jamoli senga ersa mehrob.

34

Men oshiqi ishqman-u musulmon boshqa,
Men zaif chumolimen, Sulaymon boshqa.
Mendan alam-u oh-u jigarpora so‘ra,
Bozorchai qasabfurushon boshqa...

35

So‘rdimki, qayerdadir, nigoro, xonang?
Dediki, dilingdir ul — o‘shal vayronang —
Vayronaga men, quyosh, nechuk kirgaymen?
Ey, mast, xarob bo‘lgay ul koshonang!

36

Laylimki nahor bo‘lmasa, men na qilay?
Baxtimki bahor bo‘lmasa, men na qilay?
Dedimki, ichay bodani sen birla, sanam,
Iqbol menga yor bo‘lmasa, men na qilay?

37

Kelmish menga bir ajab shikorim, na qilay?
Boshimga tushibdir ul xumorim, na qilay?
Zohidman o‘zim vale meni yo‘lda ko‘rib,
Gar bo‘sa berar bo‘lsa nigorim, na qilay?

38

Nafsim itini, dedimki men, pir aylay,
Tavba ipidan bo‘yniga zanjir aylay.
Har yerda harom ko‘rib vale ul ko‘plak
Zanjirni uzar bo‘lsa, ne tadbir aylay?

39

Jon boricha bir bandai marjoning o‘zim,
Oshuftayi ul zulfi parishoning o‘zim.
Ey nay, paro aylaki, afg‘oning o‘zim,
Ey chang, jaranglagilki, mehmoning o‘zim.

40

Gar baliq esang, suzgali daryoying o‘zim,
Gar ohu esang, kezgali sahroying o‘zim.
Men senga asirman-u sen — menga nafas,
Surnoying-u, surnoying-u, surnoying o‘zim...

41

Ey oy, agar samoda porloq nursen,
Yorim yuzicha ravshan emas, benursen.
Ey, nargis, agarchi toza-yu maxmursen,
Yorim ko‘zicha xumor emas, ma’mursen.

42

Dedimki, ko‘yingda men bugun devona,
Uyqumda ko‘rarmanmi seni, jonona?
Dediki, gapirma, bas! Bu ne afsona!..
Devona-yu uyqu! Yasha, ey farzona!..

43

Oy ketdi balandlab, biz esa past bo‘ldik,
Yor hushiga keldi, biz esa mast bo‘ldik.
Ey jon-u jahon, so‘ngra nelar bo‘lganini
Sen so‘ylama, chun har neki bo‘lmas, bo‘ldik...

44

Boshimni hamisha ostingga qo‘yay,
Ko‘nglimni sochingga — o‘ynagoningga qo‘yay.

Jon og‘zima keldi, hoy, o‘zing lab tutgil,
Jonimni qulay qilib dahoningga qo‘yay...

45

Ishq nash’asi bu kecha mudomdir, mudom,
Jomu mayi la’l bizga davomdir, davom.
Oh-u g‘am-u andisha — haloldir, halol,
Qo‘y, uyquni o‘ylama — haromdir, harom...

46

Ishq — avji kamol emish, sanam — avji jamol,
Ko‘ngil to‘la so‘z-u so‘z, til aytgali lol.
Voy, menga yoronlar, bu ne holdir, bu ne hol?
Men tashna-yu oldimdan oqar obi zilol...

47

Vaslingni tilab xasta-yu zormen kun-u tun,
Ishqing mayi birla beqarormen kun-u tun.
Mastlarga xumor aslida bir kun bo‘lgay,
Men mastin ko‘ringizki, xumormen kun-u tun...

48

Dil ketdi-yu aytdi: “Yor savdosi uzun”,
Tun keldi-yu aytdi: “Zulfi ra’nosi uzun”.
Sarv keldi-yu aytdi: “Qaddi bolosi uzun”,
Hoy, umri uzun, desang-chi, dunyosi uzun!..

49

Dil dardini oshkor-u pinhon aytar,
Zulf ersa, hadisni anbarafshon aytar.
Ul — oshufta-yu bul esa — parishon, ma’lum,
Oshuftaki so‘z aytsa, parishon aytar...

50

Lutfing bila tosh porasi jonona bo‘lur,
Nutqing, sanamim, agarda mastona bo‘lur.
Nogoh iki zulfingni ko‘rar bo‘lsa, ishon,
Luqmoni Hakim oshig‘i devona bo‘lur...

51

Zinhor, dilo, yaqin yo‘latma g‘amni,
Suhbatga muyassar etma nomahramni.
Non birla ko‘katga-ku qanoat qilding,
Ko‘katga alishma endi shu olamni.

52

Ey, lola, yuzimga termulib, rang o‘rgan,
Ey, Zuhra, dilim taloshidin jang o‘rgan.
Ul lahzaki yangrar esa ohangi visol,
Ey, baxti abad, kelgil-u ohang o‘rgan...

53

Ey do‘sti azizlarim, judolik etmang,
Ko‘p hoy-u havas birla xatolik etmang.
Bir jumlada so‘zlar kabi mardona turing,
Amr o‘ldi vafoki, bevafolik etmang...

*Forschadan **Jamol Kamol** tarjimasi*

1

Yashnab, ochilib, menga qarab keldingmi?
Makringni tabassumga o‘rab keldingmi?
Ul kun ketib erding-ku olib qalbimni,
Bul kun yana jonimni so‘rab keldingmi?

2

Ishq ul — toki xalq uchun saodat bo‘lsin!
Ishq ul — bu saodat to qiyomat bo‘lsin!
Ul ishq meni tug‘di aslida — ona emas,
Ul onaga ming tahsin-u rahmat bo‘lsin!

3

Biz oshiqi ishqmiz-u, musulmon boshqa,
Biz zaif chumolimiz, Sulaymon boshqa.
Bizdan so‘ra kuygan dil-u somon yuzni,
Kim savdo qilar mol bila — do‘kon boshqa.

4

O‘tgan kecha men erdim-u, jon mahrami boz,
Mendan hama zor erdi-yu, undan hama noz.
Tun o‘tdi-yu, yetmadi biroq so‘nggiga so‘z,
Tunda ne gunoh, bo‘lsa uzun dildagi roz?![1]

5

Ul yor havasida dil rubobdir, rubob,
Ishq o‘tida qovrilib kabobdir, kabob.
Dardim eshitib, etsa sukut dildorim,
Shul jimligi menga ming javobdir, javob.

[1] Bu ruboiy Abusaid Abulxayrga ham nisbat beriladi.

6

Qil yaxshilik — yaxshilikni bilgay dunyo,
Poydordir u yaxshilik tufayli tanho.
Mol qoldi-ku hammadan, qolar sendan ham,
Qoldirdi baxil — mol, yaxshilikni — dono.

7

Ishqing o‘tidan jo‘shgusi yoshlik qoni,
Ko‘ksimda jamoli jonlanar Layloni.
O‘ldirsang agar o‘ldir — haloling bo‘lsin,
Yor qo‘lida o‘lsa, boqiy oshiq joni!

8

Ishqingda g‘am ichra ushladim ko‘ngilni,
Har lahza izingga boshladim ko‘ngilni.
Yel menga olib keldi bugun bo‘yingni,
Shukr etdim-u, yelga tashladim ko‘ngilni.

9

Olamda vafosi yo‘q kishi kam bo‘lsin!
Har bir kuni bevafoni(ng) motam bo‘lsin!
Yod etmadi g‘amdan o‘zga hech kimsa meni,
Ming tahsin-u rahmat senga, ey g‘am, bo‘lsin!

10

Nogoh eshigim hatladi ul dilbari mast,
Ultirdi, may ichdi, ushalib mangu havas:
Yor sochini ko‘rib va tutib, oh, u nafas,
Aylandi yuzim ko‘zga, ko‘zim qo‘lga abas.

11

Diltangman-u, diydori erur darmonim,
Oydek yuzi bo‘lmasa, zamon — zindonim.
Hech dilga yaqin kelmasin-u, hech tanga —
Ul qayg‘uki, hijronida topdi jonim.

12

Bizning bu azoblarga sabab tama’i xom,
Halqum g‘ami, hoy-u havas-u hirsi harom.
Ko‘z tashla-yu to‘rqovoqqa, fikr ayla: mudom —
Bir don ila qush qismati hal bo‘ldi — tamom!

13

Jon menga habib edi — begona emish,
Aql menga tabib edi — devona emish.
Vayronaki bor, ganj ila bo‘lgay obod,
Vayrona dilim ganj ila vayrona emish.

14

Har so‘zi bilan kishini yor o‘ldirgay,
G‘amxo‘rligi seni necha bor o‘ldirgay.
Do‘st tutma meni, mayliga, dushman sana,
Kim dushmanini shunchalik zor o‘ldirgay?!

15

To tushdi sening yuzingga bir lahza ko‘zim,
Qon yig‘lamagan kunimni bilmayman o‘zim.
Sensiz may ichar esam — zahar bo‘lsin o‘sha,
Sensiz yashasam — kelsin o‘lim menga shu zum.

16

Yor yodini qilsam, yuragim gup-gup urar,
Har lahza ko‘zimdan qonli yosh to‘kilar.
Har yerda agar yor xabari menga yetar,
Bechora dilim qush kabi ko‘ksimdan uchar.

17

Kelgan edi kecha lutf etib dildorim,
Men tunga dedim: “Aylama fosh asrorim”.
Tun qildi javob: “Bo‘lsa quyosh sen birla,
Men tongni olib kelay qayoqdan, yorim?!”

18

Bo‘ston-u bahor-u sarvi oli(y), ey jon,
Hech yerda buning bormi misoli, ey jon,
Yop asta eshikni-yu, yuzing och, ey jon.
Men borman-u, Sen ham xona xoli, ey jon!

19

Ey, sulton-u faxri hama dildorlarning,
Jolinusisan ishq ila bemorlarning.
Biz jam’ bo‘lamiz ul Kuni bo‘stoningda,
Jam’ bo‘lgani soz emish u Kun yorlarning.

20

Kun keldi — sening g‘avg‘ong uning qoshinda,
Tun keldi — sening savdong uning boshinda.
Menman — o‘sha: dardim yukini tortolmas,
Tun-kun degan ikki lang eshik ochunda!

21

Bir gavhar edik azalda, jono, sen-u men,
Oshkor-u nihonimiz bir — oshno sen-u men,
Xomlik bo‘ladi, desang, bu asno: sen-u men,
Ko‘r: qolmadi-ku o‘rtada aslo sen-u men?!

22

Oshiqqa yog‘ar dunyoda bor dard-u balo,
Har kimki giriftori ishq — yo‘q unga davo.
Darmon emas ishqqa na xasislik, na riyo,
Ishq ersa haqiqiy na vafo-yu, na jafo.

23

Bu tang dil aro sho‘r-u hayajon nimadan?
Ishq ichra qadim egik, ko‘zim qon nimadan?
Ko‘ksim ichida telba dilim ham tun-u kun
Janjal qiladi men ila har on nimadan?

24

Ey tun, shodsan, menga-da shodlik ber mo‘l,
Sen umri uzoqlikda qiyomat kabi bo‘l!
Yor suvratidan o‘t ichra qolmish yodim,
Yod aylama, ey g‘am, meni — bo‘lgaysan kul...

25

Ishq dardiga dilni mubtalo istarman,
Jonni u balo o‘qiga jo istarman.
Umrimki, ko‘yingda oh urib o‘tmasa gar,
Dil qoniga botgancha qazo istarman.

26

Yor kelar erdi mast-u tanho-tanho,
Ko‘zi to‘la noz-ishva-yu ra’no-ra’no.
To‘sdim yo‘lini bo‘sa olay, deb labidan,
Faryod ko‘tardi o‘sha: “Yag‘mo-yag‘mo!”

27

Tundan murod ulki, mahv o‘lib begona,
Xilvatda qilar vasl oshiqi farzona.
Bul kecha, chunonchi, xos-u oy — hamxona,
Men — mastman-u, oy — oshiq-u, tun — devona.

28

Ey boda, o‘zing adlni bunyod etasan,
Bir jom ila ming bandani ozod etasan.
Sen borki, mudom ko‘zim quyoshdek ravshan,
Sen borki, sitamga to‘lsa dil — shod etasan.

29

Sen har kecha tushimda bo‘larsan paydo,
Tong otdimi, bas, kun bo‘yi dilda g‘avgo.
Fil bandini uzdi tush ko‘rib Hind elini,
Fil toqati bizlarda topilmas aslo.

30

Ko‘zingdan o‘lim topg‘usi ming bir dildor,
O‘ldirgusi oh-nola ila hammani zor.
O‘z dushmanini dorga osadi shohlar,
Bedor ko‘zing esa o‘ldiradi be dor.

31

Ishq ichra pisand ermas ming bir dil-u jon,
Jon o‘zi ne, so‘zin eslamas hech inson.
Bu yo‘lni o‘tarda har qadam bossa kishi,
Yuz jon berar-u, ortiga boqmas bir on.

32

Ko‘nglimda o‘shal suluvni to suvrati bor,
Olamda topilmas men kabi baxtiyor.
Shodlikdan o‘zga bir hayotni bilmam,
G‘amni eshitib, ko‘rmadim o‘zin zinhor.

33

Lutf etsa chaqir toshga — u jonona bo‘lar,
Bir lahzada ishvalari mastona bo‘lar.
Qo‘sh kokilining zanjiri zohir o‘lsa,
Luqmoni Hakim majnun-u devona bo‘lar!

34

Ustingdagi kim — bilarmisan, ey eshshak?
Charx uzra oyoq qo‘y — u paridir beshak.
Oftobni uyaltirar edi husn ichra
Umring bo‘yi sen ko‘targaning nozli malak.

35

Bir joni samandarvash yorim bordir,
Ishqi otashida xush qarorim bordir.
Quy lablarining bodasidan, ey soqiy,
Undan mening, oh, ajab qarorim bordir!

36

Sen boqma nechog‘lik zufunun kelgay mard,
Boq: ahd-u vafo ichra nechun kelgay mard?
Gar ahd-u vafo ichra butun kelgay mard,
Har qanchaki maqtasang, fuzun kelgay mard.

37

Yellardan uning payg‘omini eshitaman,
Ul bulbuli mastdan nomini eshitaman.
Bir naqsh dil eshiginda ko‘rdim — tutmish
Ovozasi dunyo tomini… eshitaman.

38

Hamrohim ekan yor surati to, ey dil,
Bir umr ishim bo‘lar tomosho, ey dil.
Har qaydaki, dil murodi hosil bo‘lmas,
Ming xurmosidan bir tikan a’lo, ey dil!

39

Monandi hilol bul kecha har dilda talab,
Qilmoqchi u ham Zuhra kabi aysh-u tarab.
Keltirdi jonim labga u jon berguchi lab,
Bul tun nima tun — o‘zing bilarsan, yo Rab?!

40

Kim kam yesa, u ziyrag-u hushyor bo‘ladi,
Kim ko‘p yesa, u ablah-u bekor bo‘ladi.
Nafsiga ruju, qo‘ysa kishi xor doim,
Har kimsaki, kam yesa, u kam xor bo‘ladi!

41

Dil ichra, dilovarim, dilafro‘z sensan,
Ko‘p do‘st-u yaqinlar vale dilso‘z sensan.
Navro‘z-u hayit shavqi bilan shod kishilar,
Bul kun men uchun hayit-u Navro‘z sensan!

42

Har narsaki, ko‘p bo‘lsa agar xor bo‘ladi,
Xor bo‘lsa, muhabbatga sazovor bo‘ladi.
Kim qone’ — jahondan o‘sha bezor bo‘ladi,
Yor jon bahosida xaridor bo‘ladi.

43

Ovozi mudom dilda tamanno bo‘lsin!
Ovozi mudom quvnog‘-u go‘yo bo‘lsin!
Ovozi agar xasta esa — xastamiz-ey,
U misli qamish shakarga oshno bo‘lsin!

44

Eslab seni mast o‘ldi dilim, jonona,
Ichmay mayini sindi tushib paymona.
Chiqdim ko‘chaga na hushyor, na mastona,
Ovoza taraldi bo‘ldi deb devona.

45

Bir-birlaridan qafas-u qushlar ozod,
Qaydansan-u, ey qush, ayt, nimadansan shod?
Kelmoqda baqo nafasi har nolangdan,
Bo‘sh kelma, kuying dilimni etdi obod.

46

“Devona!” — deding sen meni, ey jonona,
“Devonadan aql izlasa kim, devona!”
Deding: “Bu muomala nedan nishona?”
“Ko‘zgu kabi borni ko‘rsatar devona!”

47

Ko‘zingga boqib, ko‘zishda kin ko‘rgayman,
Endi ne qilayki, men chunin ko‘rgayman.
Oftobni qo‘y, u ko‘kda — senga teng kelmas,
O‘zingni men oftobi zamin ko‘rgayman.

48

O‘lsam, sira yig‘lamang tutib ismimni,
Yorimga berib qo‘ying mening izmimni.
Bo‘lmang sira hayron — o‘sha bir bo‘sa bilan
Tirguzsa mening bu sovugan jismimni.

49

Ul yorki, meni o‘z g‘amiga bog‘laydi,
So‘ng pisand etmay, yuragim dog‘laydi.
G‘amgin ekanim ko‘rsa u pinhon-pinhon
Ham shirin-shirin kulib dilin chog‘laydi.

50

Ushshoq gurungida qaror o‘zgachadir,
Bu sevgi sharobida xumor o‘zgachadir.
Ul ilmki, madrasada bo‘lmish hosil,
Bas, o‘zga-yu, ishqi gul’uzor o‘zgachadir.

51

Bul kecha men-u, men kabi bir ahvoli tang,
Bog‘ ichra tuzib davra, unga berdik rang.
Bor bunda sharob birla kabob hamda rubob,
Koshki bari yo‘q bo‘lsa-yu, Sen bor bo‘lsang!

52

Yo‘lida niyozning fard bo‘lmoq lozim,
Payvasta harifi[1] dard bo‘lmoq lozim.
Mardlik sanalmagay vasl izlab chopmoq,
Hijron kunida ham mard bo‘lmoq lozim.

53

Bayt-u g‘azalim suv oldi — girdob oldi,
Bor bo‘lsa nimam — barini selob oldi.
Yaxshi-yu, yomonligim-u, pokizaligim
Mohtob berib erdi-yu, mohtob oldi.

54

Ishqingda bo‘libman chinakam devona,
Uyqumni buzar qo‘sh kokiling, jonona.
Ul dedi: “Yetar, so‘ylama ko‘p afsona,
Devonadan uyqu bo‘ladi begona!”

55

Nay so‘yladi: men hur edim aslida — biroq,
Ishratpeshalar urdi-yu bag‘rimga pichoq,
Yetkazdi ular tanga — zaxm, jonga — firoq,
Ayb etma shu bois yig‘lasam gohi uzoq.

[1] **Harif** — o‘rtoq, ulfat, sherik; dushman, raqib.

56

Dildor zarifdir — gunohi shuldir,
Zebo-yu latifdir — gunohi shuldir.
Bormi sira aybiki, qochurlar undan?
Ul aybdan afifdir[1] — gunohi shuldir.

57

Yo‘q sevgidan o‘zga bir hamroz menga,
Avval — O‘zi, oxir — O‘zi, ustoz menga,
Ichdan beradi bu jonim ovoz menga:
“Ey sevgida sustkash odam, bo‘l mos menga!”

58

Jono, bu qadim sifatin ul qoshdan so‘r,
Oshuftaligimni zulfi qalloshdan[2] so‘r.
So‘r xasta dilim holini tor og‘zingdan,
Bemorligim ul nargisi beboshdan so‘r.

59

Tinglab ovozingni men xushovoza bo‘lay,
Alloh karami kabi beandoza bo‘lay.
Yuz bor sotib olding, holbuki, mulkingman,
Bir bor sotib olki yana, to toza bo‘lay.

60

Soz do‘sti munofiqdan uzoqroq yursang,
Yori nomuvofiqdan uzoqroq yursang,
Xoki poyini o‘pib muvofiq yorning,
Ul xeshi munofiqdan uzoqroq yursang.

[1] **Afif** — bu yerda: ayblardan xoli, iffatli, pokdomon.

[2] **Qallosh** — hiylagar.

61

Men uyquda ko‘rdim soqiyi zeboni,
Tutmish qo‘lida u sog‘ari sahboni[1].
So‘z o‘tdi ko‘ngildan: “Garchi qulsan unga,
Kosh xojasi bo‘lsang oshiqi rasvoni”.

62

Umr o‘tdi ko‘rolmay orzuli gulzorin
Ham noz-u karashmali ko‘zin — xummorin.
Eldan yashirin emish o‘shal misli vafo,
Ko‘p bo‘ldi ko‘rolmadik nihon ruxsorin.

63

To yondi yuzing sham’i-yu, parvona bu jon,
Ko‘yingda bo‘lib sabr ila begona bu jon.
Ko‘z mardumi beqaror jamoling bois,
Ko‘rgan kabi bir parini devona bu jon.

64

Ul yori sitampesha safar etgaydir,
Charxdek meni ham zer-u zabar etgaydir.
Ul sher-u shikoriman men ilkida uning,
Dilni yedi-yu, qasdi jigar etgaydir.

65

Har zarra uchun havo-yu osmon mavjud,
Biz-chun hama yoq gulshan-u bo‘ston mavjud,
Zar yo‘lini garchi songida kon mavjud,
Har qatra bu — tilsim, unda Ummon mavjud.

[1] **Sahbo** — qizil may, oliy navli may.

66

Bedil — man-u, bedil — san-u, bedil — san-u man,
Sarmast edik ul kuni, manzil — chaman.
Umr o‘tdi-yu, men orzu qilarman har dam:
Eslarmi u kunni, deya, yor ham ba’zan…

67

Gar daryo esang, baliqman ul daryoda,
Gar sahro esang, ohuman ul sahroda.
Sen menga nafas qil — nafasing bandasiman,
Surnoying erurman, chunki bul dunyoda.

68

Kar qoshida soz xoh chal-u, chalma, baribir,
Hamxonasi bo‘lgan kabi Yusufni so‘qir.
Yo og‘ziga qand solsa kasalni — ne huzur,
Tanmahram etilsa yo hezalak bila hur.

69

Payvasta boshi sabz, labi xandon bo‘lsin,
Ushshoq dili ko‘rsa uni shodon bo‘lsin,
Har kimsa uni ko‘rsa-yu, hech bo‘lmasa shod,
Xor bo‘lsin-u, zor bo‘lsin-u, sarson bo‘lsin!

70

Ul yor ko‘yidan qachon judo bo‘lgaymiz,
Yig‘lab g‘am-u hasratda ado bo‘lgaymiz.
Ul sham’ kabi topib e’tibor ko‘z yoshidan.
Ul chang kabi manbai navo bo‘lgaymiz.

71

Har qayda sharob bo‘lsa, rubob hamda kabob,
Ul joyda xarob bo‘lsa, ne tong, g‘am va azob.
Gul, sabza kabi davra tutib suv bo‘yida,
Ey do‘st-u yaqinlarim, iching toza sharob!

72

Ko‘yingda menga nasihat-u pand na kerak?
Ishq zahrini totdim, yetar, qand na kerak?
El deydi: “Oyog‘iga uringlar zanjir”,
Telba — dil esa, oyoq uchun band na kerak?

73

Bul kun hama kundan-da xarobmiz, xarob,
Yop andisha eshigini, ol qo‘lga rubob.
Yuz turfa namoz unda, ruku’ hamda sujud,
Gar bo‘lsa o‘shal do‘st jamoli mehrob.

74

Yor uyiga bordim qilib ul kun qasd man,
Ul quvdi meni — bois emishki: mastman.
Dedim: “Eshigingni och, axir, mastmasman”.
Yor dedi: “Jo‘na, so‘zimda turgum, bas, man”.

75

Boz keldi-yu, xam zulfini keltirdi yana,
Ul sho‘r-u sharu[1] zulmini keltirdi yana.

[1] **Sho‘ru shar** — fitna-yu fasod, g‘avg‘o, to‘polon.

Ul oyki, Zuhrani alam qildi nigun,
Tur, u alam-u[1] tablini[2] keltirdi yana.

76

Ul yor qo‘lidan zahar-da no‘sh etsa bo‘lar,
Achchiq so‘zini shakarga esh etsa bo‘lar.
Ko‘p tuzli emish so‘zlari — har yerda agar
Tuz bo‘lsa, jigar yeb, dilni xush etsa bo‘lar.

77

Dardimni tabibisan o‘zing, ey jonon,
Yetdi kasalim haddiga — bormi darmon?
Vallohki, ichirsang-da menga ming ma’jun[3],
Bir ko‘rmasam orazing, berolmayman jon.

78

O, achchiq u so‘zlar etdi ko‘p dilni xira,
Insof bila ayt, u tilga loyiqmi sira?
Aytmas sira shirin labi achchiq so‘zni,
Sho‘r baxtim ularni aylagan beshira.

79

Oshiq emas ul, bo‘lmasa yengil chun jon,
Yulduz kabi tun oy yonida sargardon,
Kel, tingla meni, so‘zlarim ermas yolg‘on,
Yel esmasa, bayroq hilpirarmi hech on?..

[1] **Alam** — bayroq, tug‘.
[2] **Tabl** — nogora.
[3] **Ma’jun** — dori; sharob.

80

Ul lahzaki, yor ko‘ylagidan bo‘y yetsa,
Men qolsam-u, yo‘q ajab, falak to‘n yirtsa.
Arziydi ifor hidli Yusuf ko‘ylagi ham
Bul kun kelib, yor ko‘ylagidan bo‘y etsa.

81

Xummor ko‘zing, chehrayi raxshoning[1] bor,
Koni guhar-u, la’li Badaxshoning bor
Ham g‘uncha kabi xandayi pinhoning bor,
Kuydirguchi gulni labi xandoning bor.

82

Ishq ichra na pastlik, na balandlik bo‘lgay,
Na behushlig-u, na hushga bandlik bo‘lgay,
Qardoshlig-u pirlig-u muridlik bo‘lmas,
Qashshoqlig-u baxtsizlig-u rindlik bo‘lgay.

83

Gar mayni yashirsak, bo‘yini na qilamiz?
Oshiqni(ng) xumor rang-ro‘yini na qilamiz?
Gar ishqni quritsak qaqragan lab birlan,
Suv ostidagi ko‘z uyini na qilamiz?

84

Soyang seni manzilim erur ham xona,
Sochingni tuzog‘idan dilim devona.
Har go‘shada bir sham’, ikki-uch parvona,
Bizning sham’ o‘zi ham sham’-u ham parvona.

[1] **Raxshon** — porloq, jilvagar.

85

Ko‘rsat yuzingni bir qilib odamlik,
Ko‘rdim, deya, men lof urayin, xurramlik.
Ey jon-u jahon, senda bo‘larmi kamlik,
Ko‘rgan seni shod olganidek bayramlik.

86

Bormi yana bir dilki, parishon bundan?
Yo voqeayi besar-u somon bundan?
Kim ko‘rdi jahonda yoki mehnatzadani
Sargashtayi ro‘zgor-u hayron bundan?

87

Bir-bir sanasangiz mohliqolarni agar,
So‘zsiz berasiz bizning u mohdan-da xabar.
Ey siz majlis ahli, parda ortiga o‘ting —
Tashlang meni bu shu’lali chehramga nazar.

88

Ey yor, yuzing — namoz, ko‘zing-chi — ro‘za,
Har ikkisi qul emish labi qirmiza.
Mast edim agar gunoh qilibman, ya’ni
Sindirgan esam ichib suvingni ko‘za.

89

Ey ishq, seni ham pari bilar, ham inson,
Qoshingda tuban emish muhri Sulaymon.
Tan bo‘lsa jahon, unga seni derlar jon,
Ishqsiz yashagan kimsaning umri yolg‘on!

90

May mo‘l-ko‘l-u, yo‘q sohibi jom — kimnikidir?
Bizlar-ku asir qushmiz-u, dom kimnikidir?
Ishq ahli tufayli har nafas sochilgan
Bul shakkar-u pista-yu bodom kimnikidir?

91

O‘t yonmasa dilda, so‘yla, bu dud qaydan?
Ud quymasa, kelmoqda bo‘yi ud qaydan?
Men sevmasam-ey — oshiqi nobud qaydan?
Sham’ shu’lasisiz parvona xushnud qaydan?

92

Dedimki: “Ko‘zim erur ko‘ying tuprog‘i,
Chehrangni yashirmagil visoling chog‘i”.
“To soyayi davlatimda yetmasmi, — dedi, —
Umring bo‘yi tinmasa ko‘zing irmog‘i”.

93

Mendan sira qochmagil — xaridoring o‘zim,
Bir menga qiyo boq — nuri diydoring o‘zim,
Korimga yaraki, ravnaqi koring — o‘zim,
Mendan sira bezor o‘lma, bozoring — o‘zim.

94

Bul tong men-u, may jomi qo‘limga payvast,
Yiqilgum-u, turgum-u, mudom yurgum mast,
Ul sarvi qadim ishqi bilan mastman-u past,
Men o‘lsam-o‘lay, ko‘rmasin ul qaddi shikast!

95

Xurshidi kamarbasta qoshingda o‘lsin!
Ul mohi jigarxasta qoshingda o‘lsin!

Ul sarv-u guli rasta qoshingda o‘lsin!
Bu dil bo‘lib payvasta qoshingda o‘lsin!

96

Sopolsifat tanim emish jomi dil-ey,
Ul puxta fikrlarim mayi xomi dil-ey,
Bul durri ma’rifat hamasi domi dil-ey,
Men so‘zladim-u, asli bu payg‘omi dil-ey.

97

Ketding, sening ketganing uchun qon yig‘lay,
Qayg‘ung farovon bo‘ldi, farovon yig‘lay.
Ketding-u, izingdan seni ko‘z ham ketdi,
Qanday qilib endi meni hayron yig‘lay?..

98

Har kim seni ko‘rsa agar, ey xo‘baxloq
Shu lahzada qilgay u bu dunyoni taloq.
Oftob kabi chehrang qoshida dunyoda
Na oyda tarovat, na Zuhaldir porloq.

99

Charx oldida ko‘zing seni xunrezroqdir,
Shamshir tig‘idan-da kipriging tezroqdir.
Rozingni qulog‘imga balandroq aytgil,
Yuzing ko‘yida quloq biroz mudroqdir.

100

G‘am kim o‘zi — har dam uni yod etgaymiz?!
Dil hayf unga, tuproqqa qorib ketgaymiz!
Bodom emish-u g‘am, yo‘q emish mag‘zi uning,
Bosh egmasa, yanchib uni un etgaymiz!

101

Ey ashki ravon, gapir u savdolardan,
Ul bog‘-u bahor ham u tamosholardan,
Bedor kechalardagi tavallolardan,
Ko‘z yumma adabsizlig-u g‘avg‘olardan.

102

Ishqing qiladi shirinzabonliklar to,
Ushshoqda, quloq tut, necha oh-vovaylo.
Har kecha o‘zing soqiy ekansan tanho,
Oshdi firib-u makr-u xusumat, g‘avg‘o.

103

Ey sarvi ravon, bodi xazon ko‘rma sira!
Ko‘z tegmasin-u, rangi somon ko‘rma sira!
Osmon-u zaminning jonisan, azbaski[1],
Ko‘r rohati jon, ofati jon ko‘rma sira!

104

Ey do‘st, bugunni erta qilma aslo,
Kunduz kabi yaxshi-yu yomonlik paydo.
Ishq yo‘lida noravo xiyonat, zino,
Men to‘g‘ri-yu, sen egri esang yo‘q ma’no.

105

Men bechoradan-da bormi bechora, ayo,
Ishq dardi bilan og‘risa kim — yo‘qmi davo?!
Bu g‘amni davosi na baxillik, na riyo,
Chin sevgida bo‘lmas na vafo-yu na jafo.

[1] **Azbaski** — shuning uchunki, shu sababdanki.

106

Jon qolsa yetar, har necha qaqshatgali kel,
Har hiylaki, bilgung, uni ko‘rsatgali kel.
Har kimsaga bir makr-u firib o‘rgatding,
Bir makr-u firib menga-da o‘rgatgali kel!

107

Ey ganj, egalla joyni vayronangdan,
Ey zulf, parishon bo‘lma o‘z shonangdan[1].
Ey qush, yuzing o‘girma o‘z donangdan,
Ey uy egasi, tushma uzoq xonangdan.

108

Ishq asli kamol birla-yu, dilbar-chi — jamol,
So‘z qaynar-u dilda, til uni aytgali lol.
Bormi yana bundan-da o‘tar antiqa hol:
Men tashna-yu, qoshimda oqar obi zilol.

109

Har kimsaning ko‘ksida ushoq dil bo‘lgay,
Ishqsiz yashamoq o‘shanga mushkul bo‘lgay.
Bul halqama-halqa zulf zanjiri bilan
Devona kishi bo‘lsa, u oqil bo‘lgay.

110

Ishqsiz quvonching sira afzun bo‘lmas,
Ishqsiz vujud ham xo‘b-u mavzun[2] bo‘lmas.
Daryoga yog‘ar bo‘lsa magar yuz tomchi,
Ishq to‘lqinisiz u durri maknun[3] bo‘lmas.

[1] **Shona** — taroq.
[2] **Mavzun** — zebo, nozik, chiroyli, kelishgan, nuqsonsiz.
[3] **Durri maknun** — sadaf ichidagi qimmatbaho dur.

111

Bir bayt o‘qib erdim — malagim ranjidi:
“Bayt ichra band aylash meni lozimmi edi?”
Aytsam: “Nega baytimni buzarsan, ey jon?”
“Men baytga sig‘armanmi, o‘zing o‘yla?” — dedi.

112

Band etma sira harifi g‘amgin qoshini,
Tark etma sira suhbati shirin qoshini.
Bo‘stonga kirib, borma tikan qoshiga hech,
Bo‘sh qo‘yma sira suman-u nasrin qoshini.

113

Ey soqiy, bugun sening xumoring bo‘ldim,
To tunga qadar ko‘p intizoring bo‘ldim.
May ber-u, xalos ayla bu dunyo domidan,
To tongga qadar bu tun shikoring bo‘ldim.

114

Qabrim yonidan o‘tsa, bashar mast bo‘lgay,
Sal to‘xtasa, mahsharga qadar mast bo‘lgay,
Ummon sari borsa, bahr-u bar mast bo‘lgay,
O‘lsa, uni qabri sarbasar mast bo‘lgay!

115

Ko‘nglimga yashirmagayman — afgor bo‘lasan,
Diydamda mujassam etmagum — xor bo‘lasan.
Jon ichra beray joy senga — dil, ko‘zdan emas,
To so‘nggi nafasgacha o‘zing yor bo‘lasan.

116

Pok ishqima rashk etgusidir obi zilol,
Bu sevgi bilan mashg‘ul o‘lish menga halol.

Gar o‘tsa birovlar ishqi holdan-holga,
Yo‘qdir meni ma’shuqam-u ishqimga zavol.

117

Gar jabr etar, ahdining ne qimmati bor?
Gar zahr berar, shahdining ne qimmati bor?
Xalq nazdida jahd aylamoq ezgu ishdir,
Bul xasta ko‘ngil jahdining ne qimmati bor?

118

Sochining har torida bordir bir jon,
Sochdek meni ham qildi parishon jonon.
Bilgaymi o‘shal: g‘amim farovon ne uchun?
Boisi: uning nozi farovon chandon!

119

Ul bongi Sirofildan emish paydo rubob,
Dillarni tiriltirdi magar erdi kabob.
Uyg‘ondi unut o‘ylar — baliqlar xuddi
Chiqqan kabi suv ostidan ustiga shitob.

120

Yel gulni to‘kar ustiga xummorlarning,
Yor mayni quyar sog‘ariga yorlarning.
Sunbul sochi attorlar ishin etsa kasod,
Sho‘x ko‘zi to‘kar qonini hushyorlarning.

121

Bog‘ yo‘lida dilbarimga bo‘ldim hamroh,
Gulga nazarim tushdi o‘shal dam nogoh.
“Chehramni qo‘yib, gulga qaraysan ne uchun?” —
Deb toza uyaltirdi faqirni ul moh.

122

Bir dam senga dilbaring magar mahramdir,
Taqdirdan ulush senga o‘shal bir damdir.
Zinhor u ilohiy damni etma zoe’,
Chunki hayotingda bu kabi dam kamdir.

123

Shakkar konida solsa chivinlar g‘avg‘o,
Shakkar koni aylarmi ularga parvo.
Qush bir qo‘nib uchgani bilan ul tog‘ning
Ortdi biror yeri-yu, kam bo‘ldimi yo?

124

Daryo kabi diydamga sanam ursa tikan
Ham qil kabi dilni tilsa tig‘i bilan,
Aslo etagidan qo‘l uzib ketmasman,
Ming hiylani ul daf’im uchun qilsa-da fan!

125

Yomonlik etib, yaxshilik istar esa kim,
Bilgilki, o‘shal kimsaning iymoni yarim.
Besh qo‘ldek ayon-ku, arpa ekkan kishiga
Bermasligi bug‘doyni Xudovandi karim!

126

Bul kun tavof etgum yor koshonasini,
To tonggacha qilmayin tark xonasini.
Vaqt yetganida daf’i xumor aylash uchun
Bosh kosasidan yasay paymonasini.

127

Men xasta-yu, zor-u notavon yor g‘amidan,
Ko‘zdan yosh emas, oqadi qon yor g‘amidan,

Bo‘g‘zimga yetar bo‘lsa-da jon yor g‘amidan,
Yo Rabbim, ayirma hech qachon yor g‘amidan!

128

Hamsuhbatimiz bul kecha ul dildorning,
O‘tmas nimalar xayolidan xushtorning:
Boshlar uza goh chamanda gul sochilsa,
Shakkar yog‘adi o‘rniga goho qorning.

129

Oshiqlik ishin kamolidan o‘rgandim,
Bitmoqni g‘azal jamolidan o‘rgandim.
Ko‘nglim uyida xayoli raqs etgaydir,
Men raqsni ham xayolidan o‘rgandim.

130

Aytdim: “Sanamim, sen — may-u, men — paymona,
Men o‘ldim-u, sen esang jon-u jonona.
Och endi vafo eshigin”. Aytdi: “Jim bo‘l,
Devona kishiga ne kerakdir xona?”

131

Ey, turgil-u, kirgil o‘sha neknom qoshiga,
Xush suhbatin olgali dilorom qoshiga.
Bir domni qo‘yib, kel, yana bir dom qoshiga,
Gar quvsa eshikdan, kelaver tom qoshiga.

132

Yor dedi: “Ko‘zing yoshini Jayhun etaman,
Ko‘nglingni firoq tog‘ida tutqun etaman.
Jismingga ishonma sira — uch kun ichida
G‘am o‘g‘irida tuyib-tuyib un etaman!”

133

Jabringcha xush ermas, o‘zga ming qilsa vafo,
Qayg‘ungcha xush ermas, o‘zga ming qilsa safo,
Nozingcha xush ermas, o‘zga ko‘rsatsa liqo,
Qahringcha xush ermas, o‘zga ming aytsa sano.

134

Har kun ko‘rinish berib ketib, ey dilbar,
Boshimga solursan necha savdoi digar.
Jon sog‘arini to‘ldiribon tut bu sahar,
Ey, sen mening jonimga padar ham modar!

135

Begona gurungidan esang begona,
Haq so‘zni senga aytadi bul devona:
Yuz uyni to‘latgung aridek bol birla
G‘ayr ahlidan agar xoli bo‘lsa xona.

136

Bul kecha sharobi jon mudomdir, mudom,
Soqiy shoh-u, may etar davomdir, davom,
Asbobi tarab[1] jumla tamomdir, tamom,
Uyqu dili bedorga haromdir, harom.

137

Ishq otashida muzlar erib, suv bo‘ladi,
Ishq o‘tida toblansa, tosh inju bo‘ladi.
Oshiqlar aybin og‘ir olma, ey do‘st,
Sevgi mayidan ular beqayg‘u bo‘ladi.

[1] **Asbobi tarab** — xursandchilik vositalari, shodlik sababi.

138

Tun o‘tdi vale etmadi tark boshimni,
Qayg‘uli munojoti qalamqoshimni.
Ul tunda erur uyqum-u, kunduz esa nur,
Ul bo‘lmasa, tun-kun to‘kamen yoshimni.

139

Keldi-yu ko‘zimga xush xayoling, mohtob,
Har ikki ko‘zim shu lahza yosh to‘kdi shitob.
Ko‘zlarni qulog‘iga dedim ohista:
“Siylang aziz mehmonni quyib bodayi nob!”

140

Bizdan o‘sha sho‘x dilbari ayyor qochadi,
Yoring bo‘layin, desak, agar yor qochadi.
Ul aqli munavvardir-u, biz masti uning,
Xummorni mudom aql etib xor qochadi.

141

Ey bongi rubob, dilimda tobim bordir,
Dil qa’rida mening-da rubobim bordir.
Gar tushsa yo‘ling bir dam aziz mehmon bo‘l,
Men qulni-da kulbayi xarobim bordir.

142

Keldi eshigimga kecha yori shaydo,
Dedim: “Jo‘na, bemahalda bo‘lding paydo”.
Qaytarkan iziga, dedi: “Qiziq savdo,
Davlatga eshik ochmas — u tentakmi yo?”

143

Ey yor, nima gap, jahon yo‘qoldi ko‘zdan?
Osmon-u zamin qayon yo‘qoldi ko‘zdan?
Sen mayni qo‘limga berma, tut og‘zimga,
Kayf oshganidan dahon[1] yo‘qoldi ko‘zdan...

144

Ishqing havasi boshda-yu, zorman doim,
Ko‘ying aro mast-u beqarorman doim,
Gar bor-yo‘g‘i bir kun xumor bo‘lgay mast,
Men ul mast erurmanki, xumorman doim.

145

Chek qo‘yadi bu zamona bor oh-vohga,
Bir ko‘z-da qarar falak gado-yu shohga.
Har kimsa g‘ururga mast o‘zicha, ammo,
Haydaydi ajal barchasini bir chohga...

146

Ey dil, sira yaqin yo‘latma g‘amni,
Ep ko‘rma hecham suhbati nomahramni.
Ko‘kat ila nonga gar qanoat qilsang,
Ko‘kat, deya bilma jumla bu olamni.

147

Dil keldi-yu aytdi: “Yor savdosi uzun”,
Tun keldi-yu aytdi: “Zulfi ra’nosi uzun”,
Sarv keldi-yu aytdi: “Qaddi zebosi uzun”,
Qilsin shunga mos umrni Ollosi uzun!

[1] **Dahon** — og‘iz.

148

Ishq ul — unga ergashib balolar yursa,
Oshiqmas u — ko‘rganda balo yuz bursa.
Ishq olamida atalgay mardlar mardi,
Kim ishq kabi jonga tegsa-yu, jon bersa.

149

Hijron qanotin qayirsa ummid qushini,
O‘ldirsa jafosi yana dil xohishini,
Oshiq sira tushmaydi umidsizlikka,
Maqsad sari eltar asli himmat kishini!

150

Bul fasli bahor emas, bul fasli digar,
Ko‘zlarni xumor etguchining vasli digar.
Har qanchaki novdalar tutash raqs etsa,
Har shoxni qimirlashi bo‘lar asli digar.

151

Ey, poyqadamingdan bu zamin xurram-u shod,
Yuz g‘uncha quvonchidan ko‘paytirmish zot.
Osmonga tushib g‘ulg‘ula ul fursatda,
Oyning ko‘zi yulduzga tushibdir, hayhot!

152

Tavba, bu sanam ko‘nglini naq tosh qilmish,
O‘ldirgali qasd etganini fosh qilmish.
Zulfi kabi ketmish chuvalib tavbam ham,
G‘aytar o‘ziga neki qalamqosh qilmish.

153

Kimning tilagi erur mudom manzili jon,
Kimning tilagi erur mudom luqmayi non.
Bu nuktaning ma'nisini chaqqilki, ayon:
Kim ne tilasa, yetgusi unga begumon!

154

Berguvsi bo'lak hayot kuning bitsa Xudo,
Gar umri fano qolmasa, bor umri baqo.
Ishq obi hayot erur — uning bahriga kir,
Har qatrasi bir o'zga hayotdir uning, o!

155

Ko'zimni qitiqlar har zamon nozi uning,
Yangrar qulog'imda mudom ovozi uning,
Uzimcha manam oshig'-u hamrozi uning,
Qanday yashiray mast aylasa rozi uning?!

156

Ko'kni to'la nola aylasam, ma'zurman,
Dashtni to'la jola aylasam, ma'zurman.
Sen jonim erursan — chopaman ortingdan,
Jonni ortda vola aylasam, ma'zurman.

157

Insof bila ayt, ishq ezgulikdir asli,
Bulg'ar uni kimning yuragi kir asli.
Pok sevgiga o'xshatma harom shahvatni,
Chunki biri osmon-u, biri yer asli.

159

Jon tunda baliq, kunduz ilon erkan, oh,
O'ylab qara: senga qaysi bir jon hamroh?

Horut kabi sehr-u jodudir kasbing goh,
Goh Zuhrani qo'riqchisisan xuddi moh.

159

Qilgaymi bu qullarga u bir nazzora,
Biz topdig-u chora, qoldi ishq bechora.
Jon nima? U bir zaif go'dak beshikda.
Dil nima? U bir g'arib erur, bechora.

160

Goh hurlar etadi rashk — andoq pokmiz,
Goh vahimaga devlar tushadi — bebokmiz,
Hammoli Xudomiz asli — tani xokmiz,
Bu sa'y ila mavjudot ichinda toqmiz.

161

Bir qatra yuzing suvidan ul obi hayot,
Bir zarra nuringdan etding oyni bunyod.
Mohtobni tilab edim uzun kechada men,
Tun zulfing-u, oy yuzing ekan-ku, hayhot!

162

Harchandki, qomati go'zal bor sarvda,
Yor qaddini ko'rsa, ne amal bor sarvda?
Yor qaddiga o'z qaddini mengzar emish ul,
Bu kibr-u havo asli azal bor sarvda.

163

Biz kasb-u hunar, mol-u do'kondan kechdik,
She'r yo'liga kirdig-u, jahondan kechdik.
Ko'z-u dil-u jonimiz edi sevgida ul,
Bas, ko'yida ko'z-u dil-u jondan kechdik.

164

Og‘zing isini menga chaman bildirgay,
Husningni esa lola, suman bildirgay,
Ul ikkisi bo‘lmasa ochurman labni,
Nomingni tutib, u so‘z bilan bildirgay.

165

Qaydan, rubob, kelmishsan ohangi, qani,
Ming otash-u sho‘r-u fitnaga to‘lmishsan,
Dil josusi-yu elchisisan sahroning,
Dil rozi baru — har ne navo qilmishsan.

166

Ey ko‘z-u dil-u jon huzuri qandoqsan?
Har ikki jahonim sururi qandoqsan?
Holim ne labing hajrida, asti so‘rama,
Mensiz o‘zing, ey ko‘zim nuri, qandoqsan?

167

Ey jon-u jahon, jon-u jahon bandang emish,
Olamni shirin etgan shakar xandang emish.
Sendekni falak ko‘rmamish olam yaralib,
Osmon-u zamin husningga hang-u mang emish...

168

Terimni shilib olsa-da ul dildorim,
Undan gina qilmagum sira — yo‘q zorim.
Dushman menga barcha-yu, udir yolg‘iz do‘st,
Dushmanga chaqishga yorni kelgay orim.

169

Sendek bu faqir oqil-u hushyor erdim,
Oshiq elini qilguchi inkor erdim.

Umr o‘tdi-ey oh-voh ila devona-yu mast,
Shundoq yashamoqqa, bas, sazovor erdim.

170

Ma’shuqa quyosh kabi charaqlar xandon,
Zarra kabi oshiq bo‘ladi sargardon,
Bas, sevgi bahori yellari esgan on
Har shox raqs etar unda magar bordir jon.

171

Gar istar esang, hamisha xurram bo‘lsang,
Yetsa qadaming qayga, mukarram bo‘lsang,
Pok bo‘l-u, halol yasha-yu, ilm o‘rgangil,
To toji bashar, Hazrati Odam bo‘lsang!

172

Sen birla quvonchga to‘la shahr-u dehot[1],
Osmon-u zamin-da sen sabab xurram, shod.
G‘amdan bo‘lak hech kim gina qilmas sendan,
Sen hammani g‘am-qayg‘udan etding ozod.

173

Derlar menga: “Muncha otashin dard qaydan?
Bu nola-yu oh-u, bu rangi zard qaydan?”
Dedim: “Gapingiz g‘alat, o‘shal oy yuzni
Bir ko‘rsa kishi, bilardi bu dard qaydan”.

174

Ko‘nglimdagi oh boisi savdo, ey dil,
Ul aslida dil tufayli paydo, ey dil.
Qondan yuragim mavj uradi to‘xtovsiz,
Bas, u dil emas, bo‘libdi daryo, ey dil!

[1] **Dehot** — qishloqlar.

175

Har narsani dil ochig‘-u pinhon so‘zlar,
Mushkin soch haqinda anbarafshon[1] so‘zlar.
Oshufta esa u, bu — parishon, bilgum,
Oshufta og‘iz ochsa, parishon so‘zlar.

176

Ey do‘st, axir, do‘st-u yaqinmiz senga,
Yetsa qadaming qayga, zaminmiz senga.
Sezsak-da tajallingni, o‘zing ko‘rmasmiz,
Ishq sharti shumi, nahot o‘yinmiz senga?!

177

Men — zarra, quyoshyuz dilraboyimsan o‘zing,
Bemorman-u, dardimga davoyimsan o‘zing.
Yo‘q garchi qanotim, uchaman ortingdan
Bir xas kabi, chunki kahraboyimsan[2] o‘zing.

Forschadan Ergash Ochil tarjimalari

[1] **Anbarafshon** — anbar sochuvchi, xush hid taratuvchi.

[2] Kahraboni charmga ishqab, somon, xasga yaqinlashtirsa, ularni o‘ziga tortadi.

YUNUS EMRA

TURKISTON VA TURKIYANING OLTIN KO'PRIGI

Inson qo'li bilan qurilgan neki bor, beqarordir, faqat Allohning yaratganlari barqarordir, deyiladi. Haqiqatan ham shunday. Tarixda odamlar ne-ne ko'priklarni, minoralarni, saroylarni, davlatlarni, imperiyalarni qurmadilar—barisi yiqilganini, nuraganini, yiqilayotganini ko'rib turibmiz. Zotan, bular moddiyatga bog'liq, modda esa mangu o'zgarishdadir. Ammo ma'naviyat, ruhoniyat bilan tutashgan insoniy, ruhiy boyliklar borki, ular odamlar dunyosi turguncha turaveradi. Eng eski turk-islom madaniyati, adabiyoti namoyandalari — "Turkiston piri" Ahmad Yassaviy va Turkiyaning bundan yetti yuz yil avval yashab o'tgan shoiri Yunus Emra ana shunday bashariy mangulikka daxldor shaxslardandir.

Ahmad Yassaviy va Yunus Emra nomini bizning asrimizda ilk marta turkiyalik olim Muhammad Fuod Ko'prili jahon ilm ahliga bildirdi: uning "Turk adabiyotida ilk turk mutasavvuflari" kitobi (Istanbul, 1918) bu ikki ulug' shoir va mutafakkirning hayotini, ijodini butun qo'lyozma va bosma manbalar asosida tadqiq qilib berdi. Ming yillar avval ajdodlari Turkistondan g'arbga yurgan va Turkiyaga asos solgan turkiyaliklarning adabiyoti ham Turkiston bilan chambarchas bog'liq. Turkistonlik Ahmad Yassaviy birinchi bo'lib she'riyatda, xususan, islomiy-turkiy adabiyotda ilohiyot bilan bog'liq bir san'at yo'lini ochdi. Bu yo'l butun eski Turk elini — Turon dunyosini islomiyatga bashariyat erishgan eng to'g'ri ruhoniy va ma'naviy yashash yo'liga da'vat etdi. Uning bu da'vati Oltoy va Tangri tog'laridan oshib o'taroq butun Hindistonda, Hazarda, Turkiyada, Eron va Arab yerlaridagi turklar yuragida sado berdi. Bu sado — insonning o'z Yaratganini tanishga va sevishga, yaratgan narsalariga muhabbat bilan yashashga da'vat etdi. Ahmad Yassaviyning Turkistonda tarqalgan yassaviya suluki shoirlari kabi (Hakim ota, So'fi Allohyor, Azim Xoja va boshqalar) Turkiyada ham Yassaviyga izdosh buyuk shoirlar silsilasi

yaraldi: bular Yunus Emra, Hoji Bektosh Valiy, Sari Saltuq, Kiyikli bobo, Hoji Bayram Valiy... Bu bizga qadimda Turkiston va Turkiyaning eli, tili bir bo'lgani kabi, adabiyoti ham bir ekanini ko'rsatib beradi. Bu shoirlar, ulug' mutafakkirlar o'z ijodlari bilan, pir-u murshidlik faoliyatlari bilan xalqlarni tarbiyaladilar, bu ma'naviy tarbiya faqat ular hayotligidagina barqaror bo'lmay, vafotlaridan keyin ham necha yuz yillar mobaynida davom etib kelmoqda. Bu ijodkorlar Turkiston va Turkiya orasidagi oltin ko'prikdir. Shoir Yunus Emra ana shu oltin ko'prikning buyuk bir bo'lagidir.

Yunus Emra kim, degan savolga yigirmanchi yillardan keyingi avlod javob berolmasligi tabiiy. Chunki bu shaxs haqida hozirgacha hech so'z aytilmagan. Ahmad Yassaviyni diniy-mistik adabiyot vakili deb taqiqlaganlar uning izdoshlari haqida so'zlashga ham yo'l bermadilar. Ammo insonlar yaratgan taqiqlar beqarordir, vaqtinchalikdir, mana, shukrki, o'tdi, bitdi.

Yunus Emra — Turkiyaning, turk millatining dunyoga yetishtirib bergan eng buyuk shoiri. U hayotida ham, ijodida ham din, mazhab, irq ajratmadi, odamlarni boy-kambag'alga ayirmadi. U, inson o'z Yaratganini sevishi, Alloh yaratgan butun borliqqa — dunyoga, insonga, boshqa maxluqlarga birday muhabbat bilan yashashi kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Bu sevgi shoir ijodining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning qabrtoshiga o'zi aytgan "Sevelim, sevilelim" (ya'ni, Allohni va U yaratganlarini sevaylik, ular tomonidan sevilaylik, ma'nosida — T.Q.) so'zlari bitilgan. YUNESKO tashkilotining 1991-yilni "Yunus Emra sevgi yili" deb e'lon qilganining boisi ham ana shunda. Bu sanada butun bashariyat Yunus Emraning 750 yilligini nishonlamoqda.

Bugungi avlodimiz uchun ham Yunus Emrani tanimoq vaqti yetdi. Butun turklik dunyosida u "Oshiq Yunus" nomi bilan mashhur. "Ilk adim Yunus idi adima Ashiq taqtim" satri ham shunga ishora. "Emra" so'zining bir ma'nosi, Ziyo Ko'kalp aytgandek, eski turklarning emra qavmi bilan bog'liq. M.Aziz Bo'lelning yozishicha, emra so'zi oshiq ma'nosidadir. Shoir haqida Turkiyada yuzdan ortiq kittob bor, ularda Yunus Emraning hayoti va ijodi teran tadqiq qilingan. Ammo hayoti haqidagi ma'lumotlar

turlichadir. Biz u haqdagi so'nggi katta tadqiqotlarning biri — M.Aziz Bo'lelning "Yunus Emra hazratlari hayoti, devoni" kitobiga suyanib, shularni aytishimiz mumkin. Yunus Emra melodiy 1240-yilda Saqarya daryosi bo'yidagi Sariko'y qishlog'ida tug'ilgan. Bu makon Turkiyaning Eskishehir shahri yonida bo'lib, Sariko'y hozirda shoirning sharafiga Yunus Emra qishlog'i deb ataladi.

Bir kitobda aytilishicha, shoirning Turkiyada 12 ta qabri bor, boshqa bir manbada esa, faqat Turkiyaning o'zida 15 ta, hatto Ozarbayjonda ham bir qabri bor, deyiladi. Ammo bu Yunus Emraning shuhrati so'ngsizligidan, xalq ichida nihoyatda afsonaviylashtirib yuborilganligidandir. Asl qabri Sariko'ydadir, boshqa mozorlari uning maqomlaridir, degan fikr haqiqatga yaqindir.

Yunus Emra boshlang'ich ta'limni o'z qishlog'ida, yuksak bilimlarni esa turklarning ilohiyot markazi, buyuk Jaloliddin Rumiy makoni Qo'nyoda oladi. U arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Qur'onni, hadisni, islomiy bilimlarni yaxshi o'rgangan. Undan qolgan meros — "Risolatun-nus'hiya" va "Devon" bu fikrimizni isbotlaydi.

Shoir ijodi haqida so'zlashdan avval uning turk millati oldidagi ijtimoiy-siyosiy xizmatini ta'kidlamoq muhim deb o'ylayman. U yashagan davr — Saljuq o'g'illari saltanati zamoni edi; arab tili — fan tili, fors tili — adabiyot tili hisoblanardi. Bunday noto'g'ri yo'nalish eski Turkistonda ham hukmron edi. Ahmad Yassaviy islomiy bilimlarni, ilohiy she'rlarni turk tilida bitgani kabi uning izdoshi bo'lgan Yunus Emra ham o'z asarlarini xalq shevasida — Onado'li turklari tilida yozdi. Osiyo va Ovrupo bag'ridagi bobolarimiz qurgan Turkiyada Oltoy va Turkistonda tug'ilgan turk tilini hukmron bir tilga aylanishida bu buyuk bir xizmat, milliy qahramonlik edi.

Yunus Emraning adabiy merosi asosan ikki asardan iborat. Biri — "Risolatun-nus'hiya". Shoirning "So'ze tarix yedi yuz yedi idi. Yunus jani bu yo'lda fidi idi" satrlari asarning yozilgan davrini — 707 hijriyni (melodiy 1307) bildiradi. Asarning nusxalari hajmi turlichadir: baytlar soni 535 dan 630 gacha o'zgarib turadi. Bu masnaviyda bitilgan tasavvufiy, axloqiy, ma'rifiy dostondir.

"Risolatun-nus'hiya" — "Nasihatlar kitobi"da insonning qay yo'sin hayotdagi nafsoniy manfaat zanjirlaridan qutulib, ilohiy yo'lga kiruvi, ruhoniy hayotga yetishuvi uchun yo'l ko'rsatiladi.

"Devon" nusxalari ham hajman har xildir: birida 98 ta, birida 350 ta she'r bor, yaqin asrlarda ko'chirilgan nusxalarda she'rlar soni 500 tagacha mavjud. Shoirning har ikkala asarining ham asl nusxalari Turkiyada hanuz topilmagan, eng eskilari XIV—XV asrlarga mansub.

"Devon" bashariy olamning bosh masalalari — Alloh, dunyo, inson, borliq va yo'qliq, o'lim, ishq, axloq mavzusidagi she'rlardan tuzilgan.

Yunus Emra ijodini turk-islom madaniyatini, Qur'onni, hadisni bilganlargina teran tushunishi mumkin. Masalan, shoir inson mohiyatini shu to'rt qator she'rida buyuk bir faylasuf, daho sifdatida ifodalaydi:

Ben gelmedim dovi ichin,
Benim ishim sevi ichin,
Do'st-un evi go'nullerdir,
Go'nuller yapmag'a geldim...

Ya'ni men dunyoga da'vo qilish uchun, bu dunyo molini, yerini, narsalarini talashish uchun kelmadim; mening ishim muhabbatdir; Do'stning, ya'ni Allohning uyi ko'ngillardir; ko'ngillarni yaratgani keldim.

Haqiqatan ham, dilida Tangri muhabbati bo'lgan inson dunyoda tinch, halol, zulmsiz, erkin yashaydi. Faqat o'z haqidan foydalanadi, o'zganikiga tegmaydi. Ammo eski zamonlarda ham bunday komil odamlar kam edi, bugunda ham kam. Turkiyalik shoir Ahmat Er bir suhbatimizda bu xususda qayg'urib gapirgan edi: "Bugun dunyoda tomog'idan halol luqma o'tadigan biror inson, biror millat, biror jamiyat qolmadi — bugun dunyo tomog'idan harom luqma o'tmoqda. Insoniyatning bugungi fojialari — muhabbatsizlik bilan bog'liq. Halol yemagan odamda muhabbat bo'lmaydi, birovga mehr bo'lmaydi. Muhabbat bo'lmasa, ikki insonning munosabati samimiy bo'lmaydi, bunday oila tarqoqdir,

bunday oilalardan iborat dunyo jamiyatlari ham tarqoq va muhabbatsizdir!..”

Nazarimda, bu fikrlarda kelajak asrda yaralajak buyuk bir yangi falsafiy oqimning moyasi mavjud. Aslida, biz yangi deyayotgan bu fikrlarning negizi eski tafakkurlarimizdadir, Ahmad Yasasaviy va Yunus Emra kabi shoirlarimiz ijodidadir. O‘tmishda va bugun bu shoirlar Turkiston va Turkiyaning oltin ko‘prigi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsalar, kelajakda butun dunyoni, jamiki bashariyatni ma’naviyat va ruhoniyatning yuksakliklariga olib chiqishi shubhasizdir.

YUNESKOning 1991-yilni “Yunus Emra sevgi yili” deya e’lon qilishi, 1993-yilni “Ahmad Yassaviy yili” deb nishonlashga tayyorgarlik ko‘rilayotgani bu yo‘ldagi ilk odimlardir. Biz ham, xuddi turk madaniyati arbobi Namuq Kamol Zeybek orzu qilganiday, “XXI asrning sevgi asri bo‘lishini” umid bilan kutamiz.

Yunus Emra asarlari va u haqdagi kitoblar butun dunyo tillariga tarjima qilinmoqda, maxsus ilmiy to‘plantilar, shoir asarlari asosida teatr tomoshalari, konsertlar uyushtirilmoqda, filmlar, oratoriyalar, simfoniyalar yaratilmoqda, video va magnitofon kassetalari, albomlar chiqarilmoqda.

Bugun, dunyoda hukmronlik da’vosidagi bir necha yosh millatlarning tahlika-yu to‘polonlari kuchaygan bir zamonda, biz — o‘n bir ming yillik tarixga, jahoniy madaniyatga molik ikki yuz millionli turk xalqlari Ahmad Yassaviydek, Yunus Emradek dunyoviy shoirlarimiz borligi bilan faxrlanamiz. Bu faxr kibr-u g‘urur emas, aksincha, bu ulug‘ allomalarning asarlarini olam ahliga yetkazish, bashariyatga xizmat qilishdan iboratdir.[1]

Tohir Qahhor,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

[1] So‘zboshi shoirning 1991-yilda G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasida chop qilingan “Haqdan so‘ylar bu tilim” kitobidan olindi.

“DEVON”DAN SHE’RLAR

* * *

Ishq elin Tomug‘[1]da gar yondirmagay,
Hech bir oshig‘ Uchmog‘i[2]ga kirmagay.

Yetti Tomug‘ yonsa gar bir oh aro,
Yetti dengiz ishq o‘tin so‘ndirmagay.

Buyrug‘in tutmas esa Odam kabi,
Ko‘z yoshin uch yuz sana tindirmagay.

Nuh bo‘lib ming yil jafo chekmas esa,
To‘fon ichra kemaga mindirmagay.

Ismoildek o‘zni qurbon etmasa,
Ko‘kdan U qo‘chqorni-da indirmagay.

Elga cho‘pon bo‘lmasa Muso kabi,
Tur[3]da Tangri birla suhbat qurmagay.

Ul Muhammad xulqi kimda bo‘lmasa,
Bilki, Haq diydorini hech ko‘rmagay.

Ey Yunus, boq: voy ularning holiga —
Kimniki, voh, Alloh uyg‘ontirmagay![4]

[1] **Tomug‘** — do‘zax.

[2] **Uchmog‘** — jannat.

[3] **Tur** — tog‘ nomi.

[4] Shoir “Devon”idan tarjimalar asosan Mahmud As’ad Jo‘shonning “Yunus Emra va tasavvuf. She’rlar” (nashrga tay. Sayfiddin Sayfulloh, Toshkent 2001, 2021) to‘plamidan olindi.

* * *

Bir Tangriga qul bo‘lsa kim,
Mag‘rur-u xor bo‘lmas hecham,
Dargohiga bosh ursa kim,
Andin uni olmas hecham.

Bir qush bo‘lib uchmoq kerak,
Yerdan-yera kechmoq kerak,
Haq sharbatin ichmoq kerak,
Ki esdan ayrilmas hecham.

G‘avvos bo‘lib, epchil yuzib[1],
Dengiz ichin, tubin kezib,
Bir dur topib chiqsang, sezib,
Sarrof uni bilmas hecham.

Bu boqqa ishq birlan kiring,
Yayrab yashab, sodiq turing,
Bir gul sevib, iskab yuring,
Ul gul chechak so‘lmas hecham.

Allohni sevsa har kishi,
Ma’shuqni topmoqdir ishi,
Ishq o‘tida yongan Tomug‘
O‘tinda qiynalmas hecham.

Bir to‘yni, do‘st, to‘ylash kerak,
Bir elni-da o‘ylash kerak,
Bir so‘zni-da so‘ylash kerak,
Bir kim uni bilmas hecham.

[1] **Yuzib** — suzib.

Kim Haq nedir, bilgan esa,
Haqdan xabar olgan esa,
Yashab turib o‘lgan esa,
Ul yon borib o‘lmas hecham.

Miskin Yunus, bordek o‘tir,
Yuzingni hazratga o‘gir,
Topdiq[1] kabi bir do‘st ketir,
So‘ng undayi kelmas hecham.

[1] **Topdiq Emra** — Yunus Emraning murshidi.

* * *

Bugun oshiq manam armon ichinda,
Manam bir pahlavon maydon ichinda.

Bu dam ishq suvi-la yuvdim g‘uborni,
Ajab orif manam irfon ichinda.

Bugun ishq dengizin g‘avvosi bo‘ldim,
Guhar topdim qadim ummon ichinda.

Xarobot-u malomat ichra qoldim,
Yururman ushbu kun sayron ichinda.

Agarchi kufr to‘nin kiysa suvrat,
Ko‘ngil jonni ko‘rur iymon ichinda.

Agar orif esang, ko‘ngling bilan ko‘r,
Faqat ishq moli bor do‘kon ichinda.

Uni istar kishi ko‘pdir va lekin
Menam mahrum hamon mehmon ichinda.

Yunus, ishq birla turgaydir bu olam,
Uning-chun davr etar davron ichinda.

* * *

Ishq o‘ti tushmish jonima
Yoqib meni yondirgali,
Yetmas yetti dengiz suvi
Suvsoqligim qondirgali.

Bir suvsagan oshiq uchun
Yetmish dengiz ozdir nechun?
Shayxim yuzin ko‘rsam yetar,
Boqqanda bosh endirgali.

Shayxim ko‘rib, bosh endirib,
Qarshinda qo‘l qovushtirib,
Derman ko‘ngil tayyor erur
Do‘st[1] yurti sori yurgali.

Do‘st yurti — qalbimda yara,
Bitmas yaram, nedur chora?
Tushmish ko‘ngil o‘sha yera,
Yetmas qo‘lim do‘ndirgali.

Pirdan nafas — saqlar sani,
Allohga xos bo‘lsam, qani,
Artar ko‘ngillar gardini
O‘rniga nur to‘ldirgali.

Shayxim qo‘lim olib turur,
So‘lg‘in yuzimni kuldurur,
Ko‘nglimga rahmat to‘ldurur
Pir, Haq nedur, bildirgali.

Kel, ey Yunus, yolg‘onni ot,
Qo‘y boshqasin, ruhing bezat,
Ko‘ngling uyin qizday tuzat,
Do‘st keladur ko‘ndirgali...

[1] **Do‘st** — Alloh ma’nosida.

* * *

Bir ajoyib ishq keldi
Qalbga bu hol ustuna,
Taxt etib ko‘ksim, o‘tirdi
Jon-u ko‘ngil ustuna.

Sen-ku sulton, men quling,
Boq, sen gul-u men bulbuling,
Hukming olamga o‘tar:
Hukming butun qul ustuna.

Kelsa ko‘klam, yer ko‘kargay,
Yam-yashil bo‘lgay og‘och,
Ishq-la sayrar, madh etar
Bulbul qo‘nib gul ustuna.

Boqki, oshiqlar kezarlar
Xalq ichinda har kuni,
Bir ko‘zi ko‘rmas kishi,
Boq, o‘lturur yo‘l ustuna.

Ey Yunus, so‘z so‘zladim deb
Nuktadonlik etmagil,
Yaxshirog‘in aytguchi bor,
Qo‘l chiqar qo‘l ustuna.

* * *

Hech kimni dushman tutmadik,
Ag‘yor dag‘i yordir biza,
Chin do‘stimiz tanholigi
Jon yovi bozordir biza.

Miskin, g‘aribdir otimiz,
Dushman atardik kimni biz?
Hech kimsaga yo‘q kiynimiz,
Dunyo-ku dildordir biza!

Yo‘lboshchimiz Qur’on erur,
Biz-chun vatan — Jannat, surur
Tomug‘ni-da Haq yondirur,
Ul gul-u gulzordir biza.

Kim oxirat g‘amin yeyar,
Kunduz-kecha “Hu-hu!” deyar,
Haqdan tag‘in qaytib kelar
Dengizda yo‘l bordir biza.

Ochun[1] — yovuz, ayyor pari,
Yo‘ldan ozar yosh-u qari,
Sen tep uni, ketsin nari,
Sevmoq uni ordir biza.

Dunyo haromdir xoslara,
Lekin haloldir moslara,
Do‘st bo‘lmagay, bil, bu jahon,
Makruh-u murdordir biza.

[1] **Ochun** — dunyo.

Yunus degay, Alloh ulug‘,
Alloh bilan dillar to‘lug‘,
Dargohiga yuz tutdi xalq,
Ishqinda iqrordir biza.

* * *

Haq bir ko‘ngil bermish mango,
Kim ha desa, hayron bo‘lur,
Bir dam kelur, shodmon kulur,
Bir dam kelur, giryon bo‘lur.

Bir dam boqarsan qish kabi,
Tom qahraton bo‘lmish kabi,
Bir dam bashoratdan tag‘in
Xush bog‘ ila bo‘ston bo‘lur.

Bir dam kelur hech so‘ylamas,
Bir so‘zni-da sharh aylamas,
Bir dam tilindan dur to‘kur,
Har dardliga darmon bo‘lur.

Bir dam chiqur Arsh ustuna,
Bir dam inur taxt ostina,
Bir dam ko‘rursan qatradir,
Bir dam toshur, ummon bo‘lur.

Bir dam jaholatga tolar,
Hech narsani bilmay qolar,
Bir dam esa hikmat o‘qib,
Jolinus-u Luqmon[1] bo‘lur.

Bir dam bo‘lur dev-u pari,
Vayronalar turgan yeri,
Bir dam uchar Bilqis[2] bilan,
Ins-jinlara sulton bo‘lur.

[1] **Jolinus** — yunon hakimi Gelen. Luqmoni Hakim — Lukretsiy.
[2] **Bilqis** — Sulaymon alayhissalom zamonida yashagan malika.

Bir dam kezur miskin, gado,
Ozg‘in badanda bir abo,
Bir dam g‘aniy hikmat ila,
Fag‘fur-u ham xoqon bo‘lur.

Bir dam kelur, osiy bo‘lur,
Haq zehnidan bir yon qolur,
Bir dam kelur, yo‘ldoshi Haq,
Ham zuhd-u ham iymon bo‘lur.

Bir dam gunohin fikr etur,
To‘p-to‘g‘ri Tomuqqa ketur,
Bir dam ko‘rur Haq rahmatin,
Uchmoqlara Rizvon bo‘lur.

Bir dam borur masjidga ul,
Surtgay yuzini yerga qul,
Bir dam kirib dayr ichra u,
Injil o‘qur, ruhbon bo‘lur.

Bir dam kelur, Muso bo‘lur,
Yuz ming munojotlar qilur,
Bir dam kirur kibr uyiga,
Fir’avn ila Homon bo‘lur.

Bir dam kelur, Iso bo‘lur,
O‘lganni qayta tirgizur,
Bir dam kelur, yo‘ldan ozur,
Rasvoyi sargardon bo‘lur.

Bir dam do‘nar Jabroila,
Rahmat sochar har mahfila,
Bir dam kelur, gumroh bo‘lur,
Miskin Yunus so‘zon bo‘lur.

BIR KO‘NGILNI SINDIRSANG

Bir ko‘ngilni sindirsang gar,
O‘qiganing namoz emas,
Yetmish ikki millat yuzing —
Yuvolmas, bunga mos emas.

Eranlar keldi-yu kechdi,
Yurti qoldi, ular ko‘chdi,
Parvoz etib Haqqa uchdi,
Uchgan humo, ul g‘oz emas.

Yo‘l uldirki, to‘g‘ri borar,
Ko‘z uldirki, Haqni ko‘rar,
Er uldirki, ezgu turar,
Tepadan boqqan ko‘z emas.

To‘g‘ri yo‘lga ketgan esang,
Er etagin tutgan esang,
Bir yaxshilik etgan esang,
Biringga mingdir, oz emas.

Shu so‘zlarni Yunus aytar,
Go‘yo yog‘ga bolni qotar,
Xalqqa matolarin sotar,
Ular gavhar, chang-tuz emas.[1]

[1] Bu va quyidagilar yangi tarjimalardan *(tarj.)*.

SO‘ZIN BILGAN HAR KISHINING

O‘zin bilgan har kishining
Yuzini oq etar bir so‘z,
So‘zin o‘ylab, so‘ng deganning
So‘lini sog‘ etar bir so‘z.

So‘z bor, to‘xtatar urushni,
So‘z bor, kestirar boshni,
Bil, og‘uli oshni ham goh
Bol birla yog‘ etar bir so‘z.

Har so‘zingni oldin pishir,
Yomonini boshdan oshir,
So‘zni to‘g‘ri yo‘lga tushir,
Ko‘nglingni chog‘ etar bir so‘z.

Kel, ey ahiy, kel, shahriyor,
So‘zimizni tingla bir bor,
Bo‘lsa ming-ming gavhar, dinor,
Qora tuprog‘ etar bir so‘z.

Bil so‘zning aytar damini,
To‘ldira bil so‘z kamini,
Bu jahon jahannamini
Sakkiz uchmog‘ etar bir so‘z.

Yuraver o‘z yo‘ling bilan,
G‘ofil o‘tma bilging bilan,
Ehtiyot bo‘l tiling bilan,
Joningga dog‘ etar bir so‘z.

Yunus, ayril so‘z yotindan,
So‘yla so‘zning g‘oyatindan,
Saqlanki, ul shoh qatindan
Seni yirog‘ etar bir so‘z.

TOSHDING TAG‘IN TELBA KO‘NGLIM

Toshding tag‘in telba ko‘nglim,
Ishqimni ardog‘larmisan?
Oqding tag‘in qonli yoshim,
Yo‘llarimni bog‘larmisan?

Ne dey, qo‘lim yetmas yora,
Topilmaydir dardga chora,
Bo‘ldim g‘urbatda ovora,
Meni bir so‘rog‘larmisan?

Yitdi yo‘limning yo‘ldoshi,
Bukildi bag‘rimning boshi,
To‘kildi ko‘zimning yoshi,
Oqizib-irmog‘larmisan?

Tuproq bo‘ldim men yo‘lingda,
Kuzatursan o‘ng-so‘limda,
Shu qarshimda ko‘ksin kergan
Tosh bag‘rli tog‘larmisan?

Qaroqchiday yo‘lim to‘sib,
Bosib tushgan, ey qorli tog‘,
Yordan ayri tushdim, endi
Sen yo‘limni bog‘larmisan?

Qorli tog‘lar boshindagi
To‘da-to‘da suzgan bulut,
Soching yoyib, men uchun ham
Ko‘z yosh to‘kib, yig‘larmisan?

O‘rtandi Yunusning joni,
Yo‘ldaman, yo‘ldoshim qani?
Yunus tushda ko‘rdi seni,
Xastalarmi, sog‘larmisan?..

KO‘NGLIM TUSHDI BIR SAVDOGA

Ko‘nglim tushdi bir savdoga,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.
Boshim berdim ul g‘avg‘oga,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Men yururman yona-yona,
Ishq botirdi bag‘rim qona,
Na donoman, na devona,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Kezib ko‘rdim yurt-u ellar,
Do‘st topmoqni ko‘nglim tilar,
G‘urbatda holim kim bilar,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Rangim sariq, ko‘zimda yosh,
Bag‘irmni dard etmish odosh,
Holim anglar dardli qardosh,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

G‘urbat ellarda yururman,
Do‘stni tushimda ko‘rurman,
Uyg‘onib Majnun bo‘lurman,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Goh to‘zarman ellar kabi,
Goh esarman yellar kabi,
Goh oqarman sellar kabi,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Goh o‘zimdan yirog‘larman,
Dardli yuragim dog‘larman,

Shayximni eslab yig‘larman,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Kel, qo‘lim tut, kutdim seni,
Vasl istamay istay neni,
Ko‘p yig‘ladim, kuldir meni,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

Men Yunusday bechoraman,
Boshdan-oyog‘i yoraman,
Do‘st axtarib ovvoraman,
Kel, ko‘r, meni ishq nayladi.

ILM ILM BILMAKDIR

Ilm ilm bilmakdir,
Ilm o‘zni bilmakdir,
Sen o‘zingni bilmasang,
O‘qimak puch, ermakdir.

O‘qimakdan ma’no ne?
Ul Haqni tanimakdir,
O‘qib-da bilolmasang,
U ish quruq emgakdir.

O‘qidim — bildim, dema,
Ko‘p toat qildim, dema,
Haqchi, eran bo‘lmasang,
Umring yelday yelmakdir.

To‘rt kitobning ma’nosi
Bir alifda ja’m erur,
Alif dersan sen, mullo,
Ma’nosi ne demakdir?

Yunus Emra der: mullo,
Ming bor hajga bor, ammo,
Baridan yaxshi, avlo
Bir ko‘ngilni olmakdir.

Turkchadan ***Tohir Qahhor*** *tarjimalari*

* * *

Darvishlik deganlari xirqa bilan toj emas,
Ko‘nglin darvish etgan zot xirqaga muhtoj emas.

Xirqaning ne gashti bor, sen haq yo‘lda yurmasang? —
Borg‘il, yo‘lingda yurg‘il, er yo‘li qolmosh[1] emas.

Dersan: shayxman ishq ila yalang oyoq, yalang bosh,
Er bor — hayot tirikdur, yalangoyoq, och emas.

Turib ma’rifat so‘ylar eranga Yunus Emram,
Yo‘l mardi-la yo‘ldadir, yo‘lsizga yo‘ldosh emas!..

[1] **Qolmosh** — behuda gap, safsata.

* * *

Men bir ajab holda keldim,
Kimsa holim bilmas mening.
Men so‘ylayman, men tinglayman —
Kimsa tilim bilmas mening.

Mening tilim qush tilidur,
Mening qo‘lim Do‘st qo‘lidur,
Men bulbulman, Do‘st gulimdur,
Biling, gulim so‘lmas mening.

Ul Do‘st menga kelsin demish,
Sundim qadah, olsin demish,
Oldim qadah, ichdim sharob,
Endi ko‘nglim o‘lmas mening!

Ne Turim bor, ne turorim,
Hech qayda yo‘qdur qarorim,
Haqqa munojot qilorim —
Tayin yerim bo‘lmas mening.

So‘r, turganim yerni mendan,
Ko‘rsaturman, kelsang senga,
Bir zarracha Haqdan ayro
Ko‘zim hech ne ko‘rmas mening.

Tur tog‘ida bir tajalliy,
Boq, Musoni nelar qildi!
Yunus aytar: Haq nazdida
So‘zim yerda qolmas mening!..

* * *

Mening bunda qarorim yo‘q,
Men bunda ketmoqqa keldim.
Bozurgonman, matoyim yo‘q,
Olganga sotmoqqa keldim.

Men kelmadim da’vi uchun,
Mening ishim sevgi uchun,
Do‘stning uyi ko‘ngullardir,
Ko‘ngullar topmoqqa keldim.

Do‘st asiri — daliligim,
Oshiqlar bilgay neligim,
Bekor qilib ikkilikni,
Birlikka yetmoqqa keldim.

Ul Xojamdur, men quliman,
Do‘st bog‘ining bulbuliman,
Ul Xojamning bog‘larida
Shod bo‘lib o‘tmoqqa keldim.

Bunda topishmagan jonlar,
Unda topishmagay onlar,
Bunda topishib Do‘st ila,
Holim arz etmoqqa keldim.

Yunus Emra oshiq bo‘lmish,
Ma’shuqi dardidan o‘lmish.
Asl mardning eshigiga
Holim arz etmoqqa keldim!..

* * *

Qullikdan yiroq bo‘lma,
Sulton ko‘rarsan bir kun.
Ko‘rsatgay jamolini,
Hayron bo‘larsan bir kun.

Kel beri, qulim, degay,
Qalbingga nazar qilgay,
Jomi abadiy sungay,
Maston bo‘larsan bir kun.

Tolib — misoli irmoq,
Murshid — misoli daryo,
Sayr-u safarni xush ko‘r,
Ummon bo‘larsan bir kun.

Qilmishsa azal qismat,
Joning topadur vahdat,
Darding bor esa, ne g‘am,
Darmon toparsan bir kun.

Bechora zaif Yunus,
Nega hasad etarsan?
Barcha sababni tashlab,
Uryon bo‘larsan bir kun.

* * *

Biz dunyodan ketar bo‘ldik,
Qolganlarga salom bo‘lsin!
Bizning uchun ezgu duo
Qilganlarga salom bo‘lsin!

Ajal bukar belimizni,
So‘ylatmayin tilimizni,
Bemor edik, holimizni
So‘rganlarga salom bo‘lsin!

Tanim oshkor ochilgaydir,
Yoqasiz to‘n bichilgaydir,
Bizni o‘ng‘ay bir vajh ila
Yuvganlarga salom bo‘lsin!

Azroil olgaydir jonimiz,
Qurir tomirda qonimiz,
Yoyib, tanga kafanimiz
O‘rganlarga salom bo‘lsin.

Ketar bo‘ldik Do‘stimizga,
Yetolmadik qasdimizga,
Namoz uchun ustimizda
Turganlarga salom bo‘lsin.

So‘zdur, so‘zlanur oraga,
Kimsa to‘ymas bu saroga[1],
Eltib bizni maqbaraga
Qo‘yganlarga salom bo‘lsin.

[1] **Saro** — saroy, dunyo uyi.

Bunda har kim ketmay netar —
Borsa kelmas yo‘lga ketar,
Bizning holimizdan xabar
So‘rganlarga salom bo‘lsin!

Oshiq uldir — Haqqa shaydo,
Haq dardiga aylar davo,
Bizning uchun xayr duo
Qilganlarga salom bo‘lsin!

Miskin Yunus so‘ylar so‘zi,
Qonli yoshga to‘lmish ko‘zi,
Bilmagan ne bilsin bizi,
Bilganlarga salom bo‘lsin!..

* * *

Foniy dunyoni netarlar,
Alloh sevgisi bor ekan!
Voh, yana qayga ketarlar,
Ul Do‘st sevgisi bor ekan!

Alloh bilan bo‘lgan kishi
Ehson bo‘lar har bir ishi,
Naylarlar g‘ayri tashvishi,
Alloh sevgisi bor ekan!

Ko‘ring, billohi, bu xalqni,
Istamaslar go‘zal Haqni,
Voh, naylarlar mol-u mulkni,
Alloh sevgisi bor ekan!

Tinglang, oshiqlar, bu so‘zni,
Bahramand aylagay sizni,
Voh, naylarlar o‘g‘il-qizni,
Alloh sevgisi bor ekan!

Yunus, sen o‘zingni ko‘rma,
Ibodat qil, mahrum qolma,
G‘ayrisiga ko‘ngil berma,
Alloh sevgisi bor ekan!..

* * *

Darvishlarning yo‘liga
Sidq ila kelgan kelsin.
Haqdan o‘zga narsani
Ko‘ngildan yuvgan kelsin!

Darvishlik deganlari
Bir tuganmas kon erur,
Xos-u omm, qul va sulton —
Bu kondan olgan kelsin!

Darvish to‘lg‘onar, tug‘ilar,
Har nafas ko‘kka og‘ar,
Men deyin: to‘g‘rilikni
Joniga kiygan kelsin!

Darvishlik bir luqmadir —
Yer bilan ko‘kdan ulug‘,
Bu azamat luqmani
Yutib, sig‘dirgan kelsin!

Darvishning ko‘zi ochiq,
Tuni-kuni uyg‘oniq,
Bu so‘zga Tangrim tanuq —
Boqmasdan ko‘rgan kelsin!

Darvishning qulog‘i sog‘ —
Haqdan eshitar saboq,
Tebranmasdan til-dudoq,
So‘zni eshitgan kelsin!

Darvishning qo‘li uzun —
Chiqarur munkir ko‘zin,
Sharq-u G‘arbni bus-butun
Kezmay, yetishgan kelsin!

Darvishlar — Haqning do‘sti,
Jonlaridir Haq masti,
Ishq sham’ini yoqdilar —
Parvona bo‘lgan kelsin.

Bu miskin Yunusni ko‘r,
Darvishlik aylab keldi,
Nafsidan bor shikoyat,
Nafsin o‘ldirgan kelsin!..

* * *

Sen joningdan kechmasdan jonon orzu qilarsan,
Beldan zunnor kesmasdan iymon orzu qilarsan.

"Man ʻarafa nafsahu..."[1] dersan, undoq emassan,
Malaklardan yuqori sayron orzu qilarsan.

Bir tifli navrastadek etagingni ot qilib,
Qoʻlga chavgon olmasdan maydon orzu qilarsan.

Bilmading sen oʻzingni, sadafda ne gavharsan,
Misrga sulton boʻlib, Kanʼon orzu qilarsan!

Ul azal olaminda sen kutmading abadiy,
Par va boling bitmasdan javlon orzu qilarsan.

Yetmish yetti parda bor — Doʻstingni qilma orzu,
Yettisin oʻtmay, vaslin chunon orzu qilarsan.

Oʻttiztasi koʻzdadir, oʻttiztasi — koʻngilda,
Buni bilmay, koʻrmoqni chandon orzu qilarsan.

Bunda xizmatga kelding, bandalik et, xizmat qil,
Hal qul boʻlmay turib, sulton orzu qilarsan!

Yunus, tushding bu dardga, Ayyubdayin sabr ayla,
Dardga chiday olmassan, darmon orzu qilarsen!..

[1] Hadisi sharifdan bir qism: "Man ʼarafa nafsahu fa qod ʼarafa Robbahu"; maʼnosi: "Kimki nafsini (yaʼni oʻzini) tanisa, u albatta Rabbini taniydi".

* * *

Ishqingda gʻarq boʻlubon men oʻzimni bilmasman.
Til bilan soʻzlayubon, sifotingga yetmasman.

Sifoting kelmas tilga, qandayliging kim bilgay!
Sunʼingni soʻylamoqqa men-chi loyiq boʻlmasman.

Ham Avvalsan, ham Oxir, hamma yerlarda zohir,
Hech maqom yoʻqdir sensiz, men ne uchun koʻrmasman!

Koʻrmasdan dali boʻldim, yanglishdim, gunoh qildim,
Aql-u hushim oldirdim, bexud, oʻzga kelmasman.

Chunki meni mast etding, jon-u dilimni eltding,
Meni Sendan ayirma, topishdim, yot boʻlmasman!

Menga jonni Sen berding, Azroilga bildirding,
Sendan oʻzga bir zotga omonatni bermasman.

Ey Yunusni yaratgan, hijobni ol oradan,
Men sodiqman yoʻlingda, yolgʻon daʼvo qilmasman!..

* * *

Ishqing ila oshiqlar yonsin, yo Rasulalloh,
Ichib mehring sharobin, qonsin, yo Rasulalloh!

Shul seni sevgan kishi tikmish yo‘lingda boshin,
Ikki jahon quyoshi — Sensen, yo Rasulalloh!

Shul seni sevganlarga et shafoat onlarga,
Mo‘min bo‘lgan tanlarga jonsen, yo Rasulalloh!

Oshiqman ul diydorga, bulbulman gul-gulzorga,
Kim seni sevmas — norga[1] yonsin, yo Rasulalloh!

Darvish Yunusning joni, olam shafoat koni,
Ikki jahon sultoni — Sensen, yo Rasulalloh!..

[1] **Nor** — olov, do‘zax.

* * *

Haq nuri oshiqlarga har dam nuzul emasmu?[1]
Kimki nuzul emas der, Haqdan ma’zul[2] emasmu?

Minal qalbi ilal qalb yo‘l bor demishlar erlar,
Har ko‘ngildan ko‘ngilga rost-to‘g‘ri yo‘l emasmu?

Qarg‘a bilan bulbulni bir qafasga qo‘ysalar,
Bir-birin suhbatidan doim malul[3] emasmu?

Andoqki, qarg‘a istar bulbuldan ayrilmoqni,
Bulbulning ham dilida maqsudi shul emasmu?

Johil bilan orifning misoli shunga o‘xshar,
Johil qoshida iymon ma’lum — majhul emasmu?

Shu’la ila donishmand hamroz erur hamisha,
Donishmand nurga aytur: shariat shul emasmu?

Yetmish ikki millatning so‘zin bilgaydir orif,
Yunus Emra so‘zlari doim usul[4] emasmu?

Turkchadan ***Mirzo Kenjabek*** *tarjimalari*

[1] **Nuzul emasmu?** — nozil bo‘lib turvchi emasmi?

[2] **Ma’zul** — (Haqdan) ayrilgan, (dargohdan) ketkazilgan; (mavqedan) bo‘shatilgan.

[3] **Malul** — malollangan; qayg‘uli, g‘amgin.

[4] **Usul** — asllar, har bir ilmning (har bir narsaning) asl-asosi va tub qoidalari.

* * *

Sanga har ishda, ey Qodir, bildik, tarjimon kerakmas,
Sen bilmagan ko‘ngillarga din ila iymon kerakmas.

Yuvdim men o‘z mayyitimni, yetimman, yo‘qlang yetimni,
O‘ldiray nafsim itini, ko‘mgali go‘rbon kerakmas.

Har kim nafsiga qul bo‘lsa, musulmon emasdir o‘lsa,
Xayr etsin ul manim bo‘lsa, bir shodmon zamon kerakmas.

Chun qora soqol oqardi, oq chiqdi — qorani oldi,
Onikim Janob qo‘lladi — ul ko‘zga tumon kerakmas.

Yunus dardi yonar-tutar, ko‘nglida Haq ishqi bitar,
Eranlar etagin tutar, o‘lganda yuvg‘on kerakmas.

* * *

Ishq erina dunyoda chi ipag-u chi palos,
Zerokim ko‘ngli aning tutmadi kibr ila pos.

Ishq amal ila bitar, kim loyiq bo‘lsa yetar —
Agarchi uryon[1] bo‘l-u agarchi kiygil libos.

Farog‘at manziliga erishmoq bo‘lsang agar,
Bor qanoat doriga nafsingni bo‘g‘zingdan os.

Nafsingning borlig‘ini aql-u hushga bo‘ysundir,
Borlig‘ing yo‘qqa chiqqay, javhar o‘l, o‘lma muxos[2].

Bu barcha gunohlarni yuvgan miskinlik emish,
Kel, Yunus, sen miskin bo‘l, tama’dan bo‘lgil xalos.

[1] **Uryon** — yalang‘och.
[2] **Muxos** — xusumatchi.

* * *

Kel, ey darvishlik istagan, aytay senga — netmoq kerak,
Sharbatlarni qo‘ldan qo‘yib, og‘uni no‘sh etmoq kerak.

Kelmoq kerak tarbiyata qomu[1] biliklaring qo‘yib,
Murabbiysi ne der bo‘lsa, bas, ul ani tutmoq kerak.

Chekib sabr-u toqatlarkim, ko‘ngillar pok o‘lib sim-sim,
Bu yo‘lda boy berib, balkim, bu yo‘lga yuz tutmoq kerak.

Bu dunyodan ko‘ngil chekib, qo‘ling birla arpa ekib,
Unin yarmiga kul sepib, gunashda[2] quritmoq kerak.

Ajab, uni qandoq yegay, nafsing uni yegin degay,
Qachonkim iftor aylagay — uch kunda bir etmoq kerak.

[1] **Qomu** — hamma, barcha.
[2] **Gunash** — quyosh.

* * *

Netayin bu dunyoni, naylabon netmoq kerak,
Doimo ishq etagin qo‘ymayin tutmoq kerak.

Janobim bu dunyoni qahri uchun yaratmish,
Ne boshga tushsa agar, qahrini yutmoq kerak.

Ul kechagi yo‘llarga anda yo‘ldosh istagan,
Bu dunyoda do‘stini rahnamo tutmoq kerak.

Jannat-jannat deydigan, qullarni eltadigan,
Jannatning sarmoyasi bir ko‘ngil etmoq kerak.

Eranlarning ohina tog‘-tosh dosh berolmadi,
Qalqoni temir bo‘lsa, o‘qlarni otmoq kerak.

Yunus er nazarinda toza gullar ochilmish,
San chindan bulbul ersang nazarda o‘tmoq[1] kerak.

[1] **O‘tmoq** — kuylamoq, sayramoq.

* * *

Darvish o‘lan kishining poklik shiori kerak,
Yo‘l ichinda ham aning nomus-u ori kerak.

Kech menlik da’vosindan, so‘yla so‘zning xosindan,
Ul Alloh qo‘rqusindan yuzlari sori[1] kerak.

Yongay jigar otashi, tinmagay ko‘zdan yoshi.
Har dam darvishning ishi — oh ila zori kerak.

Kimsaga xor boqmagil, hargiz ko‘ngil yiqmagil,
Yetmish ikki millatda darvishlik yori kerak.

Qo‘rqmagay Tomug‘indan, ummagay[2] hurlarindan,
Doim uning maqsudi — Haqning diydori kerak.

Tuproq ayla yuzingni miskinlarga, ey Yunus,
Jumlasindan ziyoda erning iqrori kerak.

[1] **Sori** — sariq.
[2] **Ummoq** — umid etmoq.

* * *

Nishoni bu — yuzi sariq, ko‘zlari yoshdir oshiqin,
Ishq o‘tida yonar joni, bag‘ri otashdir oshiqin.

Tun-kun yurar — hayron o‘lur, ishq o‘tina yonib erir,
To‘shagi tuprog‘-u qabr, yostig‘i toshdir oshiqin.

Kimsa bilmas oshiq holin, ko‘nglindan kechgan ahvolin,
Supurmakka Do‘st(ning) yo‘ling yuzi farroshdir oshiqin.

Miskin o‘lur oshiq kishi, tinmay oqur ko‘zdan yoshi,
Mol-u mulki, jon-u tani ishqqa taloshdir oshiqin.

Har bir kishi bir ish tutar ul do‘stga yaqin bo‘lgali,
Kecha-kunduz nafsi ila har dam savashdir oshiqin.

Yunus, aytar ul malomat — shayxlikni oshiqlikka sot,
Oshiqda naylar nom-u ot, badnomi xushdir oshiqin.

* * *

Ey suv, qaydan kelursan, vataning qanda[1] sening,
Qay yerni chuqur bilsang yotog‘ing anda sening.

Sen yuksakdan inarsan, tuban yerda tinarsan,
Haqqa ko‘ngil so‘narsan, faqir ko‘ngling bor sening.

Seni bulut mindirar, olamlarga endirar,
Turfa chechak undirar, xush ustoding bor sening.

Og‘ochlarga borursan, ildizlarga kirursan,
Teranlikka yurursan, yuzing, qo‘ling bor sening.

Qayda bo‘lsa ho‘l-quruq, sensiz bo‘lmas hech biri,
Na o‘liksan, na tirik, vujuding yo‘qdir sening.

Goh dengizni qucharsan, goh falakka ucharsan,
Har ismda uchrarsan, xush bozoring bor sening.

Oqib dengiz bo‘larsan, tarqalib to‘z bo‘larsan,
Ko‘llarda soz bo‘larsan — tikilgan uylar sening.

Dunyoda jonli-jonsiz — mavjud bo‘lmagay sensiz,
Jonga jonsan gumonsiz, hech monanding yo‘q sening.

Endi Yunus suvsadi, sendan ichmoq istagay,
Bir qultuming ming tillo, hech bahoying yo‘q sening.

[1] **Qanda** — qayerda, qayda.

* * *

Ey qam-u dard ahli, keling, dard manam-u darmon manam,
Kofirdagi kufri nihon, mo‘mindagi iymon manam.

Olamda fitnayi qadim, Mansurni kul etdi o‘tim,
Tilinda “Analhaq” dedim, bo‘yindagi arqon manam.

Yusufdagi husn-u kamol, Ya’qubdagi husn-u malol,
Goh badr o‘lam, gohi hilol, ko‘kda mohi tobon manam.

Namrudga qahr-u kin qotgan, Ibrohimni o‘tga otgan,
Bir tukin ham yondirmagan, o‘t-u kul-u rayhon manam.

Yunus bu jismim otidir, jismim aning bunyodidir,
Otim agar so‘rar bo‘lsang, bilgil, jonga jonon manam.

* * *

Ey ko‘ngul, bizga karam qilg‘ilki sayron etalim,
Jon-u tandan kechibon, kel, azm-u jonon etalim.

Tan nadur do‘stning yo‘linda man ani tark etmasam,
Do‘st jamolin ko‘rgali, kel, jonni qurbon etalim.

Bu fano-andar-fano[1]ni tark etaylik do‘st uchun,
Ul baqo-andar-baqo[2] mulkida javlon etalim.

Kel beri, sochilmagaymiz qatrai boron[3] kabi,
Jam bo‘lib, daryolanib, kel, qasdi ummon etalim.

[1] **Fano-andar-fano** — fano ichra fanolik.
[2] **Baqo-andar-baqo** — baqo ichra baqolik.
[3] **Boron** — yomg‘ir.

* * *

Bu darvishlik yo‘lina ishq ila kelgan kelsin,
Yo darvishlik neligin zarracha tuygan kelsin.

Holbuki, biz bu yo‘lga kelmadik riyo ila,
Bu malomat to‘nini biz bilan kiygan kelsin.

Ko‘z bilan ko‘rganini yopib etagi bilan,
Bu yo‘l ko‘p inja yo‘ldir, yuragi to‘ygan kelsin.

Katta-kichik eranlar demish bizni sevanlar,
Hayiqmasin kirgali, Allohni sevgan kelsin.

Ushbu so‘zni aytgandan bizga nishon kerakdir,
So‘z muxtasari budir: jonini kiygan kelsin.

Yunus, so‘z bilan hech kim topolmadi iqtidor,
Xullas, vujud darmiyon o‘rtaga qo‘ygan kelsin.

* * *

Ey, biz bilan yor o‘lib Do‘stga ketgan kelsin beri,
Yo‘q aylabon o‘zligin jon tark etgan kelsin beri.

Tark etaylik qiyl-u qolni, axtaraylik to‘g‘ri yo‘lni,
Ham topaylik gavhar konin, javhar olgan kelsin beri.

Javhar — bu jon maqsudidir, jon maqsudin Mansuridir,
Maqsud uchun Mansurdayin bardor bo‘lgan kelsin beri.

Yetmoq istarsan maqsuda, ko‘p xizmat ayla har ishda,
O‘zligingdan bezgin, nuri diydor bo‘lgan kelsin beri.

Kim pinhon etsa gar o‘zin, o‘shal ko‘rgaydir Haq yuzin,
Ko‘rmak istasa Haq yuzin iqror etgan kelsin beri.

Yunus, kel anglat holingni, ayon etgil ahvolingni,
Dardga tashladi joningni, darmon etgan kelsin beri.

Turkchadan ***Usmon Qo‘chqor*** *tarjimalari*

* * *

Yana yuzingni ko‘rdim, yana yuragim yondi,
Do‘st, seni ishqing o‘ti yuragimda o‘yondi.

Ko‘rkli yuzingni ko‘rgan, ko‘nglini senga bergan,
Ayon mulkingda turgan na to‘ydi, na usandi.

Gavharsan sening o‘zing, quyoshdan toza yuzing,
Shakardan shirin so‘zing, har kim ko‘rdi utandi.

Shu ko‘nglim xarob erdi, jigarim kabob erdi,
Ko‘rkli yuzingni ko‘rdim, ichim-toshim bezandi.

Yunus Emra beqaror, ul gul yuza intizor,
Sendan ayrilmas nazar, bordi, yoqildi, yondi.

* * *

Behuda kechirdim kunni, oh netayin umrim seni,
Sening-la bo‘lmadim g‘ani, oh, netayin umrim seni.

Keldim-u kechdim bilmadim, yig‘lab bag‘rimni tilmadim,
Ketar jafosin qilmadim, oh, netayin umrim seni.

Oh, o‘zimga yor sanardim, yana vafodor sanardim,
Ag‘yor ekansan bilmadim, oh, netayin umrim seni.

Ishonganim qani o‘zing, talpinganim shodon so‘zing,
Qozonganim qolur to‘zib, oh, netayin umrim seni.

Ketib, ketib turolmasang, kelib meni ko‘rolmasang,
Davr-u davron surolmasang, oh, netayin umrim seni.

Chun meni qo‘yib ketarsan, borib qabrga kirarsan,
Kirib unda so‘z aytarsan, oh, netayin umrim seni.

Xayrim, sharrim yoziladur, umrim ipi uziladur,
Surat mendan buziladur, oh, netayin umrim seni.

Miskin Yunus ketdi sarson, ajab safar etdi sarson,
Qoldi hasrat, ketdi sarson, oh, netayin umrim seni.

* * *

Musulmonlar, kim ko‘rmishdir oshiq tavba etgonini,
Kim eshitmish dengizga o‘t tushib o‘t ketgonini.

Shohim, sening ishqing o‘ti tushdi ko‘ngil daryosina,
Ajab demang, ul qaynabon ma’rifatlar bitgonini.

Yuz ming Iso bilan Muso ishqi-la sargardon kezar,
Ajab demang, ko‘rib meni ishq nahangi yutgonini.

O‘rganmasa suzishni qo‘l, kirmasin bu dengiza,
Ishq dengizi teran, ajab demang, cho‘kib botgonini.

Sarroflikni o‘rganmagan bu gavharni munchoq sanar,
Borib kelar yo‘q narsaga, bilmas nega sotgonini.

Har kim ul do‘st diydorini bunda ayon ko‘rolmasa,
Kezar yurib ul sargardon, hech bilmasdan netgonini.

Miskin Yunus Emra aytur: topganimiz do‘st yuzidir,
Ishonmagan ushbu so‘za, aytabersin aytgonini.

* * *

Do‘st yuzini ko‘rganimda, ko‘zlarimning ortar nuri,
Uchmoq kelmas nazarimga, bo‘lsa hamki ming-ming nuri.

Do‘st ko‘zimning nuridurur, bu ko‘nglimning siridurur,
Bir dam usiz turolmasman, jonim uning bilan tirik.

U do‘st bilan tirik, mening tunim-kunim, munojotim,
Qayda bo‘lsam Do‘st undadir, netarman Muso-yu Turni.

Ul Do‘stdurur barchalarning hojatini ravo qilgan,
Bor hojating undan tila, dargohina yuzing surgin.

Sen — ey garchi oshig‘isan, nihon qilgil sir so‘zini,
Bir so‘zdan o‘tga otdilar — miskin Halloji Mansurni.

Ushbu so‘zim anglamagan, aytsam senga nega o‘xshar,
Hayvondurur uning kabi tog‘da uchrar suruv-suruv.

Yunus asl oshig‘ ersang, bardosh qilgin, to‘g‘ri turgil,
Ko‘rsatadi to‘g‘ri borgan oshig‘iga diydor nurin.

Turkchadan ***Yo‘ldosh Eshbek*** *tarjimalari*

* * *

Haqdan yig‘ar ul seni, nimang bo‘lsa ber, ketar,
Nechun asraysan tanni, qurt-qumursqa yer-ketar.

O‘lganni ko‘r, ko‘zing och, to‘kilar soqol-u soch,
Ilon-chayon kelar och, tortib-talab yer, ketar.

Bizga bizdan ulug‘lar, latif fe’lga to‘lug‘lar,
Yaxshi xulqi bo‘lug‘lar: xabar shunday der ketar.

Haromdan tortgil qo‘ling, g‘iybatdan tiygin tiling,
Azroil qo‘l cho‘zmasdan bo‘ do‘konni der, ketar.

Ajal yetar qurir bosh, tez tugaydi uzun yosh,
Tekislanar tog‘-u tosh, ham osmon, ham yer ketar.

Jon nisor deb hazratga, umid-la oxiratga,
Tongda turib toatga, Tangri tomon er ketar.

Yunus tanang o‘lgusi, siynang nurga to‘lgusi,
Iymon yo‘ldosh bo‘lgusi, oxiratga she’r ketar.

* * *

Ishq yo‘lida jonini bermagan oshiq ermas,
Maydon aro do‘stga qo‘l bermagan oshiq ermas.

Ishq bodasidan ichib, nafs tilagidan kechib,
Haq yo‘lida mardona turmagan oshiq ermas.

Muhabbatni ko‘nglida jondan asrab-avaylab,
Qalb daftariga yozib yurmagan oshiq ermas.

Doim riyozat chekib, uzlatlarda tiz cho‘kib,
Haq diydorin to‘yguncha ko‘rmagan oshiq ermas.

Es-u hushdan begona, bo‘lib misli devona,
O‘tga parvona kabi yonmagan oshiq ermas.

Ishq og‘ir dardga solar, jon davo istab qolar,
Dardiga darmon-dori so‘rmagan oshiq ermas.

Ey Yunus, sen, aziz Do‘st jafosiga qil bardosh,
Yurakka ishq o‘tini urmagan oshiq ermas.

* * *

Bezanmay kelgin nigor, zebga yo‘l berma zinhor,
Bezak-la yo‘lga kirgan oqibat dunyo sevar.

Dunyoni qo‘ygin qo‘ldan, dunyo o‘tmas bu yo‘ldan,
Ikki ishq bir ko‘ngildan hech joy tutmas barobar.

Yo sevgi yo‘lin tutgil, yo yo‘ldan qolma, o‘tg‘il,
Ikki yo‘l boshin tutgan bir yo‘lga sig‘mas derlar.

Kech bema’ni toatdan, yuz o‘girma ulfatdan,
Uchma o‘tkinchi zebga, foniy ziynat ne darkor.

Qo‘y bu yaltiroq rangni, yuz ming yillik farsangni,
Kirgin-u to‘g‘ri yo‘lga dadil tashla qadamlar.

Bu davrondan o‘tib ko‘r, karvon ketdi yetib ko‘r,
Qo‘rquv to‘la o‘ng-so‘lda hayiqmasdan ketarlar.

Begona yo‘l izlama, uydan chetni izlama,
Jon yo‘li jon ichida, jon rozin his etarlar.

Jon rozini jon bilgay, biroq chiqarmas tilga,
Haqiqiy oshiq do‘stga yolg‘onni nomard aytar.

Qadim-qadimdan beri, rostga oshiq Haq yeri,
Kelgan kirdi ichkari, Yunus chetda bexabar.

* * *

Ey Do‘st, seni sevarman, jon ichra joying bordir,
Tun-kun orom olmasman, ajib bir holim bordir.

Sen gulni ko‘rganingda tikoniga qo‘l cho‘zma,
Dushmandan qo‘rqish nechun gar halol yorim bordir.

G‘animlar aytar menga, so‘z aytish qandan[1] senga,
Menga so‘z aytish qandan, mening uctozim bordir.

Topgan-tutganingni miskinlarga xarj ayla,
Umring uzoq bo‘lsa ham oxiri o‘lim bordir.

Faqat o‘zin o‘ylagan sargardon bo‘lsa ne tong,
Mening bir chumoliga, valloh, isnodim bordir.

Tongda uyg‘ongan zamon bulbulga jo‘r bo‘larman,
Ko‘ngilda ma’ni bitar, dardli jigarim bordir.

Yunus Emra, o‘z o‘zing, tuproqqa burgil yuzing,
Xoliqimga munosib miskinligim bordir.

[1] **Qandan** — qaydan, qayerdan.

* * *

Sensan mening jonim joni, sensiz qarorim yo‘q mening,
Gar jannatda bo‘lmasang, valloh, boqorim yo‘q mening.

Boqsam seni ko‘rar ko‘zim, so‘z so‘zlasam sensan so‘zim,
Seni tavof aylamakdan o‘zga shikorim yo‘q mening.

So‘ylar bo‘lsam dilimdasan, jim yursam gar ko‘nglidasan,
Ko‘nglim, ko‘zim seni sevar, bo‘lak nigorim yo‘q mening.

Chun men o‘zim unutganman, zero, sen sori ketganman,
Bexabarman, ne holdamen, bir qarorim yo‘q mening.

Agar meni Jirjis kabi yetmish bora o‘ldirsang ham,
Qaytib yana senga borgum, zeroki, orim yo‘q mening.

Seni ko‘rdim oftob kabi, jannat menga zindon kabi,
Jannatingga zohidman-u, uchmoqqa zorim yo‘q mening.

Yunus faqat oshiq senga, ko‘rsat diydoringni menga,
Yorim yolg‘iz sensan mening o‘zga diydorim yo‘q mening.

* * *

Aytib beray ne qilganin mening bilan ul dilpazir,
Har doim yangi ishva bilan meni tag‘in qilur asir.

Qayon nigoh qilmayin ko‘zimga ul ko‘rinar,
Ul sarvarning lutfi meni shul vajh ila qildi basir.

Umrim qancha bo‘lsa hamki ozod bo‘lmoq ilojsizdir,
Sayyod qo‘lidan kim olur tuzoqqa ilingach naxjir[1].

Oqil ersang kelib menga fazilatin so‘ylama sen,
Qaysi fazilatin aytay, misli yo‘q uning, benazir.

Va’da bo‘ldi barchaga “oxiratda ko‘rarsiz” deb,
Mening yorim shul yerda, ko‘ringaydir ul Qadir.

Yunus tavajjuh qilaylik ishq Ka’basiga jon ila,
Bo‘ldi mug‘iylon tikoni oyoq ostida harir.

Yunus endi bildim dema, miskinlikni qo‘ldan qo‘yma,
Kimga miskinlik yor ekan, Haq diydorin ul ko‘rgazir.

[1] **Naxjir** — ovlangan, tuzoqqa ilingan o‘lja.

* * *

Avliyoga munkirlar[1] Haq yo‘lida osidir[2],
Shu yo‘lga osi bo‘lgan ko‘ngillarning posidir[3].

Tortdik bu ishq jafosin, ma’shuqqa yetushguncha,
Zeroki, ul Do‘st mening dardimning davosidir.

Hanuz bu yer bo‘lmasdin samo yaratilmadi,
Avliyolar vatani podshoh qal’asidir.

Mavlono Parvardigor bizga nazar solgusi,
Oning go‘zal nazari ko‘ngullar oynasidir.

Miskin bo‘l yorga, miskin, ketgay sendan kibr-u kin.
Shamol esar, o‘tib ketar, bas kimga qolgusidir.

Kiyiklarga o‘z-o‘zidan, so‘z so‘ylarmish ul Hasan[4],
Qudrat tilidir so‘zlar o‘zidan so‘z nasidir[5].

O‘qib turib yozmading, yanglishibon ozmading,
Yunus, bu ishq so‘zini, kim bildi, bilgusidir.

[1] **Munkir** — inkor qiluvchi, kofir.

[2] **Osi** — osiy, gunohkor.

[3] **Pos** — zang.

[4] Tog‘da kiyiklar bilan suhbat qurgan valiyning nomi. Xonaqoh va masjid bino qilgan. Turbasi Kashish tog‘i etagida joylashgan.

[5] **Nasidir** — nimasidir.

* * *

Alloh deyaylik doim, ko‘raylik, Alloh naylar,
Yo‘lda turaylik qoim, ko‘raylik, Alloh naylar.

Alloh debon qil zorni, ul yaratgandir borni,
Undan kutamiz yori, ko‘raylik, Alloh naylar.

Chiqarmaylik hech yoddan, ayrilmaylik biz yordan,
Adashmaylik-da yo‘ldan, ko‘raylik, Alloh naylar.

Ochlik so‘nggi to‘qlikdir, to‘qlik so‘nggi yo‘qlikdir,
Bu yo‘llar qo‘rquvlikdir, ko‘raylik, Alloh naylar.

Sen o‘ylamagan yerda, nogoh ochilsa parda,
Darmon topilsa dardga, ko‘raylik, Alloh naylar.

Kunduz bo‘laylik soim, tunda bo‘laylik qoim,
Alloh deyaylik doim, ko‘raylik, Alloh naylar.

Ismi zehn-u tillarda, sevgisi ko‘ngillarda,
Shul qo‘rqinchli yo‘llarda, ko‘raylik, Alloh naylar.

Haqning yo‘liga kirdim, kufrni suvga otdim,
Miskinlikka qo‘l urdim, ko‘raylik, Alloh naylar.

Har dam cho‘maylik bahrga, aldanmaylik dahrga,
Sabr etaylik qahrga, ko‘raylik, Alloh naylar.

Or-nomusni tashladim, ko‘ngillarni g‘ashladim,
Darvishlikka boshladim, ko‘raylik, Alloh naylar.

Majnun kabi ovora, oshiq bo‘libon yora,
De Yunus sen bechora, ko‘raylik, Alloh naylar.

Yunus bu ishq o‘zingdan deya gumon qilmagil,
Barchaga jon Haqdandir, ko‘raylik, Alloh naylar.

Netdi, bu Yunus netdi, bir to‘g‘ri yo‘ldan ketdi,
Pirlar etagin tutdi, ko‘raylik, Alloh naylar.

* * *

Ishqsiz odam dunyoda, asli odam emasdir,
Har biri bir narsaga sevgisi bor, oshiqdir.

Allohning dunyosida yuz ming turli sevgi bor,
Qabul qilgil o‘zingga, ko‘r, qay biri loyiqdir.

Biri Rahmonir Rahim, biri Shaytonir rajim,
Gunoh-u savoblari sevgisiga taalluqdir...

Dunyoda Payg‘ambarning boshiga tushdi bu ishq,
Tarjimoni Jabroil, Ma’shuqasi Xoliqdir.

Umar-u Usmon, Ali Mustafo yoronlari
Shu to‘rtovlon ulug‘i, Abu Bakr Siddiqdir.

Olam faxri Muhammad Me’rojga chiqqanida
Tangridan tilagani ummatiga oziqdir.

Yunus, sen o‘z aybingni, o‘ylagil, boshqani qo‘y,
Birovlarning aybiga sen qarama yoziqdir[1].

[1] **Yoziq** — gunoh.

* * *

Haq jahonga to‘ladir, kim o‘zi Haqni bilmas,
Uni sen o‘zingdan so‘r, U sendan ayri bo‘lmas.

Dunyoga ishongaysan, rizqni meniki deysan,
Nega yolg‘on so‘zlaysan, hech aytganing bo‘lmas.

Oxirat yo‘li yiroq, to‘g‘rilik qayda yaroq,
Ayriliq ketgan firoq, ketgan hech qaytib kelmas.

Dunyoga kelgan ketar, bir-bir sharbatni ichar,
Bu bir ko‘prikdir — o‘tar, johillar buni bilmas.

Kelinglar, do‘st bo‘laylik, ishni oson qilaylik,
Sevaylik, sevilaylik — dunyo hech kimga qolmas.

Yunus so‘zin tinglagin, so‘z ma’nosin anglagin,
Amal qil Haqqa doim, bunda hech kimsa qolmas.

Turkchadan ***Fayzi Shohismoil*** *tarjimalari*

* * *

Madad qil, dardima darmonim, Alloh!
Ki Sensan jonima jononim, Alloh!

Davo bergil manga, dardim ko‘p og‘ir,
Yetishtir dardima, darmonim, Alloh!

Hama maxluq sanga yolvoradurlar,
Alarning zikrida subhonim, Alloh!

Yuzum qarosina boqma ilohim,
Kechir ma’siyatim, g‘ufronim, Alloh!

Qarong‘u kechalarda zori qildim,
Ulashdi zorima afg‘onim, Alloh!

G‘arib Yunus, seni ko‘pdir gunohing,
Rahimsan, Rahmat-u Rahmonim Alloh!

* * *

Bir soqiydan sharob ichdik, Arshdan yuksak mayxonasi,
Ul soqiyning mastlarimiz, jonlar aning paymonasi.

Bir majliski, majlisimiz, unda jigar kabob bo‘lur,
Bir shamdur unda yonar, oy-u quyosh parvonasi.

Ul sham o‘tida yonganning bori vujudi nur bo‘lar,
Ul o‘t bu o‘tga o‘xshamas, hech bilinmas zabonasi[1].

Ul majlisning oshiqlari Ibrohim Adhamdir bari,
Balx shahriga teng erur, har bir go‘sha vayronasi.

Bizning majlis mastlarning “Analhaq”dir har bir dami
Ming Halloji Mansur kabi eng ojizi devonasi.

Ishq sharobin ichganga, kel bir nazzora ayla, ko‘r,
Qancha yilki aylanodur, ul majlisning piyolasi.

Yunus, bu so‘zlaring seni, ma’no erur bilganlarga,
Aqli komil bo‘lgan kishi bu ma’noga inonasi[2].

[1] **Zabona** — alanga, yolqin.
[2] **Inonasi** — ishonadi.

* * *

Ajab daryo, ki qatradin ko‘rindi,
Na daryodur, na qatradur, ko‘r endi.

Ajab qatra, ki daryo anda maxfiy,
Bu sir, sirrini sen, sendin so‘r endi.

O‘n sakkiz ming olam murodi sensan,
Bu g‘aflat bas, sanga sandandur endi.

Kel endi, o‘zligingni o‘zdin axtar...
O‘zingga boq, bil, o‘zda kimdur endi?..

Fano bo‘lkim, visol zavqin toparsan,
Bu so‘zim tush esa qil ta’bir endi.

Nur-u zulmat hijobi — bari senda,
“San-san”-u “man-man”ni qo‘ygil, tur endi.

Senga sendin yaqin u — haddin afzun,
Xoslar mulkiga sulton bo‘l, yur endi.

Oshiq-u ma’shuq-u ishq asli birdur,
Bu birdin garchikim yuz ming ko‘rindi...

Agar oyina ming bo‘lsa boqqan bir,
Ko‘rgan bir, ko‘ringan ming-mingdur endi...

G‘arq etmoq istasa, kema cho‘kodur,
Yunus, dengizga kir, g‘avvos ur endi.

* * *

Sendin kelur jafolar,
Men oh-u zor etmayin.
Tushdim ishqing o‘tiga,
Yonayin, tutamayin...

Boq kezarman yona-yona,
Oh, jigarim to‘ldi qona.
Ishqingda man devona,
Ko‘p ham nola qilmayin...

Sening ishqing dengiziga
Tushayin, g‘arq bo‘layin.
Qo‘lim tutar kishim yo‘qdir,
Meni tutgin, cho‘kmayin.

Sakkiz jannat hurlari,
Kelsalar jam bo‘lishib,
Loyiqing bo‘lmaganni
Men ularga qo‘shmayin.

Yunus Emro, sen bu so‘zni
Yuz bor aytsang oz erur.
Eshitganlar oshiq bo‘lur,
Haddan ortiq cho‘zmayin.

* * *

Solikning matlubi “Hu”dir, orifning irfoni “Hu”,
Oshiqning ma’shuqi “Hu”dir, tolibning sayroni “Hu”.

Sirri jon ahlidan so‘rdum, dedi: “Hu”dir Lomakon,
Lomakon ahlidan so‘rdum: Lomakoning qani? “Hu”.

Dardmand bo‘lgan kishidan so‘rdilar dard aslini,
Asli “Hu”dir, fasli “Hu”dir, dardimning darmoni “Hu”.

Olamning lavhin munavvar qildi nuri “Hu” ila,
Zikri “Hu”dir, fikri “Hu”dir, sirri “Hu”dir, shoni “Hu”.

Oshiqin sirri azaldin bir bo‘libdir nur ila,
Bu muammoda musalsal[1] kim aning devoni “Hu”.

Bu Yunusning ko‘ngli “Hu”dir, ishqi “Hu”dir, shavqi “Hu”,
Bir davosiz dardga tushmish holi-yu afg‘oni “Hu”.

[1] **Musalsal** — bir-biriga zanjirdek ulangan.

* * *

Har kim manga ag‘yor esa,
Haq Tangri yor bo‘lsin anga.
Har qayonki, borar bo‘lsa,
Bog‘-u bahor bo‘lsin anga.

Menga og‘u bergan kishin
Shahd-u shakkar bo‘lsin oshi.
Har bir ishi oson kechsin,
Haqdan mador bo‘lsin anga.

Oldimda kim choh qazisa,
Taxtin baland etsin Tangri.
Ortimdan kim toshlar otsa,
Gullar nisor bo‘lsin anga.

Sho‘r tole’im tilaganga
Shirin umr bo‘lsin nasib.
Menga o‘lim tilasa kim,
Umri chinor bo‘lsin anga.

Kim istasa — xor bo‘lsam,
Dushman qo‘lida zor bo‘lsam,
Do‘stlari shod-u dushmani —
Do‘st-u hamkor bo‘lsin anga.

Miskin Yunusning dunyoda
Kulganini eshitmayin.
Yig‘lashini istasa kim,
Ko‘zim bihor[1] bo‘lsin anga...

[1] **Bihor** — bahr, ya’ni dengiz.

* * *

Eslab qiyomat kunini, yig‘lashaylik u kun uchun,
U kun — malomat kunidir, yig‘lashaylik u kun uchun.

U kun yerlar yorilar, barcha o‘lgan tirilar,
Jumla gunoh so‘rilar, yig‘lashaylik u kun uchun.

U kun osmon darz ketar, odamlar to‘p-to‘p yurar,
Kim qo‘rqmas eslab agar... yig‘lashaylik u kun uchun.

Oh u kunning qo‘rquvlari, qaritadi ma’sumlarni,
Bisyor bo‘lar mujrimlari, yig‘lashaylik u kun uchun.

U kun qattiq afg‘on bo‘lar, erkak ayol uryon[1] bo‘lar,
Barcha jigar biryon bo‘lar, yig‘lashaylik u kun uchun.

Yunus Emro yo‘lga kirar, ahvolin kim, qaydin bilar,
Magar darmon Haqdan kelar... yig‘lashaylik u kun uchun.

[1] **Uryon** — yalang‘och.

* * *

Hayhot, bu mening jonim, ozod bo‘larmi, yo Rab?
Yo‘qsa, yetti do‘zaxda mangu qolarmi, yo Rab?

Hayhot, bu mening holim, yer tagida ahvolim,
Borib yotajak joyim, chayon to‘larmi yo Rab?

Alloh bo‘lajak qozi, bizdan bo‘larmi rozi,
Ko‘rub habibi bizni, shafi’[1] bo‘larmi yo Rab?

Jon halqumga kelganda, Azroilni ko‘rganda,
Bu jonimni olganda, oson olarmi, yo Rab?

Yunus go‘rga borganda, Munkar-Nakir kelganda,
Mendan savol so‘rganda, tilim do‘narmi[2], yo Rab?

[1] **Shafi’** — shafoat.
[2] **Do‘nmoq** — aylanmoq, qaytmoq.

* * *

Ko‘ngul, zerikmading sen bu safardan,
Allohim saqlasin seni xatardan.

Kishikim kishining qahrin keltirsa,
Uzoqroq ketgani avlo nazardan.

Tug‘ilibman, g‘urbat ezar bag‘rimni,
Bag‘ir qoni sizar, tomar jigardan.

Vatan bo‘ldi — tikan, g‘urbat — guliston,
Ham afzal bo‘ldi og‘u nayshakardan...

Gavhar deganlari ilm-u hunardir,
Hunar afzal erur dur-u guhardan.

Yunus, ko‘ksing ochib yoringa ketding,
Allohim saqlasin seni xatardan.

* * *

Podshohlik Seningdir, qudrating bor,
Yaratding yer-u ko‘kni, haybating bor.

Nishonsizning nishonin kimsa bilmas,
Agarchi benihoyat oyating bor.

Tillar sifatlaydi zotingni, ammo,
Hali aytilmagan ming bir oting bor.

Na nisbat, na qiyos, na naqsh-u belgi,
Na o‘rta-yu chekka, nihoyating bor.

Na rang-u shakling, na jism-u rasming,
Na qadd-u qomat, na surating bor.

Barcha ins-u jinga shafqat qilursan,
Inoyating bois, xush himmating bor.

Na dunyo-yu uqbo, na kof-u na qof,
Bari daryodin tomchi, malakuting bor.

Na intiho bor-u na hadd-u makon,
Na o‘xshashing-u na kayfiyating bor.

* * *

Aqllar lol erur Zotingni bilmay,
Zarrada mujassam ming ibrating bor.

Koinotni qamrab ihota etmish
Qudrating, hukming-u hukumating bor.

Seningdur Arsh-u Kursi, Lavh-u Qalam,
Charx aylanar, yer turar, hikmating bor.

Yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambaring-la
Me’roj-u Tur, yana munojoting bor.

Musaxxardir bari farmoning ichra,
Jami qullaringa muruvvating bor.

To‘rt yuz qirq to‘rt toifa avliyoga,
Berilgan munosib karomating bor.

Olti ming olti yuz oltmish oltita
Xalq ichra o‘qilur haq oyating bor.

Yunusga bas emas... ey rahmati ko‘p,
Barcha osiylarga mag‘firating bor.

* * *

Yana yoz kunlari keldi, so‘yla bulbulginam, so‘yla,
Chechaklar chiroya to‘ldi, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Yashil to‘n kiydi og‘ochlar, parvoz urib uchar qushlar,
Sasing jona jon bag‘ishlar, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Ishqi bila qaynab jo‘shgin, ko‘ngil tashvishlaring ketsin,
Chiq gulzora, hasrat to‘kkin, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Quruq tikanda gul bitar, hasrat qilar, takror unar...
Darding bormi mendan battar? So‘yla bulbulginam, so‘yla.

Bulbul gulga oshiq erur, oshiq holin kim ham bilur?..
Gulga boqib pok ishq-la, tur, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Qudrat ganjlari ochildi, olamga rahmat sochildi,
Hulla-yu[1] to‘nlar bichildi, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Shayxim unda-yu men bunda, jonim qaror olmas tanda,
Zor ingrayman tun-u kunda, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Qanotlaring ochib-ochib, parvoz etgin uchib-uchib,
Daryolardan kechib-kechib, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

Polaponlaring oldilar, seni devona qildilar,
Dunyomiz shunday dedilar, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

O‘tdi-ey umrimning bori, tark etarsan bu gulzori,
Yunusning munisi, yori, so‘yla bulbulginam, so‘yla.

[1] **Hulla** — bezakli, nozik kiyim, ipakli nafis mato.

* * *

Senga aytay birodar, tur erta namozingga,
O‘lik emassan agar, tur erta namozingga.

Azon o‘qir muazzin, chaqirar Alloh otin,
Yiqma dining bunyodin, tur erta namozingga.

Gar parvoz etsa qushlar, tasbih o‘qur og‘ochlar,
Himmat olar qardoshlar, tur erta namozingga.

Namoz o‘qi, zikr ayla, duo qilgin, shukr ayla,
O‘limingni fikr ayla, tur erta namozingga.

Namoz qil yarog‘ o‘lsin, mahsharda dil chog‘ o‘lsin,
Qabringda charog‘ o‘lsin, tur erta namozingga.

Namoz qil iymon ila, yotmagil gumon ila,
Ketmassan armon ila, tur erta namozingga.

Chiqar ketar jon axir, qolar bunda tan axir,
Darvish Yunus san axir, tur erta namozingga.

* * *

Qish zulmatin tark etdi, keldi bahor, yoz ila,
Sabza, giyohlar bitdi, mavj urdilar noz ila.

Yana maysazor bo‘ldi, yana gul-gulzor bo‘ldi,
Baxshi kuy tuzar bo‘ldi, musiqada soz ila.

Xushxabar keldi do‘stdan, yaratmish bog‘-u bo‘ston,
Ilm o‘qur hazor doston[1], bulbullari noz ila.

Kim ko‘rgandir boyqushning gulistonga kirganin,
Laylaklar zikr etolmas bir latif ovoz ila.

Uzoq kutgan bilan dur, dona gavhar bo‘lmaydi,
Kaklik kaklik-la uchar, boz[2] uchadi boz ila.

Qo‘l qushi qo‘ldan qo‘lga, gul qushi guldan gulga,
Boyqush vayrona sevar, shohinlar[3] parvoz ila.

Qaydaki murdor esa kargaslar[4] anda hozir,
To‘ti qafasin shakkar etarlar tuzog‘ ila...

Har kimga o‘z hamjinsi, hammaslagi munosib,
Sodiqlar iqror ila, so‘filar namoz ila.

Johil, munofiq, munkir, bari aqliga shokir,
Oshiqlar diydor istar, oriflar niyoz ila.

[1] **Hazor doston** — bulbul, bulbulning nolasi.
[2] **Boz** — lochin.
[3] **Shohin** — qirg‘iy.
[4] **Kargos** — o‘laksaxo‘r qush.

* * *

Darveshlik deganlari quruq da'vo emasdur,
Haq bilan Haq bo'lganlar, diydor, jannat, bog' ila.

Men darvishman deganlar, yolg'on da'vo qilganlar,
Haq diydorin ko'rmaslar qosh-u ko'z, qabog' ila.

Ilm-u amal ne foyda, bir ko'ngulni ranjitsang,
Orif ko'ngul olsa gar, barobar Hijoz[1] ila...

Katta minbar tuzilar, bandalikdan so'rilar,
Ming takabbur teng bo'lmas, bir g'aribnavoz[2] ila.

Kimdir do'kon yuritar, kimdir ziyofat istar,
Kimdir bir pulga muhtoj, boshqasi jonboz[3] ila.

Bandaning nasibasin sulton tortib ololmas,
Zulqarnayn nayladi Xizr yo Ilyos ila.

Ko'rmaysanmi Adhamni, taxtini tark ayladi,
Haq qoshida xos bo'ldi, bir eski palos ila.

Bu dunyoga ishonma, dunyo meniki dema,
Mening deganlar ketdi, o'limlik libos[4] ila.

[1] **Hijoz** — Makka va Madina joylashgan hudud. Baytda bir insonning ko'nglini olish, Makka va Madinaga tenglashtirilgan.

[2] **G'aribnavoz** — g'aribning ko'nglini oluvchi.

[3] **Jonboz** — jon o'ynovchi, ma'shuq.

[4] **O'limlik libos** — kafan.

Ishq yomg'irin tomchisi ko'ngil ko'kidan tomar,
Sevgi sabosi kelar yomg'ir-u ayoz ila.

Yunus, endi g'am yema, turfa ish qilay dema,
Yozgani boshga kelar, taqdiri Korsoz[1] ila.

[1] **Korsoz** — ishni bajaruvchi, ishni oxiriga yetkazuvchi. Baytda Alloh ma'nosida.

* * *

Iloho, dardimning darmoni sensan,
Gunohkor bandaning g‘ufroni sensan.

Sening amring bilan kezar falaklar,
Quyosh-u oyning davroni sensan.

Xalilning hullasi, Ya’qubning ohi,
Yusufning band ila zindoni sensan.

Musoning iltijosi Tur tog‘inda,
Isoning ko‘kdagi sayroni sensan.

Ko‘zimning nuri-yu jismim hayoti,
Ko‘ngullar taxtining sultoni sensan.

Yunus Emro saboqni sendan o‘qur,
Qo‘linda daftar-u devoni sensan.

Turkchadan ***Sayfiddin Sayfulloh*** *tarjimalari*

DUNYOSAN

Bilurman sani, yolg‘on dunyosan,
Avliyolarni olg‘on dunyosan,
Qochgan qutulmas saning qo‘lingdan,
Temir qafaslarni qurg‘on dunyosan.
Sevganing olding, meni yig‘latding,
Do‘nib kularak, boqg‘on dunyosan.
Sulaymon taxtin sen vayron etding,
Ma’sumlar bo‘ynin buqg‘on dunyosan.
Dunyo odam-la etti bor to‘ldi,
Oxir bizdan-da qolg‘on dunyosan.
Falak — tegirmon, charx urib do‘nar,
Uning charxini buzg‘on dunyosan.
Yunus ham samo etib charx urar,
Bizim charximiz buzg‘on dunyosan.[1]

[1] X. Davron tarjimalari internetdan (https://kh-davron.uz) olindi *(T.Q.)*.

BULBUL, HEY

Bu yerlarda g‘aribsanmi,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Uzun yo‘llar yuribsanmi,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Uchib qorli tog‘ oshdingmi,
Soy-u irmoqlar kechdingmi,
Yoringdan ayru tushdingmi,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Qo‘zi kabi bo‘zlarsan,
Manim dardim tozalarsan,
Do‘stni ko‘rmakni tilarsan,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Qanoting ocha bilarsan,
Uchubon qocha bilarsan,
Hijoblar yecha bilarsan,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Qal’ang, shahring yiqildimi,
G‘urbatda yoring qoldimi,
Yo nomus-oring qoldimi,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
Qimmating bilinmas bo‘ldimi,
Holing so‘ralmas bo‘ldimi,
Do‘st-yoring ko‘rinmas bo‘ldimi,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?
O‘z ko‘nglingni tinglayarsan,
Tog‘-u toshni kuylatarsan,
Yunus kabi ingrayarsan,
Nechun yig‘larsan, bulbul, hey?

BALIQ SUVDAN CHIQSA

Manim ko‘nglim, ko‘zim ishqdan to‘ladir,
Dilim so‘ylar: Yorim uzum gulidir.
O‘t og‘ochi kabi yonar vujudim,
Tutuni ko‘ylarda sahar yelidir.
Sening ishqing — dengiz, man bir baliqchi,
Baliq suvdan chiqsa, hamon o‘ladir.
Sani sevganlarning aqli bo‘lurmi?
Bir dam esli bo‘lsa, bir dam dalidir.
Yunus, sen tuproq bo‘l yoring yo‘lida,
Yoronlar manzili arshdan uli[1]dir.

[1] **Uli** — ulug‘ ma’nosida.

ISHQING O‘TI

Ishqing o‘ti jigarimni
Yoqib keldi, yoqib ketar.
G‘arib boshim bu savdoni
Chekib keldi, chekib ketar.
Zulm etdi firoq jonima,
Oshiq bo‘ldim sultonima,
Ishq zanjirin do‘st bo‘ynima
Taqib keldi, taqib ketar.
Sodiqlar turar so‘zina,
O‘zga ko‘rinmas ko‘zina,
Bu ko‘zlarim do‘st yuzina
Boqib keldi, boqib ketar.
Orada bo‘lmasin noshud,
Sog‘ emas bag‘rimning boshi,
Ko‘zlarimning qonli yoshi
Oqib keldi, oqib ketar.
Bulbul aylar oh-u fig‘on,
Hasratida yondi bu jon,
Manim ko‘ngiljo‘yim, ay jon,
Chiqib keldi, chiqib ketar.
Yunus anglar bu dilarni,
Faryod aylar bulbullari,
Do‘st bog‘chasining gullari
Qo‘qib keldi, qo‘qib ketar.

ISHQ

Biz hammamiz ishq qulimiz,
Ishqdir bizning sultonimiz.
Ishq yo‘lida o‘lsak agar,
Ishqqa haloldir qonimiz.
Ishq mandan mani oladi,
Yor ishqin dilga soladi,
Dil ishqqa qurbon bo‘ladi,
Yor bo‘lsa gar imonimiz.
Ishq birla boshim xush bo‘lur,
Xayolimga yo‘ldosh bo‘lur,
O‘n ikki oy sarxush bo‘lur,
Ishqqa asirdir jonimiz.
Doim yurakda kezadir,
Na maylimizni buzadir,
Na so‘ladir, na to‘zadir,
Bizning bu gulistonimiz.
Yunus deyar: necha-necha
Kunlar oxir bo‘ldi kecha,
Qonimizni to‘ymay ichar
Bu yolg‘onchi davronimiz.

MANGA SAN KERAKSAN

Ishqing oldi mandan mani,
Manga san keraksan, san!
Jismim yonur kecha-kunduz,
Manga san keraksan, san!
Na borliqqa sevinarman,
Na yo‘qliqqa quvonarman,
Ishqing ila ovunarman,
Manga san keraksan, san!
Ishqing oshiqni o‘ldirur,
Ishq dengizida qoldirur,
Tajallo ila to‘ldirur,
Manga san keraksan, san!
Qayg‘ularing ulug‘ pesham,
Majnun bo‘lib tog‘lar osham,
Sansan umrlik andisham,
Manga san keraksan, san!
So‘fiylara suhbat kerak,
Oqillara oxrat[1] kerak,
Majnunlara Layli kerak,
Manga san keraksan, san!
Agar mani o‘ldirsalar,
Kulim ko‘kka sovursalar,
Tuprog‘im sani chaqirar,
Manga san keraksan, san!
Miskin Yunus manim otim,
Kun-u kundan ortar ohim,
Ikki jahonda murodim,
Manga san keraksan, san!

[1] **Oxrat** — oxirat ma’nosida.

DEDIM

Jonlar fido yo‘lingda,
Bu jon qayg‘usi dedim.
San bir jahonsan mana,
Jahon qayg‘usi dedim.

Jonlar ichinda jonsan,
San bir obi hayvonsan,
Bizga din-u imonsan,
Imon qayg‘usi dedim.

Dilimni tig‘siz tildim,
Yaram kindandir bildim,
Yonina oshkor keldim,
Pinhon qayg‘usi dedim.

Ishq sharobin totmisham,
Ming murodga yetmisham,
Mast bo‘lib-da yotmisham,
Sayron qayg‘usi dedim.

Jon-u ko‘nglimni netdim,
Ishqnin o‘tina otdim,
Bu jahonni unutdim,
Gumon qayg‘usi dedim.

Ishqin burchindan uchdim,
Javlon urubon kechdim,
Man do‘st bilan bo‘lishdim,
Javlon qayg‘usi dedim.

Bahr-ummona to‘lmisham,
Unda sadaf bo‘lmisham,
Gavhar bo‘lib qolmisham,
Ummon qayg‘usi dedim.

Bir erkin tarlon qushdim[1],
Yunus, par-u fol ochdim,
So‘ng manzila qovushdim,
Karvon qayg‘usi dedim.

[1] **Qushdim** — qush edim ma’nosida.

MANI MANDA DEMA...

Seviram man sani jondan ichari[1],
Yo‘lim bordir bu arkondan ichari.
Shariat, tariqat yo‘ldir ketguncha,
Haqiqat mevasi undan ichari.
Dinin tark etganning kufrdir ishi,
Oh, na kufrdir imondan ichari.
Mani manda dema: manda deganim
Bir man bordir manda Mandan ichari.
...Sulaymon qush tilin bilur, dedilar,
Sulaymon bor Sulaymondan ichari.
Tajallodan bir pay chatdi kamina,
Kamina maqsadi bundan ichari.
Saning ishqing mani mandan olibdi,
Ne shirin dard bu darmondan ichari.
Miskin Yunus ko‘zi duch keldi sana,
Bog‘ingda bir gul bor Sultondan ichari.

[1] **Ichari** — ichkari, yanada ichkariroqda, yanada pinhonroqda ma’nosida kelmoqda.

QONIM ISHQQA HALOL

Ay, yoronlar so‘ylamasman,
Jonim nega tolganini,
Vasf etmakka qo‘rqar dilim,
Ko‘nglimni kim olganini.
Ko‘nglim to‘la, sig‘mas dila,
Oshiq bo‘lar bu hol ila,
Ishq kimlarni berdi yela,
Anglayolmas bo‘lganini.
Ishqdan xabar bilganlarni,
Ishq dardi-la to‘lganlarni,
Kufr-u imon olganlarni
Ayblamasman kulganini.
…Ishq Yunusni ayladi lol,
Manim qonim ishqqa halol,
Qo‘y, barini etsin paymol,
Ko‘rmay ayru qolganini…

*Turkchadan **Xurshid Davron** tarjimalari*

AHMADIY

AHMADIYNING HAYOTI VA IJODI

Ahmadiy (1334–1413) — Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim hayoti va ijodi haqida bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarda chalkashliklar mavjud. Manbalarda, shoir tug'ilgan va vafot etgan sana ko'rsatkichlarida ham farq bor. Garmiyonda (ba'zi manbalarda Sivas, Istanbul ko'rsatilgan) tug'ilgan Ahmadiy boshlang'ich ma'lumot olgach, bilimini takomillashtirish uchun Qohiraga jo'naydi. Qohirada o'z davrining mashhur tabibi Shamsiddin Muhammad al-Fanoriydan tabobat ilmini o'rganadi. Ahmadiyning Qohirada necha yil yashaganligi va qachon vataniga qaytganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U 1403-yili Amasyaga kelganda, Anqara yaqinidagi jangda Boyazid ustidan g'alaba qozongan Amir Temur ham o'sha yerda ekan. Ahmadiy Sohibqironga bag'ishlab qasida yozadi va Amir Temur uni o'ziga nodim qilib oladi. Lekin, tez orada Ahmadiy Amasyadan qochib, Boyazidning to'ng'ich o'g'li shahzoda Sulaymon hukmdorlik qilayotgan Edirna shahriga boradi. Taxt talashgan shahzoda Mexmet o'z akasi Sulaymonni 1410-yilda o'ldiradi. Ahmadiy yana Amasyaga qaytib kelib, umrining oxirigacha shu yerda qoladi.

Shahzoda Sulaymon saroyida yashagan vaqt Ahmadiy uchun sermahsul ijodiy davr bo'ldi. U hukmdorni ulug'lovchi bir qancha qasidalar va g'azallar yozadi. Ahmadiy nomini turk adabiyoti tarixiga olib kirgan mashhur "Iskandarnoma" dostonini ham shoir o'sha vaqtda yaratgan. Iskandar Zulqarnayn mashhur tarixiy shaxslardan bo'lib, uning haqida ko'plab afsona va rivoyatlar to'qilgan. Sharqda birinchi bo'lib Iskandar obrazini badiiy adabiyotga olib kirgan shoir Abulqosim Firdavsiydir. Firdavsiyning "Shohnoma"si bu paytda hali turk tiliga tarjima qilinmagan bo'lsa ham arab va fors adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lgan Ahmadiy "Shohnoma"dan xabardor bo'lishi mumkin. Ahmadiy o'z dostonini yaratishda asosan Nizomiyga suyansa-da, shunchaki ergashgani yo'q, balki ijodiy yondashdi. U dostonga Kichik Osiyo tarixidan hikoya qiluvchi butun bir bob kiritdi. Ahmadiy "Iskandarnoma"sida o'z davrining ilm-fani haqida ancha keng ma'lumotlar berganki, bu ayniqsa qimmatlidir. Shuningdek, u Usmoniylar sulolasining tarixini ham ancha mukammal yozadi. Sharq adabiyotida Iskandar obrazi olijanoblikka xizmat qiluvchi hukmdor, adolatparvar, ideal shoh sifatida tasvirlangan. Bu narsa Ahmadiy dostonida ham ko'rinadi. Ahmadiy Iskandarni Eron taxtining vorisi, makedoniyalik Filippning qiziga uylangan Doroning o'g'li sifatida tasvirlaydi. U buyuk allomalar Arastu, Suqrot, Aflotun, Gippokratlardan ta'lim oladi. U harbiy yurish qilib, Hindiston, Xitoy, Misr va boshqa ko'pgina mamlakatlarni o'ziga bo'ysundiradi. Iskandarning sarguzashtlari nihoyatda qiziqarli qilib hikoya qilinadi. Iskandar Zulqarnayn muqaddas shahar Makkani ham zabt etgach, o'zini butun dunyo hukmdori deb bilib, endi o'lmaslikning, bu dunyoda boqiy qolishning yo'lini qidiradi. U tiriklik suvini topish uchun Zulmat mamlakatiga safar qiladi. Ammo tiriklik suvini topish unga nasib qilmaydi va tez orada Iskandar vafot qiladi. Ahmadiy doston yozishda faqat Firdavsiy va Nizomiy asarlarigagina suyanib qolmadi. U Iskandar haqidagi xalq to'qigan afsonalardan ham foydalandi. Shuning uchun Iskandar bilan Gulshohning muhabbati haqida ishqiy-romantik tarixni dostoniga kiritdi. So'fiyona asarlarga xos bo'lgan ikki yo'nalishlik, ya'ni real borliq va majoziylikning qorishib ketishi "Iskandarnoma"ning xarakterli xususiyatlaridan. Ahmadiy ilm-fanni tiriklik suvi deb bildi. Ilm-fanni chuqur egallagan kishining nomi abadiylikka erishadi. Iskandar bilan olishadigan yovuz kuchlar insondagi illatlar timsolidir. So'fiy adabiyotida ilm-fan haqiqatga olib boruvchi yo'l sifatida qaralgan. Shuning uchunmi shoir dostonida ilm-fan haqida keng ma'lumot berilgan. Badiiy jihatdan doston juda yuksak darajada emas. Ammo 16500 misradan iborat bo'lgan bu doston, turk tilida, dunyoviy temada yaratilgan ilk masnaviy sifatida, o'sha davr adabiy saviyasi, ma'rifiy darajasi, til namunasi sifatida ahamiyatlidir.

Ahmadiyning ikkinchi dostoni "Jamshid va Xurshid" ham fors adabiyoti ta'sirida yozilgan. Chin podshosining o'g'li Jam-

shid tushida go'zal bir qizni ko'rib sevib qoladi. Jahonning ko'p mamlakatlarini kezgan sayyoh rassomdan tushida ko'rgan qiz yunon hukmdorining qizi — Xurshid ekanligini biladi. Jamshid yuz minglik qo'shin bilan Rum eliga qarab jo'naydi. U suvsiz sahrolardan, qalin o'rmonzorlardan o'tib, yirtqich hayvonlar bilan olishadi, jang qilib ajdarhoni, devni yengadi. Dengizda kemasi halokatga uchrab, o'zi tasodif bilan qutulib qoladi va Rumga keladi. Xurshid ham bir ko'rganda Jamshidni yaxshi ko'rib qoladi. Ikki sevishganlar o'rtasidagi muhabbatga Xurshidning onasi qarshi chiqadi. Ko'pgina sarguzashtlar, raqiblar bilan yakkama-yakka jang qilishlar va g'olib kelish oqibatida ikki sevishgan murodlariga yetadilar va Jamshidning vatani Chin yurtiga keladilar. Ahmadiyning bu dostoni ham tasavvufiy ruhda bo'lib, obrazlar allegorik ma'noga ega. Jamshid va Xurshid haqiqat va iloh bo'lsa, ajdaho — manmanlik, uning yetti boshi — hasad, kibr, ochko'zlik va boshqa illatlarning timsolidir. Ahmadiy o'z dostonlarida tasavvufni targ'ib qilishga intilgan bo'lsa, lirik she'rlarida real hayotga bir muncha yaqinlashadi. Fuzuliy Ahmadiyni hayot shodliklarini kuylashda Abunuvosga tenglashtirgandi. Ahmadiy shoir bo'libgina qolmay, mohir tarjimon ham edi. Ibn Sinoning "Al-qonun" kitobini turk tiliga tarjima qilgan. Sakkiz ming baytdan ortiq devoni qasidalar, g'azallar, tarkibandlardan iborat. Qasidalarning ko'pi Amir Sulaymonga bag'ishlangan. Zamonasining mashhur shoiri bo'lgan Ahmadiy xattotlik ham qilgan, musavvir bo'lgan.[1]

Adhambek Alimbekov,
filologiya fanlari nomzodi, professor

[1] Maqola muallifning "Turk adabiyoti tarixi" (ToshDShI nashriyoti. 2005) o'quv qo'llanmasidan olindi.

"DEVON"DAN G'AZALLAR

* * *

Bu ne yuzdur, bu ne ko'zdur,
Bu ne zulf-u bu ne bolo,[1]
Biri lola, biri nargis,
Biri sunbul, biri tubo.[2]

Ko'ngil bergan u zulf-u ko'z,
Yanog'-u xolga bo'lgaylar —
Kimi majnun, kimi ozg'un,
Kimi volo, kimi shaydo.

Yanog'ing-u dudog'ing-u
Taning-la suvrating bo'lmish —
Biri rangin, biri shirin,
Biri nozik, biri ra'no.

Bo'lolmas teng qaro zulfing,
U oq yuzing, dudog'ingga
Qorong'u tun, u oppoq oy,
Qizil gul ham mayi xumro.

Soching zanjirlariga ham
Ko'zingning sehriga har dam
Emish lol zohid-u obid
Va hayron ziyrag-u dono.

[1] G'azallar tarjimasida 1) Ahmedi Divanı`ndan Seçmeler — Hazırlayan Dr. Yaşar Akdoğan. Türkiye Cumhuriyeti Kültür ve Türizm Bakanlığı yayınları: 937. Ankara 1988. 2) Ahmedi Divanı`nın Tahlili — Melike Erdem Günyüz. Doktora tezi. (T.C. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü İstanbul 2001) kabi manbalardan foydalanildi *(T.Q.)*

Bolo — qomat *(tarj.)*.

[2] **Tubo** — jannatdagi og'och; tomirlari yuqorida, butoqlari pastda bo'lar ekan *(tarj.)*. Qur'on suralari *(tarj.)*.

Latofatda lab-u tishing,
Peshonang-u yuzing bo‘lmish —
Biri “Kavsar”, biri “Najm”-u,
Biri “Nur”-u, biri “Toho”.

Firoqingda azob, o‘yga,
Suv-u otashga bo‘lmishdir —
Tanim manzil, boshim maskan,
Ko‘zim chashma, ichim ma’vo.

Bo‘lolmas ranj-u mehnatda
Va bo‘lmas shakl-u suvratda
Meningdek Majnun-u Vomiq,
Seningdek Layli-yu Uzro.

Seningsiz bo‘ldi bu jonim,
Bu umrim, bu ko‘zim, hayhot,
Biri epkin, biri tuproq,
Biri do‘zax, biri daryo.

Solibdur dil bilan jonga,
Vujudim birla aqlimga
Yuzing hayrat, qoshing fitna,
Ko‘zing ishva, soching savdo.

Havo-yu mehr-u ishqindan,
G‘amingdan Ahmadiy so‘ylar —
Nazmda xush navo aylar,
Nasrda ham u xushinsho.

* * *

Dardimandman, men yo‘liqqan
Dard nedur, bil, ey tabib!
Bir baloliq dardga bo‘lsa
Ne davo, qil, ey tabib!

Sochining savdosi xasta
Etdi, tut nabzim o‘zing,
Lol, parishondir mijozim,
Hol mushkul, ey tabib!

Ko‘zlarin har fitnasi
Aylar judo mendin meni,
Senda bu ranjga davolar
Bo‘lsa, qilgil, ey tabib!

Sevgilimning bol dudog‘i
Asli dardimga davo,
Gulshakar bo‘lgay iloji
Illati dil, ey tabib!

Ishq oqib kirgach, vujudim
O‘t bo‘lib yondi, kuli
Tashga chiqsin — chorai
Darmon buyurgil, ey tabib!

Bu yurak o‘ynog‘ining
Darmonimas sabr-u chidam,
Bir farog‘at ayla baxsh,
Chora etgil, ey tabib!

Barcha doru senda bordur,
Barcha sihhat topsa ham,
Kim mijozan bo‘lsa ahmaq,
Bo‘lmas oqil, ey tabib!

Ne sabab dardimga — sen
Aytolmading-ku so‘z topib,
Unga darmon senda yo‘q —
Ojizliging tan ol, tabib!

Ahmadiyga vasli tiryoki
Kerakdir, chunki u
Ayriliqda ming bor ichmish
Zahri qotil, ey tabib!

* * *

May-u muxlis yeridir bu xarobot,
Yo‘q unda riyolar ham mish-mish odat.

Odam yo‘qsil, yo muxtoj, chorasizdir,
Tilab chora, qilur sajda, ibodat.

Dilingda yo‘q esa darvish hayoti,
Tilingda ne kerak muncha dalolat?

Qo‘lingda tasbeh o‘ynab ham berursan —
Ko‘ngillarga tilingdan ming jarohat.

May ichsang yaxshidir bo‘lguncha behush —
Qilursan to hanuz behush ibodat.

Ibodatda savob istash ne ishdur?
O‘shal Mutloq G‘aniy ishi — mukofot.

Desang Alloh, hamon tark et o‘zingni,
Bu dunyodan uzil — tavhid u soat.

Unut har narsani, soqiy, qadah sun,
Bir ishni ortga qo‘ymoq — ayni ofat.

Yer-u ko‘k, Ahmadiy, zotan Uningdur,
Netar mayxonada etsang munojot.

* * *

Seni topmoq uchun ishim talabdur.
Talab maqsadga yetmoqqa sababdur.

Xizirdir obi hayvonga yetishgan,
Labing-la u meningdek labba-labdur.

Yuzing birlan ko‘zing ko‘rgach, qiyosan
Gul-u, nargis, demak tarki adabdur.

Yuzingga volaman, zulfingga hayron,
Yurakka har balo tiyg‘in qadabdur.

Bu ko‘klam tongidir, ey gul-u bulbul,
Maying ich, zamoni ayshu tarabdur.

Qoshing bayram hilolidir, qo‘limga
Qadah tutsang, demam “mohi rajabdur”.

Qalam yozmish, qadar o‘zgarmas aslo,
Bu zuhd-u bu riyo unda ne gapdur?

Emish tashna Xizr suyi va kavsar,
Ularning istagi o‘tlig‘ sharobdur.

Ko‘zingni Ahmadiy vasfin etarkan,
Eshitgan debdi, bu sihri ajabdur.

* * *

Nazar ahli yana ishq
Baxti xumoyun dedilar.
Eshigin qullig‘ini
Davlati afzun dedilar.

Ko‘ribon og‘zini, tashna
Bo‘ladir obi hayot,
Necha jonni etadur mast
Labi maygun dedilar.

Yaralur aql-u yurak,
Jon bila din ichra bu ishq,
Yo‘lining changini sotganga
Bu ozg‘un dedilar.

Beraman jonni deya
Sochlarida jimni ko‘rib,
Qadini bir alif-u
Qoshlarini nun dedilar.

Ko‘zining fitnasini
Lol ko‘ribon, aqli shoshib,
Malak-u, hur falak ichra
Bunga maftun dedilar.

Ko‘ribon ko‘z yoshini
Xorazm-u Bag‘dod eli
Na bu daryo, jo‘shadur,
Dijla-yu Jayhun dedilar.
Yana tushgach sochining
Zanjiriga Ahmadiying,
Unutildi xabari
Layli-yu Majnun dedilar.

* * *

Ayriliqda yig‘lar ersam,
Ko‘zlarimdan qon tomar,
Yo uzilmish bir tomir
Qalbimda — qon har on tomar.

Ey go‘zal, g‘amzang o‘qin
To‘xtat, jahonni mahv etar!
Har zamon tiyri qazodek
Yer yuzini titratar.

Bir nafas g‘amni unut,
Ko‘ngil yozib, bir boda ich,
Bu umr yelday esar,
Yo‘qlik sari tinmay ketar...

Men vafo deb bog‘ladim
Belga kamar ul nay kabi,
Kimda yo‘qsa u kamar —
Kam ar u, unda ko‘p xatar.

Aylasam og‘zingdagi
Dur, injular vasfin bu dam,
Boq, uyatdan u yatim dur
O‘z-o‘zin toshga otar.

Yerni ko‘klam gullari
Rang-rang bezarkan, gogahon
Bir ko‘rib gulgun jamoling,
Lola-yu guldan bezar.

Ahmadiy yaxshi yozar she’rin,
Seni vasf aylabon,
Lek bo‘lib oshuftahol,
Soching tarab, ishni buzar...

* * *

Na jonki, ishqi yo‘q, u jon emasdur,
Yo‘q ersa dardi, u inson emasdur.

Bu jonning gavhari senga berilmish,
Uning o‘rni dengiz, yo kon emasdur.

Butun olam ajablangay, bu gavhar
Emas paydo vayo pinhon emasdur.

Yaqin vahdat erur, ahvolni ko‘r, bil:
Uzoq ket baridan, imkon emasdur.

Gar istarsan iki olamda birlik,
Bu yo‘l dushvor erur, oson emasdur.

To‘liqdir Ahmadiy she’rida hikmat
Valekin mazhabi yunon emasdur.[1]

Ayonki, qush tilin o‘rgatgan Udir,
Sulaymon bilguchi, Solmon emasdur.

[1] Ahmadiyning fikri, qarashlari yunon falsafasi emas, ma’nosida *(tarj.)*.

* * *

Ey sabo, hech esga olmas
Bizni, dildor yaxshimi?
So‘rmadi holimni bir bor,
Men so‘ray: yor yaxshimi?

So‘rmasa ham mayli bizni,
Unga bizdan ayt salom,
Sochi sunbul, xushnafas ul
Yuzi gulzor yaxshimi?

Sal surishtir, g‘unchaning ul
Nuqta og‘zinda ne hol?
So‘yla bizga, kiprigi o‘q,
Qoshi xunxor yaxshimi?

Bor, ko‘rib kel, makri, nozi,
G‘amzasi ne holdadir?
Bor, so‘rab kel, sochi jallod,
Sho‘xi makkor yaxshimi?

Fursatin top, unga bildir,
Bunda zordir oshig‘i,
Yor bilan ishrat etarga,
So‘r-chi, ag‘yor yaxshimi?

Unda, totli lablarinda
Chashmi hayvondir ravon,
Bunda xasta, tashna dilmen,
Ingrasam zor, yaxshimi?

Ey shaho, shirin labing
Bor xastaliklarga shifo,
Cheksa darding oy-u yillar
Bunda bemor, yaxshimi?

Sen-ku ne'mat, rohat ichra
O'tkazursan kunni xush,
Ahmadiy mehnat, balolarga
Giriftor, yaxshimi?
Zor-u zor men ingradim, sen
Jabr-u ozor aylading,
Etganing oxirda
Jonimdan-da bezor, yaxshimi?

* * *

Sabo zulfing tarab, hamdam bo'libdir.
Nafasda Isiyi Maryam[1] bo'libdir.

Yanog'ing aksi gulzorga tusharkan,
Gul-u bulbul xush-u xurram bo'libdir.

Sening zulfing bo'yidan mast binafsha,
Xijolatdan biroz mulzam bo'libdir.

Eshiging Qibla-yu yuzing Safodir,
Soching Mash'ar, labing Zamzam[2] bo'libdir.

Sening darding mening dardimga darmon,
Sening zahming menga darmon bo'libdir.

Yanog'ing nasx xatin keltirdi, na xush,
Ki husning oyati mahkam bo'libdir.

U lablar ichra inju qancha deb so'r,
U pinhon oshikor kam-kam bo'libdir.

Bilar bulbul ne bor g'uncha ichra,
Uning sirriga u mahram bo'libdir.

Qadahni loladek hech qo'yma qo'ldan,
Umrning hosili bir dam bo'libdir.

[1] **Isiyi Maryam** — Maryam o'g'li Iso *(tarj.)*.

[2] **Qibla, Safo, Mash'ar, Zamzam** — haj paytida ziyorat qilinadigan makonlar *(tarj.)*.

Sen Iskandar kabi boshingga toj kiy,
Qadah senda, u jomi Jam bo‘libdir.

Dudog‘ing eslagan-chun Ahmadiyning
So‘zi jon dardiga bir em bo‘libdir.

So‘zing ko‘p deb aybsitma, bu gullar
Ichib so‘zim, yashargach, nam bo‘libdir.

Kamolo‘g‘li eshitmish yetti baytim,
Tili to‘xtab, dili purg‘am bo‘libdir.

* * *

Yo, g‘amzasi na turk erur!
Nozini bir kamon etar,
Ko‘rib uni, qazo o‘qi
Deya bu el gumon etar.

Yuzing-la ko‘ngli yorishib,
Ko‘zin yoshin to‘ka-to‘ka,
Jonini, yuz sura-sura
Yo‘lingga u ravon etar.

Bayon etay, og‘zi uning
Ne gavhar erkanin, biling,
U — jon siri, ko‘rib kishi,
O‘zin tamom nihon etar.

Ko‘zingga ayt nasihatingni —
Ayasin bu xalqni u,
Namuncha ko‘ngli qoraki,
Muhitni muncha qon etar!

Ko‘ngil soching havosiga
Hech etmasin havas, dedim,
To‘kilsa tuproq uzra u,
Tiriltirar-da, jon etar.

Quyosh yonar parvanadek
O‘zin urib o‘tga hamon,
U shu’lasin jahonga oq
Yuzing kabi ayon etar.

Vasfiga tashnadir dudog‘ining
O‘shal Xizr suvi,
Kimam labingni Ahmadiy
Kabi shirin bayon etar.

* * *

Bu hayot mehnat-u, balo sensiz.
Hech kerak bo‘lmagay baqo sensiz.

Tan azobda yiroq esa sendan,
Jon balolarga mubtalo sensiz.

Har do‘zaxiy azobga roziman,
Noroziman: bahisht — jazo sensiz.

Menga vasling-la ayla inoyat,
Qanchalar tortayin azo sensiz.

Ayriliq tog‘ni ham etadir cho‘p,
Aylamasin bizi xudo sensiz.

Dardimanding o‘zim, ilojin qil,
Menga yo‘q bunda hech davo sensiz.

Ahmadiy sendan ayru yasholmas,
Xor-u zor bo‘lgay u, shaho, sensiz.

* * *

Bu ne yuzdur, bu ne ko‘zdur, bu ne qosh,
Ki hayrondur uning naqshiga naqqosh.

Olur oshiqlarin jonin nishonga
O‘qi, yoyi bilan ko‘z, qoshi avbosh!

Ko‘ngilni sochining savdosi yiqdi —
Ayoq ostinda yuz ming jon bilan bosh!

Bilur sendan yiroq yoshimni ko‘rgan:
Bag‘r qon bo‘ldi-yu yurak bebardosh.

Xayoling ko‘zda-yu isming tilimda,
Quruq qoldim, netay, borim — quruq yosh.

Malomat qilsa qilsin yov, raqiblar
Ko‘rlmas-ku quyoshni ahli xuffosh.[1]

Agarchi Ahmadiy sirrin yashirgay,
Yuzin rangi, ko‘zin yoshi etar fosh.

[1] **Xuffosh** — ko‘rshapalak *(tarj.)*.

* * *

Ul kamonchi ko‘z otar
Jonlarga ming tiri qazo,
Ne bo‘larkin shu otishda
Qilsa gar u bir xato?

Zahmatindan ishqining
Qanday qutulgay dil qushi,
Yuzda xoli fitna solgay,
Sochidir domi balo.

Sochin o‘ynar tong yeli,
To‘lgay jahonga jon isi;
Holing Alloh isloh etsin,
Ey taroqli, shum sabo!

Ey eshitguvchim, nedir, ayt,
Hasta dillarga davo?
Og‘ziga aylab ishorat,
Aytdi: “Ushbudir shifo.”

Aql-u jonni, din-u dilni
Ishqqa baxsh etdim menam,
Endi yotlar hech kerakmas,
Yorga bo‘ldim oshino.

Ayriliqda yuzga sursam
Yor izin tuprog‘ini,
Yoshi tinmas ko‘zlarimga
Changin etsam to‘tiyo.

Ahmadiy ham bir gadoying,
Senga, shoh, qullik etar,
Yor axir ishq o‘lkasinda
Har zamondir podisho.

* * *

Menam jon-u ko‘ngil-la yora mushtoq,
Menam dilsizman-u, dildora mushtoq.

Ko‘ngillarda bu dunyo ishtiyoqi,
Mening har zarram u Qahhora mushtoq.

Tuyarkan ul javobi “lan taran”ni,[1]
Bo‘lurman baribir diydora mushtoq.

Ko‘zim zordir qaro sochin ko‘rishga,
Kamandiga bu baxti qora mushtoq.

Ko‘ray der dil u jallod qosh-u ko‘zni,
Baloga muncha ham bechora mushtoq.

Agar jon istasa oni, ajabmi?
Bo‘lur bemor axir ovvora, mushtoq.

Yuzingni orzulaydi Ahmadiy ham,
Mudom bulbul o‘shal gulzora mushtoq.

[1] **“Sen meni aslo ko‘rolmaysan”** — Muso payg‘ambarning Tur tog‘ida tuygani Allohning so‘zi *(tarj.)*.

* * *

Sabo, borgil, salomimni
U jononga arza qil,
Karam aylab, tanim muhtojligin
Jonga arza qil.

Qaro zulf zulmatidan gar
O‘tib borsang, tashna deb,
Bu holimdan Xizrga,
Obi hayvonga arza qil.

Senam hudhud kabi kezsang
Sabo yurtin, ber xabar,
Chumolining so‘zin tinglab,
Sulaymonga arzam qil.

Bu oshiq xastaning holin
O‘shal shohga et bayon,
Gadoning istag-u zorin
U sultonga arza qil.

Yuzi gulzor, chamanga
Vola bo‘lganman, sharhin et,
Menam hayroniman, ul
Sochi rayhonga arza qil.

Hikoyat aytsa to‘ti,
Shakkaristonga so‘ylagil,
Shikoyat etsa bulbul, sen
Gulistonga arza qil.

Meningdek zarra holidan
Quyoshga bergil xabar,
Meningdek qatra orzusin
U ummonga arza qil.

Habibim furqatinda
O‘tda yonmishdir dil-u jon,
Tabibim, kel, bu dardimdan
U darmonga arza qil.

Bilursan Ahmadiy ixlosini,
Bor, podshohga ayt,
Bu xoqon ishtiyoqini
U xoqonga arza qil.

* * *

Sirlarim xalqqa ayon
Etmoq tilarsan, etmagil!
Bizni rasvoyi jahon
Etmoq tilarsan, etmagil!

Ayriliqda za'faron
Etding yuzimning rangini,
Ko'z yoshimni arg'uvon
Etmoq tilarsan, etmagil!

Gul yuzing, g'uncha labing,
Nargis ko'zing aylab nihon,
Navbahorimni xazon
Etmoq tilarsan, etmagil!

Sochlaringning bandi-la
Fikr-u hushim bog'lab, meni
G'amza birla notavon
Etmoq tilarsan, etmagil!

Har jafoning haddi bordir,
Har jabr cheksiz emas,
Sen jafoyingni har on
Etmoq tilarsan, etmagil!

Bu go'zal, porloq yuzingni,
Qo'y, xijob-la yopma hech,
Kunni bu eldan nihon
Etmoq tilarsan, etmagil!

Ahmadiyning qonini
To'kmoq senga ne naf berar?
Ul faqirga bir ziyon
Etmoq tilarsan, etmagil!

* * *

Yo‘lda pir, rahbar o‘zim,
Qolsin jahon, tark etmisham.
Xizr jonni sevdi, men
Joni ravon tark etmisham.

Boy odam borliq uchun
Molin berar, lek men faqir
Borlig‘im yo‘qlik uchun,
Boq, har qachon tark etmisham.

Ganji purranj boylaringning,
Ganjiga solmam nazar,
Haddi yo‘q ganjinani
Netgum, debon tark etmisham.

Xushhavo vodiy hayotin
Tark etib ketsam, ne g‘am,
Jannatiy Odam o‘zim,
Bog‘i jinon tark etmisham.

Tuzli suv ham bu quruq
Tuproq uchun men ne beray?
Obi hayvvon yonida
Jonni u on tark etmisham.

Ko‘zga ilmay bog‘i firdavsdan
Chiqib ketmish u zot,
Bog‘-u bo‘stonmas, xarob bu
Bir jahon — tark etmisham.

To‘tidek to‘bodagi
Ming oshiyonni tashladim,
Qarg‘alar etgach bu yerni
Oshiyon — tark etmisham.

Bu jahonning sevgisi —
Mehnat-mashaqqat jon uchun,
Rohati jon deb jahonni
Har zamon tark etmisham.

Jon berurlar nom-u shon deb
Men Malikshohman[1] vale,
Sharq-u g‘arbdan kelsa ham
Har neki shon — tark etmisham.

[1] **Malikshoh** — Malikshoh Alp Arslon o‘g‘li (1055–1092); hukmronligi davrida (1072–1092) buyuk Saljuqiylar davlati hududi o‘n million kv.km.ga kengaydi; Anato‘lidan, Oq dengiz-u Marmar dengizidan Ummonga, Quddusga qadar, bu yog‘i Qofqoz-u Hindistongacha kengaydi; g‘aznaviylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar kabi ulkan imperiyalarni, ularning yon-veridagi o‘nlarcha kichik o‘lkalarni mag‘lub etdi. Shoir bu baytda o‘z shuhratini Malikshoh shoniday g‘arb-u sharqqa keng yoyilganini ta’kidlamoqda (tarj.).

* * *

Yanog‘ing-u tishing-u ko‘zlaring
Ham zulfung, ey dilbar,
Biri lola, biri lu’l-u,
Biri nargis, biri anbar.

Ne anbar, anbari soro,
Ne nargis, nargisi ra’no,
Ne lu’l-u, lu’liyi lola,
Ne lola, lolayi axmar.

Shaho, og‘zing, yuzing, qoshing,
Dudog‘ing dilni rom etdi:
Biri chashma, biri gulshan,
Biri tubo, biri shakkar.

Ne shakkar, shakkari lazzat,
Ne tubo, tubiyi rohat,
Ne gulshan, gulshani jannat,
Ne chashma, chashmayi kavsar.

Sening qoshing, ko‘zing, g‘amzang,
Soching olamda g‘avg‘odir,
Biri fitna, biri jodu,
Biri xundir, biri kofar.

Ne kofar, kofari purdil,
Ne xundir, xuniyi qotil,
Ne jodu, joduyi Bobil,
Ne fitna, fitnayi maxshar.

Firoqda Ahmadiy jon-u
Dil-u chashmi jigar bo‘lmish,
Biri nola, biri hasrat,
Biri jo‘shish, biri ozar.

Ne ozar, ozari yong‘un,
Ne hasrat hasrati Majnun,
Ne jo‘shish, jo‘shishi Jayhun,
Ne nola, nolayi mizhar.

Sanga Alloh berib qo‘ymish
Yer-u ko‘kni, malak, hurni,
Biri hofiz, biri banda,
Biri chokar, biri rahbar.

Ne rahbar, rahbari davlat,
Ne chokar, chokari xizmat,
Ne banda, bandayi hazrat,
Ne hofiz, hofizi yovar.

Turkchadan Tohir Qahhor tarjimalari

MUNDARIJA

JALOLIDDIN RUMIY

Ruhoniyat shoiri *(Tohir Qahhor)* 4

"Ma'naviy masnaviy"dan hikoyatlar

Jamol Kamol tarjimalari

Nay taronasi 21
Podsho va kanizak haqida rivoyat 24
Baqqol va uning to'tisi haqida rivoyat 30
Xalifa va Layli haqida rivoyat 32
Hudhud va Sulaymon haqida rivoyat 34
Azroildan qochib qutulmoqchi bo'lgan nodon haqida rivoyat 36
Uch yo'lovchi haqida rivoyat 37
Eshak va darveshlar 38
Mustafo salovatullohu alayhning kofirning qorni yettita, mo'minning qorni bitta, deyishining boisi 43
Mustafo alayhissalom hujra eshigini ochgani va mehmon xijolat chekmasin, deya o'zini bir chetga olgani 46
Mustafo alayhissalom iflos to'shakni o'z qo'li bilan yuvarkan, mehmonning qaytib kelgani, qattiq xijolat chekib, o'z holiga yig'lagani 48
Mustafo alayhissalom mehmonga mehribonlik ko'rsatgani, xijolat tortib, nadomat va umidsizlik otashida o'rtanib, faryod chekkan arabga taskin, tasalli bergani 52
Mustafo alayhissalom mehmonga kalimayi shahodat keltirishni o'rgatgani 54
Bir tovus o'z tumshug'i bilan patlarini yulqib, o'zini taqir va xunuk bir holga solgani, buni ko'rgan hakim hayratga tushib, o'zingga

rahming kelmaydimi, deb so'ragani. Tovus, o'zimga rahmim keladi, ammo jonim parimdan azizroqdir, parlarim — dushmanimdir, deb javob bergani 56
Tovusning savol so'raguvchiga javob bergani 58
Ul haqdakim, aqlli, zakovatli bo'lish va mol-u dunyo — tovus qushning parlaridek jonning dushmanidir 59
Xalil alayhissalom quzg'unni o'ldirgani sababi, bu — muridning qaysi bir yomon sifatlardan qutulishi lozimligiga ishorat ekanligi 61
Munojot 62
Tangri taolo Odam alayhissalom tanini yaratish uchun Jabroil allayhissalomga, bor, yerga tushib, bir hovuch tuproq keltir, deb ishorat etgani. Boshqa bir rivoyatga ko'ra esa, har yer-har yerdan hovuch-hovuchlab tuproq ol, deb buyurgani 66
Tangri taolo o'z xalifasi, hazrat Abulbashar, malaklar sajda etguvchi, malaklar xo'jasi Odam alayhissalomning muborak jismini yaratmoq uchun tuproq olib kelishga Mikoil alayhissalomni yuborgani 68
Tangri taolo Odam alayhissalom jismini yaratmoq uchun tuproq olib kelishni Isrofil alayhissalomga buyurgani 71
Tangri taolo Odam alayhissalom vujudini yaratmoq uchun tuproq olishga malakul azm val-hazm Azroil alayhissalomni jo'natgani 73
Bir muazzinning xunuk ovoz-la kofirlar shahrida azon aytgani, bir kofirning unga hadya bergani 76

Odil Ikrom tarjimalari

Tijoratga borayotgan chog'ida tutqun to'tisi Hindiston to'tilariga salom yo'llagan savdogar qissasi 80
Savdogarning sahroda Hindiston to'tilarini uchratgani va o'z to'tisidan xabar yetkazgani 82
Savdogar o'z to'tisiga Hindiston to'tilari bilan qanday ko'rishganini so'ylab bergani 84
Ul to'tilarning harakatini eshitib, bu to'tining qafasda jon bergani va savdogarning unga nola-faryodi 88
Savdogarning to'ti o'ligini qafasdan olib uloqtirgani va to'tining parvoz etgani 96
To'tining xoja bilan vidolashgani va uchib ketgani 98
Xojasi Luqmonning ziyrakligini sinab ko'rgani 98

Imtihon qiluvchilar huzurida Luqmonning fozil-u ziyrakligi ma'lum bo'lgani 103
Muso alayhissalomning cho'pon munojotini inkor etgani....107
Haq taoloning Muso alayhissalomga cho'pon tufayli ta'na qilgani 110
Cho'pondan uzr so'rash bobida Muso alayhissalomga vahiy kelgani....113
Bog'bonning so'fiy, faqih va alaviyni bir-biridan ajratgani 117
Do'stining qilig'ini qoralab, o'zi ham o'shanday yo'l tutayotganidan bexabar hindu hikoyasi 122
Bir keksa kishi tabibga o'zidagi xastaliklardan shikoyat qilgani va tabibning unga javobi....123
Zargar ishning oqibatini ko'rgani va undan tarozi so'ragan kishiga oqibat tarzini tushuntirgani 126
Iso alayhissalomning ahmoqlardan bezib, tog' cho'qqisiga qochgani 127
Ohu bolasining eshaklar og'iliga qamalgani, eshaklar goh qiynab, goh ustidan kulib, unga ta'na yog'dirgani va u unga oziq bo'lmagan quruq poxolni yeyishga majbur bo'lgani. Bu holat — Xudoning xos bandasi dunyo va shahvat ahli orasiga tushib qolganiga o'xshashligi, zotan: "al-islomu bada'a g'ariban va saya'udu g'ariban fatuboo li-l-g'urabo'i sadaqa rasululloh" 130
Eriga: go'shtni mushuk yeb qo'ydi, degan xotin haqida hikoyat. Eri mushukni tarozida tortib ko'rganda — mushuk og'irligi yarim man chiqqani. Eri: "Ey xotin, go'sht yarim man, hatto ortiqroq edi! Agar bu go'sht bo'lsa, mushuk qani? Agar bu mushuk bo'lsa, go'sht qani?" — degani 134
O'g'rilar savdogarning barcha buyumlarini o'marib ketgunga qadar jim turgan, keyin esa dod-voy solgancha yordamga chaqirib, posbonlik burchini bajargan posbon hikoyati....137
Bir xonadondan neki so'ramasin, "yo'q" javobini olgan darvish hikoyasi 138

G'AZALLAR

Asqar Mahkam tarjimalari

"Ey jonimiz..." 141
"Oshiqlarim..." 142
"Ey yuzlari ganji baqo..." 143
"Tunda gar uxlolmasang..." 144
"Ka'ba talab aylab..." 146

"O'limim kuni..." 148
"Asror ostonasiga..." 149
"Bu ishq..." 150
"Ey otashi otashnishon..." 151
"Bu zindon xalqini ozod qildim" 152

Sirojiddin Sayyid tarjimalari

"Dilimning dardini..." 154
"Kel..." 155
"G'azal ayt yorga..." 156
"Labing shahriga..." 157
"Ey jahon, ezdi meni savdolaring..." 159
"Tebranur..." 160
"Ey ko'ngil..." 161
"Ey yuzimni..." 162
"Gul kabi..." 163
"Bir soniyada..." 164
"Dilbarim qilgay vafo andakkina" 165
"Bu xilvat uyda..." 166
"Ketgusi aql-u hush-u tan..." 167
"No'shlik bag'ishlab neshga..." 169

Alisher Sabriy tarjimalari

"No'shlik bag'ishlab..." 169
"Ketdi o'chib nafsu havo..." 171
"Yerga zakot o'lsa, ne tong..." 172
"Ko'rsang edi, ey xoja..." 173
"Ey pardalar ortida ham tafting-ku..." 174
"Ahli shakar, ahli shakar..." 175
"Ey chekinib, vafo yo'lin..." 176
"Taningdir qadr oqshomi..." 177
"Ey savti shakar jonon..." 178
"Kel, aylab yangi jon tortiq jahonga..." 180
"Xabardor ayla..." 181
"Malohat xoni, ber bahra hashamga..." 182
"Payqab olisda Shamsi dinni..." 183
"Qonli parda bag'rida bor ishq uchun..." 185

"Ajab sarvu, ajab mohu..." 186
"Orzum, jonu dilim..." 188
"Sen o'zing jonu jahonim..." 189
"Ey ulki, yetkazursan bul bodayi baqoni..." 191
"Ko'rib so'roqlamadi holim ul nigor nega?..." 192
"Yorimiz, dildorimiz..." 193
"Qirog'i adamlig' biyobonimiz..." 195
"Ravonu jahonsan, Karimo..." 197
"Muntazirdir quloq payomingga..." 198
"Bag'rimizga kelibdi dilbarimiz..." 199
"Tur va sabuhiy qilib..." 200
"Ne'mat etib baxsh chu paymonaga..." 202
"Uxlamasang tunda gar..." 204
"Chorla o'shal shohi shakarxonani..." 206
"Mehmoning o'zim, ey jon..." 208
"Ko'zing yumma..." 209
"Badnamolar dastidan dod..." 211
"O'rtandi g'amingda..." 212
"Tunu kun shavqingdadirman beqaror..." 214
"Ne qilsa oshiq ahli, misli zar..." 216
"Kelmish tag'in falak tushida..." 217
"Shakarlab ul pariruxsor..." 218
"Ikki ohu chashminga sher..." 220
"O'shal dildordan dil bor maxmur..." 221
"Gar do'st xayoli naqshi paydo..." 222

RUBOIYLAR

Jamol Kamol tarjimalari 224
Ergash Ochilov tarjimalari 234

Turkiston va Turkiyaning oltin ko'prigi *(Tohir Qahhor)* 270

"Devon"dan she'rlar

Turkchadan Tohir Qahhor tarjimalari

"Ishq elin Tomug'da gar yondirmagay" 275
"Bir Tangriga qul bo'lsa kim" 276
"Bugun oshiq manam armon ichinda" 278
"Ishq o'ti tushmish jonima" 279
"Bir ajoyib ishq keldi" 280
"Hech kimni dushman tutmadik" 281
"Haq bir ko'ngil bermish mango" 283
Bir ko'ngilni sindirsang 285
So'zin bilgan har kishining 286
Toshding tag'in telba ko'nglim 287
Ko'nglim tushdi bir savdoga 288
Ilm ilm bilmakdir 290

Turkchadan Mirzo Kenjabek tarjimalari

"Darvishlik deganlari xirqa bilan toj emas" 291
"Men bir ajab holda keldim" 292
"Mening bunda qarorim yo'q" 293
"Qullikdan yiroq bo'lma" 294
"Biz dunyodan ketar bo'ldik" 295
"Foniy dunyoni netarlar" 297
"Darvishlarning yo'liga" 298
"Sen joningdan kechmasdan jonon orzu qilarsan" 300
"Ishqingda g'arq bo'lubon..." 301
"Ishqing ila oshiqlar yonsin, yo Rasulalloh" 302
"Haq nuri oshiqlarga har dam nuzul emasmu" 303

Turkchadan Usmon Qo'chqor tarjimalari

"Sanga har ishda, ey Qodir, bildik, tarjimon kerakmas" 304
"Ishq erina dunyoda chi ipag-u chi palos" 305
"Kel, ey darvishlik istagan" 306

"Netayin bu dunyoni" 307
"Darvish o'lan kishining..." 308
"Nishoni bu — yuzi sariq" 309
"Ey suv, qaydan kelursan" 310
"Ey qam-u dard ahli, keling" 311
"Ey ko'ngul, bizga karam qilg'ilki..." 312
"Bu darvishlik yo'lina..." 313
"Ey, biz bilan yor o'lib..." 314

Turkchadan Yo'ldosh Eshbek tarjimalari

"Yana yuzingni ko'rdim" 315
"Behuda kechirdim kunni" 316
"Musulmonlar, kim ko'rmishdir oshiq tavba etgonini" 317
"Do'st yuzini ko'rganimda" 318

Turkchadan Fayzi Shohismoil tarjimalari

"Haqdan yig'ar ul seni" 319
"Ishq yo'lida jonini bermagan oshiq ermas" 320
"Bezanmay kelgin nigor" 321
"Ey Do'st, seni sevarman" 322
"Sensan mening jonim joni" 323
"Aytib beray ne qilganin..." 324
"Avliyoga munkirlar..." 325
"Alloh deyaylik doim" 326
"Ishqsiz odam dunyoda, asli odam emasdir" 328
"Haq jahonga to'ladir" 329

Turkchadan Sayfiddin Sayfulloh tarjimalari

"Madad qil, dardima darmonim, Alloh" 330
"Bir soqiydan sharob ichdik" 331
"Ajab daryo, ki qatradin ko'rindi" 332
"Sendin kelur jafolar" 333
"Solikning matlubi "Hu"dir" 334
"Har kim manga ag'yor esa" 335
"Eslab qiyomat kunini" 336
"Hayhot, bu mening jonim" 337
"Ko'ngul, zerikmading sen bu safardan" 338

"Podshohlik Seningdir, qudrating bor" 339
"Aqllar lol erur Zotingni bilmay" 340
"Yana yoz kunlari keldi" 341
"Senga aytay birodar" 342
"Qish zulmatin tark etdi" 343
"Darveshlik deganlari..." 344
"Iloho, dardimning darmoni sensan" 346

Turkchadan Xurshid Davron tarjimalari

Dunyosan 347
Bulbul, hey 348
Baliq suvdan chiqsa 349
Ishqing o'ti 350
Ishq 351
Manga san keraksan 352
Dedim 353
Mani manda dema 355
Qonim ishqqa halol 356

AHMADIY

Turk tilidan Tohir Qahhor tarjimalari

"Devon"dan

g'azallar

Ahmadiyning hayoti va ijodi *(Adhambek Alimbekov)* 358
"Bu ne yuzdur, bu ne ko'zdur" 361
"Dardimandman, men yo'liqqan" 363
"May-u muxlis yeridir bu xarobot" 365
"Seni topmoq uchun ishim talabdur" 366
"Nazar ahli yana ishq" 367
"Ayriliqda yig'lar ersam" 368
"Na jonki, ishqi yo'q, u jon emasdur" 370
"Ey sabo, hech esga olmas bizni, dildor yaxshimi" 371
"Sabo zulfing tarab" 373
"Yo, g'amzasi na turk erur" 375

"Bu hayot mehnat-u, balo sensiz" 377
"Bu ne yuzdur, bu ne ko'zdur, bu ne qosh" 378
"Ul kamonchi ko'z otar" 379
"Menam jon-u ko'ngil-la yora mushtoq" 381
"Sabo, borgil, salomimni" 382
"Sirlarim xalqqa ayon" 384
"Yo'lda pir, rahbar o'zim" 386
"Yanog'ing-u tishing-u ko'zlaring" 388

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

JALOLIDDIN RUMIY
YUNUS EMRA
AHMADIY

39-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dilafruz Matyoqubova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*


Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25,0. Nashriyot-hisob tabog'i 18,74.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 106-1/22 Buyurtma raqami № 22-322

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

R 88 Jaloliddin Rumiy, Yunus Emra, Ahmadiy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Tohir Qahhor. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 400 b.
ISBN 978-9943-8570-6-3

UO‘K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5


TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI
JALOLIDDIN
RUMIY
YUNUS EMRA
AHMADIY